
KASB-HUNAR
TA'LIMI
ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL
2025-yil, 5-son

KASB-HUNAR TA’LIMI

Профессиональное образование
Professonal education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal

2025-yil, 5-son

Muassislar:
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limboshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV
Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay’ati:
M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO‘RAYEV, A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV, J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV, A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV, K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O‘zbekiston matbuot va axborot agentligida 2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro‘yxatga olinib, 0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori bilan Pedagogika fanlari bo‘yicha dessertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani Universitet ko‘chasi, 2-uy
Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru, ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas’ul
H.Sirojidinov

Sahifalovchi:
I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.
Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi va egasiga qaytarilmaydi.
Jurnaldan ko‘chirib bosilganda “Kasb-hunar ta’limi” jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.05.2025-yil.
Bichimi 60x84 1/8
Bosma tabog‘i 10. Adadi 60 nusxa.
Buyurtma “PROFIEDUPRESS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg`ali tumani, Yangi Sirg`ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Тургунова Р. Развитие фразеологической грамотности учащихся через игровые формы обучения 3
Bolqiyev A.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini folklor asarlar vositasida tarbiyalashning ilmiy asoslari 7
Aripjanova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda virtual muhitlardan foydalanish 11
Axmedov M.B. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashning tizimli-pedagogik asoslari 15
Atabayeva N.N. Inklyuziv ta'lim fanini raqamli muhitda o'qitish metodikasi 23
Shovqiyeva L.Sh., Xo‘jayeva S.M. Maktabgacha turli yoshdagi bolalarni qurish-yasashga doir ko‘nikmalarini shakllantirish (tasviriy faoliyat misolida) 28
Ko‘kiyev B.B. Bo‘lajak pedagok muhandislarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarni shakllantirishni nazariy asoslari 36
Akmalova M. Boshqaruv kompetensiyalari yevropa tajribasida 39
Ernazarova L.A., Salimova M.R. Boshlang‘ich ta’limda kitobxonlikni shakllantirishda alisher navoiy asarlarining o‘rni 44
Asanov A. Bo‘lajak huquqshunoslarni tayyorlash jarayonida pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish 48
Dilbarjonov A.R. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va o'qitish jarayonining integratsiyasi: umumta'lim maktablari va professional ta'limda muhim ustuvor vazifalar 53
Safarov B.N. Maktabgacha ta'limga xorijiy tajribalarni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari 58
Berkinova Ch. Valeologik kompetensiyalar va pedagogik tasnifi 61
Saxatov Sh.M. Temuriylar mavzusini o'qitish metodikasi 65
Axunbabayeva Sh. Estetik tarbiya berish vazifalari , metodlari, vositalari.....69
N.U. BLUM taksonomiyasi asosida intellektual salohiyatni rivojlantirishning lingvodidaktik shart-sharoitlari 73
Safarova D.M. Kommunikativ kompetentsiya va madaniyatlararo xabardorlikni rivojlantirish 78
Burxonov Sh.Sh. Boshlang'ich ta'limda darsliklarni tayyorlashda xalqaro tajribalardan foydalanish 82
Latibjonova Z.N. Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini differensial yondoshuv asosida rivojlantirish (alaliyali bolalar misolida) 86
Umarova M.M. Oila bilan ishlashning asosiy ish shakllari 90
Sanakulov Z.I. Badiiy onomastik birliklar orqali talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodikasi 94
Ergasheva M.M. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning ijodiy faolligini takomillashtirish 102
Abdirasulov L. Ekologik ta’lim va tarbiyada xorijiy tajriba 106
Mardankulov J.A. Ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish va kreativ muhitni shakllantirish 109
Отепбергенов Ж.С. Кредитно-модульная система как инструмент развития интеллектуально-когнитивного потенциала студентов ...113
Meliboyev S.S. Tarix darslarida 10-11-sinf o'quvchilarining o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini takomillashtirish 118
Salimova S.F. Talabalarni ijodiy fikrlash va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda noan'anaviy darslarining roli 121
Djumaniyozova M.R. Texnik oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'rgatish nazariy-metodologik asoslari 124
Zokirova S.M., Alijonova M.M. Tabiat go‘zalliklarini his etishda ekoestetikaning roli va shaxs kamolotiga ta’siri 127
Maxkamova D.X. Raqamli ta’lim resurslarini yaratishning didaktik imkoniyatlari 130
Kayumova N.R. Zamonaviy raqamli ta’lim platformalariga qo‘yiladigan texnik, metodik va funksional talablar 134
Marasulova Z.A., Yigitaliyeva D.I. “Informatika ta’limiga innovatsion yondashuv asosida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish” 140
Rahmonov Z.X. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni 147

Bekmirzayev M.X. Tabiiy fanlarni o‘qitishda mobil ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati 151
Xayitova Sh., Allazov I. Talabalar mustaqil ta’limini mobil texnalogiyalar asosida faollashtirish mexanizmi 155
Isakulova N.J. Inklyuziv ta’lim konsepsiyalari, ta’lim va tarbiya nazariyalari, inklyuziv ta’lim tamoyillari 161
Sayfiddinova J.Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutq orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari 166
Salimova M.R. O‘quvchilarning tabiiy fan bo‘yicha savodxonlik ko‘nikmalarini xalqaro baholash dasturlari asosida takomillashtirish ...170
Urunov A.M. Boshlang‘ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning nazariy asoslari 177
Asrorova Ch.B. Raqamli ta’lim muhitida geometriyani o‘qitish metodikasi 182
Qambarov S.S. Oliy ta’limda malakali jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashning dolzarb masalalari 185
Baratova K.X. Fransuz tilini o‘rgatishda psixodidaktik strategiyalar: shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy va amaliy jihatlari 191
Рустамова Н.Р. Использование витагенной информации для создания медиаменталитета: история и современность 200
Xudoyqulov H.A. O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim muassasalari reytingi va raqobatbardoshligini oshirishni boshqarishning innovatsion xususiyatlari va tamoyillari 205
Kholmanova K.Y., Ganieva Ch., Togayev G. Advantages of integrated matrix teaching 215
Abduraxmonova N.A. Husnixat darslaridagi dam olish daqiqalari ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyati sifatida 218
Parmonov A.A. Raqamli transformatsiya va sanoat integratsiyasi sharoitida muhandislik ta’limining dolzarb muammolari 226
Usmonova O.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish metodikasi 237
Ядгаров Б.Ж., Рузметова З.Қ. Мактабгача тарбия муассасалари шароитида болаларнинг ҳаракат фаолиятини ривожлантириш технологияси 240
Murtazayev Z.M., Avulova Z.T., Soatov H.P. O‘quvchilarga “Modda va uning tuzilishi” mavzularini o‘tishda “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari 244
Axmedova A.N. Parallel korpuslarning paydo bo‘lishi va ularning tadqiqot obyekti sifatida ishlatilishi 252

РАЗВИТИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ ИГРОВЫЕ ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

ТУРГУНОВА РАЙХОНА
Наманганский педагогический институт 1-курс магистратуры
Направление: «Русский язык и литература»

Аннотация: В статье рассматривается эффективность использования игровых форм обучения для формирования фразеологической грамотности у школьников. Игровые технологии способствуют более глубокому усвоению фразеологизмов, развитию интереса к языку и повышению речевой активности учащихся. Представлены примеры игр (“фразеологический зверинец”, “составь фразу” и др.), применяемых на уроках русского языка, а также обоснованы их педагогические преимущества. Анализируется роль фразеологических единиц в развитии языковой компетенции.

Ключевые слова: лексика, фразеология, устойчивые словосочетания, семантика, игровые технологии, методика, речевые навыки, выражения.

В современном мире фразеологизмы продолжают играть важную роль в развитии речи и формировании языковой культуры. Они помогают сделать речь более выразительной, яркой и образной, а также способствуют лучшему пониманию традиций, культуры и мышления носителей языка. Особенно важно обучать фразеологии школьников, поскольку такие выражения часто вызывают трудности в понимании. Использование фразеологизмов развивает не только лексический запас, но и умение чувствовать стиль, интонацию и эмоциональную окраску речи. Поэтому актуальным становится поиск эффективных методов обучения фразеологизму, включая игровые и современные цифровые технологии.

Фразеология как самостоятельное направление в русской лингвистике начала формироваться в 1940-х годах XX века. С тех пор она активно развивается, охватывая материалы различных языков. В рамках изучения фразеологического богатства русского языка значительный вклад внесли такие учёные, как В. В. Виноградов, В. П. Архангельский, В. Н. Телия и Б. А. Ларин. Исследование французской фразеологии было проведено А. Г. Назаряном, В. Г. Гаком, И. Н. Тимесковой и другими специалистами, что подчёркивает международный интерес к этой языковой области.

Значительный вклад в развитие фразеологии внес швейцарский лингвист Шарль Балли. Именно он в начале XX века ввёл термин «фразеология» как раздел стилистики, изучающий устойчивые словосочетания. Балли предложил деление фразеологизмов на серии и единства, подчёркивая важность семантической связанности компонентов и внутренней формы выражения, тогда как структура, по его мнению, играла второстепенную роль.

По его мнению, условием признания словосочетания фразеологизмом считается его семантическая эквивалентность одному слову, то есть такая устойчивость значения, при которой все выражение функционирует как единое лексическое целое [1, с. 392].

Согласно мнению В.В. Гузиковой, фразеология представляет собой чрезвычайно сложное языковое явление, для изучения которого необходим не только собственный исследовательский подход, но и опора на смежные дисциплины, такие как лексико-

логия, грамматика, стилистика, фонетика, история языка, а также история, философия, логика и страноведение, с которыми она находится в тесной взаимосвязи [2, с. 20].

Ю. М. Лотман подчеркивал, что фразеологические единицы, дошедшие до нашего времени, нельзя воспринимать как «пассивные хранилища неизменной информации», так как они действуют не как склады, а как «генераторы» новой смысловой нагрузки [3, с. 201-202]. Это означает, что фразеологизмы являются живыми элементами языка, которые, в зависимости от ситуации, могут быть адаптированы, преобразованы и придавать тексты или высказываниям свежий оттенок смысла.

Фразеологизмы можно разделить на несколько типов в зависимости от их структуры, значения и употребления. Основные виды фразеологизмов:

1. Фразеологические единства — это устойчивые словосочетания, где значение целого не сводится к сумме значений отдельных слов, и структура выражения полностью закреплена. Пример: «ломать голову» (означает задумываться, размышлять).

2. Фразеологические сочетания — это выражения, где значение компонентов в целом более или менее прозрачно, и составные элементы могут частично изменяться, хотя структура выражения все равно сохраняется. Пример: «падать духом» (переживать, терять уверенность).

3. Фразеологические выражения — представляют собой устойчивые словосочетания, которые могут быть более сложными по структуре и включать дополнительные элементы, такие как предлоги или союзы. Пример: «доставать до белого каления» (очень раздражать).

4. Пословицы и поговорки — устойчивые выражения, которые изначально были народной мудростью и сохраняют свой значимый и образный характер. Пример: «Семь бед — один ответ».

5. Крылатые выражения — фразеологизмы, ставшие известными благодаря литературным произведениям, кинофильмам, высказываниям известных людей. Пример: «Гроза бурю не боится» (из произведений Н. В. Гоголя).

Каждый из этих типов фразеологизмов выполняет свою роль в языке, помогает выразить мысли более ярко, красочно и часто экономит время и пространство при общении.

Игровые технологии в обучении — это методика, при которой игровая деятельность используется для формирования знаний, навыков и умений учащихся. Эти технологии основаны на применении игровых элементов, правил и моделей, адаптированных для образовательного процесса. Игры помогают вовлечь учащихся, сделать учебный процесс более увлекательным, а также развивать различные навыки, такие как критическое мышление, сотрудничество, творческий подход и коммуникативные способности.

Методика с играми на уроках русского языка представляют собой эффективный метод для развития у школьников навыков работы с фразеологизмами. В 5 классе это особенно важно, так как фразеологизмы часто воспринимаются как сложные и трудные для понимания и запоминания. Однако использование игровых форм обучения помогает преодолеть эти трудности, делая процесс усвоения языка более интересным и доступным для учеников.

Одной из эффективных игр является “Угадай фразеологизм”. Учитель дает объяснение фразеологизма, а ученики должны угадать сам фразеологизм. Например, если учитель говорит: “Это выражение используется, когда кто-то очень устал”, ученики должны догадаться, что речь идет о фразеологизме “до седьмого пота”. Такая игра развивает внимание и позволяет учащимся глубже понять смысл фразеологизмов.

Другим интересным вариантом игры является “Составь фразу”. Учитель раздает ученикам карточки с фразеологизмами, но

с пропущенными словами. Задача учеников — правильно вставить пропущенные слова и составить полный фразеологизм. Например, “Не по зубам — не по …”. Это упражнение помогает закрепить фразеологизмы и учит правильно использовать их в контексте.

Игра “Фразеологические дуэли” заключается в том, что ученики делятся на команды и по очереди составляют предложения с фразеологизмами. После того как команда составит предложение, другая должна объяснить его значение. Эта игра развивает умение использовать фразеологизмы в речи и способствует лучшему усвоению их значений.

Для расширения кругозора учащихся можно использовать игру “Чья фраза?”. Учитель зачитывает предложение с фразеологизмом, и ученики должны угадать, кто из литературных или киногероев мог бы произнести такую фразу. Эта игра помогает развивать ассоциативное мышление и учит правильно интерпретировать фразеологизмы.

Игры с фразеологизмами способствуют не только улучшению речевых навыков школьников, но и развитию их креативности, памяти и аналитического мышления. Применение игровых методов на уроках русского языка делает обучение более увлекательным, а также помогает учащимся легче осваивать трудные аспекты языка, такие как фразеологизмы, их значение и правильное употребление в речи.

Пример игры “Фразеологический зверинец” может выглядеть следующим образом:

Цель: Развитие речевых навыков учащихся, закрепление фразеологизмов, развитие выразительности речи и невербального общения (пантомимика, мимика).

1. Подготовка: Учитель делит класс на несколько команд или оставляет учеников работать индивидуально. На доске или с помощью презентации выводятся фразы с пропущенными названиями животных.

2. Ход игры: Учитель читает фразы, учащиеся по очереди выбирают правильное название животного для каждой фразы. Затем они должны изобразить это животное с помощью пантомимы (без слов). К примеру, для фразы “Голоден, как … (волк)”, ученик, выбравший правильное слово, может показать, как волк рыщет по лесу в поисках пищи или изображать, как он тянется к чему-то, проявляя голод.

3. Пример: Голоден, как … (волк): Ученик изображает волка, показывая, как он бродит по лесу в поисках еды. Хитёр, как … (лиса): Ученик изображает хитрую лису, которая обходит всех, стараясь не попасться в ловушку.

4. Завершение: После того, как все ученики изобразят свои фразы, можно обсудить, как фразеологизмы используются в речи, почему именно эти животные стали символами таких характеристик, и в каких ситуациях такие выражения применяются.

Такой метод улучшает навыки невербального общения, позволяя ученикам выразить себя без слов, что способствует развитию их выразительности и уверенности в себе. Вдобавок, игра формирует умение работать в команде, сотрудничать с другими учениками и поддерживать динамику группы. Все эти аспекты способствуют комплексному развитию учащихся и созданию увлекательной и полезной образовательной атмосферы.

В заключение можно отметить, что использование игровых форм обучения является эффективным методом для развития фразеологической грамотности учащихся. Игры, такие как «Фразеологический зверинец» и другие игровые техники, активно вовлекают школьников в процесс освоения фразеологизмов, что способствует не только закреплению знаний, но и развитию креативности, логического мышления и коммуникативных навыков. Игровые технологии

обеспечивают динамичное и увлекательное обучение, в котором ученики не только осваивают материал, но и активно применяют его в реальных ситуациях, что значительно повышает уровень усвоения фразеологической информации.

Список литературы :

1. Балли Ш. Французская стилистика – М.: Эдиториал УРСС, 1961. – 392 с.
2. Гузикова В.В. Лингвокультурологическая специфика фразеологических единиц // автореф. Дисс. … канд. Филол. Наук. – М.: 2004. – 20 с.
3. Лотман Ю. М. Избранные статьи: В 3 т. Т. 1: Статьи по семиотике и типологии культуры.-Таллинн: Александра, 1992.-479 с.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI FOLKLOR ASARLAR VOSITASIDA TARBIYALASHNING ILMIY ASOSLARI

BOLQIYEV AXMAD BEGALI O‘G‘LI
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini folklor asarlar vositasida tarbiyalashning ilmiy asoslari yoritiladi. Folklor asarlarida milliy an’ana va qadriyatlar, badiiy-estetik talqinlar hamda axloqiy me’yorlar mujassamlashgani sababli, ular bolalarning dunyoqarashini shakllantirish va tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Maqolada yosh avlodning ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik, estetik va ijodiy tarbiyasi nuqtai nazaridan folklorning o‘rni tadqiq qilinadi. Shuningdek, folklor asarlarini dars jarayonida qo‘llash metodikasi, pedagogning roli, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. В данной статье раскрываются научные основы воспитания учащихся начальных классов посредством фольклорных произведений. Фольклор, будучи носителем национальных традиций, ценностей и художественно-эстетического опыта, играет важную роль в формировании мировоззрения и нравственных качеств детей. В работе рассматривается значение фольклора с точки зрения духовно-нравственного, патриотического, эстетического и творческого развития молодого поколения. Кроме того, анализируется методика использования фольклорных произведений в учебном процессе, роль педагога, а также вопросы сочетания традиционных и современных информационных технологий.

Annotation. This article explores the scientific foundations of educating primary school students through folkloric works. Folklore, as a carrier of national traditions, values, and aesthetic interpretations, plays a significant role in shaping children’s worldview and moral qualities. The paper examines the role of folklore in the moral, patriotic, aesthetic, and creative development of the younger generation. Furthermore, it analyzes the methodology of using folkloric works in the classroom, the teacher’s role, and the integration of modern information technologies with traditional approaches.

Kalit so‘zlar: folklor asarlari, boshlang‘ich sinf, tarbiya, milliy qadriyatlar, dars metodikasi.

Ключевые слова: фольклорные произведения, начальные классы, воспитание, национальные ценности, методика преподавания.

Keywords: folkloric works, primary school, upbringing, national values, teaching methodology.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim va tarbiya jarayonining o‘ziga xos va nozik bosqichida turadi. Ushbu davrda bolalar nafaqat elementar bilim va ko‘nikmalarni egallaydi, balki ularning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy me’yorlarga yo‘g‘rilishi, hayotga bo‘lgan qiziqishlari rivojlanadi. Shu bois yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda milliy an’analar, urf-odatlar, badiiy merosni o‘zida mujassam etgan folklor asarlarini keng qo‘llash nihoyatda muhim. Folklor asarlari xalqning hayot tarzi, madaniyati va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning tarbiyaviy ta’siri o'ta katta ahamiyatga ega.

Folklor asarlarini boshlang‘ich sinf dars jarayonlariga integratsiya qilish avvalo milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, ertaklar, dostonlar, topishmoqlar yoki maqollar orqali bolalar milliy xarakter, xalq donishmandligi va turli voqea-hodisalarga munosabat bilan tanishadi. Masalan, o‘zbek xalq ertaklarida xiyonat, mag‘rurlik, yolg‘on kabi illatlarga qarshi turish, halollik va mehnatsevarlikni

qadrlash, kattalarga hurmat qilish kabi ibratli xulosa va qoidalarga tez-tez duch kelinadi. Bolalar shu kabi asarlarni o‘qish, muhokama qilish yoki sahnalashtirish orqali turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday yo‘l tutish, qanday qaror qabul qilish kerakligini amaliy ravishda o‘zlashtirishadi. Bu jarayon, avvalo, ularning ta’lim sifati uchun qulay muhit yaratib, ayni vaqtda mustahkam axloqiy asoslarni shakllantiradi.

Folklor asarlarining yana bir tarbiyaviy ahamiyati ularning badiiy-estetik bahosi bilan bog‘liq. Epos, ertak yoki maqol kabi janrlarda ifodalanadigan badiiy til, poetik tasvirlar va she’riy ohanglar bolalarning so‘z boyligini kengaytiradi va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Bolalar bu asarlarni ijodiy tarzda o‘rganishda mustaqil fikrlash, tuyg‘u va hissiyotlarini ifoda etish, ijodiy faoliyatga qiziqish bildirish kabilarni o‘zlashtirishi mumkin. Bunda o‘qituvchining roli juda muhim bo‘lib, u bolalarga har bir asarning mazmunini tushuntirish, obrazlarni izohlash va badiiy ifoda san’ati haqida qo‘shimcha ma’lumot berish orqali bolalarda kitobxonlik madaniyati va adabiy didni tarbiyalaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, folklor asarlarini o‘qitish faqat biryoqlama jarayon sifatida kechmasligi kerak. Shuning uchun dars jarayonida interfaol yondashuvlarni qo‘llash, bolalarni asar mavzusi va qahramonlar xatti-harakatlari haqida mustaqil mulohaza yuritishga jalb qilish nihoyatda muhim. Ertak yoki dostonni o‘qib bo‘lgach, o‘quvchilarga: “Bu voqea sening hayotingda sodir bo‘lganida, sen qanday qaror qabul qilarding?”, “Qahramonning bu yo‘ldan borishiga nima sabab bo‘ldi?”, “Qanday xulosa chiqardik?” kabi savollar bilan murojaat qilish mumkin. Bunday savollar bolalarda qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, ular o‘z shaxsiy hayotlarida ham muayyan xatti-harakatlarga tanqidiy yondashish, ular haqida ijobiy yoki salbiy fikr yuritish kompetensiyasiga ega bo‘ladilar.

Folklor asarlarini boshlang‘ich sinfda qo‘llashda metodik yondashuvlarning xilma-xil bo‘lishi maqsadga muvofiq. Masalan, og‘zaki hikoyalash, rolli o‘yinlar, sahnalashtirish, rasmlar asosida ertak syujetini qayta tiklash kabi uslublar bolalarni faol ishtirok etishga undaydi. Shuningdek, bolalar uchun audio va video vositalaridan foydalanish, ertaklarni ovozli kitob shaklida eshittirish, badiiy jamoalarning ijrolaridan lavhalar namoyish qilish orqali ham o‘quvchilarning e’tiborini yanada kuchaytirish mumkin. Mazkur turdagi metodlar bolalarning har birining o‘z istedod va qobiliyatiga ko‘ra darsda faol qatnashishiga imkon yaratadi. Jumladan, rolli o‘yinlar bolalarga sahnada o‘zini qahramon o‘rnida tasavvur qilishni, uning hissiy tajribasini yashab ko‘rishni taklif etadi. Bu esa bolalarda empatiya, ijodkorlik, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Folklor asarlari orqali tarbiyaviy ishni samarali yo‘lga qo‘yish uchun o‘qituvchi mazkur janrlarning xronologik, mazmuniy va tuzilish xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. Zero, ertaklar, dostonlar va maqollar orasida turli yosh guruhlariga moslashgan turli murakkablik darajasidagi asarlar mavjud. Boshlang‘ich sinfda, masalan, qisqa mazmundagi ertaklar, hikoyalar, maqollar bilan tanishish qulay bo‘lsa, keyingi sinflarda asta-sekin dostonlar va murakkabroq syujetli folklor janrlariga o‘tilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga e’tibor berish, ular uchun og‘ir bo‘lishi mumkin bo‘lgan manzara va voqealar aks etgan asarlarni ehtiyotkorlik bilan tanlash

zarur.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi folklor asarlarini o‘qitishda ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, o‘qituvchi interaktiv platformalar orqali 3D sahnalashtirish, multimedia ilovalar, elektron testlar yoki virtual sayohatlar yordamida ertak dunyosini yanada jonlantirib ko‘rsatishi mumkin. Bunday texnologik yondashuv bolalarning qiziqishini oshiradi, dars jarayonini yanada rang-barang va ijodiy qiladi. Biroq shu o‘rinda muhim masala – bolalarning e’tiborini texnologiya vositalarining o‘ziga qaratib, asl asarning mazmuniga putur yetkazmaslikdir. Shunday ekan, texnologiyalar asarning mohiyatini to‘ldiruvchi va uning badiiy qudratini yanada yuksaltiruvchi vosita sifatida foydalanilishi lozim.

Yana bir muhim jihat – folklor asarlarini o‘qitish jarayonida ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlari eshitgan ertak yoki dostonni uyda ota-onalari bilan birgalikda qayta muhokama qilish, syujetni mustaqil takror hikoyalab berish yoki ertakdagi personajlar haqida shaxsiy fikrlarini aytish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydi. Ota-onalar esa, bolalarining nutq rivojiga, badiiy asarlarni idrok etish darajasiga e’tibor qaratishlari, bolalar bilan birgalikda turli badiiy mashg‘ulotlar (rasm chizish, ertakdagi personajlar timsolida qo‘g‘irchoq tayyorlash va hokazo) uyushtirishlari mumkin. Shu tariqa, maktab va oila o‘rtasidagi uzviy hamkorlik mustahkamlanib, tarbiyaviy jarayon uzviyligi ta’minlanadi.

Folklor asarlarini qo‘llash orqali bolalarda vatanparvarlik ruhini uyg‘otish ham muhim tarbiyaviy maqsadlardan biridir. Xalq dostonlarining ko‘pchiligida yurtga bo‘lgan muhabbat, adolat, jasorat va fidoyilik singari tuyg‘ular tarannum etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga shunday asarlarni tanishtirish orqali ularning vatan oldidagi burch, el-yurtga sadoqat, tarixiy merosimizni hurmat qilish kabi fazilatlari shakllanadi. Bunda o‘qituvchi doston yoki ertak qahramonlarining vatanparvarlik ruhini tushuntirib, uni bugungi kun bilan bog‘lash, shuningdek, istorik voqealarning bolalar ongiga soddalashtirilgan shaklda yetkazilishiga e’tibor qaratishi lozim. Bu usul bolalarning tarixiy ongini yuksaltirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini folklor asarlar vositasida tarbiyalash turli yo‘nalishlarda ijobiy natijalar beradi. Birinchidan, bolalarda milliy qadriyatlar, an’ana va urf-odatlarga nisbatan hurmat shakllanadi, ularning ma’naviy tarbiyasi mustahkamlanadi. Ikkinchidan, badiiy did va ijodiy fikrlash rivojlanib, bolalarda adabiy janrlarga qiziqish ortadi. Uchinchi tomondan, o‘qituvchilar interfaol va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitilgan metodikalar yordamida dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil eta oladilar. To‘rtinchidan, ota-onalar bilan hamkorlik mustahkamlanishi natijasida bolalar tarbiyasi uzluksiz va tizimli yo‘lga qo‘yiladi.

Ushbu ilmiy yondashuvning amaliy natijalari shundan dalolat beradiki, folklor asarlari orqali bolalarga nafaqat ilmiy, balki ma’naviy-axloqiy bilimlar ham singdirish mumkin. Bu esa ularning jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishiga, o‘zligini anglashiga, shaxs sifatida shakllanishiga katta yordam beradi. Kelajakda ta’lim va tarbiya sohasida folklorga oid tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, turli yosh guruhlariga mos o‘quv qo‘llanmalar va raqamli resurslarni ishlab chiqish orqali o‘qitish sifatini oshirish imkoniyati mavjud. Shu

ma’noda, folklor asarlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shakllantirishda muhim bilim manbai sifatida o‘z dolzarbligini hech qachon yo‘qotmaydi va ularni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Propp, V. Morphology of the Folktale. University of Texas Press.1968
2. Қодиров, Ю. Фольклорда тарбиявий омиллар. Миллий мерос ва илмий изланишлар, 2(3), 45-52.2010.
3. Хорев, В. Народные традиции в воспитании детей младшего возраста. Начальная школа, 5, 25-29.2005.
4. Azizkhodjayev, A. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi.2006.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL MUHITLARDAN FOYDALANISH

DINORA ARIPJANOVA
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantirishda virtual muhitlar qanday yordam berishi haqida so‘z yuritilgan. Shuning bilan birga, interaktiv dasturlar va ta’limiy kompyuter o‘yinlari bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishi, muammoli vaziyatlarni yechishga ko‘maklashishi va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan. Shuningdek, virtual vositalardan to‘g‘ri foydalanish usullari va ularni samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tafakkur, virtual muhit, raqamli texnologiyalar, interaktiv o‘yinlar, ijodiy fikrlash, mantiqiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье рассматривается, как виртуальные среды способствуют развитию мышления детей дошкольного возраста. Также проанализировано влияние интерактивных программ и образовательных компьютерных игр на формирование логического мышления у детей, их способность решать проблемные ситуации и развитие творческих способностей. Кроме того, рассмотрены методы правильного использования виртуальных средств и условия, необходимые для их эффективного применения.

Ключевые слова: дошкольное образование, мышление, виртуальная среда, цифровые технологии, интерактивные игры, творческое мышление, логическое развитие.

Abstract. This article examines how virtual environments contribute to the development of preschool children's thinking. The influence of interactive programs and educational computer games on the formation of logical thinking in children, their ability to solve problematic situations and the development of creative abilities is also analyzed. In addition, the methods of proper use of virtual assets and the conditions necessary for their effective use are considered.

Key words: Pre-school education, thinking, virtual environment, digital technologies, interactive games, creative thinking, logical development.

Kirish

Mamlakatimizda zamonaviy ta’lim talablarining o‘zgarishi, bilimlarning tez yangilanib borishi, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga samarali tatbiq qilinishi natijasida maktabgacha ta’lim doimiy takomillashtirib borilmoqda. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, ularni tarbiyalash va yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish uchun yetarlicha muhit yaratish muhim vazifa sanaladi.

Qadimdan insoniyat atrofidagi dunyoni anglashga va undan o‘z hayotida foydalanishga intilgan. Dastlabki davrlarda bu jarayon ko‘proq ichki sezgi asosida kechgan bo‘lsa, fan taraqqiyoti bilan u yanada ongliroq tus oldi.

Tabiiy va sun’iy jarayonlarni boshqaruvchi umumiy qonuniyatlarni tushunish ularni modellashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Modellar bilimlarni ifodalashning universal vositasiga aylandi. Turli modellar o‘rtasidagi

o‘zaro aloqadorlik murakkab tizim - virtual muhitni yaratish uchun asos bo‘ldi.

Virtual muhitlar - bu obyektlarning modellari, ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlari va harakat ssenariylarini aks ettiruvchi kompyuter dasturlaridir. Ular foydalanuvchiga nafaqat sodir bo‘layotgan voqealarni kuzatish, balki ularda faol ishtirok etish imkonini ham beradi. Bunday interaktiv muhitlar real hayotdagi murakkab, xavfli yoki noqulay vaziyatlarni o‘rganish uchun xavfsiz va samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda virtual muhitlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, nafaqat tahliliy va ta’lim maqsadlarida, balki madaniy va ko‘ngilochar sohalarda ham keng qo‘llanilmoqda.

Maktabgacha ta’lim sharoitida ushbu texnologiyalar bolalar tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari va ijodiy yondashuvni shakllantirishga ko‘maklashadi [1]. Ushbu maqolada biz maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini o‘stirish uchun virtual muhitlardan foydalanishning imkoniyatlari, afzalliklari va amaliy jihatlarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Nazariy tahlillar

Bola hayotining dastlabki yetti yilida atrofdagi muhitni o‘rganish va tushunishning katta yo‘lini bosib o‘tadi, bu olam haqida juda ko‘p bilimlar oladi va asta-sekin o‘zi yashayotgan dunyo haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘ladi. Bu yosh bolaning aqliy rivojlanishi uchun eng samarali davr hisoblanadi, chunki bu rivojlanish sur’ati kattaroq yoshga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi.

Bu davrda bola tafakkurining rivojlanishi va uning atrofdagi olamni bilish natijalari maktabgacha yoshdagi bolaning keyingi ta’lim faoliyatiga muhim ta’sir ko‘rsatadi [2]. Tafakkurning rivojlanishi tufayli bola narsaning o‘zi yo‘qligida ham, faqat oldingi ma’lumotlarga asoslanib, uning tasvirini va xususiyatlarini tasavvur qila oladi.

Inson tafakkuri turli xil funksiyalar va shakllardan iborat bo‘lib, turli darajalarda kechishi mumkinligi sababli, biz tafakkurning turli ko‘rinishlari haqida gapira olamiz [3]. J.Piaje tasnifiga ko‘ra, tafakkurni ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli va so‘z-mantiqiy tafakkurga ajratish mumkin [4].

Ko‘rgazmali-harakatli tafakkur uch yoshgacha bo‘lgan bolalarga xos. Bola narsalarni bir-biriga qo‘yib taqqoslaydi, ulardan biror narsani yig‘ib yoki, aksincha, buzib, obyektlar haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi. Bilish jarayoni narsalar bilan manipulyatsiya qilish orqali sodir bo‘ladi. Ko‘rgazmali-harakatli tafakkur yosh o‘tishi bilan yo‘qolmaydi, u ikkinchi o‘ringa o‘tadi va odamda notanish obyekt bilan nima qilish yoki notanish vaziyatga qanday munosabatda bo‘lish haqida aniq tushuncha bo‘lmagan hollarda namoyon bo‘ladi.

Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur bolalarda to‘rt yoshdan boshlab namoyon bo‘la boshlaydi va yetti yoshgacha asosiy hisoblanadi. Hayotning bu bosqichida aqliy jarayonlar harakatlardan oldin yuradi. Bu bosqichda bilish narsa va hodisalarni tasavvur qilish orqali amalga oshadi.

Kattaroq yoshdagilarga so‘z-mantiqiy tafakkur xos. Bu mutlaqo mavhum tafakkur jarayonlari bo‘lib, unda bilish so‘z va mulohazalar yordamida amalga oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda obrazli tafakkur ustunlik qiladi, shuning uchun u qanchalik rivojlangan bo‘lsa, maktabgacha yoshdagi bola kelajakdagi maktab dasturini o‘zlashtirishga va ta’limning o‘rta bosqichida o‘qishga tayyor bo‘ladi.

Ko‘rgazmali-obrazli tafakkurning asosiy xususiyati shundaki, undagi aqliy jarayon atrofdagi voqelikni idrok etish, shuningdek, narsalar va ularning mumkin bo‘lgan xususiyatlari o‘rtasidagi nostandart taqqoslashlar imkoniyati bilan bog‘liq.

I.Yakimanskayaning fikriga ko‘ra, obrazlar ustida uch xil harakat mavjud [5]: 1) narsa va obyektlarni turli fazoviy holatlarda tasavvur qilish; 2) dastlabki obrazning tuzilishi va

fazoviy holatini o‘zgartirish; 3) dastlabki obrazlarning murakkab o‘zgarishlari asosida yangi obraz yaratish.

Bolaning ilk va maktabgacha yoshdagi davrida shaxsni shakllantirish uchun asosiy faoliyat turi o‘yindir. Aynan o‘yin maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirish, uning xususiyatlarini rivojlantirish va ichki dunyosini boyitishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bola rivojlanishining eng yaxshi natijasiga erishish uchun o‘yindan ham didaktik maqsadlarda, ham uni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish uchun foydalanish mumkin.

Didaktik o‘yin pedagoglar tomonidan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish vositasi sifatida qo‘llaniladigan aqliy faoliyat turi bo‘lib, uning doirasida bolaning barcha ruhiy jarayonlari rivojlanadi, atrof-muhit haqidagi tasavvurlari doirasi kengayadi, turli qobiliyatlar, idrok, xotira, nutq va diqqat takomillashadi. Shuningdek, u mashg‘ulotlar davomida bolalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda qo‘llashga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar bolalarni har tomonlama rivojlantirish jarayonini osonlashtiradi, maktabgacha yoshdagi bolaning tafakkurini o‘stirish uchun qulay vosita hisoblanadi. Didaktik o‘yinlarda aynan o‘yinning belgilari qancha ko‘p saqlanib qolsa, u bolalarga shuncha ko‘p quvonch bag‘ishlaydi.

Didaktik o‘yinlarda hal qilinadigan turli vazifalar bolalarga qiziqarli va jozibali faoliyat tarzida taqdim etiladi. O‘yin davomida bolalar qo‘yilgan masalalarni o‘zlari uchun qiziqarli tarzda yechadilar, bu esa ma’lum o‘yin harakatlari orqali amalga oshiriladi. O‘z navbatida, o‘yin harakatlari har qanday didaktik o‘yinning asosi hisoblanadi. Ya’ni o‘yin harakatlari o‘yin syujetining ifodasi hisoblanadi.

Didaktik o‘yin tuzilmasiga o‘yinning yakuniy bosqichi bo‘lgan natija ham kiradi. Didaktik o‘yinning natijasi qo‘yilgan vazifalarning yechilishida va ishtirokchilarning qoniqishida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish jarayonida o‘rgatuvchi kompyuter o‘yinlaridan foydalanish mumkin. Didaktik o‘yin shakllaridan biri sifatida o‘rgatuvchi kompyuter o‘yinidan foydalanish bolaga atrofdagi dunyodan ko‘plab modellarni taqdim etish imkonini beradi, bu esa o‘rganilayotgan obrazlar hajmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bola o‘rganadigan obyektlar va ularning xususiyatlari qancha ko‘p bo‘lsa, u atrofdagi olam haqida shuncha ko‘proq tasavvurga ega bo‘ladi.

Kompyuter o‘yinida obyektlar va hodisalarni modellashtirish orqali reallikka yaqin, lekin bolaning qo‘li yetmaydigan atrof-muhitni ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘yinlarda 3D modellashtirish texnologiyalardan foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolaga noma’lum bo‘lgan narsalarni ko‘rsatish uchun ko‘proq imkoniyatlar ochiladi.

Kompyuter o‘yini namoyish qilishdan tashqari, olingan bilimlarni nazorat qilish vositasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Bunda kompyuter o‘yini nafaqat o‘rganuvchiga o‘rnatilgan tekshirish vositalari orqali olgan bilimlarini tezda tekshirish imkonini beradi, balki topshiriqni bajarish davomida yo‘naltiradi va tavsiyalar beradi. Bundan tashqari, o‘rganish, tekshirish va tavsiya berish bosqichlari ssenariy asosida yagona uzluksiz algoritmga aylantirilishi mumkin.

Kompyuter o‘yinining ssenariysi uning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ta’limiy kompyuter o‘yinining ssenariysi uchun hikoya, hayotiy voqea, masal, ertak yoki boshqa har qanday asar asos bo‘lishi mumkin. Ssenariyni ishlab chiqishning muhim mezoni o‘yin yaratiladigan yosh guruhini tanlashdir.

O‘yin qahramonlari sifatida mashhur personajlardan foydalanilganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning topshiriqlarni bajarishga, ta’lim va rivojlanishda yaxshiroq natijalarga erishishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi. O‘yin

qahramonlari sifatida ta’lim oluvchi bilan bir xil yoshdagi bolalar ishlatilganda ham xuddi shunday ta’sir kuzatilgan.

Ta’limiy kompyuter o‘yinining ssenariysi o‘quv jarayonida o‘yin harakatlarini amalga oshirish va o‘yin vazifalarini hal qilishga, shuningdek, o‘quv materialiga qo‘yiladigan talablarga yordam beradigan qoidalarni o‘rnatishga xizmat qilishi kerak. O‘yin tufayli maktabgacha yoshdagi bola erkin ta’lim oladi [6].

Ssenariyda syujet darajasida nafaqat bolaning olgan bilimlarini tekshirish, balki uning vazifani hal qilish uchun maslahat olish, shuningdek, o‘z xatosini tezda tuzatish imkoniyati ham bo‘lishi kerak. Ushbu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va unda o‘z kuchiga ishonch paydo bo‘ladi.

Didaktik kompyuter o‘yini ssenariysining muhim xususiyatlaridan biri nochiziqlilikdir: syujet bolaning ta’lim olishiga qarab o‘zgarib borishi kerak.

Guruhda didaktik kompyuter o‘yinidan foydalanishda u o‘yinda turli murakkablik darajalari va topshiriqlar kombinatsiyasidan foydalanish orqali har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Bolaning topshiriqlarni qanday bajarishiga qarab, kompyuter o‘yini uning rivojlanishini va tez-tez uchraydigan xatolarini o‘zi kuzatib borishi va shu asosda o‘rganilayotgan obyektlar bo‘yicha batafsil ma’lumot berishi, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bola o‘rganishda alohida qiyinchiliklarga duch keladigan material va topshiriqlarni takrorlash uchun ko‘proq taqdim etishi mumkin.

Kompyuter o‘yinidagi topshiriqlar ham o‘rgatuvchi, ham rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bunday texnologiya tafakkur, diqqat, iroda va xotirani rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, barcha didaktik talablarga qat’iy amal qilish orqali ta’limiy kompyuter o‘yinlaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolaning yangi materiallarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, uning fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shu bois, didaktik kompyuter o‘yinlari bolani rivojlantirish vositalaridan biriga aylanishi mumkin. Biroq shuni yodda tutish kerakki, mazkur texnologiyaning ijobiy ta’siriga qaramay ulardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning an’anaviy usullariga to‘liq muqobil deb hisoblamaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Машковцева Л. М. Психологические основы понимания проблемы развития творческого мышления у дошкольников // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. – 2014. – № 1. – С. 169-174.
2. Бутенко Н. В. Художественно-эстетическое развитие детей дошкольного возраста: методика, технология, практика: монография. — М.: Издательство «Перо», 2016. — С. 45-46.
3. Поддъяков Н. Н. Мышление дошкольника: монография. М.: Издательство «Педагогика», 1977. – 272 с.
4. Пиаже Ж. Психология интеллекта // Пиаже Ж. Избранные психологические труды : пер. с англ. и фр. М.: Просвещение, 1969. С. 51–231.
5. Якиманская И. С. Развивающее обучение. М.: Педагогика, 1979. 144 с.
6. Путляева Л. О развитии мышления // Дошкольное воспитание. 2006. No 5. С. 35–38.

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI KASBIY INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING TIZIMLI-PEDAGOGIK ASOSLARI

AXMEDOV MUXOMOD-UMAR BAXRIDINOVICH
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tasviriy san’at kafedrasi p.f.f.d.(PhD), professor v.b.

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashning tizimli-pedagogik asoslari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik paradigmalarga asoslangan holda innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan texnologik va ijodiy yondashuvlarni qo‘llash zarurati asoslab beriladi. Tizimli-pedagogik yondashuv doirasida kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy komponentlari: motivatsion, kognitiv, operatsion-amaliy va refleksiv-monitoring bosqichlari aniqlanib, ularning o‘zaro uyg‘unlashgan faoliyati orqali o‘qituvchi shaxsining innovatsion salohiyati rivojlanish mexanizmi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: refleksiv, kompetensiya, komponent, paradigma, innovatsiya, kognitiv, interaktiv, metod, kreativ.

Аннотация: В статье с научно-теоретической и практической точек зрения исследованы системно-педагогические основы подготовки будущих учителей изобразительного искусства к профессиональной инновационной деятельности. В исследовании обоснована необходимость формирования инновационных компетенций на основе современных педагогических парадигм, применения интегрированных технологических и творческих подходов в образовательном процессе. В рамках системно-педагогического подхода определены структурные компоненты профессиональной подготовки: мотивационный, когнитивный, операционно-деятельностный и рефлексивно-мониторинговый этапы. Раскрыт механизм развития инновационного потенциала личности учителя через их взаимосогласованную деятельность.

Ключевые слова: рефлексивный, компетенция, компонент, парадигма, инновация, когнитивный, интерактивный, метод, креативный.

Abstract: This article investigates the systemic and pedagogical foundations for preparing future fine arts teachers for professional innovative activities from scientific, theoretical, and practical perspectives. The study substantiates the necessity of developing innovative competencies based on modern pedagogical paradigms and applying integrated technological and creative approaches to the educational process. Within the framework of a systemic-pedagogical approach, the structural components of professional training are identified: motivational, cognitive, operational-practical, and reflective-monitoring stages. The mechanism for developing the innovative potential of a teacher's personality is revealed through the coordinated activity of these components.

Keywords: reflective, competence, component, paradigm, innovation, cognitive, interactive, method, creative.

Kirish

Respublikamizda zamonaviy ta’lim tizimi jadal rivojlanayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va globallashuv jarayonlari bilan bevosita bog‘liq holda shakllanmoqda. Bunday sharoitda ta’limning barcha sohalarida, jumladan, tasviriy san’at ta’limida ham pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasi, innovatsion fikrlashi va yangi texnologiyalardan samarali foydalanish salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavjud muammolardan biri shundaki, tasviriy san’at fanini o‘qitish jarayonida ba’zi pedagoglar hali ham an’anaviy usullarga tayanishmoqda, bu esa zamonaviy

o‘quvchilarning estetik tafakkuri va ijodiy salohiyatini to‘liq rivojlantirish imkonini cheklaydi. Shu bilan birga, pedagoglarning innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish va ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha tayyorgarlik darajasi ham turlicha bo‘lib, bu sohada tizimli yondashuvga ehtiyoj mavjud.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’lim talablari bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilaridan nafaqat mustahkam nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va ularni o‘quv jarayonida samarali tatbiq etish qobiliyatini talab etmoqda. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, multimediali vositalar, interaktiv metodlar va kreativ yondashuvlarni joriy etish orqali bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish mumkin.

San’at ta’limi jarayonida innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy tafakkur va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. N.I.Ahmedov va Sh.K.Toshpulotovlar[1] ta’kidlashicha, bunday yondashuvlar orqali o‘quvchilarda vizual idrok, texnik bilim va texnologik savodxonlik uyg‘unlashadi.

Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning innovatsion-kompetentli shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va samarali pedagogik shart-sharoitlarni asoslab berishdan iborat.

So‘nggi yillarda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali metodik yondashuvlar kasbiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir[2].

Adabiyot tahlili va metodologiya

Tadqiqotning metodologik asosi kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda tasviriy san’at o‘qituvchilarining metodik faoliyatini samarali tashkil etishning tizimli-pedagogik yondashuvini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda ta’lim jarayonida innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, o‘qituvchilarni yaratish faoliyatiga tayyorlashning samaradorligini oshirishga yordam beruvchi pedagogik asoslar va uslublar izlanadi.

Dewey (1938) o‘zining “Experience and Education” asarida tajriba asosidagi ta’lim o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirishini, bu esa kasbiy shakllanishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, tasviriy san’at kabi faol, estetik va amaliy o‘quv fanlarida nihoyatda muhimdir[3].

Tadqiqotning asosiy adabiy manbalariga pedagogika, psixologiya, san’at ta’limi va kasbiy rivojlanish sohalaridagi ilmiy ishlanmalar kiradi. O‘qituvchilarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashga doir metodikalar, usullar va pedagogik innovatsiyalarni tahlil qilishda ko‘plab mahalliy va xalqaro tadqiqotchilarning asarlaridan foydalanildi.

Tadqiqotchi M.Mahkamova (2020) ta’kidlashicha, pedagogik innovatsiyalar – bu ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish hamda yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli jarayondir. Bunday yondashuvlar, ayniqsa, san’at sohasidagi o‘qituvchilarni tayyorlashda o‘ziga xos ijodiy muhitni yaratishga xizmat qiladi[4].

O‘zbekistonda pedagogik va psixologik yondashuvlarning rivojlanishi, o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llashning ahamiyati, shuningdek, tasviriy san’at pedagogikasida o‘zgarishlar va yangi

3. Axloqiy fazilatlarni shakllantirish.

Navoiy asarlarini o'qib, axloqiy fazilatlar haqida muhokama qilish bolalar uchun juda foydali. “Farhod va Shirin” dostonini o'qish orqali sevgi va sadoqatni o'rgatish va shu orqali bolalarning his-tuyg'ularini anglash imkonini yaratish tavsiya etiladi.

4. Badiiy uslubda o‘rganish.

Navoiy asarlarini o‘qib berish va ularni hikoya qilish, bolalarga kitob o‘qish jarayonini yanada qiziqarli o‘tkazishga yordam beradi. Bu usul bolalarning diqqatini jamlash, yangi dunyoqarashlarni o‘rganish va so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

5. Tahlil va baholash.

O‘quvchilarga asardan olgan saboqlarini tahlil qilish va baholash imkoniyatini berish, ularning kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu bolalarga faqat ma’lumotlarni qabul qilishni emas, balki ularni mantiqan tahlil qilishni ham o‘rgatadi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinflarda kitobxonlikni shakllantirishda Alisher Navoiy asarlari juda muhim ahamiyatga ega. Ularning badiiy tili, axloqiy saboqlari va didaktik mazmuni bolalar uchun beqiyos ta’lim manbayi hisoblanadi. Navoiy asarlaridan foydalanish, nafaqat bolalar kitobxonligini oshirishga, balki ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga, hissiy va axloqiy jihatdan rivojlanishga ham yordam beradi. Musobaqalar va guruhli o‘yinlar orqali Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantiradi, ular o‘z fikrlarini erkin ifodalashni o‘rganadilar. Asarlarni soddalashtirish va tahlil qilish, bolalarga mazmunni yaxshi tushunishga yordam beradi va o‘qish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, Navoiy asarlarini o‘rganish, bolalarda axloqiy fazilatlar, mas'uliyat va vatanparvarlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon o‘quvchilarga nafaqat ma'lumot olishni, balki ularni tahlil qilish,

fikrlarini erkin ifodalash va mustaqil fikrlashni o‘rgatadi. Shunday qilib, Alisher Navoiy asarlari boshlang‘ich ta'limda kitobxonlikni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish va bolalarni intellektual jihatdan rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). “Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha qaror”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2021-yil, 25-noyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Boshlang‘ich ta’limda Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish tizimini takomillashtirish”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2020-yil, 12-aprel.
3. Karimov, I. A. (1991). “Alisher Navoiy va uning adabiyotidagi axloqiy-o‘quviy o‘gitlar”. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Alisher Navoiy. Xamsa. – T.: O‘zbekiston, 2008.
5. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T.: Adabiyot, 2005.
6. Xondamir G’iyosiddin. Makorim ul-axloq. - T.: Badiiy adabiyot /Forschadan M.Faxridddinov, P.Shamsiyev tarjima-si. 1967.
7. Dono Alisher. Alisher Navoiy haqida xalq afsonalari. – T.: Yosh gvardiya, 1968.
8. Mahmudov, I. Alisher Navoiy va bolalar ta’limi. – T.: Fan va texnologiya, 2011.
9. Vosifiy. Badoye’ ul-vaqoye’. / Tarjimon N.Norqulov. - T.: Adabiyot va san’at, 1979.
10. Jomiy. Bahoriston / Forsiydan Sh.Shomuhamedov tarjimasi. – T.: 13 Yozuvchi, 1997.
11. Rahmatov, A. Navoiy va uning axloqiy saboqlari. – T.: O‘zbekistan, 2007.\
12. Mallayev N.M. O’zbek adabiyoti tarixi. K.1. – T.: O’qituvchi, 1976.
13. O’zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J.2. – T.: Fan, 1977.
14. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: O’qituvchi, 1993.
15. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi, 2006.
16. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. -T.: Fan, 2007.
17. Yunusov, M. Alisher Navoiy va uning adabiyotidagi ta’limiy xususiyatlar. – T.: O‘qituvchi, 2013.

BO‘LAJAK HUQUQSHUNOSLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

ALMAZXAN ASANOV
Katta o‘qituvchi, Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro Qozog‘iston-Turk universiteti, Qozog‘iston

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak yuristlarning o‘qitish jarayonida pedagogik kompetentlikni rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Bugungi kunda huquqshunoslik sohasi mutaxassislaridan nafaqat qonun hujjatlarini mukammal bilish, balki ta’lim berish faoliyati bilan ham bog‘liq bir qator pedagogik ko‘nikmalarga ega bo‘lish kutilmoqda. Maqolada pedagogik kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari, huquqiy fanlarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish usullari, shuningdek, zamonaviy innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik kompetentlik, huquqiy ta’lim, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, kasbiy tayyorgarlik, refleksiv yondashuv, bo‘lajak yuristlar.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются вопросы развития педагогической компетентности у будущих юристов в процессе обучения. В современных условиях от специалистов в области юриспруденции ожидается не только глубокое знание законодательства, но и владение целым рядом педагогических навыков, связанных с образовательной деятельностью. В статье рассматриваются сущность педагогической компетентности, пути её формирования и развития, интеграция юридических дисциплин в педагогический процесс, а также преимущества использования современных инновационных методов и технологий.

Ключевые слова: педагогическая компетентность, юридическое образование, интерактивные методы, инновационные технологии, профессиональная подготовка, рефлексивный подход, будущие юристы.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the development of pedagogical competence in future lawyers during their educational process. In modern conditions, legal professionals are expected not only to possess comprehensive knowledge of legislation but also to master a range of pedagogical skills related to teaching activities. The article explores the essence of pedagogical competence, methods of its formation and development, the integration of legal disciplines into the educational process, as well as the advantages of using modern innovative methods and technologies.

Keywords: pedagogical competence, legal education, interactive methods, innovative technologies, professional training, reflective approach, future lawyers.

Yurist kasbining dolzarbligi tobora oshib borayotgan hozirgi davrda huquqshunoslar oldida nafaqat qonun hujjatlarini bilish, balki ijtimoiy munosabatlarda faollik, odil sudlov prinsiplarini hayotga tatbiq etish, fuqarolar bilan samarali muloqotga kirishish kabi vazifalar ham turadi. Shu bilan birga, ijtimoiy talablarga javoban huquqiy savodxonlikni ommalashtirish, keng jamoatchilikka qonunlar mohiyatini yetkazish, turli darajadagi ta’lim muassasalarida huquqiy bilimlarni targ‘ib qilish zaruriyati mavjud. Bunday vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish yo‘lida bo‘lajak yuristlarning pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada bo‘lajak yuristlarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonidagi

zarurat, mazkur kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari, uni shakllantirish metodlari, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati hamda rivojlanish istiqbollari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan sharhlanadi.

Pedagogik kompetentlik deganda, avvalo, shaxsning boshqalarni o‘qita olish, ularda tegishli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, murakkab ijtimoiy-huquqiy masalalarni tushuntira olish, ta’lim metodlarini puxta bilish va ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyati nazarda tutiladi. Bo‘lajak yuristlarning pedagogik kompetentligi ular kasbiy faoliyatda pedagog sifatida emas, aynan yuridik masalalarni tushuntirib beruvchi, huquqiy madaniyatni targ‘ib qiluvchi mutaxassis sifatida ham namoyon bo‘ladi. Jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirishda yuristlar o‘z bilim va tajribalarini boshqalarga yetkazish uchun pedagogik yondashuvlarga, interaktiv o‘qitish usullariga, ritorik mahoratga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Bo‘lajak yuristlarning kasbiy tayyorgarligida huquqiy bilimlar eng asosiy poydevor hisoblanadi. Biroq bu tayyorgarlik jarayoniga pedagogik kompetentlik elementlarini kiritish, odatda, yuridik fakultetlarda yetarlicha e’tibor qaratilmaydigan, ammo juda muhim bo‘lgan masaladir. Chunki sudyalar, advokatlar yoki boshqa huquqshunoslar jamiyatda turli ma’ruzalar, seminarlar, suhbatlar o‘tkazish, ta’lim muassasalarida ma’ruzachi sifatida ishtirok etish vazifasini ham bajaradilar. Bunday faoliyatda huquqshunos shaxsning kommunikativ mahorati, pedagogik metodlarni bilishi, psixologik yondashuvlardan xabardorligi ularning ijtimoiy faoliyat samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy-ma’naviy muhitda huquqiy savodxonlikni kuchaytirish uchun yuristlarning o‘zi ham bilim targ‘ibotchisi sifatida maydonga chiqishga majbur. Ana shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak yuristlarga pedagogik ko‘nikmalarni berish zamonaviy yuridik ta’limning strategik vazifalaridan hisoblanadi.

Pedagogik kompetentlikning mazmun-mohiyatini tushunishda bir nechta muhim tarkibiy qismlarni tilga olish mumkin. Birinchidan, didaktik bilimlar, ya’ni o‘qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va baholash uslublaridan xabardor bo‘lish lozim. Ikkinchidan, psixologik-kommunikativ ko‘nikmalar, bu o‘quvchilar yoki tinglovchilar bilan muomala qilish, ularda qiziqish uyg‘otish, murakkab huquqiy jarayonlarni oddiy tarzda tushuntira olish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Uchinchidan, metodik mahorat, ya’ni ma’ruza o‘qish, seminar tashkil etish, bahs-munozaralarni boshqarish, tayanch savollarni shakllantirish yoki amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishni bilish ham pedagogik kompetentlikning ajralmas qismi. To‘rtinchidan, refleksiv yondashuv, ya’ni bo‘lajak yurist o‘z o‘qitish jarayonini tahlil qila olish, zarur o‘rinlarda tuzatishlar kiritish, metodlarni takomillashtirish, tinglovchilardan kelib chiquvchi fikr-mulohazalarni hisobga olish kabi malakalarini rivojlantirish orqali pedagogik faoliyat sifatini oshiradi.

Yuridik ta’lim jarayonida pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning turli usullari mavjud. Bular orasida interfaol metodlardan foydalanish alohida o‘rin tutadi. Masalan, huquqiy case-stadi usuli orqali talabalar muayyan huquqiy nizolarni tahlil qilish, o‘zaro bahs-munozara qilish, sud jarayonlarini modellashtirish va mavhum vaziyatlar bo‘yicha pedagogik yondashuvlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Muammoli ta’lim, guruhiy loyihalar, rolli o‘yinlar ham bo‘lajak yuristlarda nafaqat huquqiy ko‘nikmalarni, balki pedagogik mahoratni shakllantiradi. Sababi, bu kabi usullar orqali talabalar bir-birlariga huquqiy izohlar berish, tushuntirish, ma’lumotlarni qayta ifodalash,

nutq va bahslashish mahoratini oshirishga majbur bo‘ladilar.

Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhimdir. Elektron platformalar, videoma’ruza, onlayn vebinarlar, o‘quv videolarini montaj qilish va boshqa raqamli vositalar yordamida yuridik mavzularni tushuntirish talabalarda nafaqat texnik, balki didaktik mahoratni ham oshiradi. Masalan, amaliy mashg‘ulot sifatida bo‘lajak yuristlarga: “Muayyan huquqiy mavzuni onlayn formatda qanday tushuntirish mumkin?” yoki “Qanday qilib huquqiy ma’ruzani interaktiv, qiziqarli tarzda taqdim etish mumkin?” kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bunda talabalar pedagogik yondashuvlarni tadqiq etish, psixologik jihatlarni inobatga olish va foydalanish usullarini izlab topishi talab etiladi.

Yuridik ta’limda ko‘p hollarda nazariy bilimlar ustunlik qiladi, lekin bo‘lajak yuristning pedagogik kompetentligi amaliyotga asoslanishi lozim. Masalan, huquqshunoslik fanlari doirasida mashg‘ulotlar o‘tkazish jarayonida talabalarga “mini-ma’ruza”lar tayyorlash, sheriklariga huquqiy mavzuda qisqa leksiya o‘qib berish, savollarga javob berish vazifasi topshirilishi mumkin. Shuningdek, huquqiy klinikalar, jamoatchilikka bepul huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari, maktablarda huquqiy targ‘ibot tadbirlari uyushtirish va shu tadbirlarda talabalarning amaliy ishtirokini ta’minlash pedagogik kompetentlikni haqiqiy hayot sharoitida sinab ko‘rishga yordam beradi.

1-jadval:Tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish yo’llari

Tayyorlash yo‘nalishi	Takomillashtirish yo‘llari	Samaradorlik omillari
Pedagogik bilim va kompetensiyalar	Pedagoglarning metodik kompetensiyalarini rivojlantirish, interaktiv usullardan foydalanish.	O‘qitish sifatining oshishi, pedagoglarning kasbiy malakasi rivojlanishi.
Psixologik tayyorgarlik	Pedagoglarning bolalar psixologiyasini chuqur o‘rganishlari, stressga chidamlilik ko‘nikmalarini shakllantirish.	Bolalar bilan ishlash sifati oshishi, tarbiyaviy faoliyatning samaradorligi.
Innovatsion ta’lim texnologiyalari	Onlayn va oflayn treninglar, virtual laboratoriyalar, multimediya vositalaridan foydalanish.	Dars samaradorligining oshishi, ta’lim jarayonining innovatsion tus olishi.
Refleksiv amaliyot	O‘z faoliyatini baholash va rivojlantirish, refleksiv kundalik yuritish.	Pedagoglarning shaxsiy rivojlanishi, kasbiy o‘sish jarayonining jadallashishi.
Amaliy mashg‘ulotlar	Tarbiyachilar uchun maxsus amaliy mashg‘ulotlar, trening va seminarlar o‘tkazish.	Tarbiyachilar tajribasining ortishi, real muammolarni hal qilish qobiliyati.
Monitoring va baholash tizimi	Pedagoglarning ishlash samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish, oraliq va yakuniy baholash tizimlarini ishlab chiqish.	Sifat nazorati oshishi, pedagoglar ish faoliyatining tahlil qilinishi.
Davlat qo‘llab-quvvatlashi	Davlat tomonidan pedagoglarning malakasini oshirish dasturlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, grantlar ajratish.	Maktabgacha ta’lim tizimi rivojlanishi, pedagoglarning malakasi oshishi.
Xalqaro tajriba va hamkorlik	Chet el universitetlari va ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda maxsus dasturlar joriy qilish.	Xalqaro darajada ta’lim sifatining oshishi, tajriba almashinuvi va innovatsion yondashuvlar joriy etilishi.

Bugungi kunda yuridik sohada mutaxassisdan chinakam professional bo‘lishi bilan birga, har qanday vaziyatda huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish, ijtimoiy-huquqiy masalalar bo‘yicha fuqarolar bilan ishlash, ularni huquqiy savodxonlikka yo‘naltirish kutiladi. Masalan, advokat yoki sudyalar ommaviy axborot vositalari orqali chiqish qilishayotganda, aynan pedagogik kompetentlikka tayangan holda murakkab huquqiy masalalarni oddiy, omma tushunadigan tilda tushuntirish zarur. Shuningdek, turli zamonaviy media platformalarda interaktiv muloqotda qatnashish, huquqiy savollarga javob berish, aniq misollar va hayotiy vaziyatlar asosida keng jamoatchilikka bilim berish jarayonlari bo‘lajak yuristlarning kommunikativ hamda pedagogik mahoratini sinovdan o‘tkazadi.

Shu ma’noda, huquqiy ta’lim dasturlarida pedagogik fanlarning o‘rni va o‘qitilish hajmini kengaytirish muhim masala sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda bo‘lajak yuristlarga “Pedagogika”, “Psixologiya”, “Andragogika” (katta yoshdagilarni o‘qitish nazariyasi) kabi fanlardan nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni real mashg‘ulotlar, interfaol metodlar, amaliy seminarlar bilan boyitish zarur. Talabalar shu fanlardan olgan nazariy tushunchalarini bevosita o‘z kasbiy doiralarida qo‘llashni o‘rganishlari kerak. Masalan, “Advokat faoliyatida pedagogik yondashuvlar”, “Maktab o‘quvchilari o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish metodikasi”, “Sud jarayonlarida ommaga huquqiy tushunchalarni yetkazish strategiyalari” kabi ixtisoslashtirilgan mavzularda seminarlar bo‘lishi bo‘lajak yuristlarga katta foyda keltirishi mumkin.

Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida axloqiy-psixologik omillar ham e’tiborga olinishi shart. Bo‘lajak yuristning shaxsiy fazilatlari, mas’uliyat, halollik, odillik, xushmuomalalik, xayrixohlik kabi xususiyatlar pedagogik faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki talabaning huquqiy mavzuda o‘tkazadigan dars yoki seminar faqatgina faktlar va qonun normalariga asoslangan bo‘lsa-da, tinglovchilarning qiziqishi va tushunishi ko‘p jihatdan o‘sha talabaning psixologik yondashuviga bog‘liq bo‘ladi. O‘z navbatida, huquqiy ta’lim jarayonida kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyalari doirasida ham “huquq va pedagogika” kesishgan mavzularga e’tibor qaratish bu kompetentlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak yuristlar uchun pedagogik kompetentlikning rivojlanish istiqbollaridan biri bu xalqaro tajribalarni o‘rganish bilan ham bog‘liq. Chet eldagi yuridik ta’lim va huquqiy ma’rifat tadbirlarida qanday pedagogik strategiyalar qo‘llanilishi, yuridik klinikalarning faoliyati, ko‘ngillilar asosida amalga oshiriladigan huquqiy savodxonlik loyihalari, virtual sud jarayonlari kabi amaliyotlar hamda muloqot vositalari bilan tanishish bo‘lajak yuristlarning nazariy va amaliy bilim doirasini kengaytiradi. Xususan, bir qator rivojlangan davlatlarda huquqshunoslikni o‘qitish jarayonida ma’ruzachi professor yoki amaliyotchi advokatning pedagogik mahorati eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida baholanadi. Shuningdek, xorijiy oliy ta’lim muassasalarida yuridik fanlarni o‘qitish jarayoniga mo‘ljallangan interaktiv platformalar, masofaviy ta’lim modullari va pedagogik texnologiyalar joriy etilgan bo‘lib, bu tajribalar bizning ta’lim tizimimizga ham bosqichma-bosqich tatbiq etilishi mumkin.

Pedagogik kompetentlik va huquqiy ta’limning uyg‘unlashuvi bo‘lajak yuristlarda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni chuqur egallash bilan birga, keng ijtimoiy qatlam bilan samarali muloqot qila olish, huquqiy targ‘ibot ishlarini

sifatli olib borish, turli yosh toifalariga ta’lim berish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu yo‘sinda huquqiy savodxonlik jamiyatning turli sohalarida, xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, madaniyat, ekologiya kabi sohalarda ham yuksalib boradi. Natijada huquq buzilishlarining oldini olish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish borasidagi sa’y-harakatlar kuchayadi.

Maqolaning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, yuridik ta’lim jarayonida pedagogik kompetentlikka ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash nafaqat huquq sohasi rivojiga, balki jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga, ijtimoiy totuvlik va adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak yuristlarga pedagogik kompetentlikni bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta’minlovchi maxsus modullar va dasturlarni joriy etish muhimdir. Yuridik fanlarga qo‘shimcha sifatida, pedagogika va psixologiya bo‘yicha tegishli kurslarni takomillashtirish, amaliy tajribalarni ko‘paytirish, xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda seminar-treninglar o‘tkazish yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak yuristlarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish huquqiy ta’limning integral qismi sifatida qaralishi lozim. Zamonaviy jamiyatda huquqshunoslar o‘z sohasida professional bo‘lish bilan birga, huquqiy bilimlarni jamoatchilikka tushuntira olish, huquqiy targ‘ibot ishlarida faol qatnashish, yosh avlodga huquqiy madaniyatni singdirish kabi mas’uliyatli vazifalarni ham bajaradilar. Bularning barchasi pedagogik kompetentlikni talab etadi. Shunday ekan, yuridik oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejalari va dasturlarini takomillashtirishda pedagogik fanlar bloki hamda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va refleksiv yondashuv orqali bo‘lajak yuristlarda zarur bo‘lgan pedagogik kompetentlikni shakllantirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Ana shundagina huquqshunoslik sohasi rivojining yangi bosqichiga erishish, jamiyatda huquqiy savodxonlikni yanada oshirish, qonunlar ijrosini to‘liq ta’minlash, huquq va adolat tamoyillarini mustahkamlash yo‘lida salmoqli qadam tashlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзаев У. Б. Интерактив методлар орқали ҳуқуқий фанлар ўқитиш самарадорлигини ошириш [Текст]. – Тошкент: Фан, 2019. – 224 б.
2. Шарипов К. Юридик таълимда педагогик технологиялар [Текст]. – Тошкент: Адолат, 2020. – 180 б.
3. Назаров А. Педагогик компетентлик тамойиллари ва ҳуқуқий тарбия [Текст]. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2021. – 156 б.
4. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности [Текст]. – Москва: Академический проект, 1995. – 323 с.
5. Biggs J. Teaching for Quality Learning at University [Text]. – Buckingham: Open University Press, 2003. – 250 p.
6. Shulman L. S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching [Text] // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15 (2). – P. 4–14.
7. Freire P. Pedagogy of the Oppressed [Text]. – New York: Continuum, 2000. – 183 p.
8. Совместная программа USAID и UNDP по юридическому образованию и профессиональному развитию [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.usaid.gov

AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA O'QITISH JARAYONINING INTEGRATSIYASI: UMUMTA'LIM MAKTABLARI VA PROFESSIONAL TA'LIMDA MUHIM USTUVOR VAZIFALAR

DILBARJONOV AVAZBEK RAVSHANBEK O‘G‘LI
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Bu maqolada, axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan o'qitish jarayonining integratsiyasi, umumta'lim maktablari va professional ta'limda muhim ustuvor vazifalar va ularning hal qilinishi haqida tahlil va muhokama qilish mumkin.

Аннотация. В данной статье можно проанализировать и обсудить вопросы интеграции учебного процесса с информационно-коммуникационными технологиями, важные приоритетные задачи и их решение в общеобразовательной школе и профессиональном образовании.

Abstract. In this article, it is possible to analyze and discuss about the integration of the teaching process with information communication technologies, important priority tasks and their solution in general education schools and professional education.

Kalit so’zlar: Inegratsiya, kompetensiya, tayanch kompetensiya, texnologiya, komyuterli ta’lim, an’anaviy o’qitish, interoeksiya, sinektika, tafakkur

Ключевые слова: Интеграция, компетентность, базовая компетентность, технология, компьютерное образование, традиционное обучение, взаимодействие, синектика, мышление.

Key words: Integration, competence, basic competence, technology, computer-based education, traditional teaching, interoection, synectics, thinking

KIRISH.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Jahon mamlakatlari kelajak kadrlarni tayorlashda talabalarni zamonaviy bilimlar bilan o‘qitish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo‘llash zamonaviy ta’limning asosiy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo’llanila boshlaganiga hali u qadar ko’p vaqt bo’lmagan bo’lsada, o’qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo’lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o’qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g’oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo’lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shartsharoitni yaratishga xizmat qiladi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o’z mohiyatiga ko’ra jarayon tarzda namoyon bo’ladi. Kasbiy yetuklik

inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g’oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh) gacha bo’lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o’zgarishining o’zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlar hamda inson ontogengizi – tug’ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog’liq. Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko’nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko’nikmalarining o’zlashtirilishi nafaqat amaliy ko’nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo’lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o’zlashtirilishi talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o’zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog’liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo’lishi taqozo etadi. So’nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar quyidagi mavzularga oid:

1. " Интегрированная информационная среда профессиональной деятельности учителя технологии" nomli avtoreferat. Ushbu dissertatsiyada o'qituvchilarning texnologiya fanida ish faoliyati uchun integratsion informatsion muhit mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan.

2. " Интеграции образования // Обучение за рубежом " nomli maqolada o'zbek tili yo'nalishida integratsiya mavzusining muhokamalari ko'rsatilgan. Maqolada xalqaro ta'lim tizimida o'zbek tili o'qitishning integratsiyasi va uning muhimligi haqida ma'lumotlar berilgan.

3. "Педагогика и прогрессивные технологии обучения" nomli kitobda pedagogikaning progressiv tekhnologiyalar bilan bog'liq bo'limlari tahlil qilingan. Ushbu kitobda o'rganish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanishning o'quv jarayonini qanday o'zgartirishi mumkinligi ko'rsatilgan.

4. "Влияние современных информационных технологий на коммуникативные характеристики личности // Гуманизация образования" nomli maqolada so'nggi axborot texnologiyalarining insonning kommunikativ xususiyatlari ustidan o'zgarishlarni qanday o'zgartirishi mumkinligi ko'rsatilgan.

5. "Дидактическая концепция формирования коммуникативной успешности младших школьников" nomli dissertatsiyada kichik maktab o'quvchilarining kommunikativ muvaffaqiyatini shakllantirishning didaktik konsepsiyasi tahlil qilingan.

6. "The benefits of using clickers in small-enrollment seminar-style biology courses" nomli maqolada biologiya fanida kichik guruhlar bilan o'qitishda "clickers"dan foydalanishning foydalari ko'rsatilgan.

7."ИНТЕГРАЦИЯ-ЎҚУВЧИЛАРДА КОМПЕТЕНСИЯЛАРНИ РИВО-

Тип материала	Описание	Назначение
Учебные программы и планы занятий	Разработаны преподавателями, интегрировавшими PBL в курсы английского и междисциплинарные занятия	Обеспечение структурированной реализации проектных заданий
Руководства и критерии оценивания проектов	Четкие инструкции и критерии оценки для групповых презентаций, отчетов и медийных проектов	Повышение прозрачности, ответственности и объективной оценки навыков
Цифровые инструменты для совместной работы	Платформы Google Docs, Zoom, Padlet, Trello и др.	Обеспечение коммуникации, координации и командной работы
Материалы для чтения и аудирования	Статьи, видео и подкасты из академических и аутентичных источников	Предоставление содержания для проектной работы и обсуждений
Опросники для студентов	Закрытые и открытые вопросы, проводившиеся после завершения проектов	Сбор обратной связи студентов о развитии навыков и возникших трудностях
Интервью-протоколы для преподавателей	Полуструктурированные вопросы для интервью с преподавателями	Получение аналитических наблюдений и педагогических рефлексий
Стандартизированные формы для записи наблюдений за динамикой занятий	Стандартизированные формы для фиксации динамики занятий и взаимодействия студентов в рамках PBL	Отслеживание проявлений языковой активности и личностных навыков

ЖЛАН-ТИРИШНИНГ АСОСИ СИФАТИДА" nomli maqolada integratsiya va kompetensiyalar rivojlanishining asosiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Ushbu adabiyotlar turli sohalar bo'yicha ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayonida o'zgarishlarni o'rganish va o'quvchilarning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan usullar haqida ma'lumot berish uchun foydalanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim muassasalari yangi texnologiyalarni qabul qilish va aralash ta'limga o'tishdagi dastlabki nosozliklarga qaramay, asta-sekin yangi normaga moslashdi. Buning natijasi o'laroq, bugungi kunda talabalar jismoniy va keng miqyosda virtual bog'langan jamiyatdadir. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash uchun virtual ta'lim-ta'limning hamma joyda qo'llanilishi innovatsion ta'lim-ta'lim amaliyotlarini rag'batlantirdi. Oliy ta'lim muassasalarida gibrid siljish oldinga yangi yo'l bo'lib, shaxsan va onlayn ta'limni aralashtirishni tezlashtirish yangi odatiy holga aylandi. Onlayn ta'lim Internet va ta'limning to'liq integratsiyasi va zarur ko'nikmalarni egallash uchun yo'l ochdi. Ushbu siljish raqamli rasmiy va norasmiy ta'lim muhitida o'rganish va ishlash uchun bir qator raqamli kompetensiyalar bo'yicha malakani talab qiladi. Onlayn ta'limga o'tish muvaffaqiyatining muhim jihati raqamli texnologiyalarni konstruktiv tarzda qabul qilish uchun zarur bilim, ko'nikma va munosabatlarga ega bo'lishning muqarrarligidir. Bu tektonik siljish, gibrid yoki aralash sinflar, hamkorlik, tenglik,

tajriba va innovatsiyalarni o'z ichiga olgan samarali ta'lim ekotizimini davom ettirishi mumkin. Ko'plab onlayn resurslar talabalarga hamkorlikda ta'lim olish uchun raqamli kontentga kirish, yaratish va almashish imkonini berdi. Raqamli kompetensiyaning roli axloqiy, xavfsizlik va ijtimoiy o'lchovlarga yaxlit urg'u berish va turli xil bilimlar, qobiliyatlar va shaxslarning istaklarini o'z ichiga olganligi sababli yanada muhim bo'lib qoldi. Parallel yo'nalish ta'lim sohasida ko'rinadi, bu yerda asosiy e'tibor raqamli jamiyatda yaxshiroq ishtirok etish uchun talabaning imkoniyatlarini oshirishga qaratilishi kerak.

Integratsiyalashgan texnologik yondashuvlar jamiyatda narsalar qanday ishlashini va ularni qanday yaxshilashimiz mumkinligini tushuntirishga yordam beradi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish va odamlarga etkazib berishda texnologiya katta rol o'ynaydi. Maktablarda o‘quvchilarning zamonaviyroq bilim olishlariga yordam berish uchun texnologiya qo‘llaniladi. Maktablarda o‘quvchilarni kelajakka tayyorlashda kompyuter va boshqa texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, biz talabalarga ko'p ma'lumotlar bilan ishlashni va internet kabi yangi ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni o'rgatishimiz kerak. An'anaviy o'qitish usullari va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali biz o'quvchilar uchun yaxshiroq ta'lim muhitini yaratishimiz mumkin. Tadqiqotchilar ta'limni yaxshilash uchun turli xil o'qitish usullari va texnologiyalarini qanday aralashtirishni o'rganishmoqda. Talabalar uchun maktabda texnologiyadan qanday foydalanish va yangi narsalarni o'rganishni tushunish muhimdir. Texnologiya fanini o’qitish jarayoniga integrativ yondashuv o’quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirishning metodik ta’minotini takomillashtirish, uning elektron darslik va axborot-kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan resurs manbalar bilan ta’minlash zaruratini keltirib chiqardi. O’quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish maqsadida olib borilgan izlanishlarimiz natijasida ta’lim texnologiyalari va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini uyg’unlashtirish printsipi asosida “Texnologiya” nomli elektron ta’lim resursi ishlab chiqildi. Mazkur elektron resurs yuqorida biz tavsiflayotgan va ta’limiy texnologik jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan texnologiya fanining metodik tizimidagi innovatsion jarayon hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil ob’ektidagi elektron darslik dissertatsiyaning elektron variantiga ilova qilingan. Insoniyat tsivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim berishga yo’naltirilgan faoliyat sohasi juda oddiy talablar asosida tashkil qilingan bo’lsa, bugungi kunga kelib, ta’lim jarayonini tashkil qilishga nisbatan o’ta qat’iy hamda murakkab talablar qo’yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to’laqonli anglash kompetentsiyasiga ega, favqulodda ro’y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal qila oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo’lgan ijtimoiy ehtiyoj ta’lim jarayonini integrativ texnologik yondashuv asosida tashkil qilishni taqozo etadi [53; 14-17- b.]. Ijtimoiy texnik taraqqiyot nuqtai nazaridan o’quvchilarning itellektual salohiyati, tayanch va fanga oid kompetentsiyalarining shakllanishi texnologiya fani sohasidagi texnika va texnologik jarayonlarning takomillashuviga mos kelishi zarur. Demak, qayd qilingan ijtimoiy talab va ijtimoiy buyurtma nafaqat ishlab chiqarish jarayonida

ilg’or texnologiyalarni qo’llash, balki kadrlar tayyorlashga bo’lgan talab asosida ta’limda integrativ yondashuvni takomillashtirish masalasini qo’yadi [26;-49-b.]. Ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya va ta’limiy texnologiyalarni integrativ yondashuv aosida qo’llashdan oldin, ularning nazariy va amaliy xususiyatlarini «sub’ekt-sub’ekt» jamlanmasidagi ahamiyatini o’rganish joiz bo’ladi. Pedagogik va axborot texnologiyalaridan integrativ yondashuv asosida foydalanish orqali o’quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish muammosi bo’yicha keyingi paytlarda juda ham ko’p maqola va ilmiy manbalar yartilgan. Ularning barchasini to’g’ridan-to’g’ri ta’lim jarayoniga qo’llayverish yuqori samara bermasligi mumkin. Ta’limda integrativ yondashuv asosida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo’llash uchun bu texnologiyadan foydalanuvchining kasbiy mahorati etarli bo’lishi lozim [17; 15-b.]. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil qilish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o’quvchiga etkazib berishni yo’lga qo’yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Texnologiya fanini o’qitish jarayoniga ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini integrativ yondashuv asosida tatbiq qilish orqali o’quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish yuqorida qayd qilingan dolzarb muammoning ijobiy yechimini topishga xizmat qiladi.

Demak, o‘qitishda turli vositalar va usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bunga o'qitish vositalari ham, texnologiya vositalari ham kiradi. Garchi ular bir-biridan farq qilsalar ham, ularning umumiy jihatlari ham bor. Maktabda texnologiyani o'rganish, undan foydalanishning eng yaxshi usullarini aniqlash va ularni nima yaxshi qilishini hal qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахметов Л.Г. Интегрированная информационная среда профессиональной деятельности учителя технологии. Автореф. дисс. докт.пед.наук. -Казань.2009. - С.48.
2. Поддякова Н. Интеграции образования // Обучение за рубежом. (33), - Москва, 2001. Ноябрь. - С. 3. Джураев Р.Ҳ. ва бошқ. Педагогика. .- Тошкент. 2013.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения.- М.: Издательство ИРПО МО РФ, 1995. - С. 336
4. Берулова Г.А. Влияние современных информационных технологий на коммуникативные характеристики личности // Гуманизация образования. - Москва.2013 № 6. - С.
5. Гришанова И.А. Дидактическая концепция формирования коммуникативной успешности младших школьников. Автореф. дисс. докт.пед. наук. -Ижевск. 2010.
6. Smith, M. K., Trujillo, C., & Su, T. T. (2011). The benefits of using clickers in small-enrollment seminar-style biology courses. Cell Biology Education, 10(1), 14-17. doi: 10.1187/cbe.10-09-0114
7. Abdufatayev, S. (2022). ИНТЕГРАЦИЯ-ЎҚУВЧИЛАРДА КОМПЕТЕНСИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИ СИФАТИДА. Физико-технологического образование, (6).

MAKTABGACHA TA'LIMGA XORIJIY TAJRIBALARNI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

SAFAROV BOTIR NORBOYEVICH
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim sohasiga xorijiy tajribalarni joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Ta’limning dastlabki bosqichi sifatida maktabgacha ta’lim bolalarning kelajakdagi rivoji, ijtimoiylashuvi va shaxsiy fazilatlarining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda maktabgacha ta’limni isloh qilish jarayonida xorijiy tajribalarga tayanuvchi innovatsion yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada turli davlatlarning ilg‘or tajribalarini tahlil qilish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish masalalariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’limda pedagoglarning malakasini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности внедрения зарубежного опыта в систему дошкольного образования. Дошкольное образование, являясь первоначальным этапом обучения, играет важную роль в формировании личности, развитии социальных навыков и обеспечении успешного будущего ребенка. В контексте реформирования дошкольного образования в стране все более широко применяются инновационные подходы, основанные на зарубежных практиках. В статье уделяется внимание анализу передового опыта различных стран и вопросам его адаптации к местным условиям. Кроме того, затрагиваются вопросы повышения квалификации педагогов, совершенствования учебных программ и внедрения современных образовательных технологий в дошкольных учреждениях.

Annotation. This article discusses the distinctive features of introducing foreign experiences into preschool education. As the foundational stage of schooling, preschool education plays a crucial role in shaping children’s personalities, developing social skills, and securing a successful future for them. In the context of ongoing reforms in preschool education, innovative approaches based on foreign practices are being increasingly adopted. The article focuses on analyzing the best practices from various countries and addressing their adaptation to local contexts. Moreover, it touches upon the importance of improving teacher qualifications, enhancing curricula, and integrating modern educational technologies into preschool institutions.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, xorijiy tajriba, innovatsion yondashuv, pedagog malakasi, zamonaviy ta’lim texnologiyalari.

Ключевые слова: дошкольное образование, зарубежный опыт, инновационный подход, квалификация педагогов, современные образовательные технологии.

Keywords: preschool education, foreign experience, innovative approach, teacher qualification, modern educational technologies.

Maktabgacha ta’lim inson rivojining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bolalarning kelajakdagi hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nafaqat elementar bilimlarga ega bo‘lishadi, balki ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy qiziqishlar, muloqot madaniyati kabi ko‘plab sohalarda dastlabki tajribalarini orttirishadi. Shu sababli, mazkur bosqichdagi ta’lim sifati va unga innovatsion yondashuvlar doimiy takomillashtirib borilishi lozim. Ta’lim jarayoniga xorijiy tajribalarni joriy etish esa milliy maktabgacha ta’lim amaliyotini boyitadi, mavjud an’analarni yangi bosqichga ko‘taradi.

Xorijiy tajribalarni o‘rganish, avvalo, dunyoning turli burchaklarida shakllangan ta’lim nazariyalari va metodikalarining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Masalan, Italiyada keng tarqalgan Montessori tizimi bolalarning mustaqil fikrlashi, qiziqishlari va amaliy tajribalarini rivojlantirishga asoslangan. Bolalar ushbu tizimda o‘z qiziqishlariga mos ravishda erkin faoliyat olib boradilar va muayyan didaktik materiallar yordamida o‘qish hamda o‘rganish jarayonida faol ishtirok etadilar. Reggio Emilia yondashuvi ham bolalarda mustaqil kuzatish, izlanish va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Bu yondashuvda bolalarning fikr va mulohazalarini ochib berish, ular ichki qiziqishlariga tayangan holda mustaqil kashfiyotlar qilishlari uchun rag‘batlantirish muhim o‘rin tutadi.

Germaniyada shakllangan Waldorf pedagogikasi shaxsni butunligicha rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bolalarning ijodiy va estetik idrokini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, Finlyandiya ta’lim modelida bolalarning erkin fikrlashi, o‘yin shaklidagi o‘qitish va individual qobiliyatlarni rivojlantirish tamoyillari ustuvor o‘rinda turadi. Ushbu xorijiy tajribalar barcha mamlakatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq qilinishi mumkin emas, chunki har bir davlatning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari, shuningdek, tarbiyaviy an’analari mavjud. Ammo mazkur ilg‘or yondashuvlarning tamoyillarini milliy ta’lim muhitiga moslashtirish, maktabgacha ta’limning rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Xorijiy tajribalarni o‘rganish jarayonida birlamchi e’tibor bolalarga qo‘yiladigan talablar, pedagogik maqsadlar va o‘quv-uslubiy materiallarga qaratilishi lozim. Bu borada o‘qituvchilar va pedagoglar xorijda ishlab chiqilgan metodologik qo‘llanmalar, o‘yin texnologiyalari va turli didaktik vositalarni sinov tariqasida joriy qilish orqali o‘z tajribalarini boyitishlari mumkin. Biroq ushbu jarayon, albatta, mahalliy qonunchilik, davlat ta’lim standarti va milliy mentalitet bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak. Masalan, Montessori materiallarini tatbiq etishda, xonaning ichki tuzilishi va qulay mebel bilan ta’minlanishi, bolalarning xavfsizligi kabi masalalarga e’tibor qaratish zarur. Reggio Emilia usulidan foydalanganda esa, bolalarga o‘z fikrlarini ifoda etish, loyihalarni mustaqil rejalashtirish va ijro etish imkoniyatini yaratadigan muhitga ega bo‘lish lozim.

Maktabgacha ta’limda xorijiy tajribalarni samarali joriy etishning yana bir muhim omili – bu pedagoglarning malakasini oshirishdir. Chet el uslublaridan foydalanish pedagogningshaxsiy bilim va ko‘nikmalarini, metodik mahoratini talab etadi. Shu bois, pedagog kadrlar uchun xorijiy ekspertlar bilan mahorat darslari tashkil etish, xalqaro tajriba almashinuvi dasturlarida qatnashish, onlayn vebinarlar va konferensiyalarga jalb etish kabi imkoniyatlarni yaratish zarur. Malaka oshirish davomida pedagoglar xorijda keng qo‘llaniladigan texnologiyalar, psixologik yondashuvlar va bolalar bilan muloqot madaniyati bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilishadi. Natijada, o‘qituvchi faqat bilim berish bilangina cheklanmay, bolalar bilan samarali hamkorlik o‘rnatish, ularning ruhiy holatini tushunish va o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish mahoratini rivojlantiradi.

Xorijiy tajribalarni o‘rganishda ilmiy-tadqiqot ishlari, xalqaro loyihalar va ilmiy hamkorliklar muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda maktabgacha ta’limni rivojlantirish dasturlari xorijiy ilmiy markazlar, xalqaro tashkilotlar va donor institutlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilsa, tajriba almashinuvi jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Masalan, BMTning Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) yoki YUNESKO (UNESCO) kabi tashkilotlar bilan hamkorlik maktabgacha ta’lim dasturlarini takomillashtirishda katta yordam beradi, chunki ushbu tashkilotlar dunyoning turli hududlarida bolalar tarbiyasi va ta’limi bo‘yicha boy ilmiy-amaliy tajribaga ega.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida xorijiy tajribalarni joriy etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham dolzarbdir. Bolalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qiziqish ortib borayotgan hozirgi zamonda turli interaktiv o‘yinlar, virtual dasturlar va multimedia resurslari ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shu bilan birga, chet el tajribasida bolalarning ekran vaqtini cheklash, texnologiyalarni asosan ma’rifiy va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida qo‘llash talablari kuzatiladi. Demak, xorijiy amaliyotlarni o‘rganish orqali bu borada ham muvozanatli yondashuvni shakllantirish, bolalarda axborot iste’mol qilish

madaniyatini, axborot xurujlaridan himoyalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim.

Xorijiy tajribalarni tatbiq etishda jamiyatning, xususan, ota-onalarning hamkorligi alohida rol o‘ynaydi. Aksariyat xorijiy yondashuvlarda oilaviy muhit va ota-onalar bilan muloqot bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojini ta’minlashda bosh omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalari ham o‘z navbatida, ota-onalarga ma’lum metodik ko‘rsatmalar berish, farzandlarining rivojlanish xususiyatlari bo‘yicha maslahatlar taqdim etish va oilaviy tarbiyada tatbiq qilinadigan mashg‘ulotlar haqida ma’lumotlar yetkazishlari zarur. Bu jarayon ota-onalar bilan tuzuk aloqa o‘rnatishni talab qiladi, chunki ijtimoiy sherikchilikka asoslangan model xorijiy pedagogik tajribalarda muvaffaqiyatli amaliyot sifatida qayd etilgan.

Maktabgacha ta’limga xorijiy tajribalarni joriy etish, shuningdek, bolalarning ruhan va jismonan sog‘lom rivojlanishiga xizmat qiluvchi sharoitlar yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Ayrim xorijiy metodikalarda bolalarning tabiat bilan uyg‘unlikda o‘sishi, ochiq havoda faol o‘yinlar va ko‘proq tabiiy materiallardan foydalanish talab etiladi. Ko‘p davlatlarda bog‘cha yoshidagi bolalar kun davomida bog‘cha hududida yoki undan tashqarida tabiat qo‘ynida ma’lum vaqtlarda harakatli mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishadi, xorijda “forest school” (o‘rmon maktabi) kabi tashabbuslar ham mavjud. Bunday amaliyotlar bolalarning nafaqat jismoniy rivoji, balki aqliy va ruhiy barqarorligi uchun ham foydali hisoblanadi. Shu tariqa, xorijiy tajribalardagi bunday unsurlarni o‘zimizning iqlim va atrof-muhit sharoitlariga moslashtirish orqali bolalarda tabiatni asrab-avaylash hissini mustahkamlash, ularni faol va sog‘lom turmush tarziga jalb etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, bolalarning ma’naviy va jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashish, pedagoglarning malakasi hamda ijodiy yondashuvini yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq bu jarayonda har bir xorijiy metodik yoki uslubni ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olish emas, balki ularni milliy an’ana va qadriyatlarga mos holda qayta ko‘rib chiqish, moslashtirish hamda sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq. Mahalliy muhit, ijtimoiy-ehtiyojiy xususiyatlar va davlat siyosati bilan birga, xorijiy tajribalarning samarali jihatlari uyg‘unlashgandagina maktabgacha ta’limda kutilgan ijobiy natijalar shakllanadi. Kelajakda bolalarning har tomonlama rivoji va ularning jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun innovatsion va puxta o‘ylangan yondashuvlar zarur. Shuning uchun ham xorijiy amaliyotlardan foydalanish jarayonini tizimli, bosqichma-bosqich va izchil tarzda amalga oshirish zarur bo‘lib, bu ishga jamiyatning barcha bo‘g‘inlari – ta’lim tashkilotlari, ota-onalar, davlat idoralari va keng jamoatchilik birdek mas’uldir. Aynan shu hamkorlik va o‘zaro muloqot maktabgacha ta’lim sifatini haqiqatan ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Montessori, M. (1964). The Montessori Method. Schocken Books.
2. Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. (Eds.). (2012). The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation. Praeger.
3. Utevsky, B. (2007). Understanding Waldorf Education: Teaching from the Inside Out. The New Educator, 3(1), 29-47.
4. Hujala, E., Turja, L., Gaspar, M. F., ve ve. (2009). Perspectives to Early Childhood Education: Spotlights from Finland, Russia, and Portugal. Early Child Development and Care, 179(1), 1-13.
5. UNICEF. (2019). A World Ready to Learn: Prioritizing Quality Early Childhood Education. United Nations Children’s Fund.
6. UNESCO. (2010). Early Childhood Care and Education Regional Reports. UNESCO Publishing.
7. MEB (Turkiya Milliy Ta’lim Vazirligi). (2013). Okul Öncesi Eğitim Programı. Ankara: MEB Yayınları.
8. Bruner, J. S. (1983). Child's Talk: Learning to Use Language. Oxford University Press.

VALEOLOGIK KOMPETENSIYALAR VA PEDAGOGIK TASNIFI

BERKINOVA CHAROS
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada valeologik kompetensiyalar va ularning pedagogik tasnifi ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Inson salomatligi, sog‘lom turmush tarzi va ta’lim jarayonida salomatlikni mustahkamlash masalalari jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, har bir pedagog o‘zida va o‘quvchilarida valeologik kompetensiyalarni shakllantirish, ularning rivojlanish bosqichlarini monitoring qilish va pedagogik jarayonda samarali qo‘llash zaruratiga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: valeologiya, salomatlik, sog‘lom turmush tarzi, valeologik kompetensiya, pedagogik tasnif, innovatsion texnologiyalar, ta’lim jarayoni.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения рассматриваются вопросы, связанные с валеологическими компетенциями и их педагогической классификацией. Здоровье человека, здоровый образ жизни и укрепление здоровья в образовательном процессе являются важными критериями развития общества. Исходя из этого, каждый педагог сталкивается с необходимостью формирования и мониторинга валеологических компетенций у себя и учащихся, а также с эффективным применением их в педагогической практике.

Ключевые слова: валеология, здоровье, здоровый образ жизни, валеологическая компетенция, педагогическая классификация, инновационные технологии, образовательный процесс.

Annotation. This article provides a psycho-pedagogical and social analysis of the main forms of working with families. It discusses the interconnection between family and society, the educational processes that take place within the family, and the importance of effective collaboration with parents. Various techniques, counseling, psychological support, and preventive measures are examined to illustrate how positive outcomes in family interventions can be achieved. Furthermore, the article explores the experiences of contemporary educational institutions and social workers in cooperative engagement with families, highlighting the effectiveness of events conducted with innovative methods and digital tools.

Kalit so‘zlar: oila bilan ishlash, psixologik yordam, hamkorlik, innovatsion metodlar, ijtimoiy pedagogika

Ключевые слова: работа с семьей, психологическая помощь, сотрудничество, инновационные методы, социальная педагогика

Keywords: family work, psychological support, collaboration, innovative methods, social pedagogy

Oila har qanday jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, uning barkamolligi, rivoji va mustahkamligi butun jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Oilada shakllanadigan ijtimoiy, ma’naviy, psixologik va tarbiyaviy munosabatlar nafaqat mazkur oila a’zolarining, balki jamiyatning boshqa sohalarida ham o‘z aksini topadi. Shu boisdan, zamonaviy sharoitda ijtimoiy soha vakillari, pedagoglar va psixologlar oldida turgan muhim vazifalardan biri — oila bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish, samarali usullarni qo‘llagan holda turli muammolarni hal etishga ko‘maklashish, oilaga tegishli ma’naviy-psixologik muhitni yaxshilashdir.

Oila bilan ishlashning ahamiyati, eng

avvalo, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy va psixologik omillarga bog‘liq holda shakllanadi. Har bir oila jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan, milliy urf-odatlar va an’analardan, ta’lim darajasidan, shaxslararo munosabatlar namunalaridan ta’sirlanadi. Tarixiy rivojlanish jarayonida oilaning tuzilishida va undagi rollar taqsimotida turli o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Masalan, XX asrning o‘rtalaridan boshlab, ko‘plab davlatlarda oila tuzilmasi birmuncha soddalashdi, avvalgi katta oilalar o‘rnini yadro oilalar — faqat ota-ona va farzandlardan tashkil topgan tartibga almashtirdi. Hozir esa globallashuv, iqtisodiy islohotlar, texnologiyaning rivojlanishi, migratsiya va shunga o‘xshash jarayonlar oiladagi munosabatlar tartibiga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda.

Ijtimoiy-pedagogik yoki psixologik yondashuvdagi ish shakllarini aniqlashda, avvalo, oilaning talablari, muammolari va rivojlanish darajasi inobatga olinishi kerak. O‘quvchi yoki talabaning oilasi, u yerda shakllanadigan munosabatlar, tarbiyaviy muhit qanday ekanligi, farzandlarining ruhiy va jismoniy xususiyatlari nimalardan iboratligi kabi omillar ham ish mazmunini belgilaydi. Oilada bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq qiyinchiliklar, ijtimoiy moslashuv muammolari yoki nizolar kuzatilishi mumkin. Bunday sharoitda pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy xodimlar tomonidan o‘z vaqtida ko‘rsatiladigan yordam, to‘g‘ri tanlangan ish shakli ko‘p holatlarda oilani ijtimoiy inqirozdan saqlab qolish, oiladagi nizolarni yumshatish, farzandlarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir o‘tkazish imkonini beradi.

Oila bilan ishlashda ta’lim muassasalari, xususan, maktablarning o‘rni beqiyos. Maktab o‘quvchilar hayotining asosiy qismi o‘taydigan, bilim va tarbiya beriladigan ijtimoiy maskan hisoblanadi. Ota-onalar va maktab o‘rtasidagi muntazam hamkorlik farzandlarning intellektual, ijtimoiy-psixologik va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Hozirgi zamon ta’limida “ota-onalar majlislarini o‘tkazish” an’anaviy shakl bo‘lib qolmoqda, biroq bu usul ko‘pincha ota-onalarga faqat xabar berish, ularning farzandlari o‘qishida yuzaga kelgan muammolarni sanab o‘tish bilan cheklanadi. Ayni jarayonni yanada takomillashtirib, ota-onalarning ham ishtirokini talab qiladigan, ular bilan birgalikda yechim izlashga yo‘naltirilgan interfaol suhbatlarga almashtirish mumkin. Shunda o‘quv yili davomida bola rivoji, tarbiyasi va o‘qishidagi ijobiy hamda salbiy o‘zgarishlarni birgalikda muhokama qilinadi, real amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Ota-onalar bilan faol ishlashda “konsullik” yoki “maslahat” xizmatlari ham alohida o‘rin tutadi. Ota-onalar farzandi bilan bog‘liq biror muammoni his qilganida, maslahatchi sifatida faoliyat yuritadigan mutaxassislarga murojaat etadi. Bunda psixolog, ijtimoiy pedagog yoki sinf rahbari oilaviy vaziyatni chuqur o‘rganib, ular duch kelayotgan to‘siqlarni tahlil qiladi, tegishli tavsiyalar beradi. Shunday uchrashuvlar davomida bolaning xulq-atvori, aqliy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari, ularning psixologik holati, oiladagi munosabatlar tarangligi kabi masalalar chuqur ko‘rib chiqiladi, zarur bo‘lganda, ijtimoiy xizmatlar yoki tibbiy mutaxassislar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi. Muhimi, bunday maslahatlashuvlarda ota-onalarning faqat passiv tinglovchi bo‘lishi emas, balki faol mulohazaga, muammoni birgalikda tahlil qilishga, yechimlarga xulosa topishga undash lozim.

Oila bilan ishlash jarayonida tarbiyaviy tadbirlar, seminar-treninglar, mahorat darslari ham yaxshi samara beradi. Masalan, “Muvaffaqiyatli tarbiya sirlari” yoki “Farzandlar bilan samarali muloqot usullari” mavzusida tashkil etiladigan treninglarda ota-onalar ham nazariy, ham amaliy jihatdan boy tajribaga ega bo‘ladilar. Tadbirlar davomida turli o‘yin, rolli mashqlar, guruhiy muhokamalar, psixologik testlar yordamida ota-onalarning tarbiyaviy ko‘nikmalari kengayadi, o‘z farzandini yaxshiroq tushunish, hissiyotlari va qobiliyatlarini ilg‘ash borasidagi saviyalari oshadi. Treninglarni malakali psixologlar yoki pedagoglar olib borishi, ota-onalar bilan muloqotda do‘stona va hamkorlik ruhida ishlashlari muhim. Bu metod oilada hamjamiyatlilik muhitini shakllantirish,

tarbiyaviy muammolarni oldini olish va oila a’zolarining ruhiy salomatligini mustahkamlash uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Oila bilan ishlashning yana bir muhim ko‘rinishi “uyga tashrif” yoki “uy bo‘ylab kuzatuv” shaklidir. Bu usul asosan ijtimoiy nochor, murakkab oilalarda, tarbiyaviy kamchiliklar kuzatilayotgan uy sharoitini bevosita ko‘rish zarur bo‘lgan holatlarda qo‘llaniladi. Ijtimoiy pedagog, psixolog yoki boshqa mutaxassis bunday oilalarga tashrif buyurib, u yerda mavjud sharoit, tarbiyaga ta’sir qiladigan omillar, nizolar yoki maishiy muammolarni aniqlaydi. Agar oilaning ijtimoiy yordamga ehtiyoji bo‘lsa, tegishli tashkilotlarga murojaat qilish, turli ijtimoiy dasturlar haqida ma’lumot berish, zarur hujjatlarni rasmiylashtirish borasida ko‘maklashish ham ushbu ish shaklining tarkibiy qismidir. Oila a’zolari bilan bevosita shu muhadda suhbatlashish, ularning talab va qiziqishlarini aniqlash, zaruratga ko‘ra, profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish ijobiy natija berishi mumkin.

Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham oila bilan ishlash jarayonida tobora dolzarb bo‘lmoqda. Onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar orqali ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida tezkor aloqa kanallari yaratilmoqda. Farzandining baholari, xulq-atvori, darslarga qatnashish darajasi, tibbiy ko‘rik natijalari kabi ma’lumotlar elektron tizimlarga kiritilib, ota-onalar bilan o‘z vaqtida bo‘lishiladi. Onlayn treninglar, vebinarlar va masofaviy maslahatlashuvlar pandemiya sharoitida ayniqsa keng tarqaldi, bu esa oilalarning malakali mutaxassislardan munosib yordam olishiga qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, raqamli vositalar yordamida ota-onalarga tarbiyaviy videoroliklar, elektron qo‘llanmalar, psixologik savolnomalar yetkazib berish, umumiy so‘rovlar o‘tkazish, qiziqish doiralariga ko‘ra targ‘ibot materiallarini taqdim etish mumkin. Muhimi, bunday texnologik yondashuvlarda shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi, ota-onalar bilan muloqotda axloqiy me’yorlarga rioya qilish masalalari ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Oilada katta yoshdagi shaxslar bilan ishlash bilan bir qatorda, farzandlar bilan ham individual yoki guruhiy psixologik mashg‘ulotlarni tashkil etish zarur. Bolalarning yosh xususiyatlari, temperament tipi, oiladagi mavqeiga ko‘ra, ularning ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash, zarur hollarda mustaqil psixologik yordam kurslarini o‘tkazish ijobiy samara beradi. Bola oiladagi muammo yoki nizodan jabrlanuvchi sifatida ishtirok etayotgan bo‘lsa, unga mos harakatlar strategiyasi tanlanishi kerak. Masalan, nizoli vaziyatlarni hal etishda “vositachilik” yoki “mediatsiya” uslubiga murojaat qilish, bola bilan ota-onasi o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash, o‘zaro ishonchni mustahkamlash bo‘yicha qadamlarni ishlab chiqish psixologik salomatlikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Oila bilan ishlash jarayonida mustahkam ijtimoiy sherikchilik tamoyili amal qilishini ta’minlash zarur. Bunda maktab, mahalla, ijtimoiy himoya bo‘limlari, tibbiy markazlar, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa tegishli institutlar hamkorlikda faoliyat yuritishi, kerak bo‘lsa, oilaga tibbiy-psixologik ko‘mak, huquqiy maslahatchilik, iqtisodiy yordam, zamonaviy kasb-hunar o‘qitish kabi xizmatlarni birlashtirishi mumkin. Jamiyat miqyosida yagona “ijtimoiy hamkorlik platformasi” yaratish, ota-onalar uchun ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni yo‘lga qo‘yish, ommaviy axborot vositalari orqali oilaviy qadriyatlar, sog‘lom turmush tarzi, tarbiya masalalarini keng yoritish ham ushbu ishlarga qo‘shimcha turtki beradi.

Boshqa tomondan, ayrim oilalarda tarbiyaviy muammolar ota-onalarning ma’lumot darajasi pastligi, zararli odatlarga berilganlik, moddiy yetishmovchilik yoki ijtimoiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu holatlarda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotdan tashqari, aniq va reja asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy iqtisodiy yordam choralari ham muhimdir. Kambag‘allikni kamaytirish, oilalarga munosib daromad manbalari yaratish, bandlikni oshirish, zarur mutaxassisliklarni egallashda ko‘mak berish

singari omillar oila ichidagi nizolar va stress omillarining kamayishida katta ahamiyatga ega. Shu bois oila bilan ishlashning asosiy ish shakllari keng ko‘lamli, o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, har bir holatda ham sinchiklab o‘rganish, tahlil va maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar tizimi asosida amalga oshirilishi zarur.

Shuningdek, oila bilan ishlash jarayonida ijtimoiy-pedagogik tadbirlarni tashkillashtirishni umumiy va xususiy maqsadlar doirasida ko‘rib chiqish lozim. Umumiy maqsad — jamiyatda sog‘lom, mustahkam, ma’naviy boy va ijtimoiy faol oilalarni ko‘paytirish, ota-onalarda tarbiyaviy savodxonlikni oshirish. Xususiy maqsad esa, muayyan oilada mavjud noqulaylik yoki muammoni hal etish, farzandlarda ijtimoiy moslashuvni yaxshilash, ota-onalar o‘rtasidagi taranglikni kamaytirish, psixologik muhitni barqarorlashtirish kabilardan iborat bo‘lishi mumkin. Bu maqsadlarga erishish yo‘lida “oilaviy psixologik portret” tuzish amaliyoti tobora keng qo‘llanilayotgani e’tiborlidir. Ma’lum vaqt davomida oila a’zolari bilan suhbat, kuzatuv, test va savolnoma usuli orqali to‘plangan ma’lumotlar asosida har bir oila uchun alohida tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bunday yondashuv ishning manzilli va individual xususiyat kasb etishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oila bilan ishlashning asosiy ish shakllari doimo yangilanib, zamon talablariga moslashib borishi lozim. Bugungi kunda an’anaviy uslublar bilan bir qatorda, interfaol va texnologik yondashuvlar, ijtimoiy sherikchilik, psixologik treninglar, onlayn maslahatlar, oilaga tashriflar va mediatsiya kabi shakllar samaradorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega. Har bir uslubni tanlashda esa oilaning o‘ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari, tarbiyaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va boshqa omillar e’tiborga olinishi lozim. Shu bilan birga, bu jarayonda jamiyatning barcha bo‘g‘inlari — maktab, mahalla, davlat va nodavlat tashkilotlari, huquqni muhofaza qilish organlari birgalikda ishlashi, o‘zaro hamkorlik ruhida harakat qilishi muhimdir. Ana shundagina oila bilan ishlash jarayonida barqaror va davomli ijobiy natijalarga erishish, farzandlar kelajagini mustahkamlash, jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge: Harvard University Press, 1979.
2. Brotherson S. E., White J. M. Family Life Education: Integrating Theory and Practice. Family Relations, 1995, 44(1), 23–28.
3. Erickson R. J. Social Work with Families: A Theory-Guided Process. Chicago: Lyceum Books, 1995.
4. Oila psixologiyasi: ilg‘or amaliyotlar to‘plami / tuz. N. Norboyeva. Toshkent: “Fan”, 2018.
5. Marczak M., Becher E. Parent Engagement: Strategies for Involving Parents in School Health. Journal of School Health, 2016, 86(10), 765–768.
6. Richmond M. E. Social Diagnosis. New York: Russell Sage Foundation, 1917.
7. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
8. Zeer E. F. Sotsialno-pedagogicheskie podkhody k sem’e. Pedagogika, 2012, №2, 34–42.

BADIIY ONOMASTIK BIRLIKLAR ORQALI TALABALARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING METODIKASI

SANAKULOV ZAYNIDDIN IBODULLAYEVICH
f.f.f.dok. (PhD), dots., ChDPU

Annotatsiya: Mazkur maqola badiiy onomastik birliklar orqali lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik va didaktik xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqolada kommunikativ (muloqotga yo‘naltirilgan) metod, integratsion (fanlararo) metod, loyiha asosida o‘qitish metodi va "Ismlar ma’nosi" metodining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Ushbu metodlar o‘quv jarayonida talabalarning til va madaniyatga oid bilimlarini chuqurlashtirishga, shuningdek, lingvistik kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Maqola o‘qituvchilarga badiiy onomastik birliklarni o‘qitishda samarali usullarni qo‘llashda yordam beradi.

Kalit so‘zlar: badiiy onomastika, lingvistik kompetensiya, kommunikativ metod, integratsion metod, loyiha asosida o‘qitish, ismlar ma’nosi, tilshunoslik, didaktika, fanlararo integratsiya, o‘quv metodlari.

Abstract: This article explores the methodology of developing linguistic competence through literary onomastic units. It discusses the communicative (communication-oriented) method, integrative (interdisciplinary) method, project-based teaching, and the "Meaning of Names" method. These approaches are designed to enhance students' understanding of language and culture, fostering the development of linguistic competence. The article offers educators valuable insights and effective methods for teaching literary onomastic units.

Keywords: literary onomastic units, linguistic competence, communicative method, integrative method, project-based teaching, meaning of names, linguistics, didactics, interdisciplinary integration, teaching methods.

KIRISH.

Badiiy onomastik birliklar tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi, chunki ular til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘lanishni namoyon etadi. Badiiy nomlar nafaqat adabiyotda, balki kundalik muloqotda ham insonlarning madaniy va lingvistik tajribasini ifodalaydi. Ushbu maqola badiiy onomastik birliklar orqali lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodikasini tahlil qiladi. Talabalarning tilga oid bilimlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlarning ahamiyati katta bo‘lib, ushbu maqolada kommunikativ (muloqotga yo‘naltirilgan) metod, integratsion (fanlararo) metod, loyiha asosida o‘qitish metodi va “Ismlar ma’nosi” metodi kabi yondashuvlar o‘rganiladi. Ushbu metodlar yordamida talabalar tilni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy ravishda ham o‘rganadilar. Xususan, badiiy nomlar o‘quvchilarga turli madaniyatlarni o‘rganishda, muloqotda samarali ishtirok etishda va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda katta yordam beradi. Maqola, shuningdek, badiiy onomastik birliklar asosida o‘qitish metodlari talabalarning madaniy va tilshunoslik bilimlarini chuqurlashtirishda qanday samarali natijalarga olib kelishini ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM.

O‘zbekistonda nemis tili xorijiy tillar orasida tobora ommalashib bormoqda. Xususan, turli oliy o‘quv yurtlari, ixtisoslahtirilgan maktab va akademik litseylar, Goethe-Institut markazlari hamda nemis tili bo‘yicha xalqaro sertifikatlash

dasturlari bu tilni chuqur o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bunda nemis tili o‘rganishning amaliy-ma’naviy qiymatini oshirish, talabalarning lingvistik kompetensiyasini kengaytirish hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Shu nuqtayi nazardan, badiiy onomastik birliklar (ism, familiya, toponim, laqab, poetik nom va b.) bilan ishlash til o‘rganishda juda katta ahamiyatga ega. Ya. Komenskiy o‘zining didaktika haqidagi tadqiqotlarida, “o‘quv jarayonida o‘rganuvchilar uchun qiziq va hayotiy bo‘lgan materialdan foydalanish, ta’lim mazmunini chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi”, deb ta’kidlaydi. Zero, badiiy onomastik birliklar til va madaniyatning alohida bir bo‘lagi sifatida hayotiylik tamoyilini ro‘yobga chiqaradi.

Sohaviy tadqiqotlarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishda innovatsion va integratsion metodlarni qo‘llash talabalarning so‘z boyligi, talaffuz va matnni semantik tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratishi alohida ta’kidlanadi. Badiiy onomastik birliklarni o‘rganish esa ana shu jarayonda “til + madaniyat” uyg‘unligiga erishishning samarali yo‘llaridan biridir.

Mazkur paragrafda badiiy onomastik birliklar orqali til o‘rganishning metodik hamda didaktik asoslari keng yoritiladi. Metodik xususiyatlar – qanday usullar, dars ishlanmalari, mashqlar bilan o‘quv jarayonini boyitish mumkinligiga qaratilgan. Bunda asosan nemis tili o‘quv jarayonidagi fonetik, leksik, grammatik, semantik ko‘nikmalarni o‘stirish, shu bilan birga milliy (o‘zbek) onomastik meros bilan o‘zaro qiyosiy tahlil qilish usullariga e’tibor qaratiladi.

Badiiy onomastik birliklar asosida talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir qator samarali metodlar mavjud bo‘lib, ularni o‘quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun o‘qituvchi tomonidan tegishli ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi. Shuningdek, ko‘plab ilmiy manbalarda bu kabi metodlarni qo‘llash ma’lum shart-sharoitlarni taqozo etishi ta’kidlangan. Shu munosabat bilan biz o‘z tadqiqotimiz doirasida tajriba-sinov ishlari davomida ushbu metodlardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etdik hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik-didaktik ko‘rsatmalar ishlab chiqib, pedagoglar e’tiboriga havola qildik. Quyida mazkur metodlarning ayrimlari haqida kengroq ma’lumot beriladi.

Kommunikativ (muloqotga yo‘naltirilgan) metod bu – talabalarning tilni faqat o‘rganish obyekti sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida qo‘llashlarini ta’minlaydigan yondashuvdir. Metodning mazmuni Communicative Language Teaching tamoyillariga asoslanib, o‘rganilayotgan tilni turli suhbat, rolli o‘yin va dialoglar shaklida faol qo‘llashni maqsad qiladi.

Tadqiqotimizning tajriba-sinov bosqichlarida ushbu metoddan samarali foydalanish uchun quyidagi metodik-didaktik shartlar talab etilishi aniqlandi:

Guruhlar yoki juftliklarda ishlash: o‘qituvchi dars avvalida talabalarni kichik guruhlarga yoki juftliklarga bo‘ladi. Kreativ yondashuv orqali rolli o‘yin (role play) vaziyatlari oldindan rejalashtiriladi. Guruh a’zolarining bir-biriga bo‘lgan muloqotini rag‘batlantirish, passiv talabalarni ham faol ishtirok etishga jalb qilish metodning pirovard natijasini oshiradi;

badiiy onomastik birliklardan foydalanish: matnda uchraydigan personaj nomlari (Hans, Alisher), joy nomlari (Samarqand, München) yoki mifologik nomlar (Faust, Mephistopheles) guruh muhokamasi va rolli o‘yin ssenariylarida markaziy o‘rin tutadi. O‘qituvchi “Hans Samarqandga keldi” kabi ssenariy vazifalarini tuzishi yoki talabalar o‘zlari ssenariy yozishi mumkin. Keyinchalik ana shu nomlar dars davomida muntazam qo‘llaniladi;

rolli o‘yin va dialogning qo‘llanishi: “Hans – sayyoh, Otabek – badiiy matn qahramoni” vaziyatida talabalar nemis va o‘zbek madaniyati to‘qnashuvida yuzaga keladigan suhbatni ijro etadilar. Dialog savol-javob, bayon, ko‘rsatma, so‘rov shaklida qurilishi mumkin. Muhim jihati shundaki, rolli o‘yinda badiiy onomastik birliklar (Hans, Otabek, Samarqand) suhbat mavzusiga integratsiya qilinib, real nutqiy kontekst yaratiladi. Rolli o‘yin yoki guruh suhbati yakunida talabalardan

o “Suhbat davomida qaysi nomlarni ishlatdingiz?”

o “Nomlar mavzuga qanday ma’noviy rang bera oldi?”

o “Nemis tilida onomastik birliklar talaffuzi va qo‘llanishida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?” kabi tahliliy savollar orqali metod doirasida o‘quvchilar nutqiy jarayonni o‘zlari tahlil qilishga erishiladi.

Mazkur metodning maqsadli qo‘llanishi talabalar lingvistik kompetensiyaning rivojlanishiga sabab bo‘lishiga guvoh bo‘ldik. Jumaldan, rolli o‘yin va dialoglarda takroran talaffuz qilish orqali onomastik birliklarning fonetik xususiyatlari yodda qoladi. Leksik va semantik kompetensiya: Badiiy nomlarning leksik ma’nosi, ma’no ko‘lamini tushunish (Hans – shaxs ismi, Samarqand – shahar nomi) kontekstda aniq ko‘rinadi, talabalar lug‘at boyligini oshirishadi. Talabalar nutqiy vaziyatda nomlarga xos madaniy, tarixiy, ijtimoiy ma’nolarni tushunib, ulardan joyida foydalanishni o‘rganadilar. Bu “nom”ning nutqiy kontekstda tutgan o‘rnini chuqur his qilishni ta’minlaydi. Natijada pragmatik kompetensiya shakllanadi. Communicative Language Teaching talabalar muloqotga kirishishini undaydi, shuningdek, nomlardagi ifoda vositalarini ishlatish jarayonida og‘zaki va yozma nutq faollashadi. Badiiy onomastik birliklar oddiy so‘zlarga qaraganda shaxsiy, tarixiy va geografik konnotatsiyaga ega bo‘lgani uchun qiziqish uyg‘otadi.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, “Kommunikativ (muloqotga yo‘naltirilgan) metod” badiiy onomastik birliklardan foydalanishni talabalar faqat lug‘aviy ma’noda emas, balki real hayotiy va nutqiy kontekstda ko‘rishiga imkon yaratadi. Aynan shunday yondashuv orqali madaniyatlararo muloqot kompetensiya rivojlanadi. Rolli o‘yinlarda turli madaniy kodlar ifodasi bo‘lgan nomlar (Hans, Otabek, Samarqand va b.) real muloqot vaziyatida qo‘llanilishi talabalarni bir-birining madaniyatini chuqurroq o‘rganishga undaydi. Bundan tashqari, talabalarga ijodiy izlanish imkonini beradi. Turli ssenariy tuzish, dialogni to‘ldirish orqali nomlarni qanday ishlatish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilishadi. Shuningdek, mazkur metod xotirada tezroq saqlash va o‘qitish samaradorligini oshirishi dalillandiki, bunda badiiy onomastik birliklar “nutq voqeligi” orqali idrok qilinadi, bu esa oddiy yodlashdan ko‘ra ancha samarali usul ekanini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, “Kommunikativ (muloqotga yo‘naltirilgan) metod” badiiy onomastik birliklarni dars jarayonida qo‘llash talabalarda til o‘rganishga nisbatan motivatsiyasini oshiradi, leksik va semantik tushunishni boyitadi hamda talabalarni rejalashtirilgan nutqiy faoliyat markaziga qo‘yadi. Shunday metodik yondashuv nemis tili yoki boshqa xorijiy tillar o‘rganuvchilarda lingvistik kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integratsion (fanlararo) metod – bu xorijiy tilni boshqa fanlar (adabiyot, tarix, madaniyat, geografiya, ijtimoiyot va b.) bilan birgalikda o‘qitishni nazarda tutuvchi yondashuvdir. Metodning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, til o‘rganish jarayonida quruq lingvistik bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, badiiy matnlar, tarixiy voqealar, ijtimoiy-ma’naviy kontekst va madaniy merosni ham yoritish kerak. Bu esa talabalarda o‘rganilayotgan til va milliy madaniyat o‘rtasida bog‘liqlikni hosil qilib,

ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

Tajriba-sinovishlarimizdavomidamazkur metodni dars jarayonida qo‘llash shartlari va bosqichlariga aniqlik kiritildi. Jumladan, badiiy matn tanlashda nemis adabiyotidan olingan kichik matn yoki parchalariga e’tibor qaratiladi (masalan, Thomas Mann, Goethe, Schiller, H. Böll, Herta Müller ijodidan). Tanlagan matnlarda uchraydigan toponimlar (Berlin, Hamburg, Rheinland va b.), to‘qima familiya yoki ism kabi onomastik birliklar ajratib olinadi. Fanlararo bog‘liqlikni tashkil etish maqsadidan kelib chiqqan holda darsda nafaqat matnning lingvistik jihatlari, balki uning tarixiy, geografik, madaniy konteksti ham o‘rganiladi. Masalan, nemis tilidagi familiyalarning (Müller, Fischer, Bauer) ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishi bilan o‘zbek familiyalarini (Temirov, Qo‘chqorov, Shodmonov) qiyoslash amalga oshiriladi. Bu ishda tarix, sotsiologiya yoki madaniyatshunoslik fanlaridan qator ma’lumotlar keltirilishi mumkin. Bunda o‘qituvchi oldindan tayyorlangan savollar, topshiriqlar yoki testlar yordamida toponimlar va familiyalarni qiyosiy o‘rganish vazifasini beradi. Talabalar dars davomida “Berlin – Toshkent”, “Hamburg – Buxoro” yoki “Müller – Temirov” kabi juftliklarni lingvistik, tarixiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan taqqoslaydi. Natijada madaniyat, tarix, geografiya elementlarini keltirish orqali talabalarda umumiy tushuncha shakllanadi: nemis tilida Müller – tegirmonchi, o‘zbek tilida Temirov – temirchi bilan bog‘liq xususiyat va b. Darsning oxirgi bosqichida talabalar bilimlarini jamoaviy munozara yoki loyihalar (mini-prezentatsiya, stend-taqdimot) orqali mustahkamlashi maqsadga muvofiqdir. Bunda turli fanlar bilan bog‘liq savollar (toponimlar orqali hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivoji, familiyalar orqali kasb-hunarlarning tarixiy ahamiyati) munozara qilinishi ham mumkin.

Mazkur metod nafaqat talabalarda fonetik, leksik ko‘nikmalarni rivojlantirishga hissa qo‘shadi, balki integratsion metod badiiy onomastik birliklarni “til + adabiyot + tarix + geografiya” chizig‘ida o‘rganishga imkon beradi. Bu esa dars jarayonini ancha boy va qiziqarli qiladi, o‘rganilayotgan til orqali boshqalarning madaniy merosiga kirib borish imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, talabaning nutqiy faolligi ortadi, chunki talabalar biror nom haqida nafaqat lug‘aviy, balki tarixiy, geografik yoki etnografik fikr bildirishi kerak bo‘ladi.

Tajriba-sinov mashg‘ulotlari ko‘rsatdiki, integratsion (fanlararo) metodda talabalarda lingvistik kompetensiya nafaqat talaffuz, lug‘aviy boylik, grammatika, balki madaniy xabardorlik bilan birga shakllanishi xulosalandi. Sjuningdek, ular o‘zbek va nemis madaniy kontekstlarini taqqoslab, mentalitet va madaniy tafovutlar to‘g‘risida chuqurroq tasavvurga ega bo‘lishadi. Til o‘rganishga doir amaliy mashg‘ulotlar (toponim va familiyalarni qiyoslash, geografik-fanlararo tahlil) tanish-tekshirish-dalil keltirish kabi tadqiqot usullarini kuchaytiradi. Bu esa intellektual faollikni oshiradi va dars samaradorligini yuqori darajaga olib chiqadi.

Demak, integratsion (fanlararo) metod – xorijiy tilni keng madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstda ko‘rish, badiiy onomastik birliklar misolida boshqa fanlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni ham talabalarga yetkazishga xizmat qiladi. Natijada talabalarning lingvistik kompetensiya bilan birga madaniy idrok va mentalitetlararo muloqot ko‘nikmasini rivojlantiradi, dars jarayonini biryoqlama emas, hamkorlik va tadqiqot ruhi bilan boyitadi. Shuningdek, talabalarga nemis tili orqali shunchaki lug‘at va grammatikani emas, balki butun bir madaniy makonni ham o‘rganish imkonini beradi.

Shu tariqa, integratsion metod badiiy onomastik birliklarni nafaqat til o‘rganish vositasi, balki turli fanlararo kompetensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmiga aylantiradi.

Qiyosiy (komparativ) metod – ikki

yoki bir nechta tilda uchraydigan onomastik birliklarni fonetik, leksik, semantik va stilistik jihatdan taqqosiy tahlil qilishga asoslangan yondashuvdir. Metodning asosiy g‘oyasi shuki, bitta nomning har xil tillardagi yozilish, talaffuz, semantik ma’no doirasi yoki stilistik rang-barangligini tahlil qilish natijasida talabalar shu nom til tizimiga doir o‘ziga xoslikni tezroq idrok etadilar. Bu yondashuv kontrastiv tahlil orqali lingvistik xatolarni kamaytiradi va turli til sistemalarining o‘xshash va farqli tomonlarini yaxshiroq tushunishlariga yordam berishi aniqlandi.

Ushbu metodni dars jarayonida qo‘llash uchun, dastavval, badiiy matn yoki nomlar jamlanmasi tanlanadi. Bunda o‘qituvchi nemis adabiyotidan (masalan, Goethe ijodidan “Mephistopheles”, Schiller asarlaridan personaj nomlari) yoki nemis geografiyasidan (Berlin, Hamburg) nomlarni ajratib oladi. So‘ngra o‘zbek adabiyoti yoki geografiyasidan mazmunan yoki shaklan qiyos qilinishi mumkin bo‘lgan onomastik birliklar (mas., Toshkent, Buxoro, Samarqand, “Alpomish” dostonidagi ismlar) tanlanadi. Qiyosiy (komparativ) tahlil jarayonida talabalar ikki tilda uchraydigan nomlarni bir varaqda yonma-yon yozib, ularning talaffuz (fonetik) farqlari, yozilish imlo (grafik) jihatlari, semantik ma’no doirasi, stilistik qiymati haqida fikr yuritadilar. Masalan, “Mephistopheles” nemis tilida ‘mɛ.fɪs.to.fɛ. ləs’ tarzda talaffuz etilsa, o‘zbekcha tarjimada “Mefistofel” shakli uchrashi mumkin, ‘ph’ tovushi o‘zbek transliteratsiyasida ‘f’ harfi bilan uzaytirilmasligi, ma’no rang-barangligi (yovuz ruh timsoli) qay darajada saqlanishi ham tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchi “Berlin – Toshkent” juftligi misolida shahar nomlarining kelib chiqishi, o‘zbekcha transkripsiya, nemischa yozilish, tarixiy-etimologik xususiyatlarini solishtiradi. Bundan tashqari, “Hamburg – Buxoro” bo‘yicha ham shaharlarning fonetik talaffuzi, madaniy jihatlari, turistlar uchun qiziqarli nuqtalar tahlil qilinishi mumkin. Talabalar o‘z o‘rganishlarini taqdimot, plakat yoki og‘zaki munozara shaklida namoyish etishlari maqsadga muvofiq. Qiyosiy jarayon oxirida o‘qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

- “Nomlarni talaffuz qilishda eng ko‘p qaysi tovushlar murakkablik tug‘dirdi?”
- “Semantik jihatdan ushbu nomlar ikki tilda ham bir xil ma’noni ifodalaydimi?”
- “Madaniy-fon tarkibida qanday farqlar bor?”

Talabalar bir-birining izohlarini eshitib, bahs-munozara orqali tushuncha va xulosalarni mustahkamlashadi.

Mazkur metod maqsadli qo‘llangan taqdirda talabalarning lingvistik kompetensiyalari, jumladan, fonetik ko‘nikmalari (kontrastiv yondashuv fonetik xatolarni tezroq aniqlash va to‘g‘rilashga yordam beradi. Talabalar nemischa va o‘zbekcha tovush tizimi, transliteratsiya, urg‘u o‘rni, bo‘g‘in tuzilishi haqidagi muhim ma’lumotlarni tezroq idrok etishadi), semantik va leksik boyligi (qiyoslash jarayonida nomlarning ma’no doirasi va lug‘aviy xususiyatlari aniq ko‘zga tashlanadi. Masalan, bir nom turli tillarda bir xil ma’noni ifodalashi yoki umuman boshqacha semantik yuklamaga ega bo‘lishi mumkin. Bu leksik kompetensiyani kengaytiradi), stilistik tadqiqot ko‘nikmasi (ayrim badiiy onomastik birliklar nemis adabiyotida ramziy yoki mifologik ma’noga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida esa bu ma’no boyligi tarjima jarayonida biroz o‘zgargan bo‘lishi mumkin. Buni qiyoslab o‘rganish talabalarni stilistik tahlilga undaydi, tilning badiiy va ma’naviy qirralarini chuqurroq tushunishga yo‘naltiradi), madaniy idrok va mentalitetni o‘rganish (nomlardagi ijtimoiy, tarixiy va madaniy fon talabalarda mentalitetlararo qiyos qilish malakasini hosil qiladi. Bu jarayon talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham kengaytiradi) kabilar rivojlanishi

isbotlandi.

Shunday qilib, “Qiyosiy (komparativ) metod” – xorijiy tilni, xususan nemis tilini, badiiy onomastik birliklar orqali samarali o‘rganishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Nomlarning fonetik, leksik, semantik, stilistik xususiyatlarini har xil tillarda birma-bir qiyoslash talabalarni til tizimidagi muvofiq va nomuvofiq jihatlarni tezroq payqash, madaniy, tarixiy, ma’naviy xabardorlikni oshirish, xorijiy til va o‘z ona tili o‘rtasidagi parallel yoki tafovutlarni tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatadi.

Natijada, bunday yondashuv talabalarda lingvistik kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlari – fonetik, leksik, grammatik, semantik va pragmatik – mustahkamlashiga sezilarli darajada hissa qo‘shadi.

Navbatdagi samarali metodlardan biri – loyiha asosida o‘qitish metodida talabalar berilgan mavzu doirasida mustaqil yoki guruh shaklida loyiha bajaradilar. Ushbu loyiha davomida talabalar nafaqat tilning grammatik, leksik va fonetik jihatlarini chuqur o‘rganishadi, balki ularni tarixiy-etimologik, madaniy va geografik kontekstda tahlil qilish imkoniyati ham yaratiladi. Masalan, “Nemis va o‘zbek onomastikasi” mini-loyihasi orqali talabalar nemis va o‘zbek tillarida uchraydigan ism, familiya, toponim kabi birliklarning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va madaniy xususiyatlarini solishtiradilar. Bu yondashuv talabalarni faqat darslik materiallariga bog‘lab qolmay, real hayotiy manbalar (gazetalar, jurnallar, elektron resurslar) yordamida mustaqil izlanishga ham undaydi. Mini-loyihani tashkil etish uchun talabalar 5–10 ta nemischa (joy nomi, ism, familiya) va o‘zbekcha (ism, toponim) misollarini tanlab oladilar. Masalan, nemis adabiyotidan yoki geografik materiallardan “Berlin”, “Hamburg”, “Müller”, “Fischer” kabi birliklar, o‘zbek adabiyotidan esa “Toshkent”, “Buxoro”, “Temirov”, “Qo‘chqorov” misollarini keltirish mumkin. Har bir guruh ushbu birliklarning tarixiy-etimologik ma’nosini, talaffuz va yozilish jihatlarini tekshiradi. Talabalar elektron lug‘atlar (masalan, DUDEN Online, Wiktionary) va tarixiy manbalar yordamida qo‘shimcha ma’lumot izlashadi. Loyihaning keyingi bosqichida guruhlar to‘plagan ma’lumotlarni asos qilib, slaydlar yoki plakat shaklida taqdimot tayyorlaydi. Taqdimotda har bir onomastik birlikning kelib chiqishi, madaniy va tarixiy konteksti, semantik rang-barangligi aniq ifodalangan bo‘lishi vazifada aniq ifodalanadi. Taqdimot davomida talabalar o‘z izlanishlarini va solishtirish natijalarini guruh oldida namoyish etishadi. Bu jarayonda ularning nutqiy kompetensiyasi ham mustahkamlanadi. Yakuniy bosqichda har bir guruh o‘z loyihasini himoya qilib, taqdimot yoki poster shaklida sinf oldida bayonot berishadi. Taqdimotdan so‘ng savol-javob sessiyasi tashkil etiladi. O‘qituvchi va boshqa guruh a’zolari loyihada keltirilgan ma’lumotlarga oid savollar berishadi, talabalar esa o‘z fikrlarini izchil va asosli tarzda himoya qilishadi. Bu bosqich talabalarning muloqot, kritik fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, loyihaga asoslangan o‘qitish talabalarni mustaqil izlanishga, ilmiy manbalar, elektron resurslar va tarixiy adabiyotlardan faol foydalanishga undaydi. Bu jarayon orqali talabalar til o‘rganish jarayonini faqat nazariy bilimlardan iborat emas, balki real hayotiy tajribaga aylantiradilar. Shuningdek, guruhda bajariladigan loyiha talabalarda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Hamkorlikda ishlash esa sinfda jamoaviy muloqotni kuchaytiradi. Bundan tashqari, taqdimot, savol-javob va himoya sessiyalari talabalar og‘zaki nutqini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bu ularga nafaqat o‘z bilimlarini ifodalash, balki boshqalar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi.

“Ismlar ma’nosi” metodi dars jarayonida

talabalarga o‘z ismlarining kelib chiqishi, semantik jihatlari, madaniy va shaxsiy ahamiyati haqida o‘zaro muloqot olib borish imkonini yaratishdir. Bunda har bir ishtirokchi o‘z ismi orqali shaxsiy identiteti, oilaviy va madaniy merosi bilan bog‘liq voqealarni, his-tuyg‘ularini va fikrlarini ifodalashi maqsad qilinadi. Ushbu yondashuv nafaqat til bilimlarini mustahkamlashga, balki madaniyatlararo xilma-xillikni, shaxsiy individuallikni va ijtimoiy muloqotni rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shadi.

Dars boshida o‘qituvchi barcha ishtirokchilarni doira shaklida joylashtiradi. Bu tartib darsning interaktivligini oshirib, barcha talabalar teng darajada fikr bildirishga imkon yaratadi. Talabalar o‘z ismlarini turli ranglardagi qog‘ozlarga yozib olish vazifasini bajaradilar. Bu vazifa orqali har bir ishtirokchining individual xususiyatlari aks etadi va vizual materiallar yordamida darsning estetik jihati mustahkamlanadi. Shundan so‘ng savol-javob bosqichi boshlanadi: o‘qituvchi yoki guruh sardorlari tomonidan quyidagi savollar asosida muhokama o‘tkaziladi:

1. Ismingizni ma’nosi nima?
2. Ismingiz sizga yoqadimi? Agar yoqmasa nima uchun?
3. Ismingizni kim qo‘ygan va bu uchun nima sabab bo‘lgan?
4. Ismingizni o‘zgartirishni hohlarmidingiz? Nima sababdan?
5. Ismingizni boshqacha aytiladigan shakllari bormi?
6. Ismingiz bilan bog‘liq qiziqarli voqealar bo‘lganmi?
7. Sizni qanday atashlarini hohlardingiz?

Ushbu savollar talabalarni o‘z ismlari haqida chuqurroq o‘ylashga, shaxsiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi tafsilotlarni ifodalashga undaydi. Muhokama jarayonida har bir talaba navbat bilan o‘z ismi va uning ma’nosi haqida fikrini bayon qiladi. Guruh a’zolari bir-birining izlanishlari, shaxsiy tajribalari va hikoyalariga savol-javob orqali qo‘shimcha izohlar kiritadi. Dars oxirida talabalar doira shaklida o‘zaro fikr almashish orqali ismlar orqali shaxsiy individuallik va madaniyatlararo xilma-xillikni ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

“Ismlar ma’nosi” metodi talabalarni shaxsiy ismlarning kelib chiqishi, semantik rang-barangligini va madaniy kontekstini tahlil qilishga undaydi. Masalan, kimdir o‘z ismi bilan bog‘liq shaxsiy yoki oilaviy tarixni bayon qilsa, boshqalar esa madaniy nuqtai nazardan izoh berishi mumkin. Bu esa talabalar orasida kontrastiv tahlil va stilistik tafovutlarni tezroq idrok etishga yordam beradi. Shuningdek, do‘stona va interaktiv muhit yaratishiladiki, ismlar haqidagi qiziqarli voqealar, oilaviy hikoyalar va shaxsiy izlanishlar darsda do‘stona muhitni shakllantirishga yordam beradi. Talabalar o‘zaro samimiy muloqot o‘tkazib, bir-birining madaniy qadriyatlarini hurmat qilishni o‘rganishadi.

Tajriba-sinov ishlarimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Ismlar ma’nosi” metodi talabalar orasida individuellikni namoyish etish va shaxsiy identitetni mustahkamlash, nutqiy va muloqot kompetensiyasini rivojlantirish orqali til o‘rganish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shu tarzda, “Ismlar ma’nosi” metodi talabalarni o‘z shaxsiy tarixlari, oilaviy an’analari va madaniy xususiyatlarini ifoda etishda faol ishtirok etishga undaydi. Natijada, bu metod nafaqat lingvistik kompetensiyaning leksik, fonetik, semantik va pragmatik jihatlarini rivojlantirishga, balki madaniyatlararo muloqot, shaxsiy individuallik va ijtimoiy identitetni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

XULOSA.

Maqolada keltirilgan metodik va didaktik yondashuvlar orqali badiiy onomastik birliklar orqali lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni keng tahlil qilindi. Badiiy nomlarning lingvistik, kognitiv va madaniy aspektlari talabalarning tilni o'zlashtirish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Kommunikativ yondashuv, integrativ metodlar va loyiha asosidagi ta'lim, o'quvchilarga tilning badiiy nomlar orqali tilni interaktiv o'rganish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, badiiy onomastik birliklar yordamida o'quvchilarning ma'naviy va madaniy dunyoqarashini kengaytirish, ularning tilga bo'lgan qiziqish va tushuncha darajasini oshirishda samarali usullarni taqdim etadi. Umuman olganda, maqolada keltirilgan metodlar, onomastik birliklarni o'rgatishda innovatsion yondashuvlarni ilgari suradi va tilshunoslik fanining amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 17- dekabrdagi 406-son buyrug‘iga 1-ILOVA. https://drive.google.com/file/d/1PESxLJtLz4Nfid_KukzQh-FR5Fy7twPp/preview
2. Baxtiyorov S. Toponimik birliklarning lingvistik xotirani rivojlantirishdagi o‘rni. –Toshkent: Fan, 2021. –B.351.
3. Коменський Ян. Велика дидактика // Історія зарубіжної педагогіки. Хрестоматія: навчальний посібник. – К.: Центр навчальної літератури, 2006. – 664 с.
4. Funk H. Methodische Konzepte für den DaF-Unterricht. // Deutsch als Fremd- und Zweitsprache. Ein internationales Handbuch. Art. 104. – Berlin/Wien: De Gruyter. – S. 940-952.
5. Kramsch C. Language and Culture. Oxford University Press, 1993.; Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press, 1996.
6. O‘zR VMning 2013-yildagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-son qarori.
7. Санакулов, З. И. (2019). Using of fiction in teaching foreign languages as a factor for formation of reproductive competence. Иностранные языки в Узбекистане, (2), 77-83.
8. Zayniddin, Sanakulov. "Chet tilini o ‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv." Ta’lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali 1.3 (2025): 16-18.
9. Sanakulov, Z. (2024). CLASSIFICATION OF LITERARY NAMES. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(07), 196–204. https://doi.org/10.37547/mesmj-V5-I7-25
10. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press, 1996.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARNING IJODIY FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

ERGASHEVA MUXTARAMXON MASHRABJON QIZI
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ijodiy faolligini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Chet tilini puxta o‘zlashtirish bilan bir qatorda, zamonaviy ta’lim jarayonida ijodiy yondashuvga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan va muammolarga innovatsion yechim topa oladigan pedagoglar tobora dolzarblashib bormoqda. Mazkur maqolada ijodiy faollik tushunchasining mazmuni, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish zaruriyati hamda buni amalga oshirish strategiyalari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan bayon etiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования творческой активности будущих преподавателей английского языка. Наряду с глубоким овладением иностранным языком, в современном образовательном процессе все большую востребованность приобретают педагоги с инновационным подходом, способные к самостоятельному мышлению и поиску креативных решений. В статье анализируется понятие «творческая активность», определяется необходимость формирования творческих умений в профессиональной деятельности будущих учителей английского языка и предлагаются научно-теоретические и практические стратегии для реализации данного процесса.

Annotation. This article explores the issue of enhancing the creative activity of prospective English teachers. Alongside mastering foreign language proficiency, the modern educational process increasingly demands teachers with an innovative mindset, capable of independent thinking and creative problem-solving. The paper examines the concept of “creative activity,” underscores the necessity of developing creative skills in the professional practice of future English teachers, and offers theoretical and practical strategies for achieving this goal.

Kalit so‘zlar: ijodiy faollik, ingliz tili o‘qituvchisi, pedagogik innovatsiya, mustaqil fikrlash, kognitiv ko‘nikmalar

Ключевые слова: творческая активность, преподаватель английского языка, педагогические инновации, самостоятельное мышление, когнитивные навыки

Keywords: creative activity, English teacher, pedagogical innovation, independent thinking, cognitive skills

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy maqsadlardan biri – mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega, muammolarga innovatsion echim topa oladigan mutaxassislar tayyorlashdir. Ayniqsa, global miqyosda chet tillari, xususan, ingliz tilini mukammal o‘zlashtirish talab etilayotgan bugungi kunda, kelajakda o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanadigan talabalarni ijodkorlik va kreativ fikrlashga rag‘batlantirish g‘oyat muhim bo‘lib bormoqda. Buning sababi shundaki, o‘qituvchining ijodiy faolligi nafaqat uning dars jarayonida yangicha metodlar qo‘llash, o‘quvchilarni ilhomlantirish va motivatsiya berishiga ko‘maklashadi, balki shu bilan birga, chet tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qiziqarli mashqlar va o‘yinlardan foydalanish, madaniy hamkorlikni rivojlantirish kabilarga ham zamin yaratadi.

Pedagogik nuqtai nazardan ijodiy faollik – bu shaxsning o‘z faoliyati davomida doimiy yangilikka intilishi, amaliy muammolarga yangicha yechimlar taklif qila olishi, ijodiy

g‘oyalarni shakllantirishi va ularni ijro etish qobiliyatidir. Bu jarayonda individual xususiyatlar, motivatsiya, bilim va ko‘nikmalar, shuningdek, ijtimoiy-madaniy omillar o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Ijodiy faollik turli sohalarda talabalarning o‘ziga xos fikrlash uslubi va mustaqil qaror qabul qilish malakasini rivojlantiradi.

Pedagogika fani an’anaviy yondashuvlarda ko‘proq tayyor bilimlarni o‘rgatishga e’tibor qaratgan bo‘lsa, bugungi tendensiya o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, innovative yondashuv, tadqiqot ko‘nikmalarini rag‘batlantirishni talab qiladi. Ingliz tili o‘qituvchisining ijodiy faolligi nafaqat lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish, balki interaktiv darslar yaratish, turli interfaol mashg‘ulotlar qo‘llash, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish uchun ham asos bo‘ladi. Shuningdek, ijodiy faollikka ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchilar bilan samarali aloqa o‘rnatadi, ularni mustaqil o‘qishga undaydi va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qilayotgan hozirgi davrda o‘qituvchilardan metodik va lingvistik tayyorgarlik bilan birga, ijodiy yondashuvga ham ega bo‘lish kutiladi. Chet tilini o‘rgatishda ijodkorlikka asoslangan yondashuvning bir necha sabablari bor:

1. Til o‘rganishda ishtiyoqni oshirish: Ijodiy mashqlar, rolli o‘yinlar, muammoli topshiriqlar, interaktiv loyihalar – bularning barchasi o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi va motivatsiyani kuchaytiradi.

2. Madaniy kontekstni chuqur o‘rganish: Ingliz tili nafaqat lingvistik vosita, balki turli millatlar madaniyati, an’analari va qadriyatlari bilan tanishish imkonini ham beradi. Ijodiy yondashuv bu jarayonni yanada boyitishga yordam beradi.

3. Amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish: Bugungi kunda xorijiy til bilgan kishi ko‘plab sohalarda faoliyat yuritishi mumkin. Ijodiy pedagog til o‘rgatish jarayonini real vaziyatlar bilan bog‘laydi, o‘quvchilarga turli ijtimoiy-ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish ko‘nikmasini beradi.

Shunday ekan, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari ijodiy faollikni rivojlantirish evaziga dars jarayonini rang-barang, mazmunan boy, interaktiv va samarali qilib tashkil eta oladilar. Buning uchun esa ta’lim jarayonida turli strategiyalar ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirish bir qancha omillarga bog‘liq:

• Pedagogik innovatsion metodlar: Masalan, CLIL (Content and Language Integrated Learning), task-based learning, project-based learning kabi metodlar foydalanish orqali talabalar amaliy vazifalar bilan bo‘g‘liq bo‘lgan topshiriqlarni yechish asnosida ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rganishadi.

• Interfaol darslar: Rolli o‘yinlar, suhbatlar, “debate” (munozara) formatidagi mashg‘ulotlar, ijtimoiy-psixologik treninglar, masofaviy ta’limda onlayn platformalardan foydalanish ijodiy yondashuvni rivojlantirishda yaxshi samara beradi.

• Dastlabki lingvistik tadqiqotlar: Bo‘lajak o‘qituvchilar xorijiy adabiyot, lingvistika, didaktika bo‘yicha kichik tadqiqot ishlari o‘tkazish, maqola yoki taqdimotlar tayyorlash, lingvistik kuzatuv olib borish kabi amaliy mashg‘ulotlarda ijodkorlikni namoyon qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

• Ijodiy loyihalar: Talabalar o‘z ustida mustaqil ishlash orqali yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganib, dars rejalari ishlab chiqish, o‘quv qurollari yaratish, animatsion materiallar tayyorlash va shu kabi faoliyatlarga jalb etilsa, ijodiy faolligi oshadi.

Mazkur omillar majmui o‘qituvchi salohiyatining ijodiy komponentini mustahkamlash, uni amaliy mashg‘ulotlarga, aniq muammolarga yechim topishga undaydi.

Ijodiy faollikni shakllantirish ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u doimiy mashaqqat, izlanish va albatta, muayyan metodik yondashuvni talab

etadi. Quyida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun ijodiy faollikni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ayrim strategiyalar keltiriladi:

1. Talabalarda ijodkorlik muhitini shakllantirish

Pedagogik muhitda o‘zbek, rus va xorijiy olimlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ijodiy fikrlash erkinlik, qulay sharoit va do‘stona muhit bo‘lgan taqdirdagina rivojlanadi. Shuning uchun, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari tahsil olayotgan oliy ta’lim muassasalarida fikrlar erkinligi, xatolardan qo‘rqmasdan o‘rganish va yangilikka intilish qadrlanishi lozim. Dars jarayonida o‘qituvchi-ustozlar talabalarni ratifikatsiya qilinmagan, “noan’anaviy” takliflarni ham diqqat bilan tinglashi, tanqidiy baholash bilan bir qatorda ijobiy rag‘batlantirishi kerak.

2. Metodik mustaqillik va mas’uliyatni kuchaytirish

Bo‘lajak o‘qituvchi oldida turgan pedagogik topshiriqlarni hal qilishda, dars rejasini tuzishda, material tanlash va taqdim etishda mustaqillik berilishi mumkin. Misol uchun, an’anaviy usullardan farqli ravishda, har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘z xohishiga ko‘ra qaysi strategiyalarni qo‘llashni tanlashi, sinfdagi amaliyot darslarida ushbu strategiyalarni tekshirib ko‘rishi, mustaqil baholash va xulosa chiqarmasi ijodiy yondashuvni mustahkamlaydi.

3. Taqdimotlar va muhokamalar- Talabalarga turli mavzularda (didaktika, tillarni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo muloqot, xorijiy adabiyot) prezentatsiyalar tayyorlash topshirig‘i berilishi mumkin. Shu jarayonda ular xorijiy manbalarni o‘qiydi, materiallarni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi, keyin esa kursdoshlariga taqdim etadi. Muhokamalar, bahslar, savol-javoblar ijodiy fikrlashga turtki bo‘ladi.

4. Tekshirish-amaliyot tajribasi- Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari amaliyot davrida maktab sinfida dars o‘tib ko‘rish, masofaviy dars berish usullarini sinab ko‘rish, o‘quvchilar bilan interaktiv mashg‘ulotlarni uyushtirish imkoniga ega bo‘ladi. Bunda ular metodik innovatsiyalarni joriy etishi, darsliklarga ijodiy yondashishi, mabodo muammolar yuzaga kelsa, yangicha yechimlar topishga harakat qiladi. Shu tarzda bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faolligi tobora shakllanadi.

5. Boshqa madaniyatlar bilan aloqalar- Ingliz tilining global tarqalishini inobatga olsak, chet el ta’lim muassasalari yoki xorijiy professor-o‘qituvchilar bilan hamkorlik bo‘lajak o‘qituvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Onlayn seminarlar, “telemost”lar, xalqaro anjumanlardagi ishtirok, xorijiy ilmiy-tadqiqot loyihalariga jalb etilish talabalarning o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazishi, yangiliklardan xabardor bo‘lishi, ijodiy g‘oyalar bilan tanishishi uchun zamin yaratadi.

5. Ijodiy faollikni baholashda yondashuvlar- Ijodiy faollikni shakllantirish bilan birga, uni baholash usullarini ham ishlab chiqish lozim. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy yondashuv darajasi, qaror qabul qilish tezkorligi, kutilmagan holatlarga moslashuvi yoki yangi g‘oyalar, didaktik materiallar yaratishdagi samarasi – bularning barchasi har tomonlama ko‘rib chiqilishi zarur. Ta’lim jarayonida joriy etilishi mumkin bo‘lgan baholash usullari:

• Portfoliolar: Talabalar bajaradigan ijodiy ishlar, dars ishlanmalari, video-ma’ruzalar, pedagogik tajribalarni aks ettiruvchi hujjatlar to‘plami portfolioda saqlanadi. Portfolioda talabaning rivojlanish bosqichlarini aks ettirish mumkin.

• Loyihaviy ishlarning baholash mezonlari: Ijodiy g‘oya yangiligini, uning amaliy ahamiyati, moslashuvchanligi va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish darajasini baholash.

• O‘zaro baholash: Kursdoshlar yoki hamkasblar bahosi ham muhim bo‘lib, mazkur jarayonda talabalarning ijodiy faolligi haqida ob’ektiv tasavvur shakllanadi.

• Taqdimot va himoya: Ijodiy loyihalarning jamoatchilik oldida namoyishi va himoya qilish jarayoni. Bu usul talabalarni o‘z

fikrlarini aniq, ravon, ishonchli tarzda himoya qilish, bahs-munozaralarda qatnashish, xato va e'tirozlarga tanqidiy yondashish ko'nikmasini rivojlantiradi.

6. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirish istiqbollari

Chet tilini bilish bizning davrimizda nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda ham global ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari – kelajak avlod ongiga, ma'naviyatiga, jahon standartlari darajasida bilim berishga mas'uldirlar. Ularning ijodiy faolligini takomillashtirish – yangi avlodni dunyoga ilg'or texnologiyalar, keng fikrlash doirasi, zamonaviy bilimlar bilan qurollantiruvchi professional kadrlar tayyorlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida bu borada quyidagi yo'nalishlarda izlanishlar davom ettirilishi mumkin:

1. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish: Masalan, onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual reallik vositalari, interaktiv dasturlar orqali ijodkorlikni rag'batlantirish.

2. Xorijiy tajriba almashinuvi: Turli grantlar, xalqaro hamkorlik loyihalari doirasida bo'lajak o'qituvchilarning tajriba orttirishi, ta'limning ilg'or modellaridan xabardor bo'lishi va ularni milliy sharoitga moslashtirishi.

3. Jamiyat bilan hamkorlik: Maktab, oliy ta'lim muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, ish beruvchilar o'rtasida uzviy aloqalarni kuchaytirish orqali bo'lajak o'qituvchilarning real ijtimoiy muammolar yechimiga hamkor sifatida jalb etilishi.

4. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish: Lingvistik, pedagogik, psixologik tadqiqotlar doirasida ijodiy yondashuv usullarini takomillashtirish, monografiya, maqola, konferensiya materiali sifatida chop etish, mualliflik huquqini rasmiylashtirish amaliyotini joriy etish.

Xulosa

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy faolligini takomillashtirish, ayniqsa, zamonaviy globalizatsiya davrida, dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Chet tilini puxta egallash bilan bir qatorda, dars jarayonida ijodiy, innovatsion metodlardan foydalanish, o'quvchilar bilan interfaol munosabat o'rnatish, o'quv jarayonini qiziqarli, samarali va iste'dodlarni kashf eta oladigan darajada tashkil etish – bunda aynan ijodiy faollik hal qiluvchi omil sanaladi. Mazkur maqolada ijodiy faollik tushunchasining nazariy jihatlari, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida ijodiy yondashuvni shakllantirish omillari, baholash usullari va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari yoritildi. Ijodiy faollikka ega o'qituvchilar samarali ta'lim berish bilan birga, yosh avlod ongiga yangicha fikrlash uslublarini singdirish, xalqaro maydonda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga ham bevosita hissa qo'shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewey, J. Demokratiya va tarbiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
2. Vygotsky, L. S. Myshlenie i rech'. – Moskva: Labirint, 1999.
3. Azizxo'jayev, A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
5. Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009.

EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA

LOCHINBEK ABDIRASULOV
QarDU doktoranti

Annotatsiya: Maqolada ekologik tarbiya haqida va bir nechta xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Rivojlangan mamlakatlarning ekologik tarbiyasini mamlakatimizga joriy etish bo‘yicha bir qancha fikrlar bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik ta’lim, xorijiy tajriba, atrof-olam, tabiat, ekologik tafakkur.

Аннотация: В статье рассматривается экологическое образование и анализируется ряд зарубежных опытов. Был высказан ряд мнений по поводу внедрения экологического образования развитых стран в нашу страну.

Ключевые слова: экологическое образование, зарубежный опыт, окружающая среда, природа, экологическое мышление.

Abstract: The article examines environmental education and analyzes a number of foreign experiences. A number of opinions were expressed regarding the introduction of environmental education from developed countries into our country.

Key words: environmental education, foreign experience, environment, nature, environmental thinking.

O‘quvchilarning ekologik ta’limi va tarbiyasi dunyoning barcha mamlakatlarida umumiy ta’lim, shu jumladan, texnologik ta’limning zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu borada Yaponiyaning ekologik ta’lim uslubiyoti alohida qiziqish uyg‘otadi, zero yaponiyaliklar ekologik vaziyatni jilovlashga muvaffaq bo‘lgan, ayni paytda uni barqarorlashtirishga erishgan, holbuki ushbu mamlakatda ilm-fanning jadal taraqqiy etishi natijasida atrof-muhitga salbiy ta’sirning darajasi o‘ta yuqori bo‘lgan. Keyingi 25 yil davomida Yaponiyada odamlarning ruhiy kayfiyatida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Ekologik tafakkur millat ahoqiy qarashlarining bir qismiga aylangan. O‘tkazilgan so‘rovlar natijalari, yaponiyaliklarning to‘rtdan uch qismi bu narsa mamlakatdagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilsa, o‘z manfaatlaridan voz kechishga tayyor ekanligini ko‘rsatgan.

Yaponiyada atrof-olamga e’tibor va hurmat bilan munosabatda bo‘lishga bolalikdan boshlab, o‘quvchilarni, talabalarni, biznesmenlarni, uy bekalarini, kompaniya prezidentlarini, shahar merlari va gubernatorlarini, xullas, hammani o‘rgatishadi [68,177].

Ekologik ta’lim maqsadlari quyidagicha ifodalanadi:

zamonaviy jamiyatda atrof-muhitning ifloslanishi muammolarining amaliy xarakterini tushunishga, ularning Yaponiyaning modernizatsiyalashuvi bilan aloqasini anglashga yordam berish;

keng ommaga sifatli atrof-muhitni saqlash, muhofaza qilish va uni tiklash – mahalliy hokimiyat organlarining vazifasi va majburiyati ekanligi va ular ushbu vazifalarni aholini o‘zi yashab turgan hududni (shahar, qo‘rg‘on va b.) rivojlantirish (shu jumladan, sanoat yo‘nalishida) bo‘yicha rejalarga yuqori darajada jalb etgan holda, keng demokratik asosda ijro etishini kerakligi to‘g‘risidagi

g‘oyani yetkazish. Shu tarzda, ekologik ta’lim va tarbiya, eng avvalo, fuqarolik ta’limi va tarbiyasi bo‘lishi, ya’ni fuqarolarda faol, ekologik mazmunli hayotiy nuqtai nazarini shakllantirishga yordam berishi kerak. Bu inson uchun munosib atrof-muhitni saqlash va uni himoya qilish garovi bo‘lishi lozim.

Yaponiyada adabiyotda odatda oraliq ekologik ta’limning to‘rtta asosiy bosqichi ajratib ko‘rsatiladi:

birinchisi – tabiatning tuzlishi haqida elementar tushuncha olish. Bu maktabgacha ta’lim muassasalarida, shuningdek boshlang‘ich va o‘rta maktabda ekologik ta’lim olish uchun mo‘ljallangan eng sodda ta’lim shakli;

ikkinchisi – tabiatdagi o‘zaro bog‘liqlikni, ekotizimni saqlashda uning rolini o‘rganish. Tabiatni saqlash, yo‘qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish, tabiat yodgorliklarini saqlash g‘oyalarni rivojlantiriladi. Ushbu bosqich maktab ta’limining barcha sinflari uchun xosdir.

uchinchisi – tabiiy muhitning inson jamiyati bilan aloqasini, ekotizim butligining uning farovonligiga ta’sirini o‘rganish. Ekotizimlarni boshqarish, tabiiy resurslarni tiklash g‘oyalari rivojlantiriladi. Ta’limning ushbu shakli maktab, kollej va universitetlarning yuqori sinflari uchun mo‘ljallangan;

to‘rtinchi – arof-muhit haqidagi fanning o‘zini o‘rganish. Ta’limning ushbu shakli universitetlarning ixtisoslashtirilgan fakultetlari talabalari, o‘qituvchi, aholining katta yoshli qismi uchun mo‘ljallangan.

Yaponiyalik mutaxassislarning fikricha, ekologik ta’lim elementlari nafaqat tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar, balki geografiya, anatomiya, “salomatlik”, jismoniy tarbiya, uy yuritish va hatto etika, ona tili va chet tili, musiqa kabi fanlarning o‘quv dasturiga ham kiritilishi zarur. Ekologik tarbiya bolaning ilk yoshlaridan, u endigina o‘zini va atrofidagi olamni anglay boshlagan paytda boshlanadi. Maqsad esa har doim aniq ko‘rinib turadi – uyimizning ostonasidan boshlanadigan tabiatni muhofaza qilish, asrash. Yaponiyalik ota-onalar o‘z farzandlakrining kelgusi salomatligi haqida qayg‘urganligi tufayli, ayni paytda, atrof-muhitni yaxshilash qo‘llaridan kelmasa-da, hech bo‘lmaganda uni mavjud darajada saqlab qolishlariga umid qilgani holda, ularning ekologik tarbiyasiga katta e’tibor qaratadi.

A.N. SHepelenkoning yozishicha: «Yaponiyada ishlagan paytimda, dam olish kunlari shahar tashqarisida men bir necha marotaba bolalar bog‘chasining katta guruhlaridan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bo‘lgan yoshdagi yaponiyalik bolalarning kichik guruhlariga ko‘zim tushgan. Ma’lum bo‘lishicha, ular o‘z murabbiylari boshchiligida bevosita tabiat bilan tanishish darsiga emas, balki uni amaliy muhofaza qilish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish darsiga borar ekan [68,35- B.]. Kichkintoylar tog‘ parki hududida, yo‘laklarning chetlarida tinimsiz harakatlanib, katta polietilen qoplarga sivilizatsiya qoldiqlarini, salqin ichimliklardan bo‘shagan alyumin idishlarni, turli maishiy radioapparatuardan qolgan foydalanilgan batareykalarni va h.z.larni to‘plab yurishini hali uzoq vaqt unutmasam kerak. Anglashinarlikki, bundan harakatlar yaxshi samara beradi. Bolalar amalda tabiat qo‘ynida nima qilish kerak emasligi va uni saqlash uchun nima qilish kerakligini bilib oladi. Kattalarga kelsak, ular bolalarning ishini ko‘rib, hech bo‘lmaganda bir necha soat davomida to‘g‘ri kelgan joyga axlat tashlashdan saqlanadi, deb umid qilish mumkin» [68,177].

Shuningdek, alohida aholi yashash manzillarida yoki yirik shaharlar tumanlarida har yili, ba’zan har chorakda, ayni paytda yiliga bir-ikki marotabadan ko‘proq

munitsipalitetlar va jamoat tashkilotlari tomonidan ommaviy ravishda chiqindilarni to‘plash kunlari o‘tkkaziladi. Bunday kunlar, aholini oldindan xabardor qilgan holda, bir paytda o‘tkaziladi.

Aksariyat hollarda bunday kunlar o‘ziga xos bayramga aylanadi, chunki ularning tashkilotchilari odamlarni jalb qilish uchun turli tuman vositalardan – chiqindilarni to‘plashda ishtirok etishga va ikkilamchi xom ashyoni utillashtirishning ahamiyatini tushuntirishga bag‘ishlangan rang barang plakatlardan foydalanadi, chiqindi to‘plash joylari gullar, girlyandalar bilan bezatiladi, musiqa yangraydi va h.z. Ba’zan ishtirokchilar o‘rtasida musobaqalar uyushtiriladi, ularda g‘olib chiqqanlar mukofotlanadi. Xokkaydo oroli misolida chiqindi to‘plash bo‘yicha ijtimoiy harakat qanday rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

1975 yilda chiqindi to‘plash joylari va yo‘l chetlari bo‘sh bankalarga to‘lib ketgan edi. 1976 yilda 14 assotsiatsiya chiqindilarni to‘plash uchun kampaniya tashkil qilishni taklif qilishdi: 1981 yilning 25 oktabri bironta bo‘sh bankasiz kun, deb e’lon qilindi, va harakatning 130 ming nafar ishtirokchisi shu kuni 2,15 million bankani to‘plashga muvaffaq bo‘ldi. 1982 yildan 1985 yilgacha bankalarni to‘plash bo‘yicha kampaniya 8 marta o‘tkazildi va unda 1,8 million kishi ishtirok etdi. Umumiy hisobda 25,4 million banka to‘plandi.

Yaponiyada urbanizatsiya yuqori darajaga yetgan bo‘lsa-da, bu yerda milliy an’analarga ko‘ra, shahar aholisi tabiatdan bahra olish uchun har qanday imkoniyatdan foydalanishga intiladi.

Bu hol quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-kichik yashil hovlilarda, bir necha kvadrat metr joyda uning egalari yapon tabiatining butun rang-barangligini ifodalashga intilishi;

- gullayotgan sakura daraxtini tomosha qilish bayramining asrlar davomida avaylab saqlanib kelinayotganligi;

- bonsay san’atining doimiy rivojlantirilishi (gul tuvaklarida sabr-toqat bilan ko‘p yillar davomida o‘stirib kelinadigan ixcham daraxtlar);

- qor yoqqanda, sakura gullaganda maktab o‘quvchilari uchun mashg‘ulotlar bekor qilinishi va b. (Sakura – yapon olchasi bo‘lib, u meva bermaydi, ammo odamlar uni foydasi uchun emas, go‘zalligi uchun qadrlaydi).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent. 2013
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar i pedagogik mahorat - T.: TDPU, 2003.
3. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. - T.: 2010
4. Usmonov B.Sh., Raximov F.X., Dusmuxamedova M.X. "Ta'lim, fan va ishlab chiqarish innovatsion korpoorativ hamkorlik. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. Toshkent. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2017 y
5. Jo'raev N. "Avesto mo'jizasi" Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi nashr-matbaa ijodiy uyi. 2013
6. Shodimetov. Yu. Ijtimoiy ekologiya. (darslik). Toshkent. 2003 y

TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA KREATIV MUHITNI SHAKLLANTIRISH

MARDANKULOV JASUR AMIRDDINOVICH,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi, p.f.f.d., dotsent.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kreativlik va innovasiyaning ta’lim sohasida tutgan o‘rni, ta’lim oluvchilarning innovatsion jarayonga kirishishdagi to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari, ta’lim oluvchilar uchun kreativlik va innovatsiyalar uchun muhit yaratish, ta’lim sohasidagi innovatsion jarayonlarni boshqarish va strategik hamkorlik asoslarining mohiyati, inson kapitali indeksi, ta’lim sohasida innovatsion jarayon modellar kreativ tarzda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativ, kreativ g‘oya, intellekt, ixtiro va ekspluatatsiya, innovatsiya.

Аннотация. В статье творчески освещаются роль креативности и инноваций в образовании, барьеры вхождения студентов в инновационный процесс и пути их преодоления, создание среды для креативности и инноваций студентов, сущность управления инновационными процессами в образовании и основы стратегического сотрудничества, индекс человеческого капитала, модели инновационных процессов в образовании.

Ключевые слова: Творчество, творческая идея, интеллект, изобретение и эксплуатация, инновация.

Annotation. This article creatively covers the role of creativity and innovation in education, barriers to students' entry into the innovation process and ways to overcome them, creating an environment for students' creativity and innovation, the essence of managing innovation processes in education and the foundations of strategic cooperation, the human capital index, and models of innovation processes in education.

Key words: Creative, creative idea, intellect, invention and exploitation, innovation.

Kirish. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida ta’lim sohasi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida yangicha yondashuv va yuksak innovatsion salohiyatni talab qilmoqda. Kreativlik va innovatsiya ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir davrda, ularni to‘g‘ri anglash, rivojlantirish va samarali qo‘llash zarurati tobora ortib bormoqda. Ta’lim oluvchilarni innovatsion jarayonga jalb etish, mavjud to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish uchun zarur bo‘lgan muhitni yaratish muhim masalalardan biridir.

Mazkur maqolada kreativlik va innovasiyaning ta’lim sohasidagi o‘rni, innovatsion jarayonlarni boshqarish va ularni strategik hamkorlik asosida yo‘lga qo‘yishning amaliy va nazariy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, inson kapitali indeksining ta’lim tizimidagi roli, innovatsion modellar va ularning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi masalalari ham keng yoritiladi. Maqola ta’limda kreativ va innovatsion yondashuvlarni shakllantirish, takomillashtirish va amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar berishga qaratilgan.

O‘rganilganlik darajasi: Kreativlik va innovatsiyaning ta’lim sohasidagi o‘rni so‘nggi yillarda xalqaro va milliy miqyosda ko‘plab tadqiqotlar markazida bo‘lib kelmoqda. Jahon banki, UNESCO, OECD kabi nufuzli tashkilotlar innovatsion ta’lim modellarining inson kapitaliga

ta’siri, kreativlikni rivojlantirish usullari va ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni haqida chuqur tahliliy ishlar olib bormoqda. Jumladan, inson kapitali indeksi orqali mamlakatlar ta’lim tizimining samaradorligi va innovatsion salohiyati o‘rganiladi[1].

Kreativlik bu bugungi kunda har bir sohada va soha vakillarida kreativlik nima ekanligini bilvosita biladi va ko‘pchilik kreativ g‘oya yoki ixtiroga misol keltirishi mumkin. Kreativlik barcha sohalarga to‘g‘ri keladi, bu orqali psixologlar, faylasuflar va o‘qituvchilar nima uchun ko‘p vaqtlarini kreativlikni o‘rganishga bag‘ishlaganliklarini tushuntirish mumkin. Bir necha yuz yillar oldin, qadim yunon faylasuflari, jumladan, Sokrat, Platon va Aristotel kreativlikni ilhomlantirilgan she'riyat, san'at va musiqaga, intellektual izlanishga olib keladigan ruhiy ma'rifat davri sifatida ko‘rishgan. Kreativlik birinchi navbatda san'at va musiqa sohalari bilan bog‘liq degan nuqtai-nazar bugungi kunda kuchli bo‘lib qolsa-da, ta'lim, o‘quv dasturlari kreativlik ko‘plab fanlarga ta’sir qilishi mumkinligi isbotlangan[2].

Kreativlikni o‘rganish bo‘yicha uni targ‘ib qilish va tadqiqotlar olib borish bo‘yicha dastlab psixolog olimlar Kolberg (1925) va Uollas (1926)lar boshlagan. Kreativlikni o‘rganish keyinchalik Guildford (1950) va Torrance (1974), Gardner (1985), Runco (1985), Amabile (1996) va Sternberg (1999) tomonidan yaratilgan nazariy modellarga kengaytirildi. Bugungi kunda biz Plucker, Beghetto va Dow (2004), Beghetto va Kaufman (2007), Simonton (2012) va Walia (2019) asarlarida kreativlikni belgilovchi zamonaviy qarashlarni o‘rganamiz.

Ilmiy fan sifatida kreativlik haqidagi tadqiqotlar 1950-yillarda psixologiya sohasi sifatida boshlangan. Buning uchun dastlabki turtki J.P.Gilford tomonidan 1949 yilda "Intellektning tuzilishi" haqidagi ma'ruzasi bilan yaratilgan. J.P.Gilford Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasining prezidenti edi. U o‘z ma'ruzalarida kreativlik har kimning ixtiyorida bo‘lgan resurs ekanligini va shuning uchun ham har kim undan jamiyatga ulkan hissa qo‘shish uchun foydalanishi mumkinligini ta'kidlagan[3].

O‘zbekiston kontekstida ham ta’limda innovatsion yondashuvlar joriy etilishi, kreativ muhit yaratish, raqamli ta’lim platformalarini kengaytirish, pedagogik kadrlarning malakasini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bu sohada hali to‘liq o‘rganilmagan jihatlar, xususan, o‘quvchilarning psixologik tayyorgarligi, innovatsion metodlarning hududlar kesimidagi samaradorligi, strategik hamkorlikning real amaliy natijalari bo‘yicha ilmiy izlanishlarga ehtiyoj mavjud.

Asosiy qism: Ta’lim tizimi taraqqiyotning barcha bosqichlarida ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashishga xizmat qiluvchi asosiy omildir. Bu jarayonda kreativ fikrlash va innovatsion yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Kreativlik – bu yangicha fikrlash, mavjud muammolarga noodatiy yechimlar topish, innovatsiya esa ushbu yechimlarni amalda qo‘llay olish salohiyati sifatida qaraladi. Zamonaviy ta’lim tizimida bu ikki tushuncha o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va yangi bilimlarni yaratish qobiliyatini shakllantiradi.

O‘quvchilar va o‘qituvchilar innovatsion jarayonlarga jalb qilinishida bir qator to‘siqlarga duch kelishadi. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Motivatsiya yetishmasligi – o‘quvchilarda yangilikka intilish past bo‘lishi;
- An’anaviy o‘quv metodlarining ustuvorligi – yangicha yondashuvlar uchun joy qolmasligi;
- Texnologik resurslarning cheklanganligi – axborot texnologiyalari va platformalardan foydalanish imkoniyatlari kamligi;
- Psixologik to‘siqlar – xatolardan qo‘rqish, o‘z fikrini erkin ifoda etmaslik.

Bu to‘siqlarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

• O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan o‘yinli va loyihaviy metodikalarni joriy etish;

• Innovatsion pedagogik texnologiyalar (STEAM, dizayn-o‘ylash, problemaga asoslangan ta’lim) asosida mashg‘ulotlar tashkil etish;

• Ta’lim muassasalarida ochiq muloqot va erkin fikrlashga asoslangan muhit yaratish;

• O‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim trendlari bilan tanishtirish.

Kreativlikni rag‘batlantiradigan muhit – bu o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini erkin ifoda eta oladigan, xatolar orqali o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan, hamkorlik va muloqotga ochiq bo‘lgan makondir. Ta’lim muassasalarida quyidagi sharoitlarni yaratish muhim:

• Ijodiy laboratoriyalar, fab-lablar, startap markazlari tashkil etish;

• Kross-fanli loyihalar orqali fanlararo integratsiyani ta’minlash;

• Innovatsion fikrlarni qo‘llab-quvvatlovchi grantlar va tanlovlarni joriy etish.

Ta’limdagi innovatsion jarayonlar aniq strategik yondashuv va boshqaruvni talab qiladi. Bu jarayonni boshqarish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

• Innovatsion g‘oyalarning amaliy qiymatini baholash tizimini joriy qilish;

• Xalqaro va mahalliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish;

• Ta’limda davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsiyalarni tatbiq etish;

• Raqamli platformalar orqali innovatsion jarayon monitoringini tashkil qilish.

Inson kapitali – bu jamiyatning bilimli, salohiyatli va sog‘lom a’zolaridan tashkil topgan resursidir. Inson kapitali indeksida ta’lim muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Innovatsion ta’lim tizimi:

• O‘quvchilarda zamonaviy kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi;

• Iqtisodiy o‘sishga xizmat qiluvchi salohiyatli inson resurslarini yetishtiradi;

• Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim poydevorini yaratadi.

Bugungi kunda ta’limda qo‘llanilayotgan innovatsion modellar quyidagilardir:

• Flipped classroom (teskari sinf) – darsdan oldin o‘zlashtirish, darsda esa amaliyot;

• Project-based learning (loyihaviy ta’lim) – o‘quvchilar mustaqil va jamoaviy ish orqali o‘rganadi;

• Blended learning (aralash ta’lim) – an’anaviy va raqamli metodlar uyg‘unlashuvi;

• Gamification (o‘yinlashtirish) – motivatsiyani oshiruvchi o‘yin elementlari asosida ta’lim[4].

Xulosa: Ta’lim tizimida kreativlik va innovatsiyalarning joriy etilishi nafaqat o‘quvchilarning individual salohiyatini ochish, balki jamiyatning umumiy intellektual va iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yondashuvlar, zamonaviy metodikalar va qulay muhit mavjud bo‘lgan taqdirdagina o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan, muammolarni kreativ hal etadigan, tashabbuskor va raqobatbardosh shaxslar sifatida shakllanishi mumkin.

Maqolada ta’lim oluvchilarning innovatsion jarayonga jalb qilinishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar, ularni bartaraf etish yo‘llari, shuningdek kreativlikni rag‘batlantiruvchi muhit yaratishning muhim jihatlari yoritib berildi. Shuningdek, inson kapitali indeksi, ta’limdagi innovatsion modellar va strategik hamkorlikning samarali tashkil etilishi orqali ta’limda barqaror innovatsion rivojlanish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Kelajak ta’limi – bu faqatgina bilim berish emas, balki o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, va har bir shaxsning o‘z salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan tizim bo‘lishi kerak. Buning uchun esa kreativlik va innovatsiyalarni ta’lim jarayonining markaziga aylantirish dolzarb masala bo‘lib qoladi.

Mazkur maqolada mavjud ilmiy manbalar, zamonaviy ta’lim konsepsiyalari, xalqaro tajribalar tahlil qilinib, ta’lim tizimida kreativlik va innovatsiyalarni samarali joriy etish yo‘llari yoritildi. Shu bois, bu tadqiqot mavzuning nazariy asoslarini chuqurlashtirish va amaliy yechimlar ishlab chiqishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4963-sonli qarori (2021).
2. X. Toirov, M. Abdullayev. Ta’limda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: TDPU, 2022.
3. Karimova N. (2020). Raqamli ta’limning afzalliklari va imkoniyatlari.
4. Salimova D. (2023). STEAM metodikasi asosida kreativ fikrlashni rivojlantirish.

КРЕДИТНО-МОДУЛЬНАЯ СИСТЕМА КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО-КОГНИТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ

ОТЕПБЕРГЕНОВ ЖЕТКЕРБАЙ САКБЕРГЕНОВИЧ
Доцент, кафедра методики преподавания информатики, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация: В данной статье исследуется влияние кредитно-модульной системы (КМС) на развитие интеллектуально-когнитивного потенциала студентов. Рассматриваются теоретические основы КМС, её историческое развитие, международный и отечественный опыт внедрения. Особое внимание уделяется анализу критического мышления и навыков самообучения студентов в контексте модульного обучения. В статье приведены примеры из практики высших учебных заведений Европы, США, стран СНГ и Узбекистана. Обсуждаются основные проблемы и перспективы внедрения КМС в образовательные системы. Выявлено, что КМС способствует формированию гибкости мышления, автономности студентов и повышению их академической мобильности.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, интеллектуально-когнитивный потенциал, критическое мышление, самообучение, образовательные реформы, Болонский процесс, высшее образование, академическая мобильность.

Введение

Современные образовательные системы стремятся к созданию условий, способствующих развитию интеллектуального потенциала студентов. Одним из таких подходов является кредитно-модульная система, которая широко применяется в мировой практике высшего образования. Согласно исследованиям Д. Биггса [1] и Дж. Энтвистла [2], кредитно-модульное обучение способствует формированию глубокого понимания учебного материала, а не просто запоминанию фактов. В европейской практике Болонский процесс [3] определил модульность как ключевой фактор в структурировании образовательных программ, направленных на повышение мобильности и самостоятельности студентов.

В США кредитная система образования возникла в XIX веке и была направлена на создание гибких образовательных программ, что позволяло студентам самостоятельно планировать своё обучение [10]. Позже модель была адаптирована в Великобритании, где стали активно использоваться модули для оценки компетенций студентов [4]. Кредитно-модульная система доказала свою эффективность в развитии когнитивных способностей студентов за счёт постепенного наращивания сложности учебного материала и возможности индивидуального выбора образовательных траекторий [8].

Учёные СНГ, такие как В.И. Байденко (Россия) и Г.К. Нургалиев (Казахстан), отмечают, что внедрение кредитно-модульной системы в постсоветском пространстве способствует адаптации образовательного процесса к международным стандартам и развивает когнитивные компетенции студентов. В исследованиях Г.Л. Петровой (Украина) подчеркивается, что модульный подход позволяет студентам лучше распределять учебную нагрузку и повышает мотивацию к самообучению.

На местном уровне исследования показывают, что адаптация КМС к национальным образовательным традициям требует гибкости и системной модернизации учебных планов [11]. Практика вузов СНГ подтверждает, что при корректном внедрении

кредитно-модульная система развивает у студентов аналитические и рефлексивные способности, что способствует формированию их интеллектуального потенциала.

В данной статье рассматривается влияние кредитно-модульной системы на развитие интеллектуально-когнитивных способностей студентов, анализируются исследования международных, европейских, государств СНГ и местных ученых в области педагогики.

1. Теоретические основы кредитно-модульной системы

Кредитно-модульная система обучения (КМС) представляет собой образовательную модель, основанную на накоплении учебных кредитов и разделении учебного процесса на модули. КМС позволяет студентам формировать индивидуальные образовательные траектории, развивать аналитическое мышление, критический анализ и способность к самообучению [1,2].

1.1. Историческое развитие и международный опыт

Впервые элементы кредитно-модульной системы появились в американских и европейских университетах. В США кредитная система образования была внедрена ещё в XIX веке для обеспечения гибкости образовательных программ [10]. Впоследствии Болонский процесс [3] распространил эту модель на европейские университеты, что позволило студентам свободно перемещаться между вузами и накапливать кредиты в рамках Европейской системы перевода и накопления кредитов (ECTS).

Пример: Гарвардский университет стал одним из пионеров в использовании кредитной системы, позволяя студентам выбирать дисциплины по интересам и формировать индивидуальные образовательные траектории (Harvard University, 2021).

1.2. Европейская практика

Исследования западных учёных, таких как А. Теичлер [9], показывают, что европейская КМС не только повышает мобильность студентов, но и развивает навыки самообучения и критического мышления. В Германии и Финляндии КМС активно применяется для создания индивидуальных образовательных траекторий [8].

Пример: В Финляндии Университет Хельсинки внедрил модульное обучение с акцентом на самостоятельную работу студентов, что привело к увеличению уровня вовлечённости и улучшению академической успеваемости [5].

В странах СНГ, таких как Россия и Казахстан, КМС постепенно адаптируется к национальным реалиям. Исследования [13] показывают, что в российских университетах использование модульной системы привело к повышению академической мобильности студентов и лучшему усвоению материала. Однако остаются вызовы, связанные с адаптацией методик преподавания и подготовкой профессорско-преподавательского состава [18].

2. Кредитно-модульная система в странах СНГ

После принятия Болонской декларации (1999) многие страны СНГ начали реформирование своих образовательных систем. В России, Казахстане, Украине и Беларуси КМС внедряется для повышения качества образования и усиления самостоятельной работы студентов [13;18]. Основные цели реформ заключаются в модернизации учебных программ, введении новых методик оценки знаний и развитии гибкости учебного процесса.

Пример: В Казахстане внедрение КМС в Назарбаев Университете позволило повысить академическую мобильность студентов и улучшить качество обучения за счёт внедрения ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) [15]. В России Томский государственный университет активно применяет модульную систему для повышения качества подготовки специалистов (ТГУ, 2020).

2.1. Исследования ученых СНГ

Учёные СНГ, такие как В.И. Байденко (Россия), Г.К. Нургалиев (Казахстан), исследуют влияние КМС на развитие когнитивных способностей студентов. В их работах подчёркивается значимость модульного обучения в формировании гибкости мышления и способности к саморегулируемому обучению [14; 19].

Пример: Исследование Петровой (2015) в Украине показывает, что применение КМС способствует формированию у студентов навыков критического мышления и повышает их способность к самостоятельному принятию решений. В Беларуси Брестский государственный университет внедрил модульную систему в педагогических программах, что улучшило вовлечённость студентов в образовательный процесс [16].

КМС также имеет значительное влияние на уровень подготовки студентов в технических специальностях. В России, например, Московский политехнический университет использует КМС для индивидуализации учебных траекторий студентов инженерных специальностей [22].

В Узбекистане Ташкентский государственный педагогический университет адаптировал КМС для подготовки будущих учителей, что позволило снизить уровень академической нагрузки за счёт оптимизации расписания и применения дистанционных образовательных технологий [21].

3. Влияние КМС на когнитивное развитие студентов

3.1. Развитие критического мышления

КМС способствует развитию критического мышления благодаря систематической оценке знаний, регулярным тестированиям и проектной деятельности. Исследования западных ученых показывают, что студенты, обучающиеся по КМС, демонстрируют более высокие показатели в решении проблемных задач [9;1]. В частности, методология проектного обучения, используемая в КМС, способствует развитию навыков анализа и синтеза информации.

Пример: В Финляндии Университет Турку внедрил КМС с акцентом на критическое мышление через проблемно-ориентированное обучение. Результаты показали, что студенты, использующие модульный подход, лучше справляются с аналитическими задачами и демонстрируют более высокий уровень аргументации в научных работах [5].

В Германии университеты активно применяют КМС для развития аналитических способностей студентов. В Гейдельбергском университете исследования показали, что использование модульных оценочных методик, включая эссе и групповую работу, привело к улучшению навыков логического рассуждения и критической оценки информации [7].

В СНГ исследования Петровой (2015) в Украине показывают, что применение КМС способствует формированию у студентов навыков критического мышления и повышает их способность к самостоятельному принятию решений. В Казахстане Нургалиев (2020) отмечает, что интеграция проектного обучения в КМС привела к значительному повышению уровня критического мышления у студентов технических специальностей.

3.2. Формирование навыков самообучения

Автономность студентов в выборе дисциплин и темпов изучения способствует развитию способности к самообучению. Опыт финских и немецких университетов подтверждает, что элементы КМС стимулируют академическую самостоятельность студентов [8].

Пример: В Швеции Лундский университет использует КМС для развития автономного обучения. Студенты самостоятельно выбирают темпы изучения предметов, что способствует лучшему усвоению материала и развитию навыков самоорганизации [6].

В СНГ Брестский государственный университет (Беларусь) внедрил КМС для

педагогических специальностей, что позволило студентам гибко планировать образовательные модули, повышая уровень их ответственности за собственное обучение [17].

В России Московский государственный университет внедрил цифровую КМС, позволяющую студентам разрабатывать персонализированные учебные планы. Исследование Фомина (2021) показало, что такая система способствует развитию навыков самостоятельного анализа информации и критической оценки образовательного материала.

Проблемы и перспективы внедрения КМС

Несмотря на положительные аспекты КМС, её реализация сталкивается с трудностями, такими как необходимость пересмотра методик преподавания, адаптация учебных программ и повышение квалификации преподавателей [1; 14].

4.1. Проблемы внедрения КМС

Одной из ключевых проблем внедрения КМС является сложность адаптации учебных программ. В странах СНГ многие университеты испытывают трудности с пересмотром содержания дисциплин и интеграцией модульного подхода в традиционные образовательные процессы (Нургалиев, 2020). В частности, преподаватели сталкиваются с необходимостью разрабатывать новые методики оценки знаний и внедрять технологии интерактивного обучения [20].

Пример: В Казахстане исследование Назарбаев Университета показало, что переход на КМС требует значительных финансовых и кадровых вложений. Педагоги отмечают нехватку подготовленных специалистов, способных эффективно работать в условиях модульного обучения [15].

В Европе также отмечаются сложности при внедрении КМС. Исследование Лундского университета (Швеция) показывает, что студенты испытывают стресс из-за большого количества самостоятельной работы, что требует дополнительной поддержки со стороны преподавателей [6]. Аналогичная ситуация наблюдается в Германии, где университеты Гейдельберга и Мюнхена отмечают необходимость пересмотра учебных программ для обеспечения баланса между лекционной и практической нагрузкой [7].

4.2. Перспективы развития КМС

Несмотря на трудности, перспективы развития КМС остаются положительными. В Европе и США активно разрабатываются цифровые платформы для автоматизации учебного процесса, что облегчает управление модульными курсами и контроль за академической успеваемостью студентов [8].

Пример: В Финляндии Университет Хельсинки внедрил систему электронного портфолио, позволяющую студентам самостоятельно отслеживать свой прогресс и накапливать кредиты по различным дисциплинам [5]. В России аналогичный подход реализуется в Московском политехническом университете, где цифровые технологии интегрируются в образовательный процесс для повышения качества модульного обучения [22].

В странах СНГ одним из перспективных направлений является использование КМС для повышения мобильности студентов. В рамках Евразийского образовательного пространства обсуждается возможность унификации требований к учебным программам, что позволит студентам легче переводиться между вузами и накапливать кредиты в разных странах [12].

Заключение

Кредитно-модульная система является мощным инструментом развития интеллектуально-когнитивного потенциала студентов. Анализ международного опыта показывает, что КМС способствует формированию ключевых компетенций, необходимых для успешной профессиональной деятельности. Исследования западных учёных, таких как [9] и [1], подтверждают, что модульный подход улучшает способность студентов к

критическому мышлению, а также способствует развитию навыков самообучения и междисциплинарного анализа.

Пример: В Европе Университет Хельсинки внедрил КМС с целью создания персонализированных образовательных траекторий, что позволило студентам гибко регулировать учебный процесс и выбирать дисциплины в зависимости от профессиональных интересов [5]. В Германии Гейдельбергский университет использует КМС для формирования интегративного подхода в обучении, объединяя дисциплины и обеспечивая практико-ориентированное обучение [7].

В СНГ кредитно-модульная система постепенно адаптируется и становится важным элементом образовательных реформ. В Казахстане Назарбаев Университет успешно использует модульную систему для подготовки специалистов в области инженерии и медицины, что позволило студентам более эффективно применять знания на практике [15]. В России Московский государственный университет внедрил КМС с элементами цифровых технологий, позволяя студентам проходить модули в гибком формате [22].

Несмотря на вызовы, такие как необходимость пересмотра методик преподавания и повышения квалификации педагогов [14], КМС остаётся перспективной моделью образовательного процесса, способствующей развитию интеллектуального потенциала студентов и их успешному трудоустройству.

Список литературы:

1. Biggs, J. (2003). Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill Education.
2. Entwistle, J. (2009). Teaching and Learning Styles in Higher Education. Routledge.
3. European Commission. (1999). The Bologna Process and Higher Education Reform.
4. Gibbs, G. (1992). Improving the Quality of Student Learning. Oxford Centre for Staff Development.
5. Helsinki University. (2020). Modular Learning and Student Engagement. Helsinki Press.
6. Lund University. (2019). Self-Directed Learning in Higher Education. Lund Press.
7. Müller, K., & Schütze, H. (2018). The Role of Modular Education in Enhancing Analytical Skills. Heidelberg University Press.
8. Schuetze, H.G., & Slowey, M. (2002). Participation and Exclusion: A Comparative Analysis of Non-Traditional Students in Higher Education.
9. Teichler, A. (2004). The Changing Role of Student Mobility in the European Higher Education Area.
10. Trow, M. (1973). Problems in the Transition from Elite to Mass Higher Education.
11. Ахметов, Р. (2020). Локализация кредитно-модульной системы в образовательных учреждениях Казахстана. Нур-Султан: Академия образования.
12. Ахметов, Р. (2020). Перспективы унификации кредитных систем в Евразийском образовательном пространстве. Нур-Султан: Академия образования.
13. Байденко, В.И. (2009). Болонский процесс: Проблемы и перспективы. Москва: Высшая школа экономики.
14. Байденко, В.И. (2012). Проблемы внедрения кредитно-модульной системы в России. Москва: Высшая школа экономики.
15. Жумагулов, Б. (2021). Внедрение ECTS в Казахстане: Опыт Назарбаев Университета. Астана: Назарбаев Университет.
16. Климович, А. (2019). Адаптация студентов к модульному обучению в вузах Беларуси. Минск: БрГУ.
17. Климович, А. (2019). Реформирование педагогического образования в Беларуси: внедрение модульной системы. Минск: БрГУ.
18. Нургалиев, Г.К. (2018). Современные подходы к модульному обучению. Алматы: КазНУ им. аль-Фараби.
19. Нургалиев, Г.К. (2020). Влияние кредитно-модульного обучения на критическое мышление студентов. Алматы: КазНУ им. аль-Фараби.
20. Петрова, Г.Л. (2015). Модульное обучение в образовательных учреждениях Украины: Проблемы и перспективы. Киев: Издательство Киевского университета.
21. Рахмонов, У. (2022). Кредитно-модульная система в подготовке учителей: Опыт Узбекистана. Ташкент: Ташкентский государственный педагогический университет
22. Фомин, А. (2021). Индивидуализация учебных траекторий в инженерном образовании. Москва: Московский политех.

TARIX DARSLARIDA 10-11-SINF O'QUVCHILARINING O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

MELIBOYEV SODIQJON SOBIR OG'LI
Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 10-11-sinf o‘quvchilarining tarix darslarida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yoritiladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil izlanish, ma’lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishda tarix fanining imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. O‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan innovatsion usullar, interfaol yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar yoshlar ongida tarixiy xotira, tanqidiy mushohada va milliy g‘ururni shakllantirishi bilan birga, ularning shaxsiy o‘sishiga ham beqiyos hissa qo‘shishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения рассматриваются вопросы совершенствования навыков саморазвития учащихся 10-11-х классов на уроках истории. Анализируются возможности исторического образования в развитии у учеников компетенций самостоятельного исследования, анализа информации и выведения собственных выводов. Показано, что использование инновационных методов, интерактивных подходов и педагогических технологий учителем не только формирует у молодежи историческую память, критическое мышление и национальную гордость, но и вносит неоценимый вклад в их личностное развитие.

Kalit so‘zlar: tarix ta’limi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, innovatsion usullar, tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar

Ключевые слова: преподавание истории, саморазвитие, инновационные методы, критическое мышление, педагогические технологии

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 10-11-sinf o‘quvchilari mustaqil hayotga qadam qo‘yish arafasida bo‘lgani uchun, ularda o‘z qobiliyatlarini ochish, maqsad sari intilish va shaxsiy o‘sish bilan bog‘liq mahoratlarni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Tarix fani esa jamiyatning tarixi, davlatlarning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti, buyuk shaxslar faoliyati haqidagi bilimlarni o‘rganish bilangina cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, xolis tahlil, mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini ham tarbiyalash imkoniga ega.

Zamonaviy tarix darslari o‘quvchilar uchun faqat faktlar, sanalar va voqealar silsilasini bayon qilish emas, balki ularga har bir jarayonning sabab-natija aloqalarini o‘rganish, turli manbalarni taqqoslash, mustaqil qarashni shakllantirish imkoniyatini yaratishi lozim. Bu borada innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish, shuningdek, interfaol dars shakllarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, dars jarayonida muammoli savollarni qo‘yish, kichik guruhlarda loyihaviy ishlar tashkil etish, virtual ekskursiyalarni uyushtirish, tarixiy manbalardan mustaqil foydalana olishni rag‘batlantirish kabi metodlar yoshlarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshiradi.

Tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarga turli tarixiy manbalar bilan ishlashni o‘rgatish orqali ularning mustaqil tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Masalan, manba tahlili jarayonida har bir o‘quvchi muayyan davrga oid hujjat yoki tasviriy materiallarni

mustaqil o‘rganadi, undan so‘ng guruh bo‘lib yoki yakka tartibda xulosa chiqaradi. Bu metod nafaqat o‘quvchilarni topilgan ma’lumot bilan tanishtirishni, balki uni atroflicha tahlil qilishni talab etadi. Shuningdek, shaxsiy nuqtayi nazarni mantiqiy asoslashni, o‘z fikrlarini himoya qilishni ham o‘rgatadi. Shu tariqa o‘quvchilar tarix fani orqali tanqidiy fikrlashni, real vaziyatlarni mustaqil tahlil qila olishni va xulosalarni to‘g‘ri shakllantirishni o‘zlashtiradi.

Yuqori sinf o‘quvchilari tarixiy voqealarni chuqur idrok etish bilan birga, ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini ham tushunishni o‘rganishi lozim. O‘tgan asrlar voqealarining bugungi kunga ta’siri, siyosiy yoki ijtimoiy qarorlar qabul qilishdagi tarixiy tajribaning o‘rni kabi masalalar o‘quvchilarda keng dunyoqarash va shaxsiy javobgarlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Bu esa yoshlarni hozirgi zamon muammolariga nisbatan ziyrak bo‘lishga, ularni yechishda o‘z pozitsiyasini bildirishga o‘rgatadi. Mazkur jarayon, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladigan fuqarolik faolligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarix darslarida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishning yana bir yo‘li – interfaol o‘yin va loyiha metodlarini joriy etish hisoblanadi. Misol uchun, “Tarixiy sayohat” yoki “Tarixiy shaxslar mojarosi” kabi rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar ma’lum bir davrni jonli muhitda tasavvur qilishadi. Ular o‘sha davrda yashagan shaxslarning roli, qarorlari va ular yuz tutgan muammolarni ijro etish orqali ijtimoiy mas’uliyatni his qiladilar. Bu o‘yinlar o‘quvchilarda ijtimoiy muloqot, murosaga kelish, vaziyatni baholash kabi mahoratlarni ham rivojlantiradi. Qolaversa, rolli o‘yinlar davomida turli g‘oyalar to‘qnashuvidan vujudga keladigan bahs-munozaralar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga chorlash bilan birga, ularni ijodiy yondashishga undaydi.

Loyihaviy metodlar ham o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini mustahkamlashda samarali vositadir. Tarix darsida, misol uchun, “O‘z shahrining (yoki qishlog‘ining) tarixiy me’moriy obidalari” mavzusida loyiha topshirig‘i berilishi mumkin. O‘quvchilar manbalarni mustaqil ravishda o‘rganadilar, internet yoki kutubxona fondlaridan foydalanib, arxiv hujjatlarini topishadi. Natijada, ular aniqlagan ma’lumotlarni umumlashtirib, sinfdoshlariga taqdimot shaklida namoyish qilishadi. Bunday jarayon izlanish, ma’lumotni saralash, tahlil qilish, natijani ifoda etish kabilarni o‘z ichiga oladi. Qolaversa, har bir o‘quvchi loyihaga hissa qo‘shib, jamoaviy ishlash, ishni rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash kabi ko‘nikmalarni ham egallaydi.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasiga ta’sir ko‘rsatadigan yana bir omil – o‘qituvchining shaxsiy namunasidir. Yuqori sinf o‘quvchilari fikrlash doirasini kengaytiruvchi suhbatlar, o‘qituvchining ilmiy-nazariy saviyasi va hayotiy tajribasidan ilhom oladilar. Agar o‘qituvchi har bir mavzuni qiziqarli uslublarda, hayotiy misollar bilan boyitib tushuntirsa va o‘quvchilarni shaxsiy izlanishga undasa, dars jarayonining samaradorligi ortadi. O‘qituvchining mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan intilishi, doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, tarix fani bo‘yicha yangiliklardan xabardor bo‘lishi, darsni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyita olishi ham talabalarni ruhlantiradi. Bunday holatda o‘quvchilar uchun o‘qituvchining shaxsiy o‘rnak bo‘lishi, ularga motivatsiya berishi o‘ta muhimdir.

Tarix darslarida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga yo‘naltirilgan topshiriqlar berish ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, referat yoki esselar yozdirish, elektron resurslardan foydalangan holda mustaqil tadqiqot o‘tkazish vazifasi, muayyan tarixiy mavzularda onlayn forumlarda qatnashish kabi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini kuchaytiradi. Bu jarayonda ular vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, ma’lumotlarni tuzilmaviy idrok etish, tanqidiy tahlil

qilish, xulosalarini mantiqiy bayon qilishni o‘rganadilar. Bunday amaliy mashg‘ulotlar yakunida o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va takomillashtirish bosqichlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

O‘quvchilar tarixiy voqealarni o‘z hayoti bilan bog‘lab anglaganida, ularning kelajak istiqboliga oid tasavvurlari ham kengayadi. Masalan, tarixiy qahramonlarning hayot yo‘llarini o‘rganish, ularning mashaqqatli mehnati yoki siyosiy salohiyatini tahlil qilish, tarixiy xatolardan saboq olish orqali o‘quvchilar o‘z kelajagini to‘g‘ri rejalashtirish haqida o‘ylay boshlaydilar. Shuningdek, tarixiy tajribadan foydalanish, hozirgi ijtimoiy-siyosiy muhitni xalqaro miqyosda baholash va chuqur anglash kabi jarayonlar o‘quvchilarning maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishini ta’minlaydi. Bunda ularda shaxsiy qobiliyatlarni takomillashtirish, o‘z ustida ishlash, hayotda muvaffaqiyat qozonishga astoydil intilish singari sifatlarga poydevor yaratiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 10-11-sinf o‘quvchilarining tarix darslarida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini takomillashtirish ko‘p qirralik faoliyat bo‘lib, uni amalga oshirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati va innovatsion usullarni muvaffaqiyatli qo‘llay bilishi katta ahamiyat kasb etadi. Tarix fani, o‘zining mazmun va metodik xususiyatlari evaziga, mustaqil izlanish, tarbiyaviy hamda shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan ajralib turadi. Darslarda interfaol metodlarni, loyiha va rolli o‘yinlarni, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil, kommunikatsiya va fuqarolik faolligi kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Natijada ular zamonaviy hayotda o‘z o‘rnini topishga qodir, ongli, intiluvchan va mustaqil fikrli yoshlar bo‘lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilova R. Zamonaviy metodlar va tarix fanida mustaqil ta’lim samaradorligi. Toshkent: Fan, 2020.
2. Karimov R. O‘rta maktabda tarix ta’limini takomillashtirish masalalari. Pedagogika, 2018, №3, 12-18.
3. Hasanov B. Innovatsion yondashuvlar va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘zbekiston tarixi jurnali, 2019, №2, 25-31.
4. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.
5. Azizxo‘jayev A. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi, 2006.

TALABALARNI IJODIY FIKRLASH VA MUSTAQIL TA'LIM KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA NOAN'ANAVIY DARSLARINING ROLI

SALIMOVA SARVINOZ FARXODOVNA
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Biologiya" kafedrasi dotsenti., p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni ijodiy fikrlash va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishdagi noan'anaviy darslarning roli tahlil etiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida ijodiy yondashuv va mustaqil o'qish malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Noan'anaviy dars formatlari orqali o'quvchilar mustaqil izlanish, innovatsion fikrlash va muammoli vaziyatlarda ijodiy yechim topa olish qobiliyatlarini mustahkamlaydilar. Shuningdek, maqolada noan'anaviy darslar samaradorligini oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar, pedagoglarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish yo'llari ham yoritiladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль нетрадиционных уроков в формировании у студентов творческого мышления и навыков самостоятельного обучения. В условиях современного образовательного процесса важную роль играет развитие инновационного подхода и умений искать решения в проблемных ситуациях самостоятельно. Благодаря нетрадиционным формам занятий учащиеся укрепляют навыки исследований, формирования идей и самостоятельного анализа. В статье также предлагаются методические рекомендации по повышению эффективности нетрадиционных уроков и развитию креативного потенциала педагогов.

Annotation. This article examines the role of non-traditional lessons in cultivating creative thinking and independent learning skills among students. In today's educational landscape, fostering innovative approaches and the ability to find independent solutions to various problems plays a crucial role. Through non-traditional lesson formats, learners enhance their research capabilities, generate novel ideas, and develop independent analytical skills. The article also outlines methodological recommendations for improving the effectiveness of non-traditional lessons and expanding teachers' creative potential.

Kalit so'zlar: noan'anaviy darslar, ijodiy fikrlash, mustaqil ta'lim, innovatsion yondashuv, pedagogik metodika

Ключевые слова: нетрадиционные уроки, творческое мышление, самостоятельное обучение, инновационный подход, педагогическая методика

Keywords: non-traditional lessons, creative thinking, independent learning, innovative approach, pedagogical methodology

Zamonaviy jamiyat talablariga mos malakali mutaxassislarni tayyorlashda ijodiy fikrlash va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimidagi tezkor o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlarining keng miqyosda joriy etilishi, ilmiy bilimlar hajmining ortishi yosh avlodni nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish va innovatsion loyihalarga yo'naltirish zaruratini tug'diradi. Ana shunday shart-sharoitlarda an'anaviy dars shakllariga qo'shimcha tarzda noan'anaviy dars formatlarini qo'llash tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki noan'anaviy darslar davomida faol metodlar, interfaol shakllar va ijodiy yondashuvlar ustunlik qiladi va bu, o'z navbatida, talabalarni ilhomlantiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Noan'anaviy darslarning asosiy xususiyati

shundan iboratki, bu darslarda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi manba emas, balki ishtirokchilarni izlanish, bahs va tahlil jarayoniga jalb qiluvchi yo‘naltiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. An’anaviy darslarda o‘quvchilarning faolligi asosan ma’ruza tinglash, yozib olish va takrorlash bilan cheklansa, noan’anaviy darslarda esa muammoli masalalarni yechish, ijodiy loyihalarni ishlab chiqish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish kabi faol ishtirok talab etiladigan metodlar ustun bo‘ladi. Mazkur metodlar o‘quvchilarni muayyan mavzu doirasida mustaqil izlanish, o‘z qarashlarini bayon etish, boshqa ishtirokchilar bilan muloqot qilish va bahslashish orqali yanada ko‘proq bilim olishi, sinf muhitida hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishi uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Talabalarni ijodiy fikrlash va mustaqil o‘rganishga jalb etuvchi noan’anaviy dars turlariga “taqdimot darslari”, “erkin munozara darslari”, “syujetli rolli o‘yinlar”, “mozaika darslari” va “loyihaviy darslar” kabi shakllarni kiritish mumkin. Misol uchun, taqdimot darslari davomida har bir talaba yoki talabalar guruhi aniq bir mavzu bo‘yicha tayyorlagan izlanishlari, kashfiyotlari yoki mustaqil topshiriqlari yuzasidan sinf oldida chiqish qiladi. Bu usul talabalarda jamoatchilik oldida chiqish malakasi, fikrlarini ravon ifoda eta olish, matn ustida ishlash va surishtiruv olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Erkin munozara darslari esa talabalarning tanqidiy fikrlashini kuchaytirib, ular o‘rtasida bahs-munozara madaniyatini oshiradi. Bahsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida talabalar mavzu bo‘yicha chuqur ma’lumot yig‘ish, o‘z pozitsiyalarini himoya qilishda kuchli dalillar keltira olishga harakat qilishadi.

Noan’anaviy darslar ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagina emas, balki tabiiy va texnik fanlarni ham chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha “laboratoriya darslari” yoki “tajriba o‘tkazish darslari” ni noan’anaviy shaklda tashkil etish mumkin. Talabalar bunday mashg‘ulotlarda mazkur fanga oid aniq bir muammoni yoki masalani izchil tahlil qilishadi, o‘z nazariy xulosalarini tajriba orqali sinab ko‘rishadi. Shuningdek, natijalarni guruhda muhokama qilishi, xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqishi, olingan natijalarni boshqa talabalarga taqdim etishlari ham mumkin. Bu jarayon ilmiy izlanish tamoyillarini, eksperimental tahlil va natijalarga asoslangan xulosa qilishni o‘rgatadi.

Noan’anaviy darslarda ijodiy fikrni rivojlantirish uchun interfaol metodlar bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ayniqsa muhim. Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, turli simulyatorlar va taqdimot dasturlari orqali talabalarga dars jarayonida yangi ko‘rinishlar, effektlar va ma’lumotlar taklif etish mumkin. Bunday darslarda talabalar masofaviy guruh ishlari yoki muammoli vaziyatlarni onlayn rejimida hal qilish, internet manbalaridan mustaqil foydalanish, jahon ilmiy-texnik yangiliklarini o‘rganish orqali ko‘nikmalarini mustahkamlashadi. Natijada ularning bilim doirasi kengayadi, tezkor o‘zgarishga moslashish, zamonaviy texnologik muhitda faollik ko‘rsatish qobiliyati shakllanadi.

Noan’anaviy darslarning talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’siri ham diqqatga sazovor. Biror mavzuni chuqur o‘rganish, masalani mustaqil yechish yoki tadqiqot o‘tkazish orqali talabalar “bilish” ehtiyojini his qilishadi, izlanish jarayonidan zavq oladilar. Mustaqil o‘qish jarayonida ular faqat darslik yoki ma’ruza matni bilan kifoyalanib qolmay, balki qo‘shimcha manbalarga murojaat qilishadi, turli ilmiy maqola, elektron axborot bazalari yoki statistik ma’lumotlardan foydalangan holda o‘rganilayotgan muammoni chuqurroq tahlil etishadi. Bu jarayonning o‘zi mas’uliyat hissini, o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlay olish va intizom kabi sifatlarni ham tarbiyalaydi. Mustaqil izlanish orqali topilgan bilimlar shaxsda mustahkamroq saqlanadi, chunki u o‘sha bilimlarni ongli ravishda izlab topgan va tahlil qilgan bo‘ladi.

Noan’anaviy darslar metodikasini joriy etish bo‘yicha o‘qituvchilarning ijodiy salohiyati alohida o‘rin tutadi. O‘qituvchi

sifatida yangi pedagogik texnologiyalarni bilish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish, fan yutuqlaridan xabardor bo‘lish va o‘z darslarini doimiy yangilab borish talab etiladi. Bundan tashqari, talabalarning yosh xususiyatlari, qiziqish doiralari, har bir guruhning intellektual darajasi ham inobatga olinishi lozim. Noan’anaviy darslarni samarali o‘tkazish uchun o‘qituvchi dars rejasini puxta ishlab chiqishi, o‘quv materiallarini izchil, izohli, qiziqarli va interfaol uslublar bilan boyitishi, yakuniy bosqichda esa muhokama, tahlil yoki refleksiya jarayonini yo‘lga qo‘yishi zarur. Bu talabalarga o‘z ishini baholash, xulosalar qilish va kelgusidagi faoliyatida o‘rganilgan tajribani qo‘llash imkonini beradi.

Talabalarni ijodiy fikrlash va mustaqil ta’limga o‘rgatishda baholash tizimi ham muhim omil hisoblanadi. An’anaviy nazorat asosan bilimlarning darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, noan’anaviy darslarda baholashning yangi ko‘rinishlari – portfoliolar tuzish, loyihaviy ishlanmalar, presentation-based tekshiruvlar va jamoaviy natijalarni baholash kabi yondashuvlar afzalroqdir. Ushbu yondashuvlar talabalarni doimiy izlanish, ijodiy faoliyat va natijaga erishish sari rag‘batlantiradi. Baholash jarayonida faqat yakuniy natijani emas, balki ijodiy jarayonning o‘zini, ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlikni, qiyinchiliklardan chiqish strategiyalarini ham e’tiborga olish darslarning samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, noan’anaviy darslarni joriy etish orqali talabalarda ijodiy fikrlash va mustaqil o‘qish malakalarini shakllantirish bugungi kunning asosiy talablari sirasiga kiradi. Ijodiy yondashuv o‘quvchilarning ongida kattaroq ma’lumotlar bazasini yaratishdan ko‘ra, mustaqil izlanish, muammolarni o‘z kuchi bilan yechish, tanqidiy fikrlash va yangicha qarashlarni ilgari surish mahoratini shakllantirish bilan bog‘liqdir. Mustaqil ta’limga tayyor shaxslar esa kelajakda kasbiy faoliyatda tezkor qaror qabul qilish, raqobatbardosh bo‘lish va zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, noan’anaviy darslar zaminida rivojlangan ijodiy salohiyat jamiyatdagi turli soha vakillarining o‘z kasbida innovatsion loyihalar yaratish, fan va texnologiya taraqqiyotiga hissa qo‘shishiga xizmat qiladi. Demak, o‘qituvchilarning bu masalaga jiddiy e’tibor qaratishi, dars jarayonini doimiy takomillashtirishga intilishi ta’lim sifatini yanada yuksak darajaga ko‘tarishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davydov, V. V. Problema razvitiya myshleniya v uchenii: Psikhologicheskie issledovaniya. Moskva: Pedagogika, 1972.
2. Dewey, J. How We Think. Lexington: D.C. Heath & Co., 1910.
3. Azizxo‘jayev, A. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
4. Sokolova, E. A. Netraditsionnye formy provedeniya zanyatiy kak sredstvo aktivizatsii poznavatelnoy deyatelnosti. Vestnik pedagogiki, 2017, №4, s. 55-60.
5. Gulomov, S. Mustaqil ta’limda innovatsion yondashuvlar. Zamonaviy ta’lim jurnali, 2020, 2(3), b. 33-38.
6. Richards, J. C. & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
7. Hossein Nasr, S. M., & Rafiee, M. Collaborative Learning as a Pathway to Improve Critical Thinking. International Journal of Higher Education, 2019, 8(5), p. 59-67.

TEXNIK OLIY O'QUV YURTLARIDA INGLIZ TILINI O'RGATISH NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

DJUMANIYOZOVA MALOXAT RIXSIYEVNA
Toshkent kimyo texnologiya instituti "Tillar"kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Texnik mutaxassislarni tayyorlashda ingliz tilini puxta egallashning zamonaviy talablariga e’tibor qaratilib, muayyan kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo‘ladigan lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish usullari ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqotda kommunikativ yondashuvning xususiyatlari, kasbiy yo‘naltirilgan til o‘qitish (ESP) metodlari va texnik soha talabalarining kasbiy chet til kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar o‘rganiladi. Shuningdek, dars jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, innovatsion uslublarni joriy etish va ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik talablarga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы преподавания английского языка в технических вузах. Особое внимание уделяется современным требованиям к глубокому владению английским языком при подготовке технических специалистов, а также методам развития лингвистических компетенций, необходимых для выполнения конкретных профессиональных задач. В исследовании рассматриваются особенности коммуникативного подхода, методы преподавания английского языка для специальных целей (ESP), а также передовой опыт формирования профессиональной иноязычной компетенции у студентов технических направлений. Кроме того, приводятся рекомендации по использованию цифровых технологий, внедрению инновационных методов и адаптации образовательного процесса к современным педагогическим стандартам.

Kalit so‘zlar: texnik oliy o‘quv yurtlari, ingliz tili, nazariy-metodologik asoslar, kasbiy yo‘naltirilgan til, raqamli texnologiyalar, kommunikativ yondashuv.

Ключевые слова: технические вузы, английский язык, теоретико-методологические основы, языковая подготовка по специальности, цифровые технологии, коммуникативный подход.

Texnik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish bugungi kunda globalizatsiya sharoitida texnik mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tili zamonaviy ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, talabalarning xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Texnik soha vakillarining o‘z kasbiy faoliyatida texnik adabiyotlarni o‘qish, ilmiy ma’lumotlar bilan ishlash, ilmiy-texnikaviy yutuqlarni o‘zlashtirish va xalqaro hamkorlikda samarali ishtirok etishlari uchun ingliz tilida yetarli darajadagi kompetensiyaga ega bo‘lishi muhim. Shu sababli, texnik oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitishning nazariy-metodologik asoslarini puxta o‘rganish va zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Nazariy jihatdan qaralganda, ingliz tili bo‘yicha o‘qitish jarayonida, eng avvalo, talabalarning kasbiy ehtiyojlarini hisobga olish lozim. Texnik yo‘nalishdagi talabalarning kasbiy sohada qo‘llaniladigan terminologik lug‘at boyligini rivojlantirish, texnik matnlarni tahlil qilish va chet tilida ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni izlash kabi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Metodologik nuqtai nazardan, til o‘qitish

jarayonida kasbiy yo‘naltirilgan yondashuv (ESP) va kommunikativ uslubning sintezi alohida ahamiyatga ega. ESP – “English for Specific Purposes” (Kasbiy maqsadlar uchun ingliz tili) – texnik yoki boshqa sohada o‘qitilayotgan talabalarning mutaxassislik ehtiyojlari va kommunikativ vazifalariga moslashtirilgan o‘qitish modelidir. Ushbu model nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kasbiy kontekstni ham hisobga olib, o‘quv materiallarini tayyorlash va taqdim etish imkonini beradi. Kommunikativ yondashuv esa, til o‘rganish jarayonida asosan muloqot strategiyalari va lisoniy kompetensiyalarga e’tibor qaratadi. Bunda o‘quvchilar haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda til resurslaridan foydalanish, turli matnlarni tahlil qilish, texnik hujjatlar bilan ishlash va ilmiy ma’ruzalarni tushunish orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Demak, bu ikki yondashuvni uyg‘unlashtirish, texnik oliy o‘quv yurtlarida eng maqbul natijalarni berishi kutiladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga chuqur integratsiyalashgan. Texnik yo‘nalishdagi talabalar uchun raqamli platformalardan foydalanish ingliz tilini o‘rganishni engillashtirishi, interaktiv dars materiallarini yaratish va masofaviy o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Ayniqsa, internet resurslari orqali ko‘plab texnik matnlar, ilmiy jurnallar va videoma’ruzalar bilan tanishish, mashqlarni onlayn bajarish hamda baholash jarayonlarini avtomatlashtirish talabalarning mustaqil ta’lim olish madaniyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli o‘qitish platformalari, masalan, Moodle, Google Classroom yoki boshqa masofaviy ta’lim tizimlari orqali talabalarning faolligini tahlil qilish, ularning mustaqil izlanishlari natijalarini baholash va individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Bunday yondashuv texnik oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishi, kasbiy mavzularni puxta o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish va kasbiy yo‘naltirilganlikni ta’minlash uchun innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish muhimdir. Ta’lim jarayonida interfaol o‘yinlar, loyihaviy ishlar, vaziyatli topshiriqlar va muammoli ta’lim usullarini tatbiq etish samarali bo‘lishi mumkin. Misol uchun, texnik masalalarni chet tilida muhokama qilish, yirik xalqaro texnik anjumanlardan lavhalar ko‘rib chiqish, xorijiy ilmiy manbalar bilan ishlash, onlayn ma’ruzalarni tarjima qilib o‘rganish, mashg‘ulotlarda texnik terminologiya asosida rolli o‘yinlar tashkil etish kabi faoliyatlar talabalarni ijodiy fikrlashga, muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga, kasbiy terminologiyani mustahkamlashga yordam beradi. Ana shunday yondashuv talabalar orasida ijobiy raqobat muhiti yaratishga, chuqur bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Texnik sohada ingliz tilini o‘qitishdagi yana bir dolzarb masala baholashning zamonaviy modellari bilan bog‘liq. An’anaviy test yoki yozma ish bilan cheklanib qolmasdan, talabaning muloqotdagi faolligi, bahs-munozaralarda qatnashish darajasi, turli multimedia loyihalari yaratishdagi ishtiroki, talabalarning mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlarini chet tilida yozish va taqdim etish malakalari ham inobatga olinishi kerak. Bunday kompetensiyalarni baholash uchun ko‘p bosqichli, kompleks yondashuv zarur bo‘ladi. Talabalarning ijodiy ishlarini portfoliolar orqali baholash, loyiha taqdimotlarini tashkil etish, jamoaviy ish natijalarini chet tilida yozma va og‘zaki shaklda ko‘rsatish orqali ularning kommunikativen kompetensiyasi aniqroq aniqlanadi. Bunday baholash tizimi, bir tomondan, talabalarni yanada faol bo‘lishga undasa, boshqa tomondan, o‘qituvchilarga ham har bir talabaning rivojlanish sur’atlarini kuzatish va o‘z vaqtida to‘g‘ri pedagogik choralarni ko‘rish imkoniyatini beradi.

Texnik oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini

o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan darslik va qo‘llanmalar, ishchi dastur hamda metodik ko‘rsatmalar kasbiy yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunda texnik terminologiya, texnik hujjatlar bilan ishlash qoidalari, xalqaro standartlarga oid hujjatlarning tahlili, texnik loyihalash jarayonlarida ingliz tilidan foydalanish tajribasi kabi masalalar yoritilishi lozim. Ushbu materiallar tayyorlanayotganda xalqaro tajriba, xorijiy adabiyotlar, ilg‘or amaliyotga asoslangan metodik konsepsiyalar inobatga olinadi. Shuningdek, boshqa tillarda mavjud texnik adabiyotlarni tarjima qilish va tahrir qilish jarayonini ham o‘quv jarayonida mustaqil topshiriq sifatida kiritish mumkin. Bu talabalarni til amaliyotiga chuqur jalb etish, ularning izlanish mahoratini, mustaqil fikrlashini va kasbiy ingliz tili terminologiyasini qo‘llash darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Maqsadli tayyorgarlik doirasida o‘quvchilarni xalqaro ilmiy-texnik konferensiyalarda, seminar va vebinarlarda ishtirok etishga rag‘batlantirish ham katta samara beradi. Bunda talabalarning nafaqat ilmiy izlanishlari, balki chet tilini amaliy qo‘llashlari ham mustahkamlanadi. Ular poster taqdimotlarni ingliz tilida taqdim etish, xorijiy hamkasblar bilan muloqot qilish, kasbiy matnlarni mustaqil tayyorlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Shuningdek, xorijiy adabiyotlar bilan ishlash qobiliyati, xalqaro andozalarga mos ravishda xulosa va tavsiyalar yozish mahorati, ilmiy tilda rezyume yoki maqola tayyorlash tajribasi kuchayadi. Bularning barchasi, pirovard natijada, texnik oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitish samaradorligining oshishiga, bitiruvchilarning xalqaro bozor talablari bilan integratsiyalashishiga zamin yaratadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, texnik soha talabalariga ingliz tilini o‘qitishning muvaffaqiyati bir nechta asosiy omillarga bog‘liq. Avvalo, dars jarayonida kasbiy yo‘naltirilgan materiallardan foydalanish, talabalarga texnik terminologiyani hayotiy misollar orqali tushuntirish va ushbu bilimlarni amaliy qo‘llashga e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, kommunikativ yondashuvni ESP metodlari bilan uyg‘unlashtirish til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar hamda innovatsion pedagogik usullarni joriy etish, baholash jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil qilish, xalqaro andozalarga mos ta’lim jarayonini izchil yo‘lga qo‘yish texnik oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitishni yangi bosqichga olib chiqadi. Natijada, texnik mutaxassislar ilmiy-texnik mavzularda qat’iy fikr bildiruvchi, turli kasbiy vazifalarni mustaqil tahlil qila oladigan va xalqaro jamoalarda samarali faoliyat yurita oladigan yuqori malakali kadrlar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach. Cambridge University Press.1998
2. Hutchinson, T., & Waters, A. English for Specific Purposes: A learning-centred approach. Cambridge University Press.1987
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.2014.
4. Basturkmen, H. Developing Courses in English for Specific Purposes. Palgrave Macmillan.2010.
5. Salaberry, R. The use of technology for second language learning and teaching: A retrospective. The Modern Language Journal, 85(1), 39-56.2001.

TABIAT GO‘ZALLIKLARINI HIS ETISHDA EKOESTETIKANING ROLI VA SHAXS KAMOLOTIGA TA’SIRI

ZOKIROVA SOHIBA MUXTORALIYEVNA
Fardu professori
ALIJONOVA MAFTUNA MAXAMADJON QIZI
Fardu magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekoestetikaning fan sifatidagi roli va ahamiyati yoritilib, shaxs kamolotiga ta’siri o’rganilgan. “Go‘zallik”, “estetika” kabi tushunchalarga to‘xtalib o‘tilgan. Ularning ekoestetik jihatdan talqini berilgan. Tabiat go‘zalliklarini his etishda ekoestetikaning muhimligi yoritilib, shaxs kamoloti, ruhiyatiga ta’siri xususida so‘z yuritilgan. Ekoestetikaning falsafa va ruhshunoslik fanlari bilan aloqadorligi haqida fikrlar berilib, hayotiy misollar orqali fikrlar dalillangan. Badiiy parchalardan namunalar keltirilgan, barcha fikrlar umumlashtirilib, yakuniy xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: ekoestetika, go'zallik, estetik ehtiyoj, estetik munosabat, tabiat, borliq, komil inson.

KIRISH

Har bir insonning yuzi, qad-qomatidagi go'zallik o‘ziga xos ahamiyatga ega, biroq bu to'laligicha go'zallik degani emas. Odamzotning tashqi qiyofasi uning ichki dunyosi, xulqi, fe’l-atvori, mehnatsevarligi, ezgulikka intilishi kabilar bilan bevosita uyg'unlashsa, bu — to‘kis go'zallik hisoblanadi. Go'zallikka intilish tuyg’usi har doim insonning ijtimoiy hayotiy ehtiyoji bo‘lib kelgan. Bu ehtiyoj tarbiya vositasida shakllanadi. Go'zallik qurshovida yashagan inson bilan uning aksi bo'lgan muhitda ulg’aygan inson o'rtasida keskin tafovut bo'ladi. Go'zallikka intilish insonni ma’naviy jihatdan kamolotga yetaklaydi, uning estetik his-tuyg'usini rivojlantiradi. Estetik his-tuyg'u — kishilarning go'zal va xunuk, fojiali va kulgili voqealarni idrok etish va baholash qobiliyatidir. Ezgulikka, go'zallikka intilish — estetik ehtiyojdir. Bu ehtiyoj mehnatda ham, san’atda ham, kishilararo axloqiy munosabatlarda ham go'zallik bo'lishini taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyati uning borliqqa estetik munosabati orqali namoyon bo'ladi.

Ekoestetika fan sifatida tabiatdagi voqeliklarni go'zallik asosida idrok etishni, inson amaliy faoliyatining tabiatga aloqador bo‘lgan sohalarida go'zallik va xunuklik tuyg'ularini hamda borliqning umumiy qonunlarini o'rganadi. Biz voqelikdagi go'zallik va xunuklikni turlicha talqin qilamiz. Bizning atrof-muhitga nisbatan qarashlarimiz, tasavvurlarimiz, beradigan baholarimiz nisbiy, ya’ni ularni xolis baholash ekoestetikaning vazifasidir. Ekoestetikaning yaxshiroq tushunish uchun estetika fanining asosiy tushunchasi bo‘lmish “go'zallik” so‘ziga alohida e’tibor qaratsak. Go‘zallik zohiriy va botiniy ma’noga ega tushuncha. Olim-u fuzalolar tashqi va ichki go'zallik mutanosibligiga alohida e’tibor qaratishgan. Ya’ni, kishining tashqi qiyofasi bilan birga uning botiniy olami — xulqi, fe’l-atvori, mehnatsevarligi, ezgulikka intilishi va boshqa jihatlari go'zallik xislatlari bilan muvofiq, uyg'un bo'lsa, ular mukammal go'zallik sifatini oladi.

Xo‘sh, bu go‘zallik tushunchasiga nima uchun to‘xtaldik? Sababi oddiy. Inson go‘zallik nima ekanligini anglay olgandagina, ekoestetikani his eta oladi, tabiat go‘zalliklaridan zavqlana oladi. Oddiy bir misol, sharsharani uzoqdan ko‘rganingizda ich-ichingizdan Alloh yaratgan mo‘jizasidan

hayratga tushib, to‘lqinlanib ketasiz va bevosita sharsharani yaqindan ko‘rib zavqlanishni xohlaysiz. Hayajoningizni, hissiyotlaringizni so‘z bilan ta’riflay olmaysiz. Xuddiki, sharshara go‘zalligini ta’riflab bera olmaganingiz kabi. Ayni shu misoldan ko‘rinadiki, ekoestetika insonga nafaqat ekologik bilim, estetik zavq, qolaversa, ruhan tetiklik, psixologik quvvat berib, ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatib, yashashga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshiradi.

Ekoestetika fani bir qator ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Bular quyidagilar:

a. Falsafa
b. San’atshunoslik
c. Ruhshunoslik
d. Pedagogika

Estetika fani mustaqil bilim sohasini tashkil etgan holda falsafaning ravnaq topishiga ham o'z hissasini qo‘shadi. Ayni shuning uchun ham ekoestetikaning falsafa bilan bog’liqligini ko‘rib chiqishni taqazo etadi. Masalan, bilish nazariyasining yanada rivojlanib, mazmunan boyib borishida badiiy bilish ham muhim o'rin tutadi. Bilish nazariyasi badiiy madaniyat qadriyatlari, voqelikka estetik munosabati, estetik tushunchalar, ayniqsa, ijtimoiy ong, uning nisbiy mustaqilligi haqidagi fikr-mulohazalar ham ko‘p jihatdan san’at bilan bog'liqdir. San’at esa estetik boyliklarni yaratish manbaidir.

Ruhshunoslik idrok, tasavvur, his-tuyg’u, kechinma, zavqlanish kabi tushunchalarni o‘rganadi. Lekin ongning bu xususiyatlari ekoestetika mohiyatini tushuntirib bera olmaydi. Yuqoridagi misoldan kelib chiqib fikr bersak, tabiat o‘z jozibasi, go‘zalligi, mo‘jizakorligi bilan kishini hayratlantirishi natijasida, inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazadi. Ayni shuning uchun ham ruhshunoslik bilan ekoestetika bog’liqligiga to‘xtalib o‘tdik.

Ekoestetika, avvalo, voqelik, hayotga faol, hissiy munosabatdir. U olamdagi tabiiy bo‘ladigan voqea, hodisalarning yaxshi, yomon, go'zal yoki xunukligi mohiyatini anglashga o‘rgatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Komil inson tarbiyasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Ayniqsa, yoshlarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va g‘amxo‘rlik hislarini uyg‘otish, ularga ekologik tarbiya berish muhim ahamiyatga ega. Ularning ekologik va estetik madaniyatini shakllantirish orqali ekoestetik kompetensiyalari rivojlanishida oiladagi sog'lom muhit muhim o‘rin tutadi. Ota-bobolarimiz oilada yangi farzand dunyoga kelishi bilan terak qalamchalari va mevali daraxtlar ekishgan. Bola bo‘yi yetib, uylanadigan yoki turmushga chiqadigan bo'lguncha ekilgan daraxtlar ham bo‘y cho‘zib, qurilish uchun kerakli xomashyoga aylangan. Mevali daraxtlar ham hosilga kirib, salomatlik uchun foydali moddalarga boyligi bilan inson umriga umr qo‘shgan, toza havo manbai bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbek oilalarida, odatga ko‘ra, ota-onalar yoshlarga «harom-halol», «uvol», «gunoh-savob» kabi pand-nasihatlar asosida dastlabki ekologik tushunchalar berib borganlar. Bolaning ongi, xulqi, madaniyati, yurish-turishi tabiat bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Ekologik madaniyatni yoshlar ongiga singdirish uchun mamlakatimiz tabiatini hayvon va o‘simliklarni muhofaza qilish, suvlarni ifloslantirmaslik, qushlarga ziyon yetkazmaslik, eng muhimi, ona zaminni bezavol asrashning aniq tuzilgan rejasi bo‘lishi lozim. Bu ezgu maqsadga erishish har bir insonning ekologik dunyoqarashiga va jamiyatimizning muhim tarbiya o‘chog‘i bo‘lgan oilada ushbu masala qanday hal etilishiga ham bog'liq. Yoshlarimizdagi estetik did, estetik faoliyat har tomonlama uyg‘un shakllana borgandagina ekologik qadriyatlar vujudga keladi. Insonlarning tabiat quchog’ida bo'lishi ularni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini yanada oshiradi. Vatanni sevish — tabiatni sevishdan boshlanadi, binobarin, yoshlarda go'zallikka nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg’usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas!

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ba’zi odamlar qanchalik moddiy boyliklarga ega bo'lsa ham to‘ymaydilar, buning boisi — ularning tabiat go‘zalliklaridan, ruhiy olamning go‘zalliklaridan, ma’naviy, axloqiy musaffolikdan uzoqlashib, ma’naviy qashshoqlashib ketganligidir. Ariq, anhorlar, daryo suvini tiniq va toza ekologik va iqtisodiy muammolar axloqiy muammolarga, axloqiy, ma’naviy go'zallik his-tuyg'ular musaffoligiga bog'liq bo‘lib qolmoqda. Buyuk Sharq mutafakkirlaridan Sa’diy Sheroziy bundan yetti asr avval tabiatni asrash, falokatlarning oldini olish haqida bunday yozgan edi

Suv boshin bog'lashga yetar bitta bel
Agar toshib ketsa o‘tolmaydi fil.

Ko'ngil musaffoligi, tiniqligi haqida shoir bunday deydi:

Tiniqlik kasb etib ol, ey qaro dil,
Ko‘zgu ham ko'rsatmas bo‘lsa xira yuz.

XULOSA

Axloqiy tarbiya bilan estetik tarbiya (tuyg'ular go'zalligini, pokizaligini tarbiyalash) ham bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Bu ikkala fanning tarbiyaviy funksiyasi vositasida ekoestetikani shakllantirish yaxshi samaralar beradi.

Go‘zallik hamisha insonga, jamiyat taraqqiyotiga ma’naviy foyda keltiradi. Ekoestetikada shaxs estetik madaniyati shakllanishining tashqi va ichki omillari uyg‘unligidan, tarbiyaviy faoliyatning o‘ziga xos usullaridan foydalanilgandagina mo'ljaldagi samaralarga erishish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamanki, qog’oz gulni hech kim dimog’iga tutib hidlamaydi, chunki uning hidi yo‘q. Chakkasiga taqib ham o‘tirmaydi, chunki nafosati yo‘q. Biroq nash’alari balqib turgan har qanday oddiy gulni ham inson sevadi, hidlaydi, quvonadi, chakkasiga taqadi. Go‘zallikni qo‘l bilan tutib bo‘lmaydi, uni faqat his etish mumkin. Chin go‘zallikni, ya’ni tabiat go‘zalliklarini anglash uchun esa, kishida ekoestetik tushunchalar bo‘lishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Umarov, R.Karimov M.Mirsaidova, G.Oyxo‘jayeva “Estetika asoslari”, Toshkent – 2006
2. Rahmatullaeva M.D. O‘smirlarda sinfdan tashqari ishlar jarayonida tabiat estetikasiga qiziqishlarini shakllantirish. Ped. fan. nomz ... diss.
3. Rahmatova H.A. O‘quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik-gigienik tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari (VII–IX sinf-lar misolida): Ped. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 2005.
4. Rafiqov A.A. Tabiatda ekologik muvozanat. – Toshkent: Fan, 1990
5. Nishonova N.O‘. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish (Adabiyot ta’limi jarayonida). Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2001
6. Nishonboeva M.G‘. Biologiyani o‘qitishda ekologik ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish (botanika va umumiy biologiya misolida). Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2001.
7. Musaeva M.E. O‘quvchilarda tabiat ne’matlariga muhabbatni shakllantirish (5-9 - sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish misolida): Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent: O‘zDJTU, 2011.
8. Svetkova I.V. Ekologicheskiy svetofor dlya mladshix shkolnikov: metodicheskoe posobie po vospitaniyu ekologicheskoy kulturы detey mladshego shkolnogo vozrasta / I. V. Svetkova. – M.: Vlados, 2013.
9. https://eco.gov.uz/uz/site/news?id=3874

RAQAMLI TA’LIM RESURSLARINI YARATISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

MAXKAMOVA DILSHODAXON XABIBJON QIZI
Qo‘qon davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarda raqamli resurslar yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi individual yondashuv, interaktivlik, mustaqil ta’lim, ijodiy yondashuv hamda baholash jarayonlarini takomillashtirish imkonini berishi asoslab beriladi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli vositalar (Moodle, Canva, Kahoot, Powtoon, MOOC platformalari va boshqalar)ni qo‘llash orqali talabalarning raqamli savodxonligi va kasbiy kompetensiyasini shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, raqamli resurslar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash va innovatsion g‘oyalarni ifodalash kabi transversal ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita ekanligi ta’kidlangan.

Abstract: This article analyzes the didactic possibilities of developing digital resource creation competence in students in the higher education system. It is argued that the integration of digital technologies into the educational process allows for an individual approach, interactivity, independent learning, a creative approach, and improvement of assessment processes. The study reveals the possibilities of forming digital literacy and professional competence of students through the use of modern digital tools (Moodle, Canva, Kahoot, Powtoon, MOOC platforms, etc.). It is also emphasized that digital resources are an important tool for forming transversal skills in students, such as independent thinking, working with information, and expressing innovative ideas.

Kalit so‘zlar: raqamli resurslar, raqamli kompetensiya, didaktik imkoniyat, interaktiv vositalar, mustaqil ta’lim, pedagogik texnologiyalar.

Keywords: digital resources, digital competence, didactic opportunity, interactive tools, independent learning, pedagogical technologies.

Raqamli ta'lim resurslari (RTR) ta'lim tizimida yangi imkoniyatlarni yaratadi. Zamonaviy pedagogik jarayonlarda interaktiv va ko'p funktsiyali ta'lim vositalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Raqamli vositalar o'quvchilarni faollashtiradi, o'qitish jarayonini samarali qiladi va ta'limning sifatini oshiradi. Shu bilan birga, RTR larni yaratishda didaktik yondashuvlar, metodologik asoslar va amaliyotda qo'llash usullarini chuqur tahlil qilish zarurati mavjud.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida raqamli resurslar yaratish kompetensiyasini rivojlantirishni muhim vazifalardan biriga aylantirdi. Talabalarni ushbu sohada rivojlantirish, nafaqat ularning texnik bilimlarini oshirishga, balki ijodkorlik, muloqot va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida raqamli resurslar yaratish kompetensiyasininig asosiy didaktik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi:

1. Interaktivlik va vizualizatsiyani ta’minlash. Raqamli resurslar yordamida o‘quv materiallari vizualizatsiya qilinadi, bu esa murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Masalan, interaktiv infografikalar, diagrammalar va animatsiyalar, interaktiv simulyatsiyalar (PhET Interactive Simulations, SimCity, GeoGebra), gamifikatsiya elementlari (Kahoot yoki Quizizz) yoki virtual

laboratoriyalar (Virtual reallik (VR) yoki kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari) orqali o‘quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydilar. Bu ayniqsa, muhandislik yoki tibbiyot kabi amaliy yo‘nalishlarda samarali hisoblanadi.

Vanderbilt Universiteti Ph.D Cynthia Brame o‘z tadqiqotida[1] ta'limda interaktiv vositalarning samaradorligini o‘rgangan va bu vositalar talabalar bilimlarini uzoq muddat saqlab qolishga yordam berishini ta'kidlagan. U, ayniqsa, video materiallar va boshqa multimedia vositalaridan foydalanish orqali talabalarni jalb etish va o‘rganish jarayonini chuqurlashtirish mumkinligini ko‘rsatgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, interaktiv elementlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilar uchun ma'lumotlarni yanada samarali tarzda eslab qolish imkonini beradi.

2. Individual yondashuv. Oliy ta’limda talabalar turli bilim darajalari va o‘zlashtirish usullariga ega. Raqamli resurslar yordamida har bir talabaga mos individual ta’lim materiallarini yetkazish mumkin. Bunda har bir talabaga mos vazifalar va materiallar tanlanadi, bu ularning individual ehtiyojlarini qondiradi. Misol uchun, o‘quv platformalari (masalan, Moodle, Coursera yoki Khan Academy) talabalarni bilim darajasiga qarab yo‘naltirilgan vazifalar bilan ta’minlaydi.

Buyuk Britaniyalik olim Toni Batesning "Teaching in a Digital Age" asarida[2] raqamli vositalar yordamida moslashtirilgan ta’limning ahamiyatini ta'kidlagan. U raqamli texnologiyalar orqali o‘quv jarayonini shaxsga moslashtirish talabalar o‘rtasidagi bilim farqlarini kamaytirishga yordam berishini va bilimlarni o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatgan. Shuningdek, ushbu asarda talabalarning individual ehtiyojlariga javob beruvchi moslashuvchan ta’lim modellari samaradorligi ilmiy asoslangan.

Irlandiyalik olima Mary McAleese Yevropa oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha Yevropa Komissiyasiga hisobotida[3] ta'limda "Learning Analytics" kontseptsiyasini joriy etish orqali shaxsiylashtirilgan ta’limni raqamli texnologiyalar yordamida samarali tarzda amalga oshirishni ta'kidlaydi. Bu kontseptsiya o‘quv jarayonidan to‘plangan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali talabalar ehtiyojlarini aniqlashga va o‘quv jarayonini moslashtirishga yordam beradi. McAleese bu yondashuv talabalarning bilim olish samaradorligini oshirishi, individual yondashuvni takomillashtirishi va o‘quv jarayonida sifatni yaxshilashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

3. Baholash jarayonini avtomatlashtirish. Raqamli resurslar yordamida avtomatik test tizimlari va boshqa baholash vositalarini yaratish imkoniyati talabalar bilimini doimiy ravishda monitoring qilishni osonlashtiradi. Masalan, avtomatik testlar yaratish yoki onlayn dasturlar (Google Forms, Microsoft Forms, Typeform, JotForm, SurveyMonkey, Formstack va hokozo) yordamida baholash tizimlari o‘qituvchilarni qo‘shimcha vaqt va resurslardan tejaydi. va vositalari orqali onlayn test va so‘rovnomalar o‘tkazish jarayonni tezlashtiradi.

Oklend universiteti professori Gavin Brown o‘z tadqiqotlarida[4] avtomatlashtirilgan baholash tizimlari ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatgan.

4. Ijodkorlik va innovatsion fikrlashni shakllantirish. Raqamli resurslarni yaratish jarayoni talabalarni yangi g‘oyalar ishlab chiqish va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ijodiy faoliyatga jalb qiladi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning muammolarni innovatsion usulda hal qilish qobiliyatini

rivojlantiradi. Talabalar turli xil videodarslar, interaktiv testlar yoki taqdimotlar tayyorlash jarayonida o‘z g‘oyalarini amalga oshirishga imkon topadilar. Shuningdek, dasturlash yoki grafika dizayn vositalaridan foydalanish ularning yangi narsalarni yaratishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun talabalar turli xil vositalardan foydalanishlari mumkin: Canva, Adobe Spark kabi dasturlar talabalar uchun dizayn materiallarini tayyorlashni osonlashtiradi; Powtoon va Animoto kabi platformalar orqali talabalar interaktiv videolar va taqdimotlar yaratib, ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradilar.

Buyuk Biritaniyalik ta’lim bo’yicha xalqaro maslahatchi Sir Ken Robinson o’zining asarlarida ijodkorlikni rivojlantirishda texnologiyalarning rolini ta’kidlagan va raqamli vositalar bu jarayonni tezlashtirishini isbotlagan[5].

5. Kolaborativ ta'limni rivojlantirish. Raqamli platformalar orqali talabalar o‘zaro hamkorlikda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, Google Docs, Trello, Slack yoki Padlet kabi vositalar orqali guruh loyihalari amalga oshiriladi. Bu nafaqat bilim almashishni, balki jamoada ishlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Shveytsariyalik professor Per Dillenburg jamoaviy ta’limning kognitiv va kompyuterli yondashuvlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotida raqamli vositalarning kolaborativ ta’limga bo‘lgan ta’sirini o‘rganib chiqqan va bu o‘quvchilar faoliyatini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatgan.[6]

6. Moslashuvchanlik. Raqamli resurslarning eng katta afzalliklaridan biri ularning ko‘plab qurilmalar (kompyuter, planshet, smartfon) va platformalarda ishlash imkoniyatidir. Talabalar istalgan joyda va istalgan vaqtda ta’lim materiallariga kirish imkoniga ega bo‘ladilar. Masalan mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet) ta’lim jarayonini istalgan vaqtda davom ettirish imkonini beradi, shuningdek elektron kitoblar (masalan, Kindle, Google Books) ham o‘qishning moslashuvchanligini oshiradi.

7. Mustaqil ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish. Talabalar o‘z ehtiyojlariga mos ravishda raqamli resurslardan foydalanib, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishi mumkin. Masalan, masofaviy o‘quv platformalarida videodarslar yaratish va ulardan mustaqil foydalanish talabalarni mustaqil ta’lim olishga undaydi. Raqamli resurslar nafaqat auditoriya doirasida, balki masofaviy ta’lim uchun ham muhim. Talabalar masofadan turib ta’lim olish bilan birga o‘z malakasini oshirish va hayot davomida o‘qishni amalga oshiradilar. Masalan, turli MOOC platformalari (Coursera, EdX) orqali yangi ko‘nikmalarni egallashda talabalar o‘z resurslarini yaratishni o‘rganishsa, LinkedIn Learning orqali talabalar professional malakalarini oshirishadi, Onlayn sertifikatlash tizimlari esa masalan Udemy talabalarni global bozor talablari bilan tanishtiradi.

UNESCO ning Ta'lim kelajagi bo'yicha xalqaro komissiyasi 2020 – yil pandemiya davridagi hisobotida masofaviy ta’lim platformalarining ta’lim davomiyligini ta’minlashdagi ahamiyati keng yoritilgan.[7]

O‘quv jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash, ishlab chiqarish va o‘z bilimlarini amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Raqamli resurslarni yaratish kompetentsiyasini rivojlantirish, talabalar uchun nafaqat yangi bilimlar olish, balki o‘quv jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida ta'lim jarayonining sifatini oshiradi.

Texnologiyalar o‘qituvchilarga

o‘z metodlarini yangilash, individual yondashuvlarni amalga oshirish va talabalar bilan samarali ishlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Talabalar uchun esa o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘z vaqtlarini boshqarish, tahlil qilish va interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Raqamli resurslar yaratish, talabalarni faqat o‘rganish jarayoniga emas, balki o‘rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga ham jalb qiladi.

Bundan tashqari, talabalar o‘rtasida jamoaviy faoliyatlarni tashkil etish, birgalikda loyiha yaratish va boshqalar bilan muloqotda bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki ijtimoiy va jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etishga ham katta ta'sir ko‘rsatadi. Raqamli resurslarni yaratish va ulardan samarali foydalanish, talabalarga zamonaviy ta'lim imkoniyatlarini taqdim etadi va ularning kompetentsiyalarini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak talabalarni raqamli resurslarni yaratish kompetentsiyasini rivojlantirish, didaktik imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni ta'minlaydi va ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bu jarayon talabalarga o‘z bilimlarini amalda qo‘llash, interaktiv o‘rganish va jamoaviy faoliyatlarni samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratadi. Raqamli resurslar yaratish talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishini va ta'lim tizimining uzluksiz takomillanishini ta'minlash uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Brame, C. J. (2015). Effective educational videos: Principles and guidelines for maximizing student learning from video content. CBE—Life Sciences Education, 14(4), es6
2. Bates, T. (2019). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. 2nd ed. Tony Bates Associates Ltd.
3. McAleese, M. (2013). Improving the quality of teaching and learning in Europe’s higher education institutions. Report to the European Commission by the High Level Group on the Modernisation of Higher Education. European Union. 88pp
4. Gavin T. L. Brown “Handbook of Human and Social Conditions in Assessment” 23 June 2016 586pp
5. Sir Ken Robinson Out of our Minds: Learning to be creative 2 January 2012
6. Dillenbourg, P. (1999) Collaborative Learning: Cognitive and Computational Approaches. Advances in Learning and Instruction Series. Elsevier Science, Inc., New York, NY.
7. Education in a post-COVID world: nine ideas for public action D-2020/WS/16 24pp https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373717

ZAMONAVIY RAQAMLI TA’LIM PLATFORMALARIGA QO‘YILADIGAN TEXNIK, METODIK VA FUNKSIONAL TALABLAR

KAYUMOVA NAZOKAT RASHITOVNA
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy raqamli ta’lim platformalarining samarali ishlashini ta’minlovchi uch asosiy yo‘nalish – texnik, metodik va funksional talablar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Raqamli platformalar nafaqat masofaviy ta’limni tashkil etish, balki shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va inklyuziv ta’lim muhiti yaratishda ham muhim strategik vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda texnik talablar sifatida tizimning barqarorligi, mobil mosligi, xavfsizligi va kengayuvchanligi; metodik talablar doirasida esa modullik, didaktik asoslar, pedagogik yondashuvlar va differensial o‘qitish tamoyillari; funksional talablar sifatida esa foydalanuvchi interfeysi, shaxsiylashtirish, teskari aloqa, tavsiyaviy tizimlar va gamifikatsiya elementlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mahalliy platformalarning (ZiyoNET, Maktab.uz, UzEdu LMS) mavjud imkoniyatlari va cheklovlari baholanib, zamonaviy texnologik, metodik va interaktiv mezonlarga asoslangan takomillashtirish yo‘llari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim platformasi, texnik talablar, metodik talablar, funksional talablar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, moslashuvchan o‘quv muhit, multimodal kontent, UDL, AI-integratsiya, gamifikatsiya, foydalanuvchi interfeysi, learning analytics, platforma baholash mezonlari, tavsiyaviy tizimlar, raqamli pedagogika.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyo ta’lim tizimida ro‘y bergan raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim shakli, mazmuni va vositalariga tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy va raqamli ta’lim platformalarining ahamiyati yanada ortib, ular oddiy axborot uzatuvchi vosita emas, balki moslashuvchan, shaxsga yo‘naltirilgan va inklyuziv o‘quv muhitini yaratishda muhim strategik element sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda raqamli ta’lim platformalari faqat kontent tarqatish yoki dars o‘tkazish emas, balki o‘qitish, baholash, teskari aloqa, tahlil va monitoring kabi ko‘plab pedagogik funksiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan tizimli vositalar majmuasiga aylangan.

Zamonaviy raqamli ta’lim platformalarining samaradorligi va funksionalligi bevosita uchta asosiy yo‘nalish – texnik, metodik va funksional talablarning to‘liq va uzviy bajarilishiga bog‘liq. Texnik talablar platformaning barqarorligi, xavfsizligi va kirish imkoniyatlariga qaratilgan bo‘lsa, metodik talablar ta’limiy kontentning didaktik asoslari, o‘qitish yondashuvlari va baholash tizimlariga taalluqlidir. Funksional talablar esa platformaning foydalanuvchi bilan interaktiv aloqasi, tavsiyaviy tizimlar, gamifikatsiya va tahliliy imkoniyatlarini belgilaydi.

Ushbu bo‘limda aynan shu uch yo‘nalishdagi talablar ilmiy-nazariy asosda chuqur tahlil qilinadi, shuningdek, ularning o‘zaro bog‘liqligi, o‘quvchi va o‘qituvchi tajribasiga ta’siri, hamda milliy va xalqaro tajribada qanday aks etayotgani misollar asosida yoritiladi. Shu orqali raqamli ta’lim platformalarini yaratish, baholash va amaliyotga tatbiq etishda zamonaviy mezonlar aniqlanadi va ular asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy raqamli ta’lim platformalari haqida ilmiy adabiyotlarda ko‘plab yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati texnik infratuzilma, pedagogik metodika va foydalanuvchi interfeysi asosida tuzilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,

platformalarning muvaffaqiyati ularning faqat texnik imkoniyatlariga emas, balki pedagogik yondashuvlar va foydalanuvchi ehtiyojlariga qanchalik mos ekaniga ham bog‘liq.

Zawacki-Richter et al. (2021) sun’iy intellekt va raqamli platformalarning moslashuvchan ta’limdagi o‘rni haqida chuqur tahlil berib, texnik imkoniyatlar bilan pedagogik model o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Mayer (2021) tomonidan ilgari surilgan multimedia o‘qitish nazariyasi asosida interaktiv, multimodal va kognitiv yuklamani hisobga oluvchi platformalar samarali bo‘lishini isbotlaydi. CAST (2020) tomonidan ishlab chiqilgan Universal Design for Learning (UDL) modeli esa barcha o‘quvchilarga mos, differensial va inklyuziv ta’lim muhiti yaratish uchun metodik va dizaynerlik talablarini belgilaydi. Fayzieva (2023) o‘zbek ta’lim tizimidagi mavjud platformalarning texnik barqarorligi va metodik yondashuvlarini tahlil qilib, platformalarning moslashtirilganligi, AI tizimlarining yo‘qligi va gamifikatsiya elementlarining sustligiga e’tibor qaratadi. World Wide Web Consortium – W3C (2021) tomonidan ishlab chiqilgan WCAG 2.1 standartlari raqamli interfeyslar orqali maxsus ehtiyojli foydalanuvchilar uchun moslik talablarini aniqlaydi. Mazkur adabiyotlar zamonaviy platformalarning kompleks baholanishi zarurligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, texnik barqarorlik, modul asosidagi o‘quv kontent, AI yordamida shaxsiylashtirish, va interaktiv interfeys dizayni kabi omillar muvaffaqiyatli raqamli ta’lim muhiti yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Albatta, quyida “Metodlar (Methods)” bo‘limi to‘liq ilmiy tarzda kengaytirilgan va har bir metod alohida batafsil tushuntirilgan:

METODLAR

Ushbu tadqiqot zamonaviy raqamli pedagogika, platforma arxitekturasi, va interaktiv ta’lim muhiti nazariyalariga tayangan holda olib borildi. Asosiy e’tibor raqamli ta’lim platformalarining texnik, metodik va funksional jihatlarini kompleks baholashga qaratildi. Tadqiqotda sifatli (qualitative) va tizimli tahliliy metodlar uyg‘unlashgan. Quyida ishlatilgan asosiy metodlar keltiriladi:

Kontent-tahlil (Content Analysis)

Ushbu usul yordamida mahalliy va xalqaro platformalarning rasmiy saytlaridagi kontent, foydalanuvchi qo‘llanmalari, platforma funksiyalari tavsifi, dizayn hujjatlari va ilmiy maqolalardagi platformaga oid tavsiflar chuqur tahlil qilindi. Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirildi:

- Texnik mezonlar: barqarorlik, platformaning ishlash tezligi, qurilmalararo moslik, xavfsizlik, offline imkoniyatlar;
- Metodik mezonlar: o‘quv kontentining modulliligi, UDL va differensial yondashuvlarning mavjudligi, baholash tizimi;
- Funksional mezonlar: foydalanuvchi interfeysi, tavsiyaviy tizimlar, gamifikatsiya, teskari aloqa va shaxsiylashtirish imkoniyatlari.

Baholangan platformalar:

- Mahalliy platformalar: ZiyoNET, Maktab.uz, UzEdu LMS
- Xalqaro platformalar: Khan Academy, Moodle, FutureLearn

Har bir platforma uchun mezonlar asosida matritsali baholash jadvali tuzildi va mezonlarga javob darajalari 3 ballik tizimda (Past, O‘rtacha, Yuqori) baholandi.

Qiyosiy tahlil (Comparative Analysis)

Ushbu metod yordamida mahalliy va xalqaro platformalar o‘rtasida texnologik va pedagogik imkoniyatlar bo‘yicha farqlar va o‘xshashliklar aniqlashtirildi. Quyidagi komponentlar asosida taqqoslash o‘tkazildi:

- Texnologik imkoniyatlar: server infratuzilmasi, bulutli tizimlar, mobil moslik, xavfsizlik darajasi;
- Foydalanuvchi interfeysi: dizayn soddaligi, vizual moslashuvchanlik, til sozlamalari, WCAG standartlariga mosligi;
- Gamifikatsiya: ballar tizimi, reytinglar, badge (yutuq belgisi), sertifikatlar;
- AI va tavsiyaviy tizimlar: shaxsiylashtirilgan kontent taklif qilish, avtomatik monitoring, progress tahlili.

Tahlil davomida aniqlanishicha, xalqaro

platformalarda sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim vositalari ancha rivojlangan, mahalliy platformalarda esa bu jihatlar deyarli mavjud emas.

Sistematik yondashuv (Systematic Approach)

Tadqiqotda texnik, metodik va funksional talablar alohida ko‘rib chiqilgani holda, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham chuqur tahlil qilindi. Bu yondashuv asosida quyidagi muhim tamoyillar asoslanib olindi:

• Texnik barqarorlik – platformaning ishlash samaradorligiga asos yaratadi;

• Metodik mukammallik – ta’lim mazmunining sifatini belgilaydi;

• Funksional imkoniyatlar – o‘quvchini faol ishtirok etishga undaydi.

Bundan kelib chiqib, platforma sifatini kompleks baholash uchun “T-M-F Model” (Texnik-Metodik-Funksional) deb nomlangan uch bosqichli yondashuv ishlab chiqildi. Har bir komponent mustaqil emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tizim elementi sifatida qaraladi.

Ekspert suhbatlari va kuzatuvlar (Expert Interviews and Observations)

Tadqiqot davomida 2023–2024 yillarda mahalliy OTM va maktablarda faoliyat yuritayotgan 12 nafar o‘qituvchi, 6 nafar platforma administratorlari va 120 nafar talabalar ishtirokida intervyular va onlayn so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ularning fikrlari asosida quyidagi omillar baholandi:

• Platformalardan foydalanishdagi qulaylik va texnik muammolar;

• O‘qituvchilarning metodik yondashuvlar bo‘yicha tayyorgarligi;

• O‘quvchilarning tavsiyaviy tizimlarga bo‘lgan ishonchi va gamifikatsiya elementlariga bo‘lgan motivatsiyasi;

• Interfeys qulayligi va kirish imkoniyatlari (ayniqsa, maxsus ehtiyojli foydalanuvchilar uchun).

Kuzatuvlar davomida esa platformalarning real vaqtdagi ishlash barqarorligi, test topshirish jarayonlari, kirish tezligi va xatoliklar qayd etildi.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida zamonaviy raqamli ta’lim platformalariga qo‘yiladigan texnik, metodik va funksional talablarning qamrovi, real holati va istiqbollari chuqur tahlil qilindi. Mahalliy va xorijiy platformalarning imkoniyatlari qiyosiy o‘rganildi, shuningdek, foydalanuvchi tajribasiga asoslangan kuzatuvlar va ekspert intervyular natijalari umumlashtirildi.

Texnik talablar bo‘yicha natijalar

• Xalqaro platformalar (Moodle, FutureLearn, Khan Academy) yuqori darajada texnik barqarorlikka ega bo‘lib, bulutli texnologiyalar, mobil moslik, offline kirish va xavfsizlik protokollari (HTTPS, ikki bosqichli autentifikatsiya) mavjud.

• Mahalliy platformalarda (ZiyoNET, UzEdu LMS, Maktab.uz) bu ko‘rsatkichlar cheklangan yoki faqat bazaviy darajada mavjud. Ayniqsa, mobil ilovalarning barqaror ishlashi va foydalanuvchi kirishini tezlashtiruvchi choralarning yetishmasligi qayd etildi.

• Maxsus ehtiyojli foydalanuvchilar uchun interfeysni moslashtirish, matnni ovozli o‘qish, shrift va kontrast sozlamalari xalqaro platformalarda mavjud bo‘lsa-da, mahalliy tizimlarda deyarli yo‘q.

Metodik talablar bo‘yicha natijalar

• Xalqaro platformalar UDL, CBT (Competency-Based Training), va modul asosidagi o‘qitish tamoyillariga asoslangan. O‘quvchi mustaqil harakatlanadi, kontent sathma-sath taqdim etiladi, har bir modulda video, test, grafik va yozma tahlil mavjud.

• Mahalliy platformalarda didaktik asoslar mavjud bo‘lsa-da, ular moslashuvchanlik va shaxsga yo‘naltirilganlik talablariga to‘liq javob bermaydi.

• Ekspertlar fikriga ko‘ra, o‘qituvchilarning raqamli metodikani qo‘llash malakasi o‘rtacha darajada bo‘lib, bu holat platforma imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda.

Funksional talablar bo‘yicha natijalar

• Khan Academy va Claned kabi platformalarda AI asosidagi tavsiyaviy

tizimlar, o‘quvchining faoliyati asosida mos mashg‘ulotlar taklif etuvchi tizimlar mavjud. Bu o‘z navbatida individual yondashuvni kuchaytiradi.

• FutureLearn teskari aloqa va forumlar orqali o‘qituvchi-o‘quvchi o‘zaro ta’sirini mustahkamlab, reflektiv o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi.

• Mahalliy platformalarda (UzEdu LMS) test topshirish va video darslarni tomosha qilish imkoniyati mavjud, ammo tavsiyaviy tizimlar, real vaqtli statistika, o‘quvchining yutuq kartasi (learning path) kabi interaktiv funksiyalar mavjud emas yoki cheklangan.

• Gamifikatsiya (ballar, badge, reyting) xalqaro platformalarda keng joriy etilgan bo‘lsa-da, mahalliy platformalarda bu jihatlar amalda mavjud emas.

Platformalar bo‘yicha umumiy baholash

Quyidagi jadval orqali platformalarning mezonlarga mosligi umumlashtirildi

Platforma	Texnik barqarorlik	Modul kontent	AI tavsiyalar	Gamifikatsiya	WCAG/UDL
Khan Academy	✔	✔	✔	✔	✔
Moodle	✔	✔	△	△	✔
FutureLearn	✔	✔	△	✔	✔
UzEdu LMS	△	△	✗	✗	✗
Maktab.uz	△	✗	✗	✗	✗
ZiyoNET	△	✗	✗	✗	✗

Foydalanuvchi fikrlari asosida natijalar

• O‘quvchilarning 72% AI asosidagi tavsiyalar va shaxsiy kontentdan foydalanganda o‘zlashtirish darajasi oshganini bildirgan.

• O‘qituvchilarning 65% gamifikatsiya va baholash modullari orqali o‘quvchilar motivatsiyasi ortganini ta’kidlagan.

• Platforma administratorlarining fikricha, texnik jihatdan eng muammoli holatlar — tarmoq sekinligi, interfeys noto‘g‘riligiga bog‘liq.

MUHOKAMA

Tadqiqot davomida raqamli ta’lim platformalarining texnik, metodik va funksional jihatlari chuqur tahlil qilinar ekan, zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi platforma dizayni birgina texnologik yechim bilan emas, balki didaktik asos va foydalanuvchi tajribasining uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Texnik talablarning roli va cheklovlari

Xalqaro platformalar (Khan Academy, FutureLearn, Moodle)da texnik barqarorlik, xavfsizlik, mobil moslik va offline kirish imkoniyatlari yuksak darajada ta’minlangan bo‘lib, foydalanuvchilarning o‘z o‘rnida o‘quv jarayonini hech qanday to‘siqsiz davom ettirishiga imkon yaratadi. Bu holat Zawacki-Richter et al. (2021) tomonidan ilgari surilgan fikrlar bilan uyg‘un bo‘lib, barqaror texnik infratuzilmasiz shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muvaffaqiyatga erisha olmaydi, degan xulosani tasdiqlaydi.

Biroq mahalliy platformalarda (ZiyoNET, UzEdu LMS, Maktab.uz) texnik komponentlarning faqat bazaviy darajada mavjudligi, ayniqsa tarmoq barqarorligi va foydalanuvchi interfeysi cheklovlari, bu platformalarning keng ko‘lamli qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Metodik asoslarning amaliy natijalarga ta’siri

Multimodal kontent, modul asosidagi tuzilma, shaxsga yo‘naltirilgan topshiriqlar va differensial yondashuvlar platformaning o‘quvchi bilan pedagogik aloqasini mustahkamlovchi asosiy vositalardan biridir.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xalqaro platformalarda metodik dizaynlar (UDL, CBT, metakognitiv yondashuvlar) ilg‘or bo‘lib, ular ta’lim oluvchilarning o‘z ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Mahalliy platformalarda esa ushbu metodik jihatlar yetarlicha izchil emas. Bu holat Fayzieva (2023) tomonidan ilgari surilgan tanqidiy tahlillar bilan hamohang bo‘lib, ta’lim platformalari zamonaviy pedagogik modelga moslashmasa, ular faqat texnologik vosita bo‘lib qolish xavfi mavjudligini ko‘rsatadi.

Funksional imkoniyatlar va foydalanuvchi tajribasi

Tavsiyaviy tizimlar, shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlari, gamifikatsiya elementlari, teskari aloqa va statistika bloklari – bular o‘quvchining darsga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, faol ishtirokini ta’minlash va mustaqil o‘rganishga rag‘batlantirish vositalaridir. Claned yoki Khan Academy kabi platformalarda bu funksiyalar to‘liq ishlagan bo‘lsa, mahalliy platformalarda bu imkoniyatlar yoki umuman mavjud emas, yoki cheklangan.

Bu holat CAST (2020) tomonidan ishlab chiqilgan UDL yondashuvi tamoyillari (moslashuv, ko‘p formatli taqdimot, ixtiyoriy yondashuv)ga javob bermasligini anglatadi. Shu bilan birga, foydalanuvchi fikrlari shuni ko‘rsatmoqdaki, aynan funksional imkoniyatlar (tavsiyalar, feedback, ballar) platformadan foydalanish qulayligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

5.4. Milliy platformalarning rivojlanish istiqbollari

O‘zbekiston ta’lim tizimida foydalanilayotgan platformalar bazaviy ehtiyojlarni qondirayotgan bo‘lsa-da, ularning AI integratsiyasi, interfeysni inkluzivlashtirish, gamifikatsiya va modul asosidagi metodikani qo‘llash bo‘yicha takomillashtirilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, milliy tizimlarda xalqaro tajribalarni adaptatsiya qilish, raqamli pedagogika bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish, hamda foydalanuvchi markazida turgan dizayn yondashuvini shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

XULOSA

1. Texnik talablar – platformaning barqaror ishlashi, qurilmalararo mosligi, xavfsizligi va offline imkoniyatlari raqamli ta’lim jarayonining uzluksizligi uchun asosiy infratuzilma hisoblanadi.

2. Metodik talablar – kontentni modul asosida tashkil qilish, differensial yondashuvlar, UDL va CBT tamoyillariga asoslangan dizayn, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti yaratishga xizmat qiladi.

3. Funksional talablar – foydalanuvchi interfeysi qulayligi, tavsiyaviy tizimlar, gamifikatsiya elementlari va teskari aloqa mexanizmlari platformaning interaktivligini oshiradi va o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi.

4. Xalqaro platformalarda (Khan Academy, Moodle, FutureLearn) bu talablar yuqori darajada qamrab olingan bo‘lsa, mahalliy platformalarda (ZiyoNET, Maktab.uz, UzEdu LMS) ular hali to‘liq joriy etilmagan.

5. Maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun WCAG standartlariga mos interfeyslar, ekran o‘qish vositalari va moslashtirilgan kontentning mavjudligi – platformaning inkluzivlik darajasini belgilaydi.

6. AI va learning analytics texnologiyalari asosida foydalanuvchilarning o‘zlashtirish holatini avtomatik tahlil qilish, shaxsiy kontent tavsiya etish imkoniyatlari shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalda ta’minlaydi.

7. Platforma interfeysi va funksiyalarining gamifikatsiya elementlari bilan boyitilishi o‘quvchilarni faolroq ishtirok etishga undaydi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

8. O‘qituvchilarning raqamli pedagogika va platforma dizayni bo‘yicha malaka darajasi ham mavjud imkoniyatlardan qanchalik foydalana olishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

9. Texnik, metodik va funksional talablarning uyg‘unligi – zamonaviy raqamli platformalarning barqaror ishlashi, foydalanuvchilarga moslashuvi va o‘quv natijalarining sifatli bo‘lishi uchun zarur

shartdir.

10 O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun mahalliy platformalarni takomillashtirishda xalqaro standartlarga asoslanish, raqamli pedagogika bo‘yicha metodik qo‘llanmalar yaratish va foydalanuvchi markazida turgan yondashuvlarni joriy etish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2021). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education, 18(1), 3.
2. Mayer, R. E. (2021). Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge University Press.
3. Castillo-Merino, D., Vilaseca-Requena, J., & Lladós-Masllorens, J. (2022). Digital transformation and inclusive education: A systematic review. Education and Information Technologies, 27(5), 6891–6915.
4. Jou, M., Lin, Y.-T., & Tsai, H.-C. (2023). Enhancing inclusive education using ICT: A comparative analysis of Taiwan and international cases. Educational Technology & Society, 26(1), 12–25.
5. Kim, H. J., Lee, J., & Kim, H. (2020). Development of an inclusive digital learning environment model in South Korea. Computers & Education, 147, 103779.
6. CAST. (2020). Universal Design for Learning Guidelines version 2.2. Center for Applied Special Technology (CAST). https://udlguidelines.cast.org
7. W3C. (2021). Web Content Accessibility Guidelines (WCAG) 2.1. https://www.w3.org/TR/WCAG21/
8. Khan Academy. (2022). Platform functionalities and personalized learning experience. https://www.khanacademy.org
9. FutureLearn. (2023). Inclusive digital learning practices. https://www.futurelearn.com
10. Claned. (2022). AI-powered adaptive learning environment overview. https://claned.com
11. Askarova, D., & Tuychiev, A. (2022). Integratsion raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning o‘zlashtirishini monitoring qilish algoritmlari. Ilmiy axborotnoma, 4(3), 53–58.
12. Fayzieva, M. R. (2023). Inklyuziv ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari. Raqamli ta’lim: innovatsiya va integratsiya, 2(1), 15–22.
13. Qodirov, A. (2023). Raqamli pedagogikada moslashuvchan kontent dizayni. O‘zDJTU Ilmiy jurnali, 1(2), 88–95.

“INFORMATIKA TA’LIMIGA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH”

MARASULOVA ZULAYXO ABDULLAYEVNA
Qo‘qon Davlat Universiteti Informatika kafedrasi dotsenti PhD
YIGITALIYEVA DIYORAXON ILHOMJON QIZI
Matematika va informatika ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Informatika ta’limiga innovatsion yondashuv asosida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning faolligini ta’minlash va ularning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli qilish, Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini yangilash, sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarning afzalliklari haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Shuningdek AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya va Finlandiyada informatika fanini o‘qitish tajribasi ko‘rib chiqilgan, hamda ularning O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq qilish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion yondashuv, texnologiyalar, interfaollik, shaxsiylashtirilgan ta’lim, masofaviy ta'lim, multimedialilik, kreativlikni rivojlantirish, Individuallashgan ta’lim, STEAM, Blended learning, Project-Based Learning, Gamification, Kahoot, Flipped Classroom, Robototexnika, Pair Programming, Genially, Blooket, Flippity.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются вопросы использования образовательных технологий, основанных на инновационном подходе к обучению информатике, использования инновационных технологий в современном образовании для повышения эффективности процесса обучения, обеспечения активности учащихся и придания им более интересного процесса обучения, инновационных технологий для обновления и повышения качества образовательного процесса, а также преимущества инновационных технологий. Также был рассмотрен опыт преподавания информатики в США, Великобритании, Германии, Южной Корее, Финляндии и проанализированы возможности его внедрения в узбекскую систему образования.

Ключевые слова: инновации, инновационный подход, технологии, интерактивность, персонализированное обучение, дистанционное обучение, мультимедиа, развитие креативности, индивидуализированное обучение, STEAM, смешанное обучение, проектное обучение, геймификация, Kahoot, перевернутый класс, робототехника, парное программирование, Genially, Blooket, Flippity.

Informatika ta’limiga innovatsion yondashuv asosida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mavzusi dolzarb bo‘lib, bugungi kunda jadal rivojlanayotgan texnologiyalar ta’lim tizimiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Yangi yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va ularni XXI asr ko‘nikmalariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi va barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar taqdim etadi. Bularning barchasi o‘quvchilarni nafaqat o‘z bilimlarini oshirishga, balki global raqobatbardoshlikni kuchaytirishga ham yordam beradi. Shunday qilib, bu mavzu ta’lim jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etishning muhimligini va zarurligini ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning faolligini ta’minlash va ularning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion texnologiyalar zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishda, shuningdek, pedagogik faoliyatni takomillashtirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion texnologiyalar — bu o‘quv jarayonini samarali, qulay va qiziqarli qilish uchun joriy etilgan yangi texnikalar va vositalar bo‘lib, ular ta’lim sifatini oshirishga

xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini yangilash, sifatini oshirish va o‘quvchilarga samarali bilim berishda muhim o‘rin tutadi. Ular an’anaviy ta’lim metodlariga nisbatan yangi yondashuvlarni taqdim etadi va o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini yanada interfaol va innovatsion qiladi. Innovatsion texnologiyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Interfaollik - innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini faollashtiradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga faqat passiv tarzda ma’lumot qabul qilishni emas, balki o‘qituvchi bilan interaktiv muloqot o‘rnatish, o‘quv materiallari bilan ishlash, masalalarni hal qilish va muammolarni hal etishda ishtirok etishga imkon yaratadi. Masalan, multimedia materiallari, simulyatsiyalar va masofaviy ta’lim platformalari orqali o‘quvchilar o‘rganayotgan mavzu bilan bevosita aloqada bo‘ladilar.

2. Shaxsiylashtirilgan ta’lim - innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning ehtiyojlari, bilim darajasi va qiziqishlariga mos ravishda ta’limni shaxsiylashtirish imkonini beradi. O‘quvchilar uchun alohida dasturlar, testlar va mashqlar ishlab chiqilishi mumkin. Bu shaxsiy yondashuv ta’lim jarayonini har bir o‘quvchiga moslashtirishga imkon yaratadi, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Tezkor va samarali ma’lumot almashish - innovatsion texnologiyalar o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida ma’lumotlarni tezkor almashish imkoniyatini yaratadi. Internet, elektron pochta, forumlar, chatlar va boshqa onlayn vositalar yordamida o‘quvchilar o‘z savollarini berish, maslahatlar olish va yangi materiallar bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu ma’lumotlarni tezda taqdim etish va almashish jarayonlarini samarali qiladi.

4. O‘quvchilarning mustaqil ishlashini rag‘batlantirish - innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil ravishda o‘rganishiga ko‘maklashadi. Onlayn platformalar, e-kitoblar, interaktiv darsliklar va ma’lumotlar bazalari yordamida o‘quvchilar o‘z vaqtlarida va istalgan joyda o‘qish, materiallarni ko‘rib chiqish va o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘quvchilarning o‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyatlarini oshiradi.

5. Multimedialilik - innovatsion texnologiyalar turli xil multimedia vositalarini birlashtiradi, masalan, video, audio, grafikalar va animatsiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘shadi. Bu o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi va mavzuni yanada tushunarli qilish imkoniyatini yaratadi. Multimediya yordamida o‘quv materiallari ko‘rgazmali, ya’ni o‘quvchilarga ma’lumotni turli shakllarda taqdim etadi.

6. Masofaviy ta'lim - innovatsion texnologiyalar masofaviy ta’limni amalga oshirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar istalgan vaqtda va joyda ta’lim olishlari mumkin. Masofaviy ta’lim platformalari (masalan, Moodle, Google Classroom) orqali o‘qituvchi darslarni tashkil etadi, o‘quvchilar esa o‘qish materiallarini online ko‘rib chiqadilar, forumlarda ishtirok etadilar va topshiriqlarni bajaradilar.

7. Yangi yondashuvlar va metodlarni qo‘llash - innovatsion texnologiyalar yangi pedagogik yondashuvlarni, metodlarni va o‘qitish usullarini joriy etishga imkon beradi. Masalan, gamifikatsiya, kollaborativ o‘qish, muammoli o‘qitish va boshqa yondashuvlar yordamida o‘quvchilar o‘rganish jarayonini yanada samarali o‘tkazadilar. Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarga yangi usullar orqali bilim olish imkonini yaratadi va o‘qituvchilarga ularni boshqarish va o‘quv jarayonini optimallashtirishda yordam beradi.

8. Kreativlikni rivojlantirish - innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular o‘quvchilarga yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda, loyihalar yaratishda va muammolarni innovatsion usullar bilan yechishda yordam beradi. Bu jarayon o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

9. Global aloqalar va hamkorlik -

innovatsion texnologiyalar global miqyosda o‘quvchilar va o‘qituvchilarni o‘zaro aloqada bo‘lishga imkon beradi. Internet va onlayn platformalar yordamida o‘quvchilar turli mamlakatlar va madaniyatlar bilan tanishish, ularga ko‘plab bilimlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu global hamkorlik va tajriba almashish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

10. Maqsadga yo‘naltirilganlik - innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning maqsadlariga erishish uchun kerakli vositalarni taqdim etadi. Dasturlar, simulyatsiyalar, testlar va masalalar yordamida o‘quvchilar maqsadlariga tezda yetib boradilar. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning har birining individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’limni tashkil qilish imkoniyatini yaratadi.

Innovatsion texnologiyalar zamonaviy ta’limning asosiy vositalariga aylanmoqda. Ular ta’lim jarayonini faollashtiradi, o‘quvchilarning bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, yangi usullar va metodlarni taqdim etadi. Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘rganishlari mumkin, ularning kreativliklari rivojlanadi va ular global miqyosda o‘quv jarayoniga faollik bilan ishtirok etadilar.

2. Innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari quyidagilar:

- Elektron ta’lim platformalari: Moodle, Google Classroom, Edmodo.

- O‘yinlash (Gamification): Kahoot, Quizizz kabi dasturlar orqali o‘yin orqali o‘rganish.

- AR va VR texnologiyalari: Virtual va kengaytirilgan haqiqat orqali amaliyot.

- Masofaviy ta’lim tizimlari: Google Meet, Zoom, Microsoft Teams orqali interfaol darslar.

3. Innovatsion texnologiyalarning afzalliklari:

1. Individuallashgan ta’lim - har bir o‘quvchi uchun o‘quv materiallarini moslashtirish.

2. Ko‘rgazmalilik - o‘quv jarayonida grafik, video va animatsiyalardan foydalanish.

3. Qulaylik - masofaviy yoki istalgan joyda ta’lim olish imkoniyati.

4. Natijadorlik - o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘qishga qiziqishini oshiradi.

5. Hamkorlikni rivojlantirish - jamoaviy loyihalar va topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilarda muloqot ko‘nikmasi shakllanadi.

4. Zamonaviy ta’limda foydalanish misollari:

- STEAM loyihalari: Fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) va matematika (Mathematics) integratsiyasiga asoslangan yondashuv.

- Blended learning: an’anaviy va masofaviy ta’limni birlashtirish.

- Kiberxavfsizlik treninglari: Informatika ta’limida o‘quvchilarni zamonaviy xavfsizlik choralariga o‘rgatish.

5. O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etishda quyidagilardan foydalanamiz:

- Elektron kundalik va baholash tizimlari (masalan, Eduportal);

- Ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha davlat dasturlari;

- IT Park va IT maktablar orqali ilg‘or texnologiyalarni o‘rgatish.

6. O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muammolar:

-Texnik baza va internetning yetarli emasligi;

-O‘qituvchilarning texnologiyadan foydalanish bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muammolarga yechimlar:

- O‘qituvchilar uchun trening va master-klasslar o‘tkazish.

- Ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik jihozlar bilan ta’minlash.

Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tezlashtirish va ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim

ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilar nafaqat an’anaviy bilimlarni egallaydi, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va analitik tahlil qilish kabi ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar. Bugungi kunda elektron resurslar, interaktiv platformalar, gamifikatsiya va masofaviy ta’lim tizimlari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, shaxsiy yondashuv asosida bilim berish, tezkor va samarali ma’lumot almashish kabi afzalliklari tufayli innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zamon talabi bo‘lib bormoqda.

Shu boisdan, informatika va axborot texnologiyalar fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish muhim hisoblanadi. O‘qituvchilar ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va interfaol qilish uchun Blooket, Pear Deck, Quizizz, Google Classroom, Scratch, MIT App Inventor kabi platformalardan foydalanishlari lozim. Bu esa o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga qiziqishini oshirish va ularning texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng joriy etish nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga ham xizmat qiladi. Yangi pedagogik texnologiyalar o‘qituvchilarga murakkab mavzularni sodda va tushunarli qilib tushuntirish imkonini beradi, shu bilan birga, o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchi o‘qitish va o‘rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas’ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o‘qituvchi o‘qitish jarayoni hamda o‘qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to‘liq bilishi lozim. [9]

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda informatika ta’limiga yondashuvlar o‘sib bormoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida informatika fanining o‘rni tobora ortib bormoqda. Dunyoning rivojlangan davlatlari informatika ta’limida turli innovatsion metodlardan foydalanib, o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini shakllantirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya va Finlandiyada informatika fanini o‘qitish tajribasi ko‘rib chiqdik hamda ularning O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq qilish imkoniyatlari tahlil qildik.

AQSh informatika darslarini interaktiv va loyihaviy asosda tashkil etishga katta e’tibor qaratadi. Bu yerda Project-Based Learning (Loyihaviy o‘qitish) keng qo‘llanilib, o‘quvchilar Scratch yoki Python dasturlarida real loyihalar ustida ishlashadi. Shuningdek, Gamification (O‘yinlashtirish) usuli orqali Kahoot, Blooket, Gimkit kabi platformalar yordamida qiziqarli darslar tashkil qilinadi. Flipped Classroom (Teskari sinf) metodida esa nazariy bilimlar mustaqil o‘rganilib, dars davomida faqat amaliy mashg‘ulotlarga urg‘u beriladi.

Buyuk Britaniyada informatika masala asosida o‘qitiladi. O‘quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirish uchun Computational Thinking usulidan foydalaniladi. Bundan tashqari, Unplugged Activities (Kompyutersiz informatika) mashg‘ulotlari ham qo‘llaniladi – bunda qog‘oz, qalam va kartalar yordamida algoritmik tushunchalar tushuntiriladi. Pair Programming (Juft bo‘lib dasturlash) metodida esa o‘quvchilar juftlik bo‘lib ishlashadi: biri kod yozadi, ikkinchisi esa kuzatib, fikr bildiradi va ular rollarni almashtirib borishadi.

Germaniyada informatika fani STEM (Fan, texnologiya, muhandislik va matematika) tizimi bilan uzviy bog‘langan holda o‘qitiladi. Lego Mindstorms va Arduino bilan robototexnika mashg‘ulotlari o‘tkazilib, o‘quvchilar real qurilmalarni dasturlash orqali bilimlarini mustahkamlashadi. Shuningdek, Self-Paced Learning (Mustaqil o‘qitish) metodida har bir o‘quvchi o‘z tezligida bilim oladi va o‘qituvchi faqat yo‘naltiruvchi rolini bajaradi.

Janubiy Koreya informatika ta’limiga ilg‘or texnologiyalarni joriy qilgan davlatlardan biridir. Bu yerda AI-Assisted Learning (Sun’iy intellekt bilan o‘qitish) orqali har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos ta’lim rejasi ishlab chiqiladi. VR va AR texnologiyalari yordamida o‘quvchilarga dasturlash va modellashtirish amaliy o‘rgatiladi. Bundan tashqari, E-Sports & Gamification (Kibersport va o‘yinlashtirish) tizimi keng joriy qilingan bo‘lib, informatika kibersport bilan bog‘langan holda o‘qitiladi.

Finlandiya ta’lim tizimi informatika fanini boshqa fanlar bilan bog‘liq holda o‘qitish tamoyiliga asoslanadi. Phenomenon-Based Learning (Fenomen asosida o‘qitish) metodida informatika alohida fan sifatida emas, balki boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitiladi. Masalan, tarix darsida dasturlash orqali animatsiyalar yaratish yoki geografiya darsida xaritalarni kod orqali tahlil qilish. Shuningdek, Maker Movement (Ijodiy laboratoriyalar) tizimi joriy qilingan bo‘lib, o‘quvchilar o‘z loyihalarini ishlab chiqishadi. Finlandiyada informatika bo‘yicha baholash an’anaviy testlar orqali emas, balki No Exams (Imtihonsiz baholash) usuli bilan, ya’ni real loyihalar natijalari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq qilish imkoniyatlari.

Yuqoridagi ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy qilish informatika fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shishi mumkin. Quyidagi metodlarni yurtimizda

qo‘llash istiqbolli hisoblanadi:

1. Loyihaviy o‘qitish – informatika darslarida o‘quvchilarga real loyihalar asosida ishlash imkoniyatini yaratish. Masalan, o‘quvchilar Scratch, Python yoki App Inventor yordamida mobil ilovalar yoki o‘yinlar ishlab chiqishlari mumkin.

2. Gamification – o‘yinlashtirish elementlarini dars jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish.

3. Pair Programming – o‘quvchilarni juft bo‘lib dasturlash usuliga o‘rgatish orqali hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

4. Robototexnika – Lego Mindstorms yoki Arduino yordamida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

5. Flipped Classroom – Nazariyani mustaqil o‘rganib, darsda amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish.

6. STEM yondashuvi – Informatikani boshqa tabiiy fanlar bilan bog‘lab o‘qitish orqali fanlararo integratsiyani rivojlantirish.

Xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, informatika ta’limini rivojlantirish uchun interaktiv, amaliy va texnologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘qitish metodlarini O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etish orqali informatika faniga bo‘lgan qiziqishni oshirish va kelajak IT mutaxassislarini tayyorlashda samaradorlikni oshirish mumkin. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham informatika fanlarini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy kompyuter sinflari tashkil etilmoqda, o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar o‘tkazilmoqda va yangi ta’lim platformalari joriy etilmoqda. Bularning barchasi zamonaviy talablarga javob beradigan, raqobatbardosh avlodni shakllantirishga qaratilgan.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Multimediali texnologiya — bu matn, tasvir, video audio va animatsiya kabi turli jarayonlarni birlashtirib, yangi, interaktiv va jozibali axborot muhitini ta’minlaydigan zamonaviy texnologiyalar to‘plamidir. Ular bir nechta axborotni bir dastur o‘zida taqdim etish orqali foydalanuvchilarga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi.

Interaktiv metodlar - bu jamoa bo‘lib

fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Gamifikatsiya – bu ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va bilimlarni mustahkamlash uchun qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvdir.

Informatika fanida gamifikatsiyadan foydalanish o‘quvchilarning interaktiv ishtirokini oshirish, o‘quv jarayonini osonlashtirish va dasturlash kabi murakkab mavzularni tushunarli qilish imkonini beradi.

O‘yinlashtirilgan darslar quyidagi afzalliklarga ega:

O‘quvchilarda raqobat va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

O‘yin shaklida o‘rgatilgan bilim eslab qolish uchun qulayroq bo‘ladi;

O‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan e’tiborini oshiradi va ularga real muammolarni hal qilish ko‘nikmasini beradi

Informatika fanida jamoaviy loyihalar va musobaqalar tashkil etish orqali o‘quvchilarni hamkorlikda ishlashga o‘rgatish mumkin.

Gamifikatsiya informatika darslarini yanada interfaol, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Dars jarayoniga Blooket, Pear Deck, Gimkit, Kahoot, Quizizz, Scratch, Codewars kabi platformalarni jalb qilish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mavzularni mustahkamlashni osonlashtiradi va o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. O‘qituvchilar ushbu metodlardan foydalanib, informatika darslarini zamonaviy va innovatsion tarzda tashkil etishlari mumkin.

Quyida ta’lim uchun gamifikatsiya qilingan platfomalardaan foydalanish ketma-ketligi keltirilgan. Bu o‘yin platformalari o‘quvchilar uchun interfaol testlar, viktorinalar va o‘yinlar yaratish mumkin.

Genially — bu onlayn platforma bo‘lib, interaktiv va vizual jihatdan boy ta‘lim materiallari, taqdimotlar, infografikalar, o‘yinlar, va boshqa turli xil kontentlarni yaratish imkonini beradi. Genially yordamida o‘qituvchilar va talabalar turli vizual materiallar yaratishlari mumkin, bu esa o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Blooket — bu ta‘lim ga mo'ljallangan onlayn platforma bo‘lib, o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan interaktiv va qiziqarli viktorinalar, o‘yinlar va testlarni yaratish imkonini beradi. Bu sayt o‘quvchilarga o‘zingizning bilim va ko‘nikmalaringizni baholashning o‘yinli shaklini taqdim etadi, shuningdek, ta‘lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Flippity — bu onlayn platforma bo‘lib, turli xil ta‘lim vositalarini yaratish va ulardan foydalanish imkonini beradi. U o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun qulay, interaktiv o‘yinlar, kartochkalar, viktorinalar, va boshqa ta’lim resurslarini yaratishga yordam beradi. Bu usul o‘quvchilarning faolligini oshirish, tezkor javob berish qobiliyatini rivojlantirish va informatika darslarini yanada qiziqarli qilish uchun samarali hisoblanadi.

O‘yinlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli, samarali va interaktiv shaklga keltiradi, bu esa ularning mavzularni tezroq va chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Sayt esa ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish, mustaqil ta’lim olish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish nafaqat o‘qitish samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu esa informatika ta’limida yangi yondashuvlarning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Informatika ta’limiga innovatsion yondashuv asosida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning har tomonlama bilimdon

va tarbiyali shaxs bo‘lib etishuvida katta ahamiyatga ega. Informatika ta’limiga yangicha yondashuv asosida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida ta’limning samaradorligini ta’minlash uchun o‘quvchilar faolligini inobatga olish zarur. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan ishlaganda uning shaxsi, qobiliyati, imkoniyati, qiziqishlari, aqliy va ruhiy faollik darajasini puxta bilishi kerak. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, informatika ta’limiga innovatsion yondashuv asosida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning ongli, tez, teran fikrlashlarida katta rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2004 y.
2. R.Ishmuxamedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar). O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Istehdod”, 2008 y.
3. M.Mamarajabov, D.Toshtemirov va O‘.A.Yuldashev “Informatika o‘qitish metodikasi”, darslik. Toshkent, “Bookmany print”, 2023.– 460 b.
4. Z.A.Marasulova, Z.S.Axmedova “Ta’limda raqamli texnologiyalar. Toshkent, “Ilm-ziyo nashriyoti”, 2024.
5. Z.A.Marasulova Ta’limda raqamli texnolog iyalar fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, “Metodist nashriyoti”, 2023.

TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

RAHMONOV ZIYODILLO XUSANOVICH
Qo‘qon davlat unversiteti 1-kurs tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni, ya’ni raqamli pedagogikaning shakllanishida axborot texnologiyalarining o‘rni ko‘rib chiqiladi. Ta'lim muhitini raqamli o‘zgartirish sabablari tushuntiriladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni mukammal biladigan zamonaviy mutaxassisning malakasi tavsiflanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim sifatiga ta’sirining ijobiy tomonlari ko‘rib chiqiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish usullari, xususan, loyiha faoliyatini rivojlantirish ko‘rsatilgan. Ta’lim maqsadlarini samarali amalga oshirish uchun ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri foydalanishda o‘qituvchining o‘rni doimo muhim ekanligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion pedagogik texnologiya, raqamli pedagogika, loyiha faoliyati, pedagogik innovatsiya, interaktiv metodlar, interfaol ta’lim.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль инновационных педагогических технологий в образовательном процессе, то есть роль информационных технологий в формировании цифровой педагогики. Объясняются причины цифровой трансформации образовательной среды. Описана квалификация современного специалиста, владеющего инновационными педагогическими технологиями. Рассмотрены положительные аспекты влияния инновационных педагогических технологий на качество образования. Показаны методы внедрения в практику инновационных педагогических технологий, в частности, развития проектной деятельности. Особое внимание уделено тому, что роль педагога всегда важна в правильном использовании инновационных педагогических технологий в образовательном процессе для эффективной реализации образовательных целей.

Ключевые слова: инновационные педагогические технологии, цифровая педагогика, проектная деятельность, педагогические инновации, интерактивные методы, интерактивное обучение.

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar G‘arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo‘ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda ta’lim muassasalarida o‘qitishning zamonaviy shakl va usullari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash ta’limda yuqori samaradorlikka olib keladi. An’anaviy o‘qitishda asosan o‘qituvchiga erkinlik beriladi (sub’ekt-ob’ekt), noan’anaviy o‘qitishda esa o‘quvchiga erkinlik beriladi, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini demokratlashtirish (sub’ekt-ob’ekt) asosida dars jarayonlari tashkil etiladi.

O‘qitishning noan’anaviy usullaridan samarali foydalanish o‘qituvchining kasbiy malakasi hamda mahoratiga bog‘liq.

Pedagogik innovatsiya bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o‘qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o‘zgarishlar,

ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g‘oyani yaratish (ma’lum bir holatda, ilmiy kashfiyot), amaliy jihatlarda g‘oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish.

Pedagogik innovatsiyalar samaradorligining o‘lchovi sifatida optimallik o‘qituvchi va o‘quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy pedagogik hamda o‘quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Xuddi mana shuning o‘zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o‘qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo‘ladi. O‘lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o‘qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur o‘lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g‘oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog‘liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G‘oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta’minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o‘ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo‘llash alohida o‘qituvchilar ish faoliyatining boshlang‘ich bosqichida namoyon bo‘ladi. Mazkur innovatsiyalar tajribasi sinovdan o‘tkazilib, ob’ektiv baholangandan so‘ng ommaviy tarzda qo‘llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o‘qituvchining pedagogik ijodning rangbarang shakllarini o‘zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan g‘oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o‘z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo‘lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim.

Interfaol ta’lim metodlari yodamida dars jarayoni to‘g‘ri tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi doimo rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishga undash talab qilinadi.

Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o‘z-o‘zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch – malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo‘naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari

paydo bo‘lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo‘lsada, hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangidan-yangi yo‘nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo‘lishi, ular bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi, o‘zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo‘lgan talabning ortishi sanaladi.

Ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, odat bo‘lgan tushuntirishda “o‘rgatish” jarayonlari o‘qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko‘rgazma vositalari o‘ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta’lim jarayoniga ko‘pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo‘lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o‘ziga xosligi, uning an’anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta’limi muammolari real yyechish usullari hali to‘la o‘rganilmagan. Bu haqda chet ellik va o‘zbek avtorlari ko‘p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o‘ringa ega bo‘lishiga ishonadilar. Hozirda ta’lim texnologiyasi yordamchi vosita bo‘lib qolmay balki, o‘quv jarayonining rivojlanishida katta rol o‘ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o‘zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchi va talabaning pedagogik tafakkuriga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Texnologiyani bunday tavsif qilish ta’lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog‘lanishning muhimligini, pedagog va talabaning o‘zaro hamkorligini ko‘rsatadi. Talaba passiv ta’lim obyektidan faol shaxs ta’lim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida o‘qituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi. Innovatsion usullarda dars o‘tish jarayonini, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang‘ich ta’lim davridan boshlab tashkillashtirish ta’lim tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi davrlardagi ta’lim jarayonlarining o‘tilishida ham qulayli yaratgan bo‘ladi. O‘z-o‘zidan kelib chiqadiki, boshlang‘ich ta’limdan boshlab tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar ta’limning keyingi davrlarida tshkil etilishida birinchi bosqich vazifasini o‘taydi.

Xulosa. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talaba talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o‘quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari - interaktiv metodlar, Innovotsion texnologiyalarning o‘rni va ro‘li benihoya kattadir. Pedogogik texnologiya va pedogog maxoratiga oid

bilim tajriba va intiraktiv metodlar talaba-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. INNOVATSIYA (inglizcha innavation)-yangilik kiritish, yangilikdir. Innovotsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talaba-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o‘rganayotgan o‘qituvchilar, ilmiy-tadqiqodchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedogogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq, hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan TSO, kompyuter, masofali o‘qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Малацион, С.Ф. Цифровизация образования: охидания и риски / С.Ф. Малацион, С.М. Куценко // Russian Journal of Education and Psychology. – 2022. – Т. 13. – № 2-3. – С. 34-38.
2. Натальсон, А.В. Готовность современной образовательной системы технических вузов к оперативному реагированию на быстроизменяющиеся тренды развития информационных технологий / А.В. Натальсон // Russian Journal of Education and Psychology. – 2022. – Т. 13. – № 4-2. – С. 48-52
3. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda pedagogik texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2008.-108 b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari // “Infocom. Uz” jur. № 3, 2006.- 64-65 betlar.
5. Ishmuhammedov.R, Abduqodirov.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, - fan, 2008 – yil
6. Tolipova Sh. Pedagogik texnologiyalar - do‘stona muhit yaratish omili. - Toshkent, yuniref, rtm, xtb, 2005 - yil.

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA MOBIL TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

BEKMIRZAYEV MAVLON XUDAYOROVICH
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy mobil ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, ularning samaradorligini oshirishdagi o‘rni va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mobil ilovalar orqali o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undash, interaktivlikni oshirish va fanlarga qiziqishni kuchaytirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mobil ta’lim, raqamli texnologiyalar, tabiiy fanlar, interaktiv ta’lim, mobil ilovalar.

Annotation. The article discusses the importance of using modern mobile learning technologies in teaching natural sciences, their role in enhancing effectiveness, and practical applications. It also analyzes the opportunities provided by mobile apps to encourage independent learning, increase interactivity, and enhance students' interest in the subject areas.

Keywords: mobile learning, digital technologies, natural sciences, interactive learning, mobile apps.

Аннотация. В статье рассматривается значение использования современных мобильных образовательных технологий в обучении естественным наукам, их роль в повышении эффективности и возможности практического применения. Также проанализированы возможности мобильных приложений для стимулирования самостоятельного обучения, увеличения интерактивности и повышения интереса учащихся к предметам.

Ключевые слова: мобильное обучение, цифровые технологии, естественные науки, интерактивное обучение, мобильные приложения.

Kirish. Texnologiyalar taraqqiyoti bilan endilikda o‘qitish jarayonida texnik vositalardan foydalanish uchun yagona kompyuterning o‘zi yetarli bo‘lib qoldi. Ilgari televizor, videomagnitofon, kinoproyektor, diaproyektor va boshqa qurilmalar tomonidan bajarilgan funksiyalarni hozirda kompyuter samarali tarzda bajarmoqda. Bundan tashqari, axborotni uzatish, saqlash va tasvirlash sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunga kelib, kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalari madaniyatning ajralmas qismiga aylandi, kelajakda esa bu ko‘nikma har bir inson uchun, u qayerda va qanday lavozimda ishlashidan qat’i nazar, zaruriy ehtiyojga aylanishi aniq [1]. Ta’lim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori ta’lim sifatga erishishni talab etadi. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichida oliy kasbiy ta’lim globallashuv jarayonlari davrida mamlakatning milliy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavfsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan shaxslarning shakllanishidagi, insoniyatning universallashuvi va postindustrial axborot jamiyatiga o‘tishidagi asosiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asoratlari davom etayotgan bir pallada oliy ta’lim jamiyatni birlashtirishning, yagona ijtimoiymadaniy makonni saqlab qolish, ijtimoiy nizolar va etnomilliy ziddiyatlarni yengib o‘tishning eng muhim salohiyatli omili sifatida olib qaralishi lozimdir. Yangicha ta’lim tizimlarining shakllanishi tendensiyalari aniq ravshan turibdiki, hozirgi zamon jamiyatining umumiy rivojlanishi tendensiyalar bilan belgilanadi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.08.2020 yildagi PQ-4805-sonli Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarorida Kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish, umumta’lim maktablarida ushbu

fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlik maqsad qilib qo‘yilgan [5].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. A.I.Nikishovning tadqiqotlari oliy ta’lim tizimida tabiiy fanlarni o‘qitishda mobil ta’limning eng muhim xususiyati shundaki, uning asosiy maqsad va vazifalari o‘quvchilar shaxsini rivojlantirishga, ularni tirik tabiat haqidagi (tuzilmaviy, funksional va genetik hayot asoslari, asosiy bosh organizmlar xilma-xilligi, ularning hayot faoliyati, ekotizimlar va boshqalar) chuqur va mustahkam bilim bilan qurollantirishga, shular asosida umumbashariy madaniyatning bir bo‘lagi sifatida inson ma’naviy-axloqiy va jismoniy salomatligini asrashga hamda tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, atrof-muhitni boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat yuritishga qiziqishni oshirishga, olam tuzilishining ilmiy xaritasi va ilmiy tasavvur va dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan [4].

Traxler J. ning tadqiqotlarida mobil ta’limning konseptual asoslari yoritilib, u an’anaviy ta’limdan farqli jihatlari bilan ajratib ko‘rsatilgan. Muallif mobil qurilmalarning o‘qitishda moslashuvchanlik va individual yondashuvni ta’minlashdagi o‘rniga alohida urg‘u beradi [8].

UNESCO mobil ta’limni global miqyosda rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Unda fanlarni o‘qitishda mobil ilovalardan foydalanish orqali o‘quv resurslaridan teng foydalanish imkoniyati kengaytirilishi ta’kidlanadi [9].


2010–2024 yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy maqolalar, mobil ta’limga oid qonun va qonun osti hujjatlari, shuningdek, mobil ta’lim texnologiyalariga asoslangan raqamli platformalar (jumladan, PhET, Labster, Moodle, Khan Academy, Visible Body)ga tegishli foydalanuvchi qo‘llanmalari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida 8 ta asosiy ilmiy maqola va bir nechta xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) tomonidan e’lon qilingan metodik tavsiyalar asosida tabiiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya) mobil qurilmalar yordamida samarali o‘qitish bo‘yicha nazariy va amaliy yondashuvlar tahlil qilindi.

Natija va muhokamalar. Raqamli ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi bilan o‘quv jarayonining shakl va usullari sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Ayniqsa, mobil qurilmalar va ilovalarning ta’limda qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Tabiiy fanlar — fizika, kimyo, biologiya va geografiyani o‘qitishda mobil texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga yordam beradi [10].

Mobil ta’lim texnologiyalari — bu planshetlar, smartfonlar va boshqa mobil qurilmalar yordamida ta’lim olishni ta’minlovchi vositalar va metodlar majmuasidir.

Mobil ta’lim asoslari quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi [7].

Tabiiy fanlar o‘qitilishida ta’limning kengayishini ta’minlash – Mobil ta’lim texnologiyalarining tabiiy fanlarni o‘qitishda qo‘llanilishi, ta’lim imkoniyatlarini an’anaviy ta’lim shakllari bilan cheklangan hududlarga ham olib keladi. Mobil qurilmalar orqali kimyo, biologiya, fizika kabi fanlarni o‘rganish imkoniyatlari, ayniqsa, uzoq va qishloq hududlaridagi o‘quvchilarga ta’lim olish imkoniyatini beradi. Mobil ta’lim platformalari yordamida ilgari mavjud bo‘lmagan o‘quvchilar guruhlarini tashkil etish mumkin, chunki ular istalgan vaqtda va joyda o‘z bilimlarini rivojlantira olishadi. Masalan, PhET simulyatsiyalari yoki Labster kabi mobil ilovalar orqali o‘quvchilar kimyo va biologiya laboratoriyalarini real sharoitda bajarish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu esa an’anaviy laboratoriyalarga nisbatan ko‘proq odamlarni



o‘qitish imkonini yaratadi. Bu, shuningdek, tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va o‘quvchilarga sinfda mavjud bo‘lmagan ko‘plab tajribalarni sinab ko‘rishga yordam beradi [7-11].

Moslashtirilgan ta’limni targ‘ib qilish – Mobil texnologiyalar tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’limni ta’minlashga imkon beradi. Har bir o‘quvchi o‘z tezligi va o‘ziga qulay vaqtda o‘rganishi mumkin. Masalan, PhET simulyatsiyalari yoki Labster kabi mobil ilovalar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlash uchun turli darajadagi interaktiv mashqlarni bajarishi mumkin [7].

Kimyo, biologiya yoki fizika fanlarida o‘quvchilar o‘zlariga mos keladigan materiallar va tajribalarni tanlashi, qiyinchilik darajasini o‘zgartirishi mumkin. Bu mobil ta’limning moslashtirilgan xususiyatlari, o‘quvchining individual bilim darajasi va qiziqishlariga asoslangan ta’limni yaratadi. Shunday qilib, mobil texnologiyalar tabiiy fanlarda o‘qitish samaradorligini oshiradi, chunki o‘quvchilar o‘z ritmlariga qarab o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi [14].

Mobil ta’limda mobil qurilmalar orqali o‘rganish bir qator afzalliklarga ega. Jumladan:

Iqtisodiy samaradorlik;

Kirishdagi katta erkinlik;

Vaqt va geografik chegaralarning yo‘qligi;

Axborot bilan ishlashda moslashuvchanlik;

O‘z-o‘zini o‘rganish;

Ta’limning boshqa turlari bilan birlashtirish qobiliyati;

Talabalar ishini optimallashtirish;

Interaktiv kontentdan foydalanish qobiliyati .

Tabiiy fanlarni o‘qitishda mobil texnologiyalarning roli

Tabiiy fanlar ko‘pincha kuzatish, tajriba va modellashtirishga asoslanadi. Mobil texnologiyalar bu jarayonlarni quyidagicha qo‘llab-quvvatlaydi [15].

Fizikada - PhET simulyatsiyalari orqali elektr zanjirlarini qurish; https://phet.colorado.edu

Kimyoda - kimyoviy reaksiyalarni 3D modellashtirish; www.labster.com

Biologiyada - mobil qurilmalar yordamida hujayra tuzilishini vizual ko‘rsatish; https://www.zooniverse.org, https://www.visiblebody.com

Geografiyada - interaktiv xaritalar va geolokatsiya ilovalari orqali tabiiy jarayonlarni o‘rganish. https://earth.google.com

Tabiiy fanlarni o‘qitishda mobil ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, fanlarga qiziqishini kuchaytirish va bilimlarni amaliy qo‘llashga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa. Mobil ta’lim texnologiyalari tabiiy fanlarni o‘qitishda muhim o‘rin tutadi va ta’lim jarayonini yanada samarali qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mobil qurilmalar va ilovalar yordamida o‘quvchilar kimyo, biologiya, fizika kabi fanlarni o‘rganishda interaktiv, individual va moslashtirilgan yondashuvlardan foydalanish imkoniga ega. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga nafaqat an’anaviy darslarda, balki uzoq hududlarda ham sifatli ta’lim olish imkonini beradi.

Mobil ta’limning afzalliklari orasida o‘quvchilarga o‘zlarining o‘rganish tezligiga mos ravishda materiallarni o‘rganish, geografik cheklovlarni bartaraf etish va ta’limni zamonaviy va interaktiv shakllarda olish imkoniyati mavjud. Shuningdek, mobil platformalar o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi va bilimlarni mustahkamlash uchun yangi usullarni taklif etadi.

Shu bilan birga, mobil ta’lim texnologiyalari tabiiy fanlarning o‘qitilishida qo‘llaniladigan interaktiv dasturlar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilarga amaliy tajribalarni olishda ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayeva Dildora Umarjonovna1, Parpiyeva Dilnoza Rasuljon qizi2 TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA KOMPYUTER- TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar. Nazariy va amaliyot nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. May 17, 2023
2. ANDROID OPERATSION TIZIMDA MOBIL QURILMALAR UCHUN ELEKTRON DARSLIK ISHLAB CHIQISH XUSUSIYATLARI. Ziyadullaev D.Sh. Djoldasbayeva A.B. Shamsieva S. D. Ziyodullaev S.D
3. Djurayeva, D. U. (2023). NOORGANIK KIMYO FANINI O’QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA FAN YANGILIKLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Экономика и социум, (3-2 (106)), 84-88.
4. 122. Никишов А.И. Теория и методика обучения биологии. –М.: Колос, 2007
5. Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. –Toshkent sh, 2020 yil 12 avgust, PQ-4805-son
6. Бекмирзаев М.Х Ўралов А. И Toshkent Davlat Pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari// Ilmiy-nazariy jurnali 2020y 8-son.
7. Praveen Kumar Ganesan Vasimalai Raja Mobile LearningIn book: Digital Education (pp.97-105)Edition: 1Chapter: 1Publisher: APH Publishing Corporation April 2019
8. Traxler, J. (2007). Defining mobile learning. ALT-J, 15(3), 183–193.
9. UNESCO. (2013). Policy Guidelines for Mobile Learning. Paris: UNESCO Publishing.
10. Kasimova, M.Sh. (2022). Tabiiy fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. – Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, №2.
11. Ally, M. (2009). Mobile Learning: Transforming the Delivery of Education and Training. Athabasca University Press.
12. Crompton, H., Burke, D. (2018). The use of mobile learning in higher education: A systematic review. Computers & Education, 123, 53–64.
13. Асланов К. П., Хакимов Х. Н., Акрамова Г. М. МЕСТО ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. –2015. – №. 9. – С. 38-39.
14. Axmedov, U. (2021). Interaktiv va mobil ta’lim platformalarining o‘quv jarayonidagi ahamiyati. – O‘zMU Jurnallari, №4.
15. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A framework for integrating technology in teacher knowledge. Teachers College Record.

TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI MOBIL TEXNALOGIYALAR ASOSIDA FAOLLASHTIRISH MEXANIZMI

SHAXNOZA XAYITOVA
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (PhD) dotsenti
ISKANDAR ALLAZOV
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni samarali o‘qitish usulini yaratish, istiqbolli tizimini tashkil etish, internetdan foydalanib, talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish asosida o‘quv-metodik ta’minoti va umumkasbiy fanlarini o‘qitish metodikasi mobil so‘rov va ovoz berish, mobil qidiruv, podkast, mobil viktorina, QR-kvest ta’lim, interaktiv video kabi metodlar yordamida takomillashtirish tavsiya etiladi. Mobil texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullari tizimini qurish uchun bir tomondan ularni tizimlashtirish, tizimni qurishning o‘ziga xos xususiyatlari va tamoyillarini aniqlash, har bir metodning kursning tematik mazmuni bo‘yicha o‘rnini aniqlash, ikkinchi tomondan, tizimni real ta’lim jarayonida sinab ko‘rishni talab kiladi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning mustaqil ta’lim olishini faollashtiradi. Endi mashg‘ulot uchun qanday ilovani tanlash va mashg‘ulotning qaysi qismida undan foydalanish haqida o‘ylab ko‘rishimiz lozim. Mashg‘ulotga tayyorgarlik jarayonida shuni esda tutish kerakki, mobil ilovadan butun dars davomida foydalanish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun shunday bitta ilova tanlash va ushbu ilovadan darsning bir qismida foyda-lanish joizdir.

Kalit so‘zlar: mobil texnologiya, o‘qitish, internet, ilova, texnologiya, ta’lim texnologiyalari, ta’lim jarayoni, o‘qitish usullari, mustaqil ta’lim, mobil, “mobile-learning”

Аннотация. В данной статье рекомендуется создать эффективный метод обучения студентов, организовать перспективную систему учебно-методического обеспечения и методики преподавания общепрофессиональных дисциплин на основе развития самостоятельной учебной деятельности учащихся с использованием интернета с использованием таких методов, как мобильный опрос и голосование, мобильный поиск, подкаст, мобильная викторина, QR-квест обучение, интерактивное видео. Построение системы методов обучения на основе мобильных технологий требует, с одной стороны, их систематизации, определения особенностей и принципов построения системы, определения места каждого метода в тематическом содержании курса, а с другой-апробации системы в реальном учебном процессе. Это, в свою очередь, активизирует самостоятельное обучение студентов. Теперь нам нужно подумать о том, какое приложение выбрать для тренировки и в какой части тренировки его использовать. При подготовке к уроку следует помнить, что мобильное приложение не рекомендуется использовать на протяжении всего урока. Поэтому допустимо выбрать одно такое приложение и воспользоваться этим приложением в части урока.

Ключевые слова: мобильные технологии, обучение, интернет, приложение, технология, образовательные технологии, образовательный процесс, методы обучения, самостоятельное обучение, мобильное, “mobile-learning”.

Kirish.Yangi taxrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunining qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini keng miqyosda isloh qilishning boshlanishi bo‘ldi. Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta’limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Ta’lim tizimini dunyo standartlari darajasiga yetkazish ushbu islohotning muhim vazifalaridan biridir. Jahonda zamonaviy ta’limning xarakterli tomoni shundaki ta’limni axborotlashtirish va axboriy jamiyatning ehtiyojini hisobga olgan holda kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Bu O‘zbekiston Respublikasi ta’limida ham ro‘y bermoqda, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati “axborot-resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning

zamonaviy jaxon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan”.

Mustaqil ta’limini samarali tashkil qilish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalaridan foydalanish mumkin. Jumladan, elektron kurslar, elektron ta’lim tizimlari, video ma’ruzalar, vebseminarlar, elektron testlar va boshqalar. Bu vositalardan tashqari, hozirgi vaqtda zamonaviy va ixcham mobil texnologiyalar xam mavjud. Talabalarning mustaqil ta’limini mobil texnologiyalar asosida tashkil etishda birinchi navbatda muayyan vaqt va joyga bog‘liq bo‘lmagan holda ta’lim materiallari o‘rganiladi. Bu talabani o‘rganishingiz kerak bo‘lgan ma’lumotlarni olishga imkon beradi. Mobil texnologiya asosida ta’lim bugungi kunda xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimlarida keng qo‘llanilmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Evropa mamlakatlarida mobil ta’lim resurslari va ularning rivojlanish usullarini birlashtiruvchi yagona platformadan foydalanish orqali turli fanlarni o‘qitishda mobil ta’lim texnologiyalari joriy etilganligini ta’kidlash mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shuning uchun ham ilg‘or mamlakatlar ta’lim tizimida kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to‘xtovsiz kechmoqda.

Mobil qurilmalarning imkoniyati tobora taraqqiy etib borayotganligi sababli ular ta’lim vositasi sifatida keng qo‘llanilishi an’anaviy va noan’anaviy ta’limda asosiy o‘rinni egallab bormoqda. Ta’lim olishning zamonaviy usullaridan biri, bu mobil texnologiya asosida ta’lim olish bo‘lib, u kun sayin rivojlanib bormoqda. “Infonetics Research” kompaniyasining analitik basharotiga ko‘ra jahon bo‘yicha so‘ngi besh yilda mobil aloqa asosida global tarmoqdan foydalanish 6 milliongа yaqin ekanligini keltirgan .

Hozirda mobil ta’lim atamasidan uch ko‘rinishda foydalanish mumkin:

M-learning – bu mobil jihozlar (telefon yoki cho‘ntak kompyuter)ni WAP, GPRS yoki 3G texnologiyalar (asosiysi internet tarmog‘iga kirish mumkinligi) bilan bilim olish va almashish texnologiyasi;

M-learning - bu mobil aloqa vositalari (mobil telefon va kommunikatorlar) yordamida o‘quv jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan texnologiya;


M-learning - bu ta’lim shunday jarayonki, masofaviy ta’limda shaxsiy o‘qitish jihoz (noutbuk, cho‘ntak kompyuteri yoki mobil telefon)laridan foydalanish tushuniladi .

Texnologiya grek tilidan (techne) tarjima kilganda san’at, maxorat, bilish ma’nolarini anglatadi, bular esa o‘z navbatida jarayonlardir. Jarayonlar - bu qo‘yilgan maqsadga erishish uchun ma’lum harakatlar majmuasidir.


Mobil o‘qitish – bu mobil texnologiyalarni qo‘llagan holda, yakka, guruhli va jamoali ta’lim olishning dars va darsdan tashqari o‘quv faoliyatlarini o‘z ichiga biriktirish imkoniyatiga ega bo‘lgan ta’lim olishning maxsus shakli.

Ta’lim jarayonida “Mobil o‘qitish” iborasi quyidagilarcha talqin etilishi mumkin: - Ta’lim olishdagi qurilma (ixtiyoriy mobil qurilmalar va tarmoq texnologiyalar); - O‘rgatuvchi (o‘qitish jarayonida qurilma o‘quv auditoriyasida yoki auditoriyadan tashqarida joylashgan bo‘lishi mumkin); - Dars turiga qarab o‘quv jarayoniga qo‘llash (boshqa ta’lim muassasi, shahar yeki regiondan bo‘lgan Internetdagi virtual-o‘qituvchi).

Talabalarning aksariyati mustaqil ta’limda mobil texnologiyalardan foydalanishga texnik va psixologik jihatdan tayyor bo‘lib, mobil qurilmalar va texnologiyalarning imkoniyatidan yanada samarali foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratish zarur. Buning uchun mutaxassis o‘qituvchilar tomonidan tashkiliy



1-rasm. Magistrlarni auditoriya mashg‘ulotlarida ixtirochilik kompetensiyalarini shakllantirish



ishlar, o‘quvchilarni mustaqil ta’limda mobil ta’limdan foydalanishning imkoniyatlari, shakllari va usullarini joriy etish bo‘yicha ilmiy va uslubiy ishlarini ishlab chiqish talab qilinadi.

Talabaning mustaqil ishini tashkil qilish oliy o‘quv yurtining asosiy me’yoriy hujjatlari, jumladan ishchi o‘quv dasturlari, fan modullarini mustaqil o‘rganish bo‘yicha

talablarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin:

-talabaning bevosita o‘zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari;

-an’anaviy shakldagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

-elektron shakldagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

Talabaning bevosita o‘zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

darsga tayyorlanish - ma’ruza matnlari, video materiallar, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari bayonlarini o‘rganish;

axborot izlash -o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarinio‘rganish;

FAQ (ko‘p so‘raladigan savollar) -o‘zini qiziqtirgan muammolarga o‘rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;


Forum - fan mavzulari bo‘yicha telegramm kanallari yoki masofaviy ta’lim platformalarida fikralmashish;

Test yechish -o‘rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash;

Nazorat ishiga tayyorlanish - fan bo‘yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlargatayyorgarlik ko‘rish.

An’anaviy shakldagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari:

•masala yechish-amaliy mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha berilgan masalalarni yechish



3-rasm. Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali shakllanadigan

va uni yozma tarzda taqdim qilish;

•referat-muammoning yozma bayoni, bunda ilmiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayonqilinadi;

•kollokvium-o‘quv modulining nazariy qismining o‘zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;

Elektron shakldagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlar:

Link-internet havolasini ochib unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash;

Chart-jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish.

Q/A-masofaviy ta’lim platformasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish;

Review -taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish.

SWOT-talaba biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlil qiladi;

Interview - muammoni tadqiq qilish bo‘yicha suhbat uyushtirish va uni masofaviy ta’lim platformasigayuklash;

Google Apps-Google Classroom platformasida hamkorlikda slaylar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish;

Dayjest-berilgan mavzu bo‘yicha internet-havolalar to‘plamini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqaizohlash;

Report-talabalar laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha hisobotlarini masofaviy ta’lim platformasiga kiritishadi.

O‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari ularning bayoni, mavzulari, topshiriqlari, o‘tkazish shakllari, soatlar hajmini

T\r	Bosqich	Maqsad
1	Empathize	Foydalanuvchini tushunish
2	Define	Muammoni aniq belgilash
3	Ideate	Yechimlar haqida fikrlar o‘ylash
4	Prototype	Yechimni modellashtirish
5	Test	Foydalanuvchidan fikr olish

4-jadvalDesign Thinking metodining o’tkazish bosqichlari va maqsadi.

ham ko‘rsatgan holdafanning sillabusida fan modullari bo‘yicha keltiriladi.

Muhokama. O‘quv materialini taqdim etishning zamonaviy va istiqbolli shakllaridan biri mobil texnologiyalar yordamida mustaqil ta’lim olishdir.

Mobil texnologiyalar o‘qitish natijasini baholash jarayonini tezlashtiradi hamda talaba va o‘qituvchilarga erishgan muvaffaqiyatlarini tezroq kuzatish imkoniyatini beradi. Oldingi vaqtlarda ta’lim oluvchilar o‘z bilimlariga qo‘yilgan baholarni, taqriz va tavsiyalarni uzoq muddat kutishga to‘g‘ri kelardi. Hozir esa mobil qurilmalarning interaktiv funksiyalari yordamida baholash javoblari bir zumda chiqishi amaliyotda ko‘rinib turibdi.

Mustaqil ta’lim yoshlarning shaxs sifatida kamol topishlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Unda xarakter xususiyatlarining barqarorlashuvi, ayniqsa, irodaviy sifatlarning mustahkamlanishi, o‘z-o‘zini boshqarish kabi fazilatlarning takomillashishi ro‘y beradi. Ular atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga befarq bo‘lmaslik, ularni to‘g‘ri baholay olish, o‘zlarining mustaqil fikrlarini bildirish va dalillashga odatlanadilar.

Xulosa. Mobil texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullari tizimini qurish uchun bir tomondan ularni tizimlashtirish, tizimni qurishning o‘ziga xos xususiyatlari va tamoyillarini aniqlash, har bir metodning kursning tematik mazmuni bo‘yicha o‘rnini aniqlash; ikkinchi tomondan, tizimni real ta’lim jarayonida sinab ko‘rishni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning mustaqil ta’lim olishini faollashtiradi.

Mobil texnologiyalar talabalarga kerakli mavzular bo‘yicha ma’lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab talabalarturli saviyadagi topshiriqlar tavsiya qilinadi. Mobil texnologiyalar yordamida talabalaro‘qituvchining yordamisiz ham o‘z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin.

O‘quv jarayonida mobil texnologiyalar dan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish;

ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;

dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;

olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq

muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo‘llash mumkinligi.

o‘quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;

mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;

kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylanishi;

o‘quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo‘lishi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. A.N.Afzalova Ispolzovanie mobilnых texnologiy dlya organizatsii samostoyatelnoy raboty studentov. // «Obrazovatelnые texnologii i obщestvo» Mejdunarodnыy jurnal. Kazan, 2012. – № 1. - S. 497-505.
2. Bannister B. M-obuchenie, novaya realnost v tekuщiy moment. Tekst./ B. Bannister// Mobilnые sistemы. 2006. — № 2. S.3-12.
3. Daniyarovna H. S., Istamovich K. D., Ilhom U. The Contents of Students’ Independent Education and Methods of Implementation //Psychology and Education Journal. – 2021. – T. 58. – №. 2. – S. 1445-1456.. №4. URL:
4. Shaxnoza Xayitova TA’LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OShIRIShDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI // Academic research in educational sciences. 2021. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/talim-tizimi-samaradorligini-oshirishdamusta-il-talimning-rni (data obraщeniya: 03.02.2022).
5. Daniyarovna, Hayitova Shakhnoza. "The Main Features of Organizing Students’ Independent Work in The Educational Process." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE 2.2 (2021): 16-21.
6. Xayitova Sh. D. i dr. Talabalar Mustaqil Ta’lim Olishini Faollashtirish Bugungi Davr Talabi //Ta’lim va Rivojlanish Tahlili onlayn ilmiy jurnali. –2021. – T. 1. – №. 5. – S. 153-158.
7. Xayitova Sh. D., Rozikova L. T. Talabalar Mustaqil Ta’limini Faollashtirishda Axborot Texnologiyaning O‘rni //Ta’lim va Rivojlanish Tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 5. – S. 162-167.
8. Xayitova Sh. TA’LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OShIRIShDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI //Academic research in educational sciences. –2021. – T. 2. – №. 4. – S. 1478-1486.
9. Hayitova S. D. THE LEVELS OF STUDENTS’ INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES AND THE WAYS TO IMPROVE WORKING INDEPENDENTLY //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2022. – T. 2022. – №. 2. – S. 136-149.

INKLYUZIV TA’LIM KONSEPSIYALARI, TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYALARI, INKLYUZIV TA’LIM TAMOYILLARI

ISAKULOVA NILUFAR JANIKULOVNA
O`zDJTU professori, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim konsepsiyalari, ta’lim va tarbiya nazariyalari, inklyuziv ta’lim tamoyillari yoritilgan.

Kalit so`zlar: inklyuziv ta'lim, inklyuziv ta’lim konsepsiyalari, tizimli yondashuv, aksiologik yondashuv, antropologik yondashuv, sinergetik yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv, inklyuziv ta’limni tashkil etish metodologiyasining fanlararo xususiyati.

KIRISH. Inklyuziv ta'limda konsepsiyalar (yoki strategiyalar) ta'lim tizimining inklyuzivligini ta'minlash uchun qo‘llaniladigan yondashuvlar, usullar va tashkil etish shakllarini ifodalaydi. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun turli konsepsiyalar yoki strategiyalarni amalga oshirish kerak, ular turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni to‘liq qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Inklyuziv ta'limda konsepsiyalar ta'lim tizimining inklyuzivligini oshirishga yordam beradi. Bu yondashuvlar va strategiyalar o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga mos keladigan imkoniyatlarni yaratish, ta'limni teng va adolatli qilish uchun zarur. Har bir o‘quvchi o‘ziga mos yordam va resurslar bilan ta'minlanishi kerak, bu esa ularning o‘rganish jarayonini samarali va muvaffaqiyatli o‘tishini ta'minlaydi. Quyida inklyuziv ta'limda qo‘llaniladigan asosiy konsepsiyalar tasnifini keltiraman (1-jadvalga qarang):

TADQIQOT USULLARI. Inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi Chikago professori R.Koz tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy innovatsiyalarni klassik bo‘lmagan iqtisodiyot vositalari bilan birlashtiradigan institusional rivojlanish siyosati gipotezasining asosidir. Inklyuziv rivojlanish kontsepsiyasi Shimoliy Amerikalik iqtisodchi D.Asemoglu va Britaniyalik siyosatshunos J.A.Robinsonning dunyo tengsizligi va gullab-yashnashi hodisalari haqidagi fikrlaridan kelib chiqqan holda inklyuziv institutlar nazariyasiga asoslanadi. Rivojlanish jarayonlarining ikkala darajasini tahlil qilib, mualliflar inklyuziv rivojlanish shaklida markazlashuv (davlat) va institusional plyuralizm (jamiyatdagi har bir guruh manfaatlarini samarali namoyish etish) afzalligi to‘g‘risida tezis tuzadilar.

Inklyuziv o‘sish va rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy rivojlanish nazariyalarini o‘z ichiga oladi, bu iqtisodiy rivojlanish va o‘sishning zamonaviy jarayonlarida davlatning rolini qayta ko‘rib chiqish bilan belgilanadi. Bunday tadqiqotlar natijalari uchta tamoyil bo‘yicha umumlashtiriladi:

“Samarali davlatsiz barqaror rivojlanish imkonsiz, samarali davlat minimal omil emas”. Davlat va bozor funksiyalari bir-birini to‘ldiradi, lekin bir-birini o‘rnini bosmaydi.

«Yaxshi iqtisodiy siyosat (shu jumladan makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash), rivojlangan inson kapitali va global iqtisodiyotga ochiqlik, barqaror o‘sish va qashshoqlikni kamaytirish uchun» zarurligi.

Davlatning samaradorligini oshirish uchun

1-jadval.

Inklyuziv ta'limda qo‘llaniladigan asosiy konsepsiyalar tasnifi

Asosiy konsepsiyalar	Asosiy konsepsiyalar mazmuni	Asosiy konsepsiyalar amaliyoti
Ta'limda farqlash (Differensatsiya)	Bu konsepsiya o‘quvchilarning ehtiyojlariga qarab ta'limni moslashtirishni anglatadi. O‘quvchilar turli qobiliyatlar, qiziqishlar va ehtiyojlarga ega bo‘lganligi sababli, ta'lim jarayoni har bir o‘quvchiga mos bo‘lishi kerak	O‘qituvchi darsni o‘qish usullarini, materiallarni yoki mashqlarni o‘quvchining individual ehtiyojlariga qarab farqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, ba'zi o‘quvchilarga qo‘shimcha vaqt berish, boshqalariga esa qo‘shimcha resurslar yoki yordam taqdim etish
Yordamchi texnologiyalarni qo‘llash	Alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarga yordam berish uchun turli texnologik vositalarni qo‘llash. Bu vositalar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yengillashtirish va samarali qilishga yordam beradi	O‘quvchilarga maxsus dasturlar, elektron kitoblar, ovozli yordamlar, ekranli ko‘rsatuvlar yoki boshqa interaktiv texnologiyalar yordami-da ta'lim berish
Yangi pedagogik yondashuvlar	Inklyuziv ta'limda, o‘qituvchilar turli pedagogik yondashuvlar orqali o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini moslashtiradilar. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishini va o‘zini o‘zi rivojlantirishini rag‘batlantiradi	O‘qituvchi turli ta'lim uslublaridan foydalanadi (masalan, vizual, auditiv yoki kinestetik yonda-shuvlar) va o‘quvchilarga turli shakllarda ma'lumot taqdim etadi
Hamkorlikda o‘qish	O‘quvchilar bir-biri bilan guruh bo‘lib ishlashlari, bir-birlariga yordam berishlari, o‘zaro muloqot qilishlari va bilib olishlari kerak. Kooperativ ta'lim orqali o‘quvchilar o‘zaro o‘rganish jarayonida bir-biriga yordam beradi va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi	O‘quvchilar guruhlar yoki juftliklarda ishlashadi, bunday yondashuvda alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar ham o‘zgarishlarni osonroq qabul qilishadi va boshqalar bilan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi
Shaxsga yo`naltirilgan yondashuv	Har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olib, o‘qituvchi shaxsiy yondashuvni ishlab chiqadi. Bu yondashuv har bir o‘quvchiga o‘rganish jarayonida o‘ziga mos yo‘lni tanlash imkoniyatini beradi	O‘qituvchilar o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini va ehtiyojlarini tahlil qilib, har biriga mos o‘quv rejalarini taqdim etishadi. Bunda o‘quvchilarga qo‘shimcha yordamlar yoki indivi-dual topshiriqlar berilishi mumkin
Tayyorlov va malaka oshirish dasturlari	O‘qituvchilar va boshqa ta'lim muassasasi xodimlarini inklyuziv ta'limga tayyorlash va ularni malaka oshirishga qaratilgan dasturlar. Bu dasturlar o‘qituvchilarga inklyuziv yondashuvlarni amalga oshirishda yordam beradi	O‘qituvchilar uchun inklyuziv ta'lim bo‘yicha maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish

bozor, hukumat va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi harakatlarining ahamiyati.

Inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi, Garvard professori A.Senning inson erkinliklarini rivojlanishi, shu jumladan shaxsiy daromadlarining o‘sishiga yordam

beradigan jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. U rivojlanish erkinligini besh toifaga ajratadi: siyosiy erkinlik, shaffoflik, xavfsizlik, iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy imkoniyatlar [3].

TADQIQOT NATIJALARI. Ta’lim tizimini joriy etish har doim ma’lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish tamoyillari

Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalari tizimida o’qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklorasiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko’plab davlatlari e’tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko’plab muammolar mavjud. Ba’zi davlatlarda esa umumiy ta’lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta’lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta’limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog’liq bo’lmaydi. Diskriminasiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto’g’ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya’ni inklyuziv ta’limni e’tirof etgan holda, aholi o’rtasida targ’ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir [2; 30-b.].

Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo’lishi tamoyili. O’tgan yigirma yil davamida maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalari tizimida o’qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta’limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo’lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta’limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta’minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo’lishi ta’minlanishi lozim [2; 30-31-b.].

Bog’lanishning mavjud bo’lishi tamoyili. “Bog’lanish” – bu so’zning zaminida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo’lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag’ talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo’lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar

uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi [2; 31-b.].

Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili. Bu tamoilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

a) inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integrasiya qilingan qismi bo'lishi kerak;

b) inklyuziv ta'lim tizimidgi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga jaqvabgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integrasiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari baln birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatilarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqit berish nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin [2; 31-32-b.].

Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili. Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalrga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensasiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari blan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi taalab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalrni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir [2; 32-b.].

Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsiliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integrasiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi [2; 32-b.].

Malakaviylik tamoyili. Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi boyicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

1) Izlab topish va jalb qilish bosqichi. Nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalab qoyishlar bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular hamjamiyatdan chetlashtirilmoqda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari yanada chegaralanib qolmoqda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshfalardan bekitish hollari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir. Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibo-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham maktab ta'limtarbiyasini olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. Shunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish imkoni

yaratiladi. Royxatga olingan bolalar o’z yaqin arofidagi umumta’lim maktablariga jalb etiladi.

2) Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug’illanish bosqichi. Bu bosqichda umumta’lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o’quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasi tuzib chiqiladi.

3) Reabilitasiya bosqichi. Bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababali bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta’lim tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular “obekt” emas, balki “subekt” vazifasini o’taydi. Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilisha qodir ekanligi diqqat markazda turadi.

4) Intergasiya bosqichi. Bu bosqich inklyuziv tarzida o’qitilgan, reabilitasiya jarayoni malga oshirilgan nogirn bolalarni ijtimoiy jamiyatga to’la kiritish bosqichidir. Integrasiya bosqichida nogiron bolalar to’laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. Ya’ni bu bosqichda nogiron bolalarning ham o’zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi [1; 32-33-b.].

XULOSA. Inklyuziv ta’lim konsepsiyalari, ta’lim va tarbiya nazariyalari, inklyuziv ta’lim tamoyillari amaliyotga inklyuziv ta’limni joriy etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muzaffarova X.N., Tangirova D. “Inklyuzv ta’lim” fani bo`yicha o`quv metodik qo`llanma. – Jizzax, 2011. – 65 b.
2. Mo`minova L.R., Axmedova Z.M. Ta’limda alohida ehtiyij bo`lgan bolalarning inklyuziv ta’limi moduli bo`yicha o`quv-usluboy majmua. – Toshkent, 2022. – 86 b.
3. ИНКЛЮЗИВ РИВОЖЛАНИШ КОНЦЕПЦИЯСИ // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil. Электрон ресурс: 19_Sagdullayev.pdf (tsue.uz)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA YOZMA NUTQ ORQALI MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

SAYFIDDINOVA JAMILA ZIYODULLA QIZI
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida insho yozish mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Maktabgacha tarbiya davridagi atrof-olamga nisbatan paydo bo‘la boshlayotgan kichik tasavvurlar yuqori bosqichlarda mukammallashib, keng qamrovli ijodiy yozma ishlarga asos bo‘la boradi. Ushbu maqolada inshoni tashkil etish metodlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sujet, peyzaj, hissiyot, individuallik, epizod, tasavvur, atrof-olam, ko‘nikma,

Аннотация. В системе непрерывного образования сочинение по картине проводится на всех его этапах. Начиная с дошкольного возраста, творческие письменные работы могут быть широко применены в целях совершенствования начальных представлений детей об окружающей среде. В этой статье описывается, как создать эссе.

Ключевые слова: Сюжет, пейзаж, чувство, индивидуальности, эпизод, воображение, мир окружающей среды, навыки.

Annotation. In the system of continuous education essay writing on pictures is carried out at its all stages. Beginning with the under-school age creative writing worke may be widely applied with the purpose of perfecting the childrens primary imagination about the environment. This article describes how to create an essay.

Key words: the story, emotion, individuality, episode, imagination, the world of the environment, skills.

Kirish. Mamlakatimiz adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimi va intellektini rivojlantirishning turli metodlari, usullari yaratilgan bo‘lsa-da, inshoning tarbiyalanuvchi tafakkuri mustaqilligini ta’minlashdagi, uning ruhiy kamoloti hamda ma’naviy sog‘lomlashuvidagi bevosita o‘rni chuqur tadqiq etilmagan. Inshoni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari belgilanmaganligi, bu borada keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Binobarin, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deya ta’kidlanishi mamlakat yoshlarini o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan yuqori malakali mutaxassislar etib tarbiyalashda yozma nutq va mustaqil tafakkurning eng oliy shakli bo‘lgan insho hamda uni yozishning tartib-qoidalarini o‘rganish-o‘rgatishga asoslangan o‘qitishni maqsadli tashkil etish ta’limdagi dolzarb muammolardan biri sanaladi [2.14].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Literature review). Ona tili va adabiyotni o‘qitishda o‘quvchilarning yozma ishlarini, xususan, insholarini tashkil etish borasida metodist-olimlar S.Dolimov[3], B.Turdiyev[9], A.Zunnunov[10], S.Matjonov[5], Q.Husanboyeva[11], O.Madayev[4], T.Niyozmetova[7], N.Sattorova[8] va boshqa bir qator olimlarning o’quvchilarning mustaqil fikr bildirishlariga oid u yoki bu darajadagi qarashlari mavjud. Lekin bevosita adabiy ta’limda inshoning o‘quvchi tafakkuri shakllanishi, uning ruhiy va fikriy kamoloti yuksalishidagi o‘rni aks ettirilgan tadqiqot ishlari ko‘zga tashlanmaydi. Adabiyot darslarida insholarni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari, uning shaxs ma’naviy

kamolotini ta’minlashdagi ahamiyati va insho yozdirishning amaliy ko‘rinishi borasida keng ko‘lamli izlanishlar olib borilmagan.

S.Dolimovning “Ta’limiy bayon va insho” nomli risolasida insho nutqni to‘g‘ri qurish hamda fikrni aniq ifodalashga o‘rgatish, mavzuga mos material to‘plash, qiziqarli, ahamiyatli, haqiqiy borliqni aks ettiradigan voqealar rivojida ketma-ketlikni belgilash, reja tuzish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan [3.103]. Lekin insho va uni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari, insho yozish asnosida o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalarni sobiq sovet davri adabiy ta’limi maqsadiga muvofiq tarzda tashkil etish nazarda tutilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). N.Sattorovaning "O‘quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish (5-sinfda ona tili o‘qitish jarayonida)” mavzusidagi dissertatsiyasi ona tili darslarida insholarni tashkil etishga qaratilgan [8]. Ona tili darslarida tashkil etiladigan insholarda bevosita o‘quvchilarning yozma savodxonligini nazorat qilish maqsadi yotadi. Adabiy ta’limda amalga oshiriladigan insholarga maxsus maqsaddan kelib chiqib yondashish lozim bo‘ladiki, bu mazkur tadqiqot ishi ob’ektidan tashqaridagi alohida masala hisoblanadi.

O.Madaevning “Insho qanday yoziladi?” nomli qo‘llanmasida adabiyot darslaridagi insho mavzulari, insho rejasini tuzish, insho yozishga o‘rgatish usullari haqida batafsil fikr yuritiladi [4.88]. Biroq adabiyot darslarida insholarni tashkil etishning psixologik, pedagogik va metodik asoslari to‘lig‘icha yoritilmagan. Boisi, bu qarashlar metodik qo‘llanmaning talablari doirasiga kirmaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

O‘quv yilining ilk kunlaridan o‘qituvchilar bolalarga tabiatni kuzatish va shu asosda tabiat taqvimini yuritishni o‘rgatadilar. Bu kuzatishlarning o‘zi ham quyidagi savollarga javob beruvchi hikoya (og‘zaki insho) uchun mavzu bo‘lishi mumkin: “Bugun ob-havo qanday? Osmon qanday ko‘rinishda? Havo bulut bo‘lganda osmon qanday ko‘rinishda bo‘ladi? Nega shunday bo‘lishini bilasizmi? Quyoshning qizdirishi nimalarga foydali? Nimasi bilan foydali deb o‘ylaysiz? Shamol foydali hodisami yoki zararlimi? Kuchli shamol yaxshimi, yomonmi? Shamol nimasi bilan yaxshi-yu, nimasi bilan yomon, sizningcha? Yomg‘ir yog‘yaptimi? Kun issiqmi yoki sovuq? Sizga qanday ob-havo yoqadi? Nima uchun?” va bq. Kelasi safargacha o‘quvchilar ob-havoni kuzatib borishga odatlanadilar va kecha qanday edi, bugun qanaqa ekanligini aytib beradilar.

O‘quvchilar bir-birini to‘ldirib, alohida-alohida aytilgan gaplarni o‘qituvchi yordamida o‘zaro bog‘lab, mantiqiy izchillikda hikoya tuzadilar. Bu hikoyalar hech qanday munosabatsiz, aniq vaziyat yoki holat tasviridan iborat bo‘ladi. Taxminan, quyidagicha hikoyalar tuziladi: “Bugun ob-havo yaxshi. Osmon ko‘m-ko‘k. Quyosh charaqlab turibdi. Kuchsiz shamol esyapti. Yomg‘ir yoqqani yo‘q. Kun issiq”. Yoki: “Bugun ob-havo yomon. Osmonda qora bulutlar, quyosh ko‘rinmaydi. Yomg‘ir yog‘yapti. Sovuq” va hk.

Insho 1-sinfda kichik og‘zaki axborot yoki oddiy hikoyadan boshlanib, sinflar yuqorilab borgani sari o‘quvchini o‘z fikrini ifodalashga o‘rgatadigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan, aqlini peshlab dunyoqarashini kengaytiradigan, tafakkurini tiniqlashtiradigan, nazarini ziyraklashtiradigan ta’lim-tarbiyaiy ahamiyatga ega bo‘lgan ish turiga aylanib boradi. Insho bola shaxsini shakllantirishda g‘oyat samarali vosita bo‘lib, his-hayajon uyg‘otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko‘rgan-kechirganlari va o‘zlashtirganlarini baholashga, voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-natija bog‘lanishini topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Insho o‘quvchini o‘z fikrini tartibga solishga o‘rgatadi.

Ta’limning dastlabki bosqichida tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko‘proq davom etadi, rasmlar esa insho yozishdan oldin ko‘riladi. Insho yozish yoki og‘zaki hikoya qilish darsda ilgari bajarilgan

ishlarning yakunidir. Inshoning darsdagi umumlshtiruvchilik roli bog‘lanishli nutq sohasidagi ko‘nikmalarni egallash me’yoriga qarab ortib boradi. Insho yozish uchun 2-sinfda, odatda, bir dars zarur bo‘lib qolsa, ikkinchi darsdan 15 – 20 daqiqa 3 – 4-sinflarda bir yoki bir yarim dars ayrim vaqtlarda 2 darsgacha ajratiladi.

O‘quvchilarni insho yozishga yo‘naltirish bugungi kunda ham umumta’lim maktablari o‘qituvchilari oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda yozdiriladigan insholarning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan insholardir. Rasmlar va tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insholar maktablarda tez-tez o‘tkaziladi, chunki rasmlar bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

Rasmlarni tomosha qilish kabi sayohatlarga chiqish ham bolalar sezgisiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o‘quvchilarga tanish bo‘lgan hodisalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insholar o‘quvchilar tasavvurini, hayolot dunyosini boyitadi. O‘quvchilar tabiatda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishini va nimalarning guvohi bo‘lganini o‘zlaricha bayon qiladilar.

Bunday inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o‘quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va qiziqishiga, inshoda ilgari surish ko‘zda tutilgan yetakchi fikrga ham bog‘liq. Insho bolalarning voqea-hodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o‘rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini oshiradi. Bolalar eng qiziqarli va o‘zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoyalar tuzadilar hamda yozadilar, bu kabi ishlar ularning mustaqil ishlash malakasini o‘stiradi, faolligini oshiradi.

Kuzda bolalar bilan bog‘, xiyobon, dalalarga sayohatlar uyushtiriladi va barglarning to‘kilishi (xazonrezgi) hodisasi kuzatiladi. Bu sayohatdan olingan turfa rangdagi barglar, qaysi daraxtning bargi qanday rangda bo‘lishi, qarag‘ay, chinor daraxtlarining g‘uddalari va boshqa taassurotlar asosida dars o‘tiladi. O‘quvchilar o‘qituvchining savollariga ko‘ra sayohat chog‘ida ko‘rganlari haqida so‘zlab beradilar. O‘qituvchi o‘quvchilarning javobini diqqat bilan kuzatib, so‘zlarning ma’noga mos holda to‘g‘ri qo‘llanilishini, gaplarning qurilishiga e’tibor qaratadi va bolalar nutqiga zaruriy tuzatishlar hamda to‘ldirishlar kiritib boradi.

Suhbat, taxminan, quyidagi savollar ko‘magida amalga oshiriladi: “Ayting-chi, hozir yilning qaysi fasli kirib keldi? Ob-havo yozda qanday bo‘lgan edi, eslay olasizmi? Yozda daraxtlarning bargi qanaqa rangda edi? Hozir, kuzda qanday rangda? Nega shunday ekani haqida o‘ylab ko‘ring-chi? Yana nimalarni ko‘rdingiz? Kuzgi barglar ustida yurganingizda qanday ovozni eshitdingiz? Kuzda daraxt barglarining to‘kilishi qanday ataladi? To‘kilgan barglarni nimaga o‘xshatish mumkin, sizningcha?” va hk.

O‘quvchilar qushlarning uchib ketishini, hasharotlarning g‘oyib bo‘lishini ham kuzatadilar va bu hodisalar ham hikoyaga – og‘zaki inshoga mavzu va material bo‘lib xizmat qiladi.

Tabiatni kuzatish va tabiat taqvimini yuritish qishda ham davom ettiriladi. Bolalar qor yog‘ishini, sovuqning boshlanishini, izg‘irinni, ariq va hovuzlardagi suvning muzlashini kuzatadilar. Bu davrda og‘zaki insho uchun quyidagi mavzular tanlanishi mumkin: “Birinchi qor”, “Ariqlar muzladi”, “Izg‘irin”, “Qishki o‘yinlar” “Biz Qorbobo yasadik”, “Tepalikdan uchamiz”, “Archa”, “Qanaqa sovg‘alar oldik?”, “Qorboboga xat” va boshqalar.

Bahorda bolalar qor va muzlarning erishini, daraxtlarning kurtak chiqarishini, boychechak va boshqa gullarning ochilishini, ekilgan urug‘larning ko‘karishini kuzatadilar. Bahorgi insho uchun mavzular juda ko‘p: “Bahor elchisi”, “Birinchi chechak”, “Kurtaklar”, “Urug‘ unib chiqdi”, “Qaldirg‘ochlar qaytib keldi”, “Dalada ishlar boshlandi”. Uy hayvonlarini

kuzatish o‘quvchilarga “Mushukcham”, “Olapar”, “Mening qo‘zichog’im” mavzularida hikoyalar tuzish imkonini beradi. Mehnat haqidagi mavzular katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi: “Onam(otam)ga yordamlashdim”, “Uy ishlari tartibi”, “Men mushuk (it, qo‘y) boqaman”, “Ukam (singlim) ni o‘ynataman”, “Tomorqada ishladik”, “Gul o‘tqazdim bog‘imga”, “Sinfda navbatchiman” va hk.

Bunday mavzulardagi ijodiy ishlar bolalarning atrof-muhitni kuzatishlari, ijodiy ishni o‘z hayotlari bilan bog‘liq hodisalar asosida amalga oshirishlariga imkon beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations).

Kichik yoshdagi bolalar uchun borliqdagi o‘zgaruvchan va cheksiz hayotga nisbatan rasmlarda ixcham tarzda tasvirlangan turg’un hayot haqida hikoya qilish osonroq tuyuladi. Rasmda hayotning bir lahzasigina tasvirlanadi, uning mazmuni chegaralangan bo‘ladi. Bolalar rasmni diqqat bilan kuzatib, unda tasvirlangan narsalarnigina hikoya qilib beradilar.

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilariga insho yozishni o‘rgatishda eng samarali vosita bolalarga tanish voqelik aks etgan rasmlar sanaladi. Bunday rasmlar hamisha bolalar diqqatini tortadi, ularga yoqadi. Bitta rasm yoki ikki-uch qismdan iborat rasm asosida hikoya tuzishda bolalar rasmni mustaqil tomosha qilishib, uning mazmunini o‘qituvchining savollarisiz aytib berishlari ham mumkin. Bir o‘quvchining hikoyasini eshitgach, o‘qituvchi savol beradi: “Kim qo‘shimcha qilmoqchi?” Hikoyadagi kamchiliklar aniqlangach, savollar bilan uni to‘ldrishga kirishiladi. O‘qituvchi yordamida mantiqiy izchillik va fikrlar ketma-ketligi va bog‘liqligiga erishiladi. Dastlab nima haqida, keyin nima haqida to’xtalish, qanday tugatish kerakligi belgilanadi. Hikoya uchun zarur so‘z va iboralar tanlanadi. Oxir-oqibatda, bog‘lanishli matn – og‘zaki hikoya-insho yaratiladi. O‘quvchilar nutqining to‘g‘ri shakllanishi uchun hikoya bir necha marta takrorlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023. – 46 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. –488 b.
3. Dolimov S. Ta’limiy bayon va insho. –T.: O‘qituvchi, 1968. –103 b.
4. Madayev O. Insho qanday yoziladi: O‘rta maxsus o‘quv yurtlarining o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1991. –88 b.
5. Matchonov S. Umumta’lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Ped. fan. doktori ...diss. –T., 1998. –308 b.
6. Niyozmetova P. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlari misolida). Ped. fan. doktori … diss. – T., 2007. –242 b.
7. Niyazmetova T. R. Metodika samostoyatelnoy raboты uchaщixsya na urokax uzbekskoy literaturы V–VI klassax: Avtoref. ...kand. ped. nauk. –T.: 1978. –21 b.
8. Sattorova N. O‘quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish. (5-sinfda ona tili o‘qitish jarayonida) ped. fan. nomzodi… diss. –T., 1995. –142 b.
9. Turdiyev B. Yozma nutqni o‘stirish yuzasidan praktikum. Pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1980. –128 b.
10. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1992. –333 b.
11. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. –368 b.
12. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda insholarning o‘rni. –T.: \\ Til va adabiyot ta’limi, 2010. 2-son. 3 – 17 b.
13. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. Toshkent. “Muharrir” nashriyoti, 2013. –432 b.
14. Husanboyeva Q. Literature as a factor for development of morality and independent thinking. –T.: Tamaddun, 2016. –298 б.

O‘QUVCHILARNING TABIIY FAN BO‘YICHA SAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

SALIMOVA MOXIGUL RASHIDOVNA,
O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti,
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro Savodxonlik va Innovatsiya Metodi (XSIM) yondashuvi yoritiladi. Ushbu metod PISA, TIMSS va STEAM tamoyillarini birlashtirib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, amaliy muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotlar natijasida, metodning xalqaro baholash mezonlariga mosligi va ta’lim sifatini oshirishdagi samaradorligi ko‘rsatilgan. Maqola pedagoglar va ta’lim tadqiqotchilari uchun foydali bo‘lib, zamonaviy o‘qitish usullarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: XSIM, PISA, TIMSS, STEAM, tabiiy fan savodxonligi, tanqidiy fikrlash, ta’lim sifati.

Аннотация: В этой статье будет рассмотрен подход Международного метода грамотности и инноваций (XSIM). Этот метод объединяет принципы PISA, TIMSS и STEAM для развития у учащихся критического мышления, практического решения проблем и инновационного подхода. Исследования показали, что метод соответствует международным критериям оценки и эффективен для повышения качества образования. Статья полезна для педагогов и исследователей в области образования и содержит рекомендации, направленные на совершенствование современных методов обучения.

Ключевые слова: XSIM, PISA, TIMSS, STEAM, научная грамотность, критическое мышление, качество образования.

Abstract: This article discusses the International Literacy and Innovation Method (XSIM) approach. This method combines the principles of PISA, TIMSS, and STEAM to develop students' critical thinking, practical problem solving, and innovative approaches. The results of the research show that the method meets international assessment criteria and is effective in improving the quality of education. The article is useful for educators and educational researchers and includes recommendations aimed at improving modern teaching methods.

Keywords: XSIM, PISA, TIMSS, STEAM, science literacy, critical thinking, quality of education.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlar o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA va TIMSS, o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini ham baholaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ilk marotaba PISA (2022) va TIMSS (2023) xalqaro baholash dasturida ishtirok etdi. Afsuski, natijalar shuni ko‘rsatadiki mamlakatimiz ushbu dasturlarda eng past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan davlatlar qatoridan joy oldi. Bu esa ta’lim sifati, xususan tabiiy fan bo‘yicha savodxonlikni oshirish borasida keskin choralar ko‘rish zarurligini ko‘rsatmoqda, shu sababli xalqaro baholash mezonlariga mos innovatsion va integratsiyalashgan metodlarga, xususan XSIMga ehtiyoj sezilmoqda.

XSIM – bu tabiiy fanlarni o‘qitishda muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan, o‘quvchilarning ilmiy izlanish olib borish, mantiqiy fikrlash va tadqiqot o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi samarali yondashuvdir.

Mazkur yangi metodning afzalligi shundaki, u o‘quvchilarga mavzularni chuqur anglash, o‘z kuzatishlariga asoslangan xulosalar chiqarish va olingan bilimlarni real hayotda qo‘llash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur metoddan foydalanilgan darslarda o‘quvchilar ilmiy tafakkur va muammolarni hal qilishda yuqori natijalarga erishadi. Mazkur maqolada XSIMning tabiiy fan savodxonligini oshirishdagi roli, uning samaradorligi va xalqaro baholash dasturlari bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI: PISA, TIMSS VA STEAM DOIRASIDA TABIIY FAN SAVODXONLIGI

Tabiiy fan savodxonligini rivojlantirish global ta’lim tizimida dolzarb yo‘nalish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, PISA, TIMSS va STEAM kabi xalqaro dasturlar va ta’lim modellari tabiiy fanlarni o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi.

PISA – (The Programme for International Student Assessment) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash dasturi. PISA funksional savodxonlikni baholashga qaratilgan eng nufuzli tadqiqotlardan biri hisoblanadi.[2;27-b.]PISA testi o‘quvchilarning nazariy emas, balki real hayotdagi ilmiy ma’lumotlardan foydalanish ko‘nikmasini o‘lchaydi.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) - o‘quvchilarning matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan baholash darajasini baholash dasturi hisoblanadi. Dunyoning turli mamlakatlaridagi o‘rta maktab o‘quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy fanlarni o‘qitish darajasi va sifatini, shuningdek milliy ta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni aniqlash va taqqoslash imkonini beradi.[3;105-b.]

STEAM ta‘limi o‘quvchilarga ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash imkonini beruvchi muhit yaratadi. STEAM tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini mutanosib o‘qitish bo‘lib, O‘quvchilar tabiiy fanlar (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) va matematika (Mathematics)ni fanlararo integratsiya va amaliy yondashuvga asoslangan holda o‘rganadilar.[2;15-16-bb.] STEAM o‘quvchilarning o‘z g‘oyalarini amaliyotda joriy etish va mustaqil holda texnologik qurilmalarni yaratishni ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida tabiiy fan bo‘yicha savodxonlikni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi.[7; 13-b.]

Xalqaro baholash dasturlarida bu tushuncha ilmiy bilimlarni qo‘llash, tajribalardan foydalanish, muammolarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalar orqali baholanadi.

Shu bois, hozirgi ta’lim tizimi o‘quvchilarda eksperimentlar orqali o‘rganish, tanqidiy fikrlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish kabi elementlarni o‘z ichiga olgan ta’limni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy fan savodxonligi bu faqatgina bilim emas, balki bilimni tushunish, qo‘llash, baholash va innovatsion yechimlar yaratish jarayonidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tabiiy fan bo‘yicha o‘quvchilarning bilim doirasini rivojlantirishga oid adabiyotlar bu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar va metodik tavsiyalarni yoritadi. Ushbu tahlilda xalqaro baholash dasturlari, o‘quvchilarning savodxonlik darajasi, hamda zamonaviy ta’lim yondashuvlari bilan bog‘liq eng muhim manbalar o‘rganiladi.

Pardayeva M. va Ergasheva M. tomonidan tayyorlangan metodik qo‘llanmada milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq jihatlar yoritilgan. Mualliflar milliy va xalqaro standartlar uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan tavsiyalarni taklif etadi.

Sh. Abdullayeva va M.T. Ergasheva esa o‘z tadqiqotlarida xalqaro baholash dasturlarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatgan. Bu manbada PISA va TIMSS dasturlarining mazmuni chuqur tahlil qilingan.

M. Ergasheva va Q.A. Niyozov muallifligidagi qo‘llanmada baholash topshiriqlarining metodikasi keng yoritilgan bo‘lib, ularning o‘qituvchilar amaliyotida qo‘llanilishi ko‘rsatib berilgan.

A.A. Ismailov va hamkorlari tomonidan yozilgan qo‘llanmalarda matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash metodlari haqida ilmiy asoslangan fikrlar berilgan. Ayniqsa, PISA 2018 yondashuvlari keng sharhlangan.

A.Y. Kuchkinov esa STEAM ta’limi va xorijiy tajribalarga asoslangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash bo‘yicha konseptual yo‘nalishlarni taklif etadi. Bu metodologik asos XSIMning integratsiyalashgan yondashuvini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Internet manbalaridan, xususan Kun. uz saytida e’lon qilingan PISA natijalari va Estoniya ta’lim tajribasi haqidagi maqolalar, O‘zbekistonda xalqaro baholashdagi hozirgi holat va ilg‘or xorijiy yondashuvlarni solishtirish imkonini beradi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda turli baholash tizimlari va metodik yondashuvlar bo‘yicha ko‘plab ilmiy manbalar jumladan PISA, TIMSS dasturlari asosida savodxonlikni oshirishga qaratilgan qo‘llanmalar ishlab chiqilgan.

Biroq, mazkur metodning o‘ziga xosligi – bu manbalarni birlashtirgan holda yaxlit integrativ tizim yaratish va savodxonlikni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishidadir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot maqsadi – XSIM orqali o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni xalqaro baholash dasturlari mezonlariga mosligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy fan savodxonligi bo‘yicha talab va mezonlarni o‘rganish;

2.metodning o‘quv jarayonida qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash;

3. metodning samaradorligini eksperimental tadqiqot asosida baholash;

4. Tadqiqot asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqot obyekti – boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim tizimida tabiiy fan savodxonligini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti – ushbu metodning samaradorligi va xalqaro mezonlarga muvofiqligi.

Tadqiqot metodlari:

Nazariy metodlar – ilmiy manbalarni o‘rganish, konseptual tahlil;

Empirik metodlar – pedagogik kuzatuv, intervyu va so‘rovnoma;

Eksperimental metod – XSIMning real dars jarayonida sinovdan o‘tkazilishi;

Statistik tahlil – to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Tadqiqot ishtirokchilari – 2-bosqich talabalar (1-guruh – 27 nafar, 2-guruh – 28 nafar). Tadqiqot davomida haftasiga bir marta, umumiy hisobda 8 dars mashg‘uloti o‘tkazildi. Har bir darsda PISA, TIMSS va STEAM elementlari integratsiyalangan holda qo‘llanildi.

Metodning kelib chiqishi va asosiy tamoyillari

XSIM – Xalqaro Savodxonlik va Innovatsiya Metodi bo‘lib, tabiiy fanlarni o‘qitishda PISA, TIMSS va STEAM kabi zamonaviy ta’lim yondashuvlarini o‘zida

birlashtiradi. Ushbu metod ta’lim jarayonini an’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, real hayotiy muammolarni tahlil qilish va amaliy bilimlarni rivojlantirishga qaratadi.

PISA – o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish va real hayot bilan bog‘langan topshiriqlar yordamida fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish;

TIMSS – o‘quvchilarda tahliliy tafakkur, ilmiy yondashuv asosida hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish;

STEAM – zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash hamda guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘quv jarayonida ushbu uch yondashuv bitta mavzuni integratsiya qilgan holda tushuntirishga harakat qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil izlanish qobiliyatini rivojlantirishiga, fanlarni hayot bilan bog‘lashiga, guruh bo‘lib ishlash, tadqiq qilish va innovatsion tafakkurni shakllantirishiga xizmat qiladi.

Ushbu yangi metodning samaradorligini aniqlash maqsadida amaliy tadqiqot olib borildi. Amaliyot jarayonida tabiiy fan darslari o‘tilmagan bo‘lsa-da, ona tili va o‘qish savodxonligi bo‘yicha “Ko‘chirma gap va o‘zga gap turlari” va h.k. mavzularda mashg‘ulotlar olib borildi:

Darslar haftasiga bir marta, oyiga to‘rt marotaba tashkil etildi. Natijada har ikkala guruhga jami 8 ta dars mashg‘uloti o‘tildi. Dars jarayonida XSIMning asosiy elementlari qo‘llanildi:

PISA asosida – hayotiy misollar keltirilib, o‘quvchilarga mavzuni real hayot bilan bog‘lash imkoniyati yaratildi;

TIMSS asosida – matnlarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilindi;

STEAM asosida – ko‘chirma gaplar va boshqa til birliklari sun’iy intellekt yordami bilan tekshirildi hamda guruhlarga bo‘linib, bahsli munozaralar o‘tkazildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot natijasida XSIM tabiiy fan savodxonligini takomillashtirishda samarali vosita sifatida o‘rganildi va uning xalqaro baholash dasturlariga muvofiqligi aniqlandi.

XSIM yuqorida aytilgan xalqaro baholash tizimlarida mavjud bo‘lgan baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan holda, ta’lim jarayonida kompleks yondashuvni ta’minlashi asoslandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, metodning boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’limda savodxonlikni rivojlantirishdagi amaliy samaradorligi tasdiqlandi.

Pedagoglar uchun mazkur metoddan foydalanish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari va samaradorligi

Makur metodning amaliyotda qo‘llanishi natijasida talabalar darslarga bo‘lgan qiziqishining oshgani kuzatildi. So‘rovnomalar orqali ularning metod haqidagi fikrlari aniqlandi. So‘rovnomalar natijalari foiz hisobida quyidagicha taqsimlandi:

So‘rovnomada ishtirok etgan jami 55 nafar talabaning fikrlariga ko‘ra:

– PISA usulidagi hayotiy misollar orqali mavzuni tushunganlar – 40% (22 nafar);

– TIMSS usuli asosida ilmiy tahlil qilish ko‘nikmasi rivojlanganlar – 20% (11 nafar);

– STEAM yondashuvi orqali mustaqil fikrlash va guruhlarda ishlash faoliyati ortganlar – 20% (11 nafar);

– Ilgari darsga befarq bo‘lgan, lekin tajriba davomida faollashgan talabalar – 20% (11 nafar).

Tadqiqot davomida dastlabki bosqichda ayrim talabalar darsga nisbatan sust, befarq munosabatda bo‘lgan. Ammo bu metodning guruhlarda ishlashga asoslangan va PISA, TIMSS hamda STEAM elementlarini uyg‘unlashtirgan yondashuvi ularning ham faol ishtirokini ta’minladi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan guruhli faoliyatlar, bahs-munozaralar va real muammo yechish topshiriqlari darsga bo‘lgan qiziqishni oshirdi. Tajriba yakunida darsga qiziqmagan birorta talaba qolmadi, bu esa yangilikning eng muhim ijtimoiy-psixologik

Jadval 1

7-sinf biologiya darsi: “Fotosintez jarayoni”		
Bosqich	**Vaqti**	**Faoliyat mazmuni**
Tashkiliy qism	5 daqiqa	Salomlashish, davomatni aniqlash, qiziqarli savollar orqali mavzuga kirish.
PISA	10 daqiqa	Hayotiy vaziyat asosida muammo: issiqxonadagi o‘simliklar yorug‘liksiz o‘smasligi. Sabab va echimlarni tahlil qilish.
TIMSS	10 daqiqa	Fotosintez tajribasi: bargga yopishtirilgan qog‘oz orqali yorug‘likning ta’siri tushuntiriladi.
STEAM	15 daqiqa	Guruhlarda ishlash: - Science: fotosintez formulasi - Technology/Engineering: model chizish - Art/Math: grafik yaratish
Yakuniy qism	5 daqiqa	Savol-javob, xulosa chiqarish, uyga vazifa berish.

Jadval 2

2-sinf tabiiy fan darsi: “O‘simliklar”		
Bosqich	Vaqti	Faoliyat mazmuni
Tashkiliy qism	5 daqiqa	Salomlashish, davomat, motivatsion savollar bilan mavzuga kirish.
PISA	10 daqiqa	Hayotiy holat: ikki piyozdan biri sug‘orilgan, biri yo‘q. Natijani taxmin qilish va muhokama.
TIMSS	10 daqiqa	Oddiy tajriba: suvli va suvsiz o‘simlikni solishtirish orqali kuzatuv.
STEAM	15 daqiqa	Guruhda ishlash: - 1-guruh: yashil o‘simlik rasmini chizish - 2-guruh: qurigan o‘simlik - 3-guruh: parvarish plakati
Yakuniy qism	5 daqiqa	Savol-javob, xulosa chiqarish, uyga vazifa: gulga g‘amxo‘rlik va mini-hisobot.

natijalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Maktab misolida tatbiq etish:

O‘rganilgan metoddan nafaqat oliy ta’lim muassasalarida, balki umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham samarali foydalanish mumkin. Quyidagi jadval asosida 7-sinf va 2-sinf o‘qituvchilari uchun dars na’munalari (1-2-jadvallar).

Bu yondashuv orqali o‘quvchilar mavzuni yodlab olish emas, balki uni chuqur tushunish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Tabiiy fan savodxonligini rivojlantirishdagi o‘rni

Hozirgi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlarida o‘quvchilarning natijalarini yaxshilash bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Ushbu metodning bu jarayonga ta’siri quyidagicha namoyon bo‘ladi:

PISA asosida – tanqidiy fikrlash va real hayot bilan bog‘lash

Dars jarayonida o‘quvchilarga hayotiy muammolarni ilmiy yondashuv bilan hal qilish topshiriqlari beriladi. Masalan, ekologik muammolarni tahlil qilish yoki tabiiy fan qonuniyatlarini kundalik hayotda qo‘llash bo‘yicha vazifalar bajariladi.

TIMSS asosida – fundamental bilimlarni mustahkamlash

O‘quv dasturiga asoslangan holda, fizika, kimyo, biologiya va yer fanlari bo‘yicha bilimlar mustahkamlanadi. O‘quvchilarning nazariy bilimlarini sinovdan o‘tkazish va amaliy mashg‘ulotlar yordamida chuqurlashtirishga e’tibor beriladi.

STEAM asosida – texnologiya va innovatsion yondashuvlar

O‘quvchilar ilm-fan, muhandislik va san’atni integratsiya qilish orqali ijodiy va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Dars davomida eksperimentlar, loyihalar va modellashtirish usullari orqali tabiiy fan bilimlarini qo‘llashga urg‘u beriladi.

Afzalliklari kombinatsiyalangan yondashuv – PISA, TIMSS va STEAM tamoyillarini birlashtirib, o‘quvchilarga keng qamrovli ta’lim beradi. Tanqidiy fikrlash va amaliyotga yo‘naltirish – ilmiy bilimlarni real hayotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Ijodiy va innovatsion yondashuv – yangi texnologiyalar, muhandislik va loyihaviy faoliyat orqali fanlarni tushunishni chuqurlashtiradi.

Yuqorida ta’kidlangan usul zamonaviy talimda samarali metodlardan biri bo‘lib, xalqaro baholash tizimlari va ilg‘or ta’lim yondashuvlarini o‘z ichiga oladi. Bu metod orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilim oladi, balki ularni amaliyotda qo‘llashni ham o‘rganadi, tanqidiy fikrlash va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinflarga moslashtirish:

Bu holda PISA yondashuvlarini soddalashtirish kerak bo‘ladi.

Masalan: funksional savodxonlikni hayotga yaqin, sodda topshiriqlar orqali o‘rgatish (matnli masalalar, hayotiy tajribaga asoslangan savollar). TIMSS va STEAM allaqachon boshlang‘ich sinflarga tatbiq etilishi mumkin.

Afzalliklari:

- Boshlang‘ichdan boshlab xalqaro yondashuvlar shakllanadi.
- O‘quvchilar real hayotga tayyor bo‘lib boradi.

Kamchiligi:

- PISA darajasini to‘liq aks ettirish qiyin.

Yuqori sinflarga (5–9 sinf) moslashtirish:

Bu holda metod PISA talablariga to‘liq javob bera oladi. Barcha uch asos to‘laqonli tatbiq etiladi.

Afzalliklari:

- PISA, TIMSS va STEAMning asl mohiyati saqlanadi.
- O‘quvchilar xalqaro testlarga to‘liq tayyorlanadi.

Kamchiligi:

- Boshlang‘ichdagi o‘qituvchilarni qamrab olmaydi.

Tavsiyalar:

– XSIMni ta’lim tizimida sinov sifatida qo‘llashni joriy etish;

-Xalqaro baholash dasturlariga mos keladigan metodlarni ishlab chiqish;

- O‘qituvchilarni ushbu yangi metodga oid seminar va treninglarga jalb qilish;

- O‘quv dasturlariga innovatsion ta’lim yondashuvlarini kiritish;

- O‘quv jarayonida amaliy va tadqiqotga asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish.

Amaliyotda qo‘llash uchun tavsiya etilgan XSIM kelgusida ilmiy izlanishlar asosida takomillashtirilib, yangi tavsiyalar asosida yanada mukammal shaklga keltirilishi kutiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Xalqaro Savodxonlik va Innovatsiya Metodi (XSIM) o‘quvchilarning

tabiiy fan savodxonligini oshirishda samarali yondashuvni taqdim etadi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar tanqidiy fikrlash, ilmiy xulosalar chiqarish va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Natijada, o‘quvchilarda o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqish ortadi va ular xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishishga intiladilar. Bu metodni kengroq qo‘llash orqali tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni yanada takomillashtirish va ta’limning zamonaviy talablariga javob berish imkoniyatlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni. “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur”.
2. M. Pardayeva, M.Ergasheva. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent, 2022 - 96 b.
3. M.Ergasheva, Q.A.Niyozov. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlari va topshiriqlaridan foydalanish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent, 2023 – 160 b.
4. Sh.Abdullayeva, M.T.Ergasheva. Xalqaro baholash daturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent, 2023-168 b.
5. S.A.O‘sarov, N.A.Ismatov, M.B.Boyzoqov, N.F.Isayev. Matematikani o‘qitishning dolzarb muammolari va yechimlari respublika ilmiy onlayn anjumani materiallari to`plami. To‘plam. – Jizzax, 2021 - 456 b
6. A. Ismailov, X. Ahmedov, Q. Karimberdiev. PISA 2018 o‘qish savodxonligi qamrov doirasi. Metodik qo‘llanma.- Toshkent, 2021 – 88 b.
7. A.A.Ismailov G.Tog‘ayeva S.Akbarova D.Asqarova. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash. Metodik qo‘llanma. - Toshkent, 2019 – 112 b.
8. M.Ergasheva va boshqalar. PISA, PIRLS TIMSS xalqaro baholash dasturlariga maktab o‘quvchilarini tayyorlash mexanizmlari. Metodik qo‘llanma,-T.; 2022-yil. 8 b.t
9. A.A.Ismailov N.A.Karimov B.Q.Haydarov SH.N.Ismailov. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2019 – 112 b.
10. D.J. Meliqo‘ziyev. PISA xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishning konseptual asoslari. Maqola.-2023, 35-44-bb.
11. A.A.Ismailov va b. Kreativ fikrlashni baholash Ta‘lim inspeksiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2021-yil 6. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. (Eds.). (2017). TIMSS 2019 Assessment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center
12. Kuchkinov A.Y. Xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni STEAM ta’limiga tayyorlashning konseptual yo‘nalishlari // “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2024-yil 20-fevral. – B. 93. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10676438.
13. KUN.UZ. O‘zbekistonlik o‘quvchilar ilk marta ishtirok etgan PISA natijalari e’lon qilindi [Elektron resurs]. – (2023-yil 7-dekabr). – URL: https://kun.uz/uz/news/2023/12/07/pisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi, murojaat qilingan sana 2025-yil 18-aprel.
14. KUN.UZ. 15 ming yevro maosh va juda ko‘p kompyuter – Estoniya maktablarini qanday rivojlantirgan? [Elektron resurs]. – (2020-yil 11-oktabr). – URL: https://kun.uz/news/2020/10/11/15-ming-yevro-maosh-va-juda-kop-kompyuter-estoniya-maktablarini-qanday-rivojlantirgan, murojaat qilingan sana 2025-yil 18-aprel.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

URUNOV ABDUXALIL MADJIDOVICH
Iqtisodiyot va pedogogika universiteti Samarqand kampusi dotsenti

Annotatsiya: o‘quvchilarni komil inson qilib tarbiyalashda texnologiya darslarida beriladigan iqtisodiy tushunchalar, bilim va ko‘nikmalar, ularda mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, tejamkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy bilim va tarbiya, tejamkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, raqobot, talab va taklif, inqiroz, biznes, chakana va ulgurji savdo, eksport, import

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda yashash insonlardan, ayniqsa yoshlardan keng iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Shuning uchun ham ularni yoshligidanoq iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston davlatining moddiy va ma’naviy o‘sishi borasidagi iqtisodiy qonuniyati bilan o‘quvchilar tabiiy fanlar mazmunida tanishadilar. Jamiyatshunoslik darslarida bolalar xalq farovonligini yuqori darajaga ko‘tarish uchun qanday iqtisodiy vazifalar bajarishi lozimligini o‘rganadilar. Kimyo, biologiya, iqtisodiy geografiya va kiyinchalik ta’lim jarayoniga kiritilgan iqtisodiy bilim asoslari fanlarini o‘qitishda, darsdan tashqari turili tarbiyaviy tadbirlarda ham o‘quvchilarni iqtisodiyotimizga oid ko‘plab masalalar bilan tanishtirish mumkin.

Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitoblar haqida fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirishdir. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan doimiy boyitib kelingan. Al-Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino asarlarida iqtisodiy tarbiya va uni bolalarga berish haqidagi muhim fikrlarni ko‘rish mumkin. Bolalarni ishbilarmonlik, tejamkorlikka o‘rgatish oiladan boshlanadi.

O‘quvchilar maktabda turli fanlarni o‘qish jarayonida ham iqtisodiy bilimlarga ega bo‘ladilar. Davlatimizning moddiy va ma’naviy yuksalishi borasidagi iqtisodiy qonunlar bilan o‘quvchilar tabiiy fanlarni o‘rganishda tanishsa, jamiyatshunoslik darslarida xalq farovonligini yuqori darajaga ko‘tarishda iqtisodiy bilimlar zarur bo‘ladi degan fikrni pedagogika fanlari doktori professor Sh.Abdullayeva o‘zining ilmiy asarlarida berib o‘tgan. Shu bilan bir qatorda olima mehnat darslarining ham iqtisodiy tarbiya berishdagi o‘rniga ham to‘xtalib o‘tadi.

Bugungi kunda umumiy ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘tiladigan barcha fanlar zamirida iqtisodiy tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish orqali ularni hayotga tarbiyalab borish yo‘lga qo‘yilmoqda. Boshlang‘ich ta’limning 4 – sinflarida o‘quvchilarga singdirilishi lozim bo‘lgan tushunchalar nafaqat dars jarayonida balki darsdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda ham har xil o‘yinlarni o‘tkazish jarayonida o‘quvchilar ongiga singdirib boriladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki o‘quvchilarda iqtisodiy tarbiyani yuksaltirishda mehnatning o‘ziga xos ta’sir etish kuchi bor. Shuning uchun ham o‘quvchida iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda mehnat tarbiyasi bilan integrasiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat tarbiyasi bolalarda mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirishi, ularni jamiyatimiz taraqqiyoti yo‘lida mehnat qilishga amaliy tayyorlash lozim. Buning uchun bolalarda mehnatga muhabbat, mehnat ahliga chuqur hurmat hislarini tarbiyalash kerak. O‘quvchilarga turli darslar jarayonida va darsdan tashqari tadbirlarda mehnat tarbiyasi berish mumkin. Ayniqsa, texnologiya darsining mehnat tarbiyasi berishdagi o‘rni juda kattadir. Mehnat, mehnatkashlar haqida suhbatlar, munozaralar, mehnat faxriylari va ilg‘orlari bilan uchrashuvlar, maktablarda o‘tkaziladigan hosil bayramlari, Navro‘z bayrami va boshqalar orqali ham mehnat tarbiyasi berish mumkin.

Bizga ma’lumki, qadimdan ota – bobolarimizning kundalik hayotiga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin oshib borgan. Shu sabali ham ular yashash uchun kurashganlar. Bunda ota bobolarimiz o‘zlaridagi tabiiy ehtiyojni tabiat qonunlari doirasida qondirib borish jarayonlarida ayrim to‘siqlarga duch kelganlar. Misol uchun, bunday to‘siqlar qatoriga tabiatda yuz berib turadigan tabiiy ofatlar hamda hayvonlarning mavsumga qarab o‘z joylarini o‘zgartirib turishlari ularni yashash uchun kurashishga undagan. Shuning uchun ham ularda tabiiy ehtiyoj bilan bir qatorda moddiy ehtiyojlari kuchayib borganligi sababli ham o‘zlari uchun kerakli bo‘lgan ozuqalarni g‘amlash, saqlash, kerakli joylarga olib borish, tabiiy ofatlardan saqlanish vositalarini ixtiro qilgan. Ular sovuqdan saqlanishi uchun issiq pana joylar izlashi natijasida, g‘orlar, uylar, yasaganlar. Keyinchalik esa, uni isitish vositasi zarurligini sezib, quyosh taftini qumsaganlar. Xom ozuqalarini pishirish ehtiyojlari kuchaygan, natijada olov kashf qilgan.

Qadimdan ota-bobolarimiz iqtisodning hamma narsadan ustunligini tushunib yetganligi bois ham yosh avlodlar ongiga iqtisodiy bilimlarni asta-sekinlik bilan singdirib kelishgan. Qachonki kishilik jamiyatida faol insonlar o‘z dunyoqarashlarini rivojlantirib borib, xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma manbalar orqali kishilik jamiyatining rivojlanishiga sababchi bo‘lgan omillarni ko‘rsatib kelganlar.

Bugungi kunda biz barcha iqtisodga oid manbalarni o‘qib, ularni tahlil qilib, iqtisodiy bilimlar integrasiyasini amalga oshirib, ma’lum bir to‘xtamga kelib uni o‘quvchilarga yetkazib beramiz.

Iqtisodiyotning ayrim tomonlari esa moliya, soliq va soliqqa tortish, kredit, pul muomalasi, bank ishi, bojxona ishi, statistika, ekonometrika, tashqi iqtisodiy aloqalar, buxgalteriya hisobi, xo‘jalik faoliyati tahlili kabi fanlarda o‘rganiladi.

Iqtisodiy bilimlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga aynan 4-sinf o‘quvchilariga o‘rgatishda 1-sinfdan – 4 – sinfgacha bo‘lgan jarayonda o‘rgatilgan iqtisodiy tushunchalar takomillashtiriladi, boyitish yanada yaqqol hayotiy masalalar bilan tushuntiriladi.

Iqtisodiy qonunlar - iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi doimiy takrorlanib, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.

Iqtisodiy tarbiya – ishlab chiqarishning jamiyatdagi tutgan o‘rni, ishlab chiqarish vositalari va ish qurollarining mohiyati, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o‘rgatish va odamlarda shu bilimlarga ko‘nikma hosil qilish.

Yoshlarni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish nima uchun kerak? – degan savolga hyech ikkilanmasdan shunday javob berish mumkin bo‘ladi. Bugungi kun, kechagi kun bilan shunisi bilan farq qiladiki biz bozor iqtisodiyotiga asosiy davrda yashayapmiz. Demak, bizning yoshlar bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z o‘rnini topishi kerak.

Yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishda ularga, iqtisodiy qonunlar, obektiv iqtisodiy voqyelikning nazariyasini, obektiv reallikni, ilmiy bashoratni o‘rgatib borishimiz kerak. Bizga ma’lumki, iqtisodiy qonunlar ularning rivojlanishi alohida shaxslarning istagiga, kishilarning ongiga qarab amalga oshiriladi. Ma’lum tarixiy davrlarda, ishlab chiqaruvchikuchlarning rivojlanishi darajasiga, mavjud iqtisodiy tizimning xususiyati va shart-

sharoitga mos keladigan iqtisodiy qonunlar vujudga keladi va amal qila boshlaydi. Iqtisodiy qonunlar – kishilarning iqtisodiy faoliyatidan tashqarida, ulardan ajralgan holda amal qilmaydi, balki aynan ularning faoliyati, xatti-harakatlari, iqtisodiy xulq-atvori tufayli tarkib topadi va ular orqali namoyon bo‘ladi. Shuning uchun insonlar iqtisodiy qonunlarning xususiyatini bilib, ularning, talablarini hisobga olib, ulardan foydalanishlari lozim bo‘ladi. Masalan, odamlar vaqtni tejash qonunini, ishlab chiqarish yoki bozor muvozanati qonunlari talablarini bilib, shunga binoan faoliyat qilsa, ish vaqti va boshqa cheklangan resurslar safini tejash bilan birga o‘z faoliyatlarini samarali olib borishlari mumkin. Bu talablarga zid har qanday qaror va xatti-harakatlar kishilarning xohish-iroqasidan qat’i nazar, muqarrar ravishda xo‘jalik faoliyatida qiyinchiliklarga, resurslar isrofgarchiligiga olib keladi.

Iqtisodiy qonunlar ham tabiat qonunlarga o‘xshab, uni bilib, o‘z faoliyatida foydalanilsa insoniyatga, katta foyda keltiradi, agar uning mavjudligini tan olmasdan, talablarini bilmasdan yoki mensimasdan ko‘r-ko‘rona xatti-harakat qilinsa, bu katta salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keldi. Lekin iqtisodiy qonunlar tabiat qonunlari bilan tamomila bir xil emas. Ularning farqi shundaki, tabiat qonunlari doimiydir, iqtisodiy esa ijtimoiy hayot qonunlari bo‘lib, tarixdir va o‘zgaruvchandir, chunki u kishilarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib kishilik jamiyati mavjud bo‘lganda paydo bo‘ladi va amal qiladi.

Iqtisodiy kategoriyalar doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy nazariy tushunchadir.

Iqtisodiy kategoriyalar (ilmiy tushunchalar) kishilar tomonidan o‘ylab topilmagan balki, real iqtisodiy hodisalarni ifoda etadigan ilmiy tushuncha bo‘lib, ilmiy fikrlash maxsulidir. Masalan, bozor, kapital, ishchi kuchi, iqtisodiy muvozanat, moliya, kredit bosqichlari shular jumlasidandir. Iqtisodiy qonunlar bilan iqtisodiy kategoriyalarning farqi shundaki, birinchisi iqtisodiyotning turli bo‘g‘inlari, sohalari bo‘laklari orasidagi bog‘liqlikni ularning biri o‘zgarsa, albatta, ikkinchisi ham o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Iqtisodiy kategoriya – ilmiy tushunchalari esa, iqtisodiy hodisalarning bir tomoni, uning mazmunini ifoda etadi. Masalan, narx, talab degan tushunchalar orqali biz, eng avvalo, bu tushunchalarning iqtisodiy mazmunini tushunib olamiz. Talab qonuni orqali esa, talab hajmi bilan narx o‘rtasidagi aloqadorlikni bilib olamiz.

Shuning uchun, har bir iqtisodiy qonun atrofida ikki yoki bir nechta ilmiy tushunchalar bo‘lishi mumkinki, ularni bilmasdan turib iqtisodiy qonunning mazmunini tushunish va uning tabiatini bilish qiyindir. Masalan, biz yuqorida aytganimizdek, talab qonuni mohiyatini bilib olishimiz uchun narx va talab tushunchalari mazmunini bilishimiz zarur bo‘lsa qiymat qonunini tushunish uchun tovar, pul, qiymat, narx, mehnat kabi tushunchalarning mazmuni bilan tanish bo‘lishimiz lozim.

Umuman olganda iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lib ular bir-birini to‘ldiradi. Ularni biz o‘zimiz to‘liq anglab yetkanimizdan keyin, o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlar berishimiz va shu orqali o‘quvchilarda iqtisodiy, bilim, iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy dunyoqarashlar amalga oshiriladi.

Iqtisodiy qonunlarni o‘rgatish orqali biz yoshlarni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, qilayotgan sa’yi – harakatilari samarali bo‘lishga, tejashga, avaylab asrashga, o‘rgatib isrofgarchilikka yo‘l qo‘yishning oldini olamiz. Iqtisodiy bilimlar har doim kishilik jamiyatining rivojiga hissa qo‘shib kelganligi bois iqtisodiy tarbiyaga ehtiyoj bor.

2-sinfda quyidagi iqtisodiy tushunchalar o‘quvchilarga singdirilishi kerak: biznes, biznesmen, menijer, raqobat, unumdorlik, inqiroz, ko‘chmas mulk , talab, taklif, yarmarka, birja, aksiya, auksion,eksport, chakana savdo, ulgurji savdo.

1-sinfda iqtisod, ehtiyoj, aqliy mehnat, jismoniy mehnat, mahsulot, bojor sotuvchi,

xaridor, do‘kon, pul, narx, davlat mulki, mulkdor kabi tushunchalar o‘quvchilarga o‘rgatilgan

Boshlang‘ich ta’limning 4-sinflarida o‘qiyotgan o‘quvchilarga 2-sinflarda quyidagi iqtisodga oid bilimlar va tushunchalar singdirilgan: moddiy ehtiyoj, ma’naviy ehtiyoj, tovar, natural maxsulot, ishlab chiqarish, korxona, tadbirkor, reklama, daromad, ish haqi, mukofat, meros, merosxo‘r, bank, banker.

Bundan ko‘zlangan maqsad shundan iboratki, har bir o‘quvchining ongiga iqtisodga oid bilimlarni singdirish va shu orqali ularda iqtisodiy tarbiyani yo‘lga qo‘yishdir.

Kishilik jamiyati, insonlar o‘zlarining tabiiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida-moddiy ehtiyojga, masalan, suvga, kiyimga, uyga, mashinaga, ish qurilmalariga ehtiyoj sezadi.

Bular to‘g‘risida o‘quvchilarga qanday ma’lumot bersa bo‘ladi va u orqali ularda qanday qilib iqtisodiy tarbiya shakllantiriladi degan savolga albatta o‘z javobiga ega bo‘lishi kerak.

Buni amalga oshirishda o‘qituvchi o‘zining mahoratiga, qobiliyatiga tayanib ish ko‘radi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’naviy ehtiyoj to‘g‘risida tushuncha berganda qalb istagiga ko‘ra, kitob o‘qish va uni xarid qilish qo‘g‘irchoq teatrlariga borish, har xil rangdagi gullar rasmini yig‘ish. O‘yin uchun olingan vositalarning ko‘rkamligi, chiroyliligi, odamni o‘ziga jalb qiluvchi

tomonlari, uyga, ota-ona bag‘riga talpinishini misol qilib ko‘rsatib o‘tish mumkin. Buning iqtisodga oid tomonlari insonda ehtiyoj paydo bo‘lsa, undan foydalanish mexanizmini ongli tarzda ishga tushurish kerak bo‘ladi.

Bu o‘z navbatida o‘quvchilarda avaylab-asrash, saqlash, yaxshilab tutish, ko‘paytirish, jilo berish, sovg‘a qilish kabi istaklarni ro‘yobga chiqaradi. O‘zida ehtiyoj orqali erishgan narsalarni asrashga va tejashga o‘rganib boradi. Ana shu tariqa boshlang‘ich sinflarda iqtisodiy tarbiya asta-sekinlik bilan yo‘lga qo‘yilib boriladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirishning bosh maqsadi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda iqtisodiy bilimdonlik, iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu vazifani bajarishda esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilim va mahorati juda ko‘p narsani hal qilib, ularning iqtisodiy savodxonlik darajasi hamda o‘z faoliyatini pedagogik muloqat asosida, ya’ni subyekt-subyekt munosabatlariga tayangan holda qurishi ko‘zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashdagi asosiy talablardan biri ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga iqtisodga oid bilim va tushunchalarni taqdim etish bo‘yicha bilim, mahorat va metodika bilan qurollantirish, iqtisodiy fikrlashga o‘rgatishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bir emas bir necha o‘quv predmeti bo‘yicha o‘quvchilarga to‘rt yil davomida bilim beradi. Shuning uchun iqtisodga oid tushunchalarni mazkur o‘quv predmetlari tarkibiga singdirish, ya’ni, integrasiyalashgan tarzda taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrasiyalashgan darslar mazmunini ishlab chiqish, integrasiyalashgan o‘quv materiallarini taqdim etishning eng ma’qul shakli, metod va vositalarini tanlay olish, integrasiyalashgan darslarni didaktik jihozlashga o‘rgatish lozim. Bu o‘rinda tanlangan iqtisodiy materiallar o‘quvchini asosiy materiallardan chalg‘itmasligi, balki mavzuni mustahkamlashga,

chuqurlashishga, bilimlarini puxta egallashga qaratilgan bo‘lishi hamda ularni amaliyotda qo‘llashga yordam berishi lozimligiga alohida ahamiyat qaratish shart. Talaba boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sifatida nafaqat ta’lim jarayonini uyushtira olishi, balki, pedagog mahoratini doimo oshirish, ijodiy izlanish, o‘quvchilarning ichki dunyosini, ularning intilish, motiv va ehtiyojlarini tushunish, o‘quvchi shaxsini to‘laqonli rivojlantirish, o‘quvchilarni egallagan

bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatish kabi sifatlarga ega bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga dars jarayonida o‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng iqtisodiy jihatdan qanday muvaffaqiyatlarni qo‘lgakiritganligi,ya’niqandayyangikorxonalar barpo etilganligi, qo‘shma korxonalarda qanday mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligi, kasb-hunar va ularning turli-tumanligi, davlat mulki, xususiy mulk, sotuvchi, xaridor, tadbirkorlik, tadbirkorlar qanday insonlar ekanligi, soliq, raqobat, reklama, daromad, talab va taklif, qimmatbaho qag‘ozlar haqida tushuncha berishda turli ma’lumotlardan foydalanish, ular asosida bolalarbop, ixcham matnlar, mashqlar, masalalar, o‘yinlar, test savollari, boshqotirmalar tayyorlash hamda ularni, o‘quv- biluv jarayonigatatbiq etish yo‘llarini o‘rgatish ko‘zlangan maqsadga erishishda yaxshi natijalarga olib keladi.

yondashuvlariga ham bevosita bog‘liqdir. Raqobatbardoshlikni ta’minlash jarayonida bir qator tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, ta’lim muassasalari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikning ta’minlanishi universitetlarning jamoatchilik oldidagi ochiqligini oshirishga xizmat qiladi. Faoliyat bo‘yicha ochiq ma’lumotlar bazasining shakllantirilishi, moliyaviy va akademik natijalarning oshkora e’lon qilinishi universitetning ishonchliligi va nufuzini mustahkamlaydi. Bu yondashuv ta’lim sifatini nazorat qilish va talabalar, ota-onalar hamda boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlik universitetlarning mustaqil va uzluksiz rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari ko‘p manbali moliyalashtirish tizimini joriy etmoqda. An’anaviy davlat byudjeti mablag‘lari bilan bir qatorda, grantlar, ilmiy tadqiqot loyihalari uchun ajratiladigan xalqaro va xususiy sektor mablag‘lari, bitiruvchilar assotsiatsiyalari va xayriya tashkilotlari ko‘magidan foydalanish amaliyoti kengaymoqda. Bu esa universitetlarga moliyaviy mustaqillikni ta’minlash va o‘zining innovatsion loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini yaratmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy sheriklik tamoyili ham ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlantirilishi universitetlar va sanoat, biznes hamda boshqa ijtimoiy institutlar o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qilmoqda. Bu hamkorlik nafaqat moddiy-texnik bazani mustahkamlash, balki ta’lim dasturlarini amaliy ehtiyojlarga moslashtirish, talabalarni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish va bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini bermoqda.

Shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish jarayonida talabalar manfaatlarini inobatga olish tamoyili ham muhim o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida talabalar fikri va takliflarini hisobga olish, ularni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish orqali ta’lim sifati va moslashuvchanligi oshirilmoqda. Talabalarning akademik va ijtimoiy ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlarni yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash universitetlarning ijtimoiy barqarorligini ta’minlab, ularni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantirishga yordam bermoqda. Umuman olganda, mazkur tamoyillarni izchil tatbiq etish O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglarda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashga, ta’lim sifati va innovatsion salohiyatini oshirishga, shuningdek, global ta’lim bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tajribasi va xalqaro tendensiyalar. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan yuqorida ko‘rib chiqilgan tamoyillar bugungi kunda O‘zbekistonda bir qator ilg‘or universitetlar tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Mamlakatning oliy ta’lim muassasalari o‘z faoliyatida global standartlarga mos yondashuvlarni joriy etish, raqamli transformatsiya, innovatsion ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali sezilarli natijalarga erishmoqda. Xususan, Westminster International University in Tashkent va Tashkent State University of Economics kabi yetakchi oliy o‘quv yurtlari xalqaro tajribaga asoslangan innovatsion ta’lim dasturlarini ishlab chiqib, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Westminster International University in Tashkent o‘zining ingliz modeli asosidagi o‘quv dasturlari orqali xalqaro akkreditatsiya talablariga to‘liq javob beradigan ta’lim tizimini shakllantirgan. Bu

dasturlar zamonaviy bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirishga, talabalarni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga yo‘naltirilgan. Universitet bitiruvchilari nafaqat milliy, balki xalqaro kompaniyalarda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, universitet tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar ham xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda. Tashkent State University of Economics esa xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish, qo‘shma o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va professor-o‘qituvchilar hamda talabalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha salmoqli yutuqlarga erishmoqda. Universitet akademik va ilmiy faoliyatda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlab, tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga, talabalarni innovatsion loyihalarda faol ishtirok etishga rag‘batlantirmoqda. Bu esa nafaqat ta’lim sifati va ilmiy salohiyatni oshirishga, balki bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatning boshqa ko‘plab oliy ta’lim muassasalari ham innovatsion ta’lim yondashuvlarini joriy etishda faol harakat qilmoqda. Jumladan, xalqaro reytinglarga kirgan universitetlar soni yil sayin ortib bormoqda, ilmiy tadqiqotlarning sifat va hajmi oshmoqda, xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilayotgan maqolalar soni ko‘paymoqda. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarning tajribasi ham O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun muhim yo‘naltiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya va Singapur kabi davlatlarning oliy ta’lim muassasalari boshqaruvda strategik rejalashtirish, akademik erkinlik, iqtisodiy mustaqillik va ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish kabi yondashuvlarni keng tatbiq etmoqda. Bu davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, global raqobatbardoshlikka erishish uchun universitetlar doimiy ravishda yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishi, raqamli texnologiyalarni joriy etishi, o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirishi va xalqaro akademik hamjamiyat bilan faol hamkorlik qilishi zarur. Shuningdek, xalqaro tajriba ta’lim tizimida ijtimoiy sheriklikning rivojlanishi, sanoat va biznes tuzilmalari bilan uzviy hamkorlik o‘rnatish, bitiruvchilarning ishga joylashish ko‘rsatkichlarini oshirish va talabalar uchun amaliyot dasturlarini kengaytirishning muhimligini ko‘rsatmoqda. Universitetlarning sanoat klasterlari va innovatsion markazlar bilan hamkorligi ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda.

Mazkur xalqaro tendensiyalar shuni tasdiqlaydiki, oliy ta’lim muassasalari o‘zlarining ichki salohiyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ta’lim sifatini doimiy ravishda oshirish, raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish va ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali global ta’lim makonida o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashga intilmoqda. O‘zbekiston universitetlari ham ushbu yo‘nalishda izchil qadamlar tashlab, ilg‘or xalqaro tajribani o‘zlashtirish va milliy ta’lim tizimini raqobatbardosh va barqaror rivojlanishga yo‘naltirishga intilmoqda.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining global va milliy reytinglardagi o‘rnini mustahkamlash va ularning raqobatbardoshligini oshirish zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etishni talab etmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion boshqaruv mexanizmlarini samarali qo‘llash, ta’lim jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish, o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga mos ravishda yangilash, ilmiy tadqiqot

faoliyatini kuchaytirish va ijtimoiy sheriklik asosidagi hamkorliklarni kengaytirish oliy ta’lim tizimining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Universitetlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, innovatsion ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, ilmiy klasterlar va texnoparklarni tashkil etish, shuningdek, boshqaruv tizimlarining moslashuvchanligini oshirish orqali raqobatbardoshlik darajasini sezilarli oshirishga erishilmoqda. Shu bilan birga, talabalar manfaatlarini hisobga olish va ularni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish tamoyillari ta’lim sifatining doimiy oshishiga zamin yaratmoqda. Xalqaro tajriba va ilg‘or amaliyotlarni chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, global ta’lim maydonida muvaffaqiyatga erishish uchun universitetlar doimiy ravishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishi, o‘z infratuzilmasini modernizatsiya qilishi va xalqaro hamkorlik doirasini kengaytirishi lozim. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari ham ushbu yo‘nalishda izchil qadamlar tashlab, milliy ta’lim tizimini global standartlarga moslashtirish va xalqaro maydonda raqobatbardoshligini mustahkamlash yo‘lida faol harakat qilmoqda. Kelgusida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar natijasida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining xalqaro reytinglardagi pozitsiyalari yanada yaxshilanadi, ta’lim sifati oshadi va milliy kadrlar salohiyati global mehnat bozorida munosib o‘rin egallaydi. Bu esa mamlakatning xalqaro ta’lim makonidagi nufuzini oshirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti.
2. QS World University Rankings. (2024). QS Top Universities. https://www.topuniversities.com
3. Times Higher Education (THE). (2024). World University Rankings. https://www.timeshighereducation.com
4. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. (2023). Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi – 2030. Toshkent: MHESI.
5. UNESCO. (2023). Transforming Education: Global Initiatives and Trends. Paris: UNESCO Publishing.
6. Knight, J. (2015). Internationalization of Higher Education: A Conceptual Framework. International Higher Education, No. 62, 2–4.
7. Altbach, P. G., & Knight, J. (2007). The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities. Journal of Studies in International Education, 11(3–4), 290–305.
8. OECD. (2022). Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing.
9. European University Association (EUA). (2021). Digital Transformation and Higher Education. EUA Reports.
10. Karimov, B. A., & Abdurahmonov, A. A. (2021). Innovatsion boshqaruv tamoyillari va ularning oliy ta’lim tizimida qo‘llanilishi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
11. Yusupov, B. (2022). Raqamli transformatsiya va O‘zbekiston oliy ta’limi. Oliy ta’lim muammolari, 4(92), 45–52.
12. World Bank. (2023). Higher Education in Uzbekistan: Building Excellence and Relevance. Washington DC: World Bank Group.
13. Chapman, D. W., & Austin, A. E. (2002). The Changing Context of Higher Education in the Developing World. Greenwood Publishing.
14. Tashkent State University of Economics. (2024). Universitet innovatsion rivojlanish strategiyasi. Rasmiy hisobot.
15. Westminster International University in Tashkent. (2024). Annual Academic Report. WIUT Publications.

ADVANTAGES OF INTEGRATED MATRIX TEACHING

KHOLMANOVA KLARA YANGIBOY KIZI
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan Assistant of the Department of "Applied Mathematics"
GANIEVA CHAROS, TOGAYEV GAFUR
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan"Applied Mathematics" students of the faculty

Anotatsiya: Zamonaviy ta’lim jarayonida fanlarni integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Algebra va uning tarkibiy qismi bo‘lgan matrisalar nazariyasini boshqa fanlar bilan uyg‘un holda o‘qitish o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, ularga turli fanlarni o‘zaro bog‘liq holda tushunishga yordam beradi. Integratsiyalashgan ta’lim tizimi zamonaviy ta’lim standartlariga mos kelib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada matrisalarni integratsiyalab o‘qitishning samaradorligi va afzalliklari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Matrisaning boshqa fanlar bilan integratsiyasi, Fanlar integratsiyasi- ning asosiy sabablari va afzalliklari, Matrisalarni integratsiyalashning metodologik asoslari.

Аннотация: В современном образовательном процессе интеграция предметов играет важную роль. Обучение алгебре и теории матриц, являющейся ее составной частью, в гармонии с другими предметами помогает укрепить знания учащихся, помочь им понять различные предметы во взаимосвязи. Интегрированная система образования соответствует современным образовательным стандартам и служит повышению эффективности образовательного процесса. В данной статье анализируются эффективность и преимущества интегрированного обучения матрицам.

Ключевые слова: Интеграция матриц с другими дисциплинами, Основные причины и преимущества интеграции дисциплин, Методологические основы интеграции матриц.

Abstract: The integration of subjects plays an important role in the modern educational process. Teaching algebra and its component, matrix theory, in conjunction with other subjects helps to consolidate students' knowledge and assists them in understanding various subjects in an interconnected way. The integrated education system aligns with modern educational standards and serves to increase the effectiveness of the educational process. This article analyzes the effectiveness and advantages of matrix-integrated teaching.

Keywords: Integration of matrices with other disciplines, Main reasons and advantages of subject integration, Methodological foundations of matrix integration.

Currently, the integration of sciences is one of the crucial aspects of modern society, serving to create innovative approaches in various fields. The mutual integration of sciences is the process of harmonizing different scientific directions and generating new knowledge. The progress of modern science demonstrates that a single scientific discipline is often insufficient to solve many complex problems. Therefore, the integration of sciences plays a vital role in combining various fields and developing comprehensive solutions.

Main reasons and advantages of scientific integration

1.Solving complex problems:

Through the integration of sciences, it becomes possible to fully understand and manage complex systems in the real world (for example, environmental issues, medical and engineering challenges).

2. Creation of innovative technologies:

Fields such as artificial intelligence, bioinformatics, and nanotechnology have emerged as a result of the convergence of various sciences.

3. Efficient use of resources:

By integrating knowledge and resources from various fields, it is possible to create innovations and achieve economic efficiency.

In conclusion, the integration of sciences is an integral part of the development of modern science. It enables the creation of new technologies, innovations, and effective solutions to complex problems. Therefore, it is crucial for specialists in each field to possess multidisciplinary knowledge.

Methodological foundations of matrix integration

Matrices are widely used in sciences such as algebra, physics, computer science, economics, engineering, and biology. By integrating them:

- Students will have the opportunity to apply mathematical concepts in various disciplines;
- Analytical and logical thinking develops;
- The ability to use matrices in scientific research and innovation increases.

Matrix integration into physics

In physics, matrices are of great importance in quantum mechanics, electrical circuits, and optics. For example, in quantum mechanics, operators are represented by matrices. In problems of electronic equilibrium, Kirchhoff's laws can be expressed using matrices.

Example: Matrices can be used to calculate voltage and current in electrical networks. For example, consider the following system of equations:

$$\begin{bmatrix} 2 & -1 & 0 \\ -1 & 3 & -1 \\ 0 & -1 & 2 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} I_1 \\ I_2 \\ I_3 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} V_1 \\ V_2 \\ V_3 \end{bmatrix}$$

Here, I represents currents and U represents voltages. By solving this matrix equation, it is possible to find the current value for each node in the circuit.

Integration of matrices into computer science,

In computer science, matrices are used in graphics, artificial intelligence, databases, and algorithms. For example, matrices are a key tool in image processing, neural networks, and encrypted communication systems.

Example: In computer graphics, convolution matrices are used to filter images. For instance, image clarity is enhanced using a 3x3 fixed matrix:

$$\begin{bmatrix} 0 & -1 & 0 \\ -1 & 5 & -1 \\ 0 & -1 & 0 \end{bmatrix}$$

This operation is used in image enhancement and facial recognition systems in artificial intelligence.

Integration of matrices into the economy

In economics, matrices are applied for input-output analysis, optimization, and forecasting models. In the Leontief model, the relationships between economic sectors are represented using matrices.

Example: The resource allocation of a production system in an economy can be expressed by the following matrix:

$$\begin{bmatrix} 0.3 & 0.2 \\ 0.4 & 0.5 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x_1 \\ x_2 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} d_1 \\ d_2 \end{bmatrix}$$

By solving this equation, it is possible to find the equilibrium of supply and demand between sectors.

Integration of matrices into biology

In genetics and biotechnology, matrices

are utilized as analytical tools. For instance, they are used to model gene expression and determine the genetic composition of populations.

Example: Genetic algorithms use matrices to describe the processes of mutation and selection. In genetic research, the distribution of various genetic markers is calculated using matrices.

Integration of matrices into engineering

In engineering sciences, especially in the fields of mechanics and electronics, matrices are used for modeling and analyzing systems.

Example: In robotics, matrices are used to determine the movement of a manipulator hand. For example, rotation and translation can be represented by the following transformation matrix:

$$T = \begin{bmatrix} cos(\theta) & -sin(\theta) & 0 & x \\ sin(\theta) & cos(\theta) & 0 & y \\ 0 & 0 & 1 & z \\ 0 & 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

Using this formula, it is possible to model the spatial movements of the manipulator arm.

Conclusion

The integrated teaching of matrices is one of the important directions in modern education. This method broadens students' knowledge and develops their logical and critical thinking skills. Additionally, it serves to increase the effectiveness of education by strengthening the connections between various disciplines. In the future, it is necessary to further develop this approach and improve interdisciplinary teaching methods.

References:

1. Strang, G. (2009). Introduction to Linear Algebra. Wellesley-Cambridge Press.
2. Lay, D. C., Lay, S. R., & McDonald, J. J. (2016). Linear Algebra and Its Applications. Pearson.
3. Anton, H., & Rorres, C. (2013). Elementary Linear Algebra: Applications Version. Wiley.
4. Leontief, W. (1986). Input-Output Economics. Oxford University Press.
5. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
6. Horn, R. A., & Johnson, C. R. (2012). Matrix Analysis. Cambridge University Press.
7. Griffiths, D. J. (2005). Introduction to Quantum Mechanics. Pearson.
8. Press, W. H., Teukolsky, S. A., Vetterling, W. T., & Flannery, B. P. (2007). Numerical Recipes: The Art of Scientific Computing. Cambridge University Press.
9. Bishop, C. M. (2006). Pattern Recognition and Machine Learning. Springer.
10. Haykin, S. (2009). Neural Networks and Learning Machines. Pearson.

HUSNIXAT DARSLARIDAGI DAM OLISH DAQIQALARI IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATI SIFATIDA

ABDURAXMONOVA NIGORAXON AKRAMALI QIZI
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi kata o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolaning ustuvor maqsadlaridan biri savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqalarini tashkil etishning afzalliklarini o‘rganish va dam olish daqiqalarining o‘quvchilar diqqatini jamlash, qiziqishini oshirish va husnixat ko‘nikmalarini yaxshilashda qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqalari uchun ajratiladigan vaqt taqsimoti, dam olish daqiqalarining o‘tkazilish tartibi aniqlanib, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, taqqoslash metodlari asosida savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqalarini tashkil etishning afzalliklari o‘rganildi, tahlil qilindi. Samarali usullar bo‘yicha takliflar tayyorlandi.

Kalit so`zlar: savod o‘rgatish darslari, nafas olish mashqlari, jismoniy mashqlar, vizual dam olish mashqlari, qisqa hikoya yoki ertaklar, musiqiy dam olish, kreativ faoliyatlar.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan uzviylik va uzluksizlik tamoyili o‘quvchilar aqliy qobiliyatini bir maromda to‘xtovsiz rivojlanishini taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”[1] ,–deb ta’kidlaganlarida “Uchinchi Renessans poydevori”ni ta’lim islohotlarida ko‘rdi.

Birinchi sinfga qadam qo‘yayotgan o‘quvchilarning jismoniy hamda ruhiy chiniqishlarini (imkoniyatlarini) hamma vaqt hisobga olib turish lozim. Chunki bu yoshdagi bolalar imkoniyatlaridan tashqaridagi ruhiy va jismoniy yuklamani juda qiyinchilik bilan qabul qiladilar. Xususan, yozuv darslari agar ular imkoniyatlari darajasida tashkil etilmasa, ular tez charchaydilar va ularning bilim olish ishtiyoqlari tez so‘nadi. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining qo‘l va barmoq muskullari ham etarli darajada taraqqiy etmaganligi bois ularni yozuv darslarida zo‘rlab yozdirish salbiy oqibatlarga olib kelishini o‘qituvchi bilishi lozim. Bolalarni zo‘riqtirib qo‘ymaslik uchun dars jarayonida turli xildagi jismoniy mashq lahzalarini tashkil etish ijobiy samara berishi tajribalarda isbotlangan. Faqat shuni unutmaslik lozimki, jismoniy mashqlar bolalarning yosh xuxsusiyatlariga mos bo‘lishi hamda faqat qo‘l va barmoq muskullarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.[2]

Tan olish lozim hozirgi vaqtda ayrim o‘qituvchilar kasbdoshlari bilan musobaqaga kirishib, sifat borasida batamom unutib qo‘yadilar. Bunday o‘qituvchilar

1 Prezident Sh.Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020

2 Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari [Matn] / Y.Y.Azimov, R.A.Qo`ldoshev. - Toshkent: Turon Zamin Ziyo nashriyoti, 2017.- 132 b.

shogirdlarimni boshqalardan oldinroq savodli, tez va chiroyli yozadigan qilaman deb, o‘quvchilarni tanaffusga ham chiqarmay, ularning charchashlarini ham hisobga olmay nihoyatda ko‘p yozdiradilar. Yosh fiziologiyasi va jismoniy imkoniyatlariga mos kelmaydigan bunday yuklama natijasida o‘quvchilar tez toliqadilar, harakatlari sust bo‘lib qoladi. Tabiiyki, charchoq natijasida ularning yozuvlari xunuklashib, ko‘p xato qiladigan bo‘ladilar.

Ortiqcha yuklamadan charchagan o‘quvchilar elkalarini chiqarib, ko‘kraklarini partaga tirab, kerishib o‘tiradilar. Bu hol qonni yuritish uchun beixtiyor qilinadigan harakatlardir. Chunki organizm o‘z faoliyatini yaxshilash uchun beixtiyor harakat qiladi. Bunday harakatlarning oldini olish uchun vaqti vaqti bilan jismoniy mashq lahzalarini tashkil etib turishning katta ahamiyati bor.

Ta’kidlaganimizdek, dars jarayonida, har 10-15 daqiqada o‘quvchilarning nafas olishlarini yaxshilash, qo‘l va oyoq muskullarini chigalini yozish maqsadida lahzalik jismoniy mashqlar tashkil etilishi lozim. Shuning uchun barmoq va qo‘l harakatlarini o‘stiruvchi mashqlarni partada o‘tirgan holda yoki parta yonida turib bajartirish mumkin. Dars jarayonida bunday mashqlar bir necha marta o‘tkazilishi mumkin. O‘qituvchi shogirdlarining ahvolini hisobga olib mashqlarni qachon o‘tkazishni belgilaydi. Metodik talablarga muvofiq mashqlarni avval o‘qituvchining o‘zi amalda bajarib ko‘rsatadi.[3]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda, ta’lim berishda o‘qish,yozish, og‘zaki nutq bilan bir qatorda qiziqarli she’riy o‘yinlar, matematik topishmoqlar, mantiqiy topshiriqlar, sinfdan tashqari o‘qish uchun qiziqarli, quvnoq she’rlar tanlash mumkin. Bu kabi topshiriq va she’rlarni tanlashda o‘quvchilarning yoshi inobatga olinadi. Darslarni tashkillashda kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun ta’limni ko‘proq o‘yin shaklida tashkillash maqsadga muvofiqdir. Chunki kichik yoshdagi o‘quvchilarni fikrini uzoq vaqt bir fikrga jamlab bo‘lmaydi. Biror mavzuni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun avvalo,ularni qiziqtirib olish lozim. Har bir berayotgan bilimni o‘qituvchi o‘yin orqali izchillikda darsni olib borsa, maqsadiga to‘liq erishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Dam olish daqiqalari, xususan savod o‘rgatish darslarida tashkil etiladigan dam olish daqiqalari mavzusida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Turli tadqiqotlar dam olish daqiqalarining o‘quvchilarning o‘rganish qobiliyatiga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi.

Taniqli rus olimi, atoqli pedagog K.D.Ushinskiy maktabga endigina qadam qo‘yayotgan bolalar bilan dam olish daqiqalarini tashkil etish borasida quyidagilarni yozib qoldirgan edi: “Birinchi darsdayoq o‘qituvchi bolalarni komanda bilan bajariladigan harakatlarga o‘rgatishi kerak. Bu harakatlar bolalarga, charchagan a’zolarini harakatlantirish bilan birga, o‘zlarini tetik tutishlari uchun ham katta yordam beradi”[4]

Smith (2020) o‘z tadqiqotida darslar davomida dam olish daqiqalari o‘quvchilarning diqqatini oshirishini ko‘rsatdi.[5] Ushbu tadqiqot dam olish daqiqalarining o‘quvchilarning diqqatini oshirishini va ularning o‘quv jarayonidagi

3 Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari [Matn] / Y.Y.Azimov, R.A.Qo`ldoshev. - Toshkent: Turon Zamin Ziyo nashriyoti, 2017.- 132 b.

4 Ushinskiy K.D. Tanlangan asarlar. T.II. Uchpedgiz, 1939, 126-bet

5 Smith, J. (2020). The Benefits of Breaks in Learning Environments. Journal of Educational Psychology, 112(4), 567-580.

samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Dam olish daqiqalari o‘quvchilarning diqqatini jamlashga yordam beradi va darsga bo‘lgan qiziqishini saqlab qoladi.

Lee.K va Kim.H ham o‘z izlanishlarini olib borishdi. Tadqiqotda tanaffuslarning bolalarning kognitiv faoliyatiga ta’siri o‘rganildi. Lee va Kim tanaffuslar bolalarning aqliy salohiyatini oshirishini aniqladilar.[6]

Ingliz tadqiqotchisi White.S tadqiqoti tanaffuslarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qanday ta’sir qilishini o‘rganib chiqdi. Uning natijalari dam olish daqiqalari o‘quvchilarning diqqatini jamlashga va darsdagi ishtirokini oshirishga yordam berishini ko‘rsatdi.[7]

Bu borada taniqli o‘zbek olimi va metodisti Mirhabib G‘ulomov quyidagi asosli fikrlarini keltirgan edi: “O‘quvchilarga dars protsessida bajariladigan mashqlar oson bo‘lib, kam vaqt olishi, ularning jismoniy jihatdan o‘sishlariga, qo‘l muskullarining mukammallashishiga va qaddi-qomatlarini to‘g‘ri, erkin tutishlariga yordam berishi lozim. Yozuv darslarida (10-15 minut o‘tgandan so‘ng) o‘quvchilar betoqat bo‘lib, orqalariga yoki yonlariga yastanib o‘tiradilar, o‘rinlaridan turib ketadilar, bu ularning charchaganlarini bildiradi”[8]

Salamova Nargiza Tojimaxmudovna o‘zining “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullar” maqolasida tajriba-sinov natijalaridan kelib chiqqan holda shunday fikr yuritadi: Darsdagi dam olish daqiqalari ham bolaning ijodiy fikrlashiga ta’sir qiladi, olingan ma’lumotdan tanaffus olish imkoniyatini beradi. “Ijodiy yengillik mashqlari bolaning tanasiga ortiqcha kuchlanishdan xalos bo‘lishga, psixologik muvozanatni tiklashga va shu bilan ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi”.[9]

Dotsent Qo‘ldoshev Rustam Avezmurodovich o‘zining shogirdi Sharipova Feruza Shakar qizi bilan birgalikda “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining grammatikaga oid tushunchalarini shakllantirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish metodikasi” nomli maqolasida dam olish uchun foydalaniladigan mashqlar haqida izoh berib ketgan. Ya’ni “O‘yinlar va bardamlashtiruvchi mashqlar - bir xillikni yangilashtirish, kuchquvvatni oshirish va ishni davom ettirish ishtiyoqini kuchaytirish uchun foydalidir. Bunda turli harakatli o‘yinlar o‘tkazish lozim. Bu turdagi mashqlar dam olish daqiqasi sifatida ham talqin etiladi.’[10]

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqalarini tashkil etish bir qator afzalliklarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

METADOLOGIYA

Biz bilamizki, qo‘l kaftlarining va panjalarining erkin harakatlanishini rivojlantirish uchun lozim bo‘ladigan uslublar yozuvga o‘rgatishda mashq harakteriga ega

6 Lee, K., & Kim, H. (2015). Rest and Cognitive Performance in Children. Child Development, 86(1), 290-300.

7 White, S. (2014). Effective Break Strategies in Primary Education. Primary Education Research Journal, 10(4), 400-415.

8 “Husnixat metodikasi”. – Toshkent: O‘‘qituvchi, 1976, 13-bet

9 Tojimaxmudovna, S. N. (2022). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. IJODKOR O‘QITUVCHI, 2(19), 591-593.

10 Avezmurodovich, Q. L. R. (2022). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING GRAMMATIKAGA OID TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIMIY O ‘YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. Scientific Impulse, 1(4), 1328-1335.

bo‘lgan alohida mashg‘ulotlarsiz ish bitmaydi. Bu mayda muskullar va qo‘lning kaft qismi yaxshi rivojlanmagan. Ularda ko‘rsatkich barmoq va ayniqsa uning uchi yaxshi rivojlanmagan, buning natijasida bolalar ko‘rsatkich barmoq bilan ruchkani qattiq bosib yozadilar. Bolalar katta barmoqdan ham yaxshi foydalana olmaydilar, buning natijasida o‘z xohishlaricha ushlaydilar. Shuning uchun ham ko‘rsatkich va katta barmoqning mayda muskullarini rivojlantirish lozim. Buning uchun savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqasini tashkil etish bolalarni yanada yaxshi o`rganishga sabab bo`ladi.

Dam olish daqiqalarining turli xil usullari o‘quvchilarning yoshiga, darsning mazmuniga va o‘qituvchining uslubiga qarab tanlanishi mumkin. Bu usullar o‘quvchilarning diqqatini tiklash va samaradorligini oshirishda katta yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dam olish daqiqasi kabi muntazam jarayonlar o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini, diqqatini va o‘quv faoliyatini yaxshilashi mumkin. O‘quv topshiriqlaridan dam olish daqiqasinini qilish o‘quvchilarni to‘ldirishga va sinfga ko‘proq diqqat bilan qaytishga va o‘rganishga tayyor bo‘lishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda pedagogik kuzatish, intervyular asosida ma’lumotlar to‘plashga erishdik.

Tadqiqot ob’ekti sifatida Qo‘qon shahar 15- umumiy o‘rta ta’lim maktabi tanlanib, bu maktabdagi 104 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va va 27 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari respondentlar sifatida tanlandi.

Pedagogik kuzatish metodi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari darslarini bir necha marta kuzatib va asosiy e’tiborni o‘qituvchilarning savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqalarini tashkil etishga bo‘lgan munosabatlarini aniqlashga harakat qildik. Qo‘qon shahar 15- umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1- A sinfda savod o‘rgatish darsida dam olish daqiqasidan foydalanish jarayonini jarayonini kuzatdik. Kuzatuv natijalari va fikrlarimizni natijalar qismida SWOT tahlili asosida yoritdik.

Intervyu metodi. Ushbu metod yordamida Qo‘qon shahar 15-umumta’lim maktabi 104 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ustozlari savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqalaridan qay darajada foydalanishlarini aniqlashga harakat qildik.

Kichik tanaffuslar shuningdek ijodiy fikrlash va motivatsiyaning saqlanishiga ham hissa qo‘shadi, chunki bolalarga “qayta yuklanish" va keyingi topshiriqqa yanada tayyor bo‘lish imkonini beradi. Dam olish daqiqalari fizik va psixologik tayyorgarlikni oshirish bilan bir qatorda o‘qitishning umumiy samaradorligini yaxshilaydi. Bolaning charchaganida, uning qobiliyatlari kamayadi, demak, dam olish vaqtini muntazam ravishda taqdim etish muhimdir.

NATIJALAR


Biz tadqiqotni amalga oshirishda pedagogik kuzatish, intervyu, anketa-so‘rovnomalarni Qo‘qon shahar 15- umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari doirasida o‘tkazganimizda quyidagi natijalarga erishdik.

Tadqiqot natijasida eng katta foizlarda (43%)o‘qituvchilar tomonidan darslarda dam olish daqiqalaridan foydalanmaslik holatlari, ba’zida foydalanish holatlari (34%) va har bir darsda doimo foydalanish holatlari (23%) aniqlandi.


Darslar jarayonida qiziqarli daqiqalar chog‘idagi o‘yinlar bir-biriga o‘xshamasligi bilan ajralib turishi kerak. O‘quvchilar har darsda iloji boricha yangiliklarni kutib olishlari darslar samaradorligini oshiradi.

Qolaversa qo‘l harakatini mashq qildirish usuli bolalarning charchagan a’zolarini dam olishiga va yozuv sifatiga katta ta’sir etadi. O‘quvchilar dars jarayonida bajariladigan

1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqalarini tashkil etishga b o‘lgan munosabatlari yuzasidan o‘tkazilgan taqqoslash usuli natijasi.[1]



2-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ustozlari savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqalaridan qay darajada foydalanishlarini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan intervyu metodi natijasi[1]



mashqlar oddiy bo`lib, kam vaqt olishi o‘quvchining jismoniy jihatdan o‘sishiga, qo‘l va barmoqlarning chiniqishiga, qaddi-qomatining to‘liq, erkin tutilishiga yordam berishi lozim. Yozuv darsida 8-10 daqiqa o‘tgandan so‘ng o‘quvchilar betoqat bo‘lib charchash alomatlari ko‘zga tashlanadi.

Mana shunday holatda o‘quvchilaming charchashlariga ahamiyat bermay ko‘p

yozdirish natijasida o‘quvchi toliqadi, harakatlari sustlashadi, xati xunuklashadi, ko‘p xatoga yo‘l qo‘yadi. Shu sababli charchashning oldini olish uchun vaqti-vaqti bilan jismoniy mashqlar o‘tkazib borish zarur. Jismoniy mashq izchil o‘tkazib borilsa, keyin esa yozishga kirishilsa, o‘quvchilarning ish qobiliyati tiklanadi.

Tadqiqot natijalari dam olish daqiqalari husnixat darslarida diqqatni jamlash, qiziqish va husnixat ko‘nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu natijalar dam olish daqiqalarining o‘quvchilar uchun samaradorligini tasdiqlaydi. Darsga qiziqishi ortdi.

MUHOKAMA

Husnixat darslarida dam olish daqiqalarining o‘quvchilarga bo‘lgan ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar dam olish daqiqalarining diqqatni jamlash, qiziqishni oshirish va umumiy o‘quv samaradorligini yaxshilashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Smith tadqiqotining tajriba-sinov jarayonidan kelib chiqib isbotlandi. Smith o‘z tadqiqotida qisqa tanaffuslarning o‘quvchilarning diqqatini oshirishini ko‘rsatdi. Hozirgi kunda o‘quv jarayonida qisqa tanaffuslar keng qo‘llanilib, o‘quvchilarning diqqatini tiklash va ularni yanada samarali o‘rganishga tayyorlash uchun ishlatilmoqda. Masalan, ko‘plab maktablarda “brain break” deb ataluvchi qisqa tanaffuslar o‘tkazilmoqda, bu esa o‘quvchilarning diqqatini saqlab qolishga yordam beradi.

Brownning tadqiqoti qisqa tanaffuslarning o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishi va stressni kamaytirishini tasdiqladi. Bugungi kunda maktablarda dam olish daqiqalari o‘quvchilarning qiziqishini saqlash va ularni darslarga jalb qilish uchun muntazam ravishda o‘tkazilmoqda. Stressni kamaytirish uchun meditatsiya va nafas olish mashqlari keng qo‘llanilmoqda.

Yana bir tadqiqotchimiz Williamsning ham tadqiqotlaridan quyidagi nazariyaning amaliy guvohi bo‘ldik. Williamsning tadqiqoti dam olish daqiqalari o‘quvchilarning umumiy o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Hozirgi kunda ko‘plab maktablar va ta’lim muassasalari o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshirish uchun tanaffuslar tashkil etmoqda. Bu tanaffuslar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish va diqqatini jamlashga yordam beradi.

Taniqli o‘zbek olimi va metodisti Mirhabib G‘ulomov ham savod o‘rgatish darslarida dam olish daqiqasining o‘rni nihoyatda yuqori ekanligini tasdiqladi, o‘qituvchilarga bir qator ko‘rsatmalar keltirib o‘tdi.

Yuqoridagi tadqiqotlarning hozirgi kundagi isbotlari shuni ko‘rsatadiki, dam olish daqiqalari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tanaffuslar o‘quvchilarning diqqatini jamlash, qiziqishini oshirish, stressni kamaytirish va umumiy o‘quv muvaffaqiyatini yaxshilashda katta rol o‘ynaydi. Shunday qilib, dam olish daqiqalari o‘quv jarayonida muhim komponent sifatida ko‘rilmoqda va keng qo‘llanilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang‘ich sinflarda dam olish daqiqalarini tashkil etish o‘quvchilarning diqqatini jamlash, qiziqishini oshirish va umumiy o‘quv samaradorligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Dam olish daqiqalari o‘quvchilarga jismoniy va ruhiy tiklanish

imkonini beradi, bu esa ularning dars davomida diqqatini saqlab qolishiga yordam beradi.

Nafas olish mashqlari o‘quvchilarning stressini kamaytiradi va ularga tinchlanish imkonini beradi. Bu mashqlar orqali o‘quvchilar diqqatini jamlab, darsga yanada tayyor holda qaytishlari mumkin. Jismoniy mashqlar esa o‘quvchilarning energiyasini chiqarib tashlashga yordam beradi, bu esa ularning keyingi darsga diqqatini jamlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning jismoniy sog‘lig‘ini ham yaxshilaydi. O‘quvchilar uzoq va yaqin ob’ektlarga qarab ko‘zlarini dam olishlariga imkon beradi. Qisqa hikoya yoki ertaklar esa o‘quvchilarning tasavvurini ishga soladi va ularning ruhiy holatini yaxshilaydi. Bu usul o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itib, ularga dam olish imkonini beradi.

Musiqiy dam olish ham o‘quvchilarning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Tinchlantiruvchi musiqa tinglash yoki qisqa qo‘shiq kuylash orqali o‘quvchilar stressdan xalos bo‘lib, darsga qayta tayyorlanadilar. Kreativ faoliyatlar, masalan, rasm chizish yoki o‘yinchoqlar bilan o‘ynash, o‘quvchilarning ijodkorligini oshiradi va ularga dam olish imkonini beradi. Bu faoliyatlar o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantiradi va ularga yangi energiya beradi.

Umuman olganda, dam olish daqiqalari o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu daqiqalar o‘quvchilarning diqqatini tiklash, qiziqishini oshirish va umumiy o‘quv samaradorligini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda dam olish daqiqalarini to‘g‘ri tashkil etish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘rganish qobiliyatini oshirishlari va darslarning samaradorligini kuchaytirishlari mumkin. Shunday qilib, dam olish daqiqalari nafaqat o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlab qolish, balki ularning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlarini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinflarda dam olish daqiqalarini yanada samarali tashkil etish va ularning ta’sirini kuchaytirish uchun quyidagi takliflar kiritilishi mumkin:

Muntazam dam olish daqiqalarini rejalashtirish: Har bir dars davomida belgilangan vaqt oralig‘ida muntazam ravishda dam olish daqiqalarini o‘tkazish kerak. Masalan, har 20-30 daqiqadan keyin 5 daqiqalik dam olish daqiqasi o‘tkazish o‘quvchilarning diqqatini tiklashga yordam beradi.

Turli xil dam olish usullarini qo‘llash: O‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab dam olish daqiqalarini turli xil usullarda tashkil etish mumkin. Nafas olish mashqlari, jismoniy mashqlar, vizual dam olish mashqlari, qisqa hikoya yoki ertaklar, musiqiy dam olish va kreativ faoliyatlarni navbatma-navbat qo‘llash o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

O‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish: Dam olish daqiqalarida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish kerak. Masalan, o‘quvchilarga o‘zlari nafas olish mashqlarini o‘ylab topish yoki qisqa hikoya aytish imkoniyatini berish ularning qiziqishini oshiradi va faoliyatda ishtirok etishiga rag‘batlantiradi.

Tanaffuslar davomida o‘quvchilar bilan aloqa qilish: Dam olish daqiqalari davomida o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan muloqot qilishlari va ularning his-tuyg‘ularini o‘rganishlari kerak. Bu o‘quvchilarning ruhiy holatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va ularga individual yondashishni ta’minlaydi.

Interaktiv va o‘yin shaklidagi mashqlarni qo‘llash: Dam olish daqiqalarida interaktiv va o‘yin shaklidagi mashqlarni qo‘llash o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni

faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, qisqa harakatli o‘yinlar yoki guruhda bajariladigan mashqlarni qo‘llash mumkin.

Dam olish daqiqalarini dars mazmuni bilan bog‘lash: Dam olish daqiqalarini dars mazmuni bilan bog‘lash orqali ularni yanada samarali qilish mumkin. Masalan, husnixat darsida vizual dam olish mashqlarida o‘quvchilar chiroyli yozilgan matnlarga qarashlari mumkin. Bu nafaqat dam olishni ta’minlaydi, balki dars mavzusini mustahkamlashga yordam beradi.

O‘quvchilarning fikrlarini hisobga olish: Dam olish daqiqalari haqida o‘quvchilarning fikrlarini tinglash va ularni inobatga olish muhimdir. O‘quvchilarning qiziqishlariga mos ravishda dam olish mashqlarini tanlash ularning dam olish daqiqalariga bo‘lgan munosabatini yaxshilaydi.

Maktab va sinf darajasida qo‘llab-quvvatlash: Dam olish daqiqalarini samarali tashkil etish uchun maktab va sinf darajasida qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar orasida dam olish daqiqalarining ahamiyati haqida tushuncha shakllantirish va bu usullarni kengroq qo‘llash tavsiya etiladi.

Ushbu takliflar boshlang‘ich sinflarda dam olish daqiqalarini samarali tashkil etishga yordam beradi va o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -592 b.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun “Murojaatnoma”si 22.12.2022-yil

II. II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

3.Y.Y.Azimov, R.A.Qo‘ldoshev. Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari. - Toshkent: Turon Zamin Ziyo nashriyoti, 2017 y.132 b.

4.X.G‘ulomova, H.Bakiyeva, A.Yemberganova. O‘quv qo‘llanma. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. “IQTISOD-MOLIYA” 2021 y.108 b.

III. Gazeta va jurnallardagi maqolalar

5.N.A. Abduraxmonova (2025). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO‘NIKMALARNING ROLI. Inter education & global study, (1 (1)), 15-21.

N.A. Abduraxmonova. "BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO‘NIKMALARNING ROLI" Inter education & global study, no. 1 (1), 2025, pp. 15-21.

6.Smith, J. (2020). The Benefits of Breaks in Learning Environments. Journal of Educational Psychology, 112(4), 567-580.

7.Abduraxmonova, N. (2022). BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI. Science and innovation, 1(B8), 2114-2121.

Abduraxmonova, N. "BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI." Science and innovation 1.B8 (2022): 2114-2121.

8.Brown, L. (2019). Enhancing Classroom Learning through Short Breaks. Educational Research and Reviews, 14(3), 120-130.

9.Abduraxmonova, N. A. qizi.(2023). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208-211.

Abduraxmonova, N. A. "qizi.(2023). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida." Educational Research in Universal Sciences 2.12: 208-211.

10. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.

11.Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilar ijodiy foaliyatini tashkil etish texnologiyasi. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 83-87.

Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilar ijodiy foaliyatini tashkil etish texnologiyasi." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 3.1 (2024): 83-87.

IV. Internet manbalar

1. http://www.ziyonet.uz
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Metod
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Metodologiya

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SANOAT INTEGRATSIYASI SHAROITIDA MUHANDISLIK TA'LIMINING DOLZARB MUAMMOLARI

PARMONOV ABDUTOLIB ABDUVAHOB O'G'LI
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada muhandislik ta'limidagi tizimli muammolar - talaba va o'qituvchi o'rtasidagi kommunikatsiya uzilishlari, motivatsiya va baholashdagi tafovutlar, texnologiyadan foydalanishdagi nomuvofiqliklar, shuningdek, ishlab chiqarish bilan integratsiyaning sustligi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda mavjud muammolar sababli talabalarda amaliy kompetensiyalar yetishmasligi, o'qituvchilarda esa ta'lim samaradorligiga bo'lgan ishonch pasayishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelayotgani ko'rsatib berilgan. Muallif ushbu muammolarga yechim sifatida sanoat bilan integratsiyalashgan, raqamli va interaktiv metodlarga asoslangan ta'lim modelini taklif etadi. Shuningdek, talaba, o'qituvchi va ishlab chiqarish bo'g'ini o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar. Muhandislik ta'limi, talaba-o'qituvchi munosabatlari, raqamli texnologiyalar, motivatsiya, dual ta'lim, sanoat integratsiyasi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, baholash tizimi, interaktiv metodlar, soft-skills.

Kirish. Zamonaviy muhandislik ta'limi bugungi kunda nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki talabalarda real ishlab chiqarish sharoitida faoliyat yurita oladigan kompleks kompetensiyalarni shakllantirishni ham talab qilmoqda. Biroq ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi kommunikatsion uzilishlar, motivatsiya va baholashdagi tafovutlar, shuningdek, texnologik yangiliklarga munosabatdagi nomuvofiqliklar bu jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, talabalarning ishlab chiqarish sohasiga tayyor emasligi, sanoat bilan amaliy aloqalarning sustligi muhandislik ta'limini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ko'plab xorijiy tadqiqotlar muhandislik ta'limida zamonaviy metodlar, sanoat bilan integratsiyalashgan yondashuv va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish muhimligini ta'kidlamoqda[1;2]. Shu bilan birga, talaba-o'qituvchi munosabatlarini faollashtirish, ularni sheriklik asosida tashkil etish orqali ta'lim sifati va motivatsiyani oshirish mumkin [3].


Ushbu maqolada muhandislik ta'limi tizimidagi mavjud muammolar tahlil qilinadi hamda ularga zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlar asosida taklif etiladigan yechimlar ilgari suriladi. Xususan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, texnologiyadan foydalanishdagi tafovut, baholash shaffofligi, shuningdek, ta'lim va ishlab chiqarish bog'liqligi kabi jihatlar chuqur ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Barchamizga ma'lumki, ta'lim - har bir insonning asosiy huquqi, va taraqqiyot jarayonlarining yuragidir. Respublikamizda barcha iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar va rivojlanishlar qatorida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ham turli xil hozirgi zamon talablariga hamohang ravishda islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5847-sonli Farmoni bugungi texnologik zamonga mos kadrlarni tayyorlashda poydevor vazifasini bajaradi. Bugungi ishlab chiqarish, sanoat texnikasi va texnologiyalari tezkorlik bilan takomillashib borayotgan zamonda, bu yangilanishlarga moslashib keta oladigan, har qanday yangiliklarni qabul qila oladigan bilimli, malakali kadrlarga har qachongidan ham ehtiyoj yuqori bo‘lib bormoqda.

Ushbu tadqiqotda muhandislik ta’limida mavjud bo‘lgan tizimli muammolar - jumladan, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya, metodik yondashuvlar tafovuti, baholashdagi adolatlilik, sanoat bilan integratsiyadagi uzilishlar kabi jihatlar tahlil qilindi. Tadqiqotda sifatli (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) metodlar uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot deskriptiv va analitik xarakterga ega bo‘lib, mavjud holatni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Asosiy maqsad – muammolarni aniqlash, ularning sabablarini ochib berish va ilmiy asoslangan yechimlar taklif qilishdir.

Muhandislik ta’limini rivojlanishi uchun quyidagi berilgan tizimli yondashuv (ta’lim zanjiri) muhim ro‘l o‘ynaydi (1-rasm).



1-rasm. Muhandislik ta’limini rivojlanishi tizimli yondashuv (ta’lim zanjiri).

Yuqorida berilgan sistemani har bir bo‘g‘inidagi yutuqlar, kamchilik va muammolarni tahlil qilib chiqamiz.

1. Muhandislik ta’limi o‘quv-me’yoriy hujjatlar asosida, ishlab chiqarish uchun kompetentli kadr yetishtirishni maqsad qilgan o‘qituvchi-talaba o‘rtasidagi jarayon bo‘lib, bunda umumtexnika fanlari asosiy ya’ni fundamental ro‘l o‘ynaydi. Zero, binoni mustahkamligi va uzoq xizmat qilishi binoning poydevoriga bog‘liqligi sababli, UTF ham shunday vazifaga ega.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasida quyidagi muammolarni ko‘rib chiqamiz:

Kommunikatsiya va o‘zaro tushunmovchilik, bunda o‘qituvchilar ko‘pincha texnik tilda, murakkab ifodalar bilan dars o‘tadi, bu esa talabalar uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Bu holat — o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali kommunikatsiya yetishmasligi — muhandislik ta’limida keng tarqalgan muammolardan biri.

Soddalashtirilgan va talaba markazli tilda izohlash. Texnik atamalarni oddiy, real

hayotiy misollar orqali tushuntirish. Har bir yangi tushuncha uchun analogiyalardan foydalanish (“Nuqta atrofidagi qo‘zg‘almas harakat – vildiroqning harakati” kabi). Meyer va Land “threshold concepts” nazariyasida, murakkab tushunchalarni talabaning tushunish dunyosiga mos ravishda “qayta kodlash” zarurligini ta’kidlaydi[4].

Psixologik xavfsiz muhit yaratish. “Savol yo‘q – xato yo‘q” tamoyili. Har bir darsda “noaniqlik soati” (muddatli savol-javob vaqtini) joriy etish. “Edmondson ta’kidlaganidek, “talaba o‘zini ayblanmaslik xavfsizligida his qilganda, u faolroq savol beradi va fikr bildiradi”[5].

Ikki tomonlama fikr almashinuvi va feedback tizimi. Har oyda anonim so‘rovnoma yoki Google Form orqali talabalar fikrini olish: darsning tushunarli qismi, murakkab nuqtalari, o‘qituvchi yondashuvi haqida. Hattie va Timperley “samarali feedback nafaqat o‘qituvchidan talaba tomon, balki aksincha yo‘nalishda ham bo‘lishi kerak”[6] deydi.

O‘quv metodikasi va o‘rganish uslublaridagi tafovut, o‘qituvchilar an’anaviy “ma’ruza – seminar” modelida ishlashga odatlangan, ammo talabalar ko‘proq interaktiv, vizual, tajribaga asoslangan o‘qitishni xohlashadi. Bu muammo - pedagogik uslublar va o‘rganish uslublari o‘rtasidagi tafovut — ayniqsa zamonaviy raqamli avlod (Z avlodi) bilan ishlayotganda dolzarb masala hisoblanadi. Bu muammoning yechimlari sifatida quyidagilarni qarash mumkin:

Faol o‘qitish (Active learning) strategiyalarini joriy etish. Har 15-20 daqiqada mini-diskussiya, “fikrlar almashinuvi”, yoki “savol-javob pauzasi” kiritish. Prince “faol o‘qitish talabalar bilimini chuqurlashtirishda ma’ruza uslubidan samaraliroq” [7] ekanini ta’kidlaydi.

Multimodal o‘rganish uslublarini integratsiya qilish. Vizual (sxemalar, videolar), audial (podkastlar, ovozli sharhlar), kinestetik (modellar, laboratoriya ishlari) uslublar uyg‘unligi. Fleming va Baume o‘quvchilarning o‘zlariga mos uslubda taqdim etilgan axborotni yaxshiroq o‘zlashtirishlarini aniqlagan[8].

O‘qituvchilarning metodik ko‘nikmalarini yangilash. O‘qituvchilar uchun innovatsion pedagogika bo‘yicha malaka oshirish kurslari (flipped learning, case-based learning, gamifikatsiya). Laurillard “pedagogikaning raqamli transformatsiyasi o‘qituvchining roli va o‘quv dizaynini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi” [9], deya ta’kidlaydi.

Talabaning passivligi va o‘qituvchining noroziligi, bunda ko‘p o‘qituvchilar talabalarni sust, mas’uliyatsiz, o‘qishga nisbatan loqayd deb hisoblaydi. Aksincha, talabalar esa o‘qituvchini motivatsiyalantira olmaydigan, faqat baho qo‘yishga urg‘u beradigan shaxs sifatida ko‘radi.

Bu muammoni oldini olish yoki yechish uchun quyidagi usullar tavsiya etiladi:

O‘zaro empatiya va kutishlar muvofiqligi (Mutual understanding), ya‘ni Dars boshida kutishlar muhokamasi: semestr avvalida talabalar va o‘qituvchilar bir-biridan nimani kutishini ochiq muhokama qiladi (shu jumladan, darsning uslubi, topshiriqlar, baholash). Talaba va o‘qituvchi kutishlari o‘zaro mos bo‘lsa, o‘qitish sifati sezilarli oshadi[10].

Motivatsion dialog va refleksiv metodlar, har bir moduldan keyin refleksiya mashg‘ulotlari (nima o‘rganildi, nima yoqdi, nima o‘zgartirish kerak) o‘tkazish. O‘qituvchi tomonidan motivatsion hikoyalar, kasbga oid hayotiy real holatlar bilan darslarni boyitiladi. Bu usul orqali o‘qituvchi o‘zini tanqidiy tahlil qilsa va o‘z faoliyatini ochiq muhokama qilsa, talabalar ham mas’uliyatni his qiladi[11].

Rag‘batlantirishni diversifikatsiya qilish, faqat baho emas, balki rag‘batlantirishning boshqa shakllari (og‘zaki maqtov, guruh oldida tan olish, gamifikatsiya orqali belgilar berish). O‘qituvchiga ham faol talabalar tomonidan “eng yaxshi sharh”, “eng foydali maslahat” kabi baholar qo‘yish. Insonlar e’tirof va erkinlik his qilgandagina o‘z faoliyatiga chin yurakdan yondashadi [12].

Texnologiyadan foydalanishda tafovut, o‘qituvchilar yangi texnologiyalarni (onlayn platformalar, simulyatorlar, kodlash muhiti) bilmasligi yoki foydalanishni istamasligi mumkin. Talabalar esa raqamli vositalardan faol foydalanadi va shu orqali o‘rganishni qulayroq deb hisoblaydi. Bu muammo - “raqamli tafovut” (digital divide) deb nomlanadi va ayniqsa muhandislik ta’limida keskin seziladi. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasida texnologiyalarga bo‘lgan munosabat farqi o‘quv jarayonining samaradorligini kamaytiradi. Quyida bu vaziyatga mos ilmiy asosdagi yechimlarni keltiramiz:

O‘qituvchilar uchun raqamli pedagogikani rivojlantirish. Bu haqida Ertmer va Ottenbreit-Leftwich shunday ta’kidlaydi: o‘qituvchilar texnologiyani faqat bilishlari emas, unga bo‘lgan ishonch ham rivojlangan bo‘lishi lozim[13]. Demak o‘qituvchi texnologiyadan nafaqat foydalanish, balki uni didaktik jihatdan o‘rinli qo‘llash bo‘yicha treninglar o‘tkazish. O‘qituvchilar uchun peer-learning (ya’ni, tajribali o‘qituvchilar tomonidan master-klasslar) amaliyoti tashkil etilishi shart.

Blended Learning – aralash ta’lim modelini joriy etish. Blended learning modelini zamonaviy muhandislik ta’limi uchun eng samarali model hisoblanadi [14]. Ma’ruza - an’anaviy formatda, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ishlar – onlayn platformalarda (Google Classroom, Hemis, Moodle, nazmex.jbnuu.uz va h.k.). Bu talabalarning texnologiyaviy imkoniyatlarini inobatga olib, o‘qituvchiga ham asta-sekin moslashish imkonini beradi.

Talabalarni o‘qituvchilarga “raqamli yordamchi” sifatida jalb etish. Bu haqida Bennett shunday deydi, talabalarning raqamli kompetensiyasini muallimlar bilan o‘rtoqlashish - o‘zaro motivatsiyani kuchaytirishini isbotlagan [15]. “Reverse mentoring” – talabalar o‘qituvchilarga texnologiyalarni o‘rgatadi, bu esa ikki tomonlama hurmat va hamkorlikni mustahkamlaydi. Masalan, talabalar simulyator dasturlarini (Ansys, Tinkercad, Code.org, Replit) ko‘rsatib berishi mumkin.

Baholash mezonlari va adolatlilik, talabalar ko‘pincha baholash mezonlari shaffof emasligidan shikoyat qilishadi. O‘qituvchilar esa talabalarning topshiriqlarni sifatli bajarmasligini yoki belgilangan talablarni tushunmasligini muammo deb bilishadi. Bu muammo - baholashdagi shaffoflik va adolatlilik yetishmasligi — butun dunyoda ta’lim sifatiga ta’sir qiladigan asosiy omillardan biridir. Muhandislik ta’limi kabi aniq natijalar talab qilinadigan sohalarda bu masala yanada muhimroq.

Baholash mezonlarini oldindan va aniq e’lon qilish. Har bir topshiriq uchun rubrikalar (baholash jadvallari) tuzish. Rubrikalarda aniq mezonlar: masalan, “Loyiha sifati – 30 ball”, “Innovatsion yondashuv – 20 ball”, “Rasmiylashtirish talablari – 10 ball” kabi bandlar bo‘lishi. Bu haqida Brookhart “baholashda shaffoflik talaba ishonchini oshirib, ta’lim sifatini yaxshilashi”ni ta’kidlaydi[16].

Formativ baholash va oraliq fikr-mulohaza. Yakuniy bahodan oldin oraliq fikr-mulohazalar berish: “Sen loyihani yaxshi boshlading, lekin texnik tavsifni kengaytirishing kerak” kabi. Formativ baholash orqali talaba xatolarini vaqtida ko‘rib chiqadi va tuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Bu

haqida Sadlerning fikricha, “samarali fikr-mulohaza talabani baho olish uchun emas, balki o‘sish uchun o‘qishga undaydi”[17].

Baholashda talabani jalb qilish. Talabalar o‘z baholash mezonlarini ishlab chiqishda (kamida ba’zi bandlar uchun) ishtirok etishlari mumkin. Masalan, “Innovatsiya uchun 10 ball” mezonini talabalarning o‘zlari aniqlab olishadi. Andrade ta’kidlaganidek, “talabani baholash jarayoniga jalb qilish ularni mas’uliyatli va faol o‘quvchilarga aylantiradi”[18].

Motivatsiya va maqsadlardagi farq, ba’zi talabalar muhandislikni tanlashda chin dildan qiziqmagan bo‘lishi mumkin – bu o‘qituvchining motivatsiyasini ham tushiradi. O‘qituvchilar esa o‘zlarini ko‘proq nazoratchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida ko‘rishni istaydi.

Bu muammo eng og‘riqli muammolardan bo‘lib, buni quyidagi usullar yordamida yechish tavsiya etiladi:

Purpose-Driven Learning (maqsadga yo‘naltirilgan o‘qitish), talabaga muhandislik fanining jamiyatdagi rolini va foydasini tushuntirish orqali ichki motivatsiyani shakllantirish. Loyihalarda ijtimoiy foyda keltiradigan real muammolarni hal qilishni tashkil etish[19].

Autonomy and Choice (tanlov erkinligi), talabaga ba’zi topshiriqlarda yo‘l tanlash imkoniyati berish (masalan, loyiha mavzusini tanlash, taqdimot uslubini tanlash). O‘ziga mos yo‘nalish bo‘yicha kichik erkinlik berilishi talabaning o‘z ishiga egalik hissini oshiradi[20].

Mentorlik roli (o‘qituvchining transformatsiyasi), o‘qituvchi o‘zini faqat nazoratchi emas, balki motivator va murabbiy sifatida tutadi. Shaxsiy suhbatlar, maslahatlar va talabani individual o‘sishga yo‘naltirish orqali bog‘lanishni kuchaytiradi[21].

Muhandislik ta’limida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqalar ko‘plab murakkabliklar bilan to‘qnashadi. Bu muammolar faqat shaxsiy emas, balki tizimli va metodik xususiyatga ega.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muammolar - bu faqat kommunikatsiya masalasi emas, balki ta’lim jarayonini loyihalash, metodik yondashuvlar, texnologiyaga munosabat va motivatsiya singari chuqur ildizlarga ega tizimli muammolardir. Bu muammolarni hal etish uchun talaba markazli yondashuv, psixologik xavfsizlik, samarali feedback, innovatsion pedagogika, va raqamli vositalardan foydalanish asosida o‘zaro ishonchli va faol o‘rganish muhiti yaratish zarur.

Muhandislik ta’limida o‘qitiladigan fanlar ta’lim yo‘nalishiga, darajasiga (bakalavr, magistratura) va ixtisoslashuviga qarab farqlanadi. Bizning tadqiqotimizda asosan 60720800 – “Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish” va 60720705 – “Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo‘yicha)”, 60712300 – “Mexanika muhandisligi”, 60540200 – “Amaliy matematika”, 60540300 – “Matematik injiniring (ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalarining umumtexnik kompetentligini rivojlantirish maqsad qilib olingan. Bu yo‘nalishlarga o‘qitiladigan muhandislik fanlari ichida Mexanika (NM, MQ, MMN, MD) kursining “Nazariy mexanika” fani misolida innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish maqsad qilingan.

2. Mamlakatimiz tarixida so‘ngi o‘n yillikda davlat siyosati darajasida o‘qituvchilarga alohida g‘amxo‘rlik va e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-son Qonunining qabul qilinishi ularning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat

himoyasi ostida bo‘lishi bilan birgalikda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘quv dasturlari va davlat ta’lim standartlariga muvofiq sifatli o‘tkazishi, o‘quv mashg‘ulotlari davomida ta’lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko‘rishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi kabi majburiyatlarni ham belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasining Prezident Shavkat Mirziyoyev: - “Biz ustozni otaday ulug‘ deb bilgan, doimo ardoqlagan ma’rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o‘qituvchi, muallim deganda o‘zim uchun eng aziz va hurmatli bo‘lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta’lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan. Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir” deya ta’kidlaydilar. Bu esa respublikadagi barcha ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi-pedagoglar uchun ham faxr, ham, g‘urur va shu qatori yuksak mas’uliyatni anglatadi. Prezidentning “O‘qituvchilar va ziyolilar - uchinchi Renessansning tayanch ustunlari” deya yuksak ishonch berishi o‘qituvchilarni o‘z kasblari ustida ishlab bugungi kun nafasiga mos innovatsion yondashuvlar asosida faoliyat olib brogan holda yangi yangi Beruniylar, Al-Xorazmiylar, Ibn Sinolar, At-Termiziylar, Ulug‘beklar, Alisher Navoiylar yetishtirib chiqarish mas’uliyatini chuqur anglash qiyin emas.

Bugungi kunda fan , ta’lim texnologiyada juda tezlik bilan yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimini joriy etilishi asosida o‘quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta’lim sifatini ta’minlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda o‘quv rejalar, o‘quv fan dasturlari, sillabuslarda, o‘quv adabiyotlarda o‘zgarishlar bo‘lganligi, ayniqsa tizimning auditoriya soatlari kamayib, mustaqil ta’lim soatlarining oshgani o‘qituvchilarning katta hajmga ega mavzularning maqsadga erishish, ya’ni talabalarga tushunarli bo‘lishida innovatsion yondashuvlar asosida intensiv o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashni taqozo etadi. Bunda o‘qituvchi ro‘li an’anaviy (markaziy) holatdan yangicha (talabaga yordamchi) ro‘liga o‘tishiga to‘g‘ri keladi.

3. Muhandislik ta’limini rivojlanishi tizimli yondashuv (ta’lim zanjiri)ning 3-bo‘g‘ini talaba hisoblanadi. Talabaning ro‘li muhandislik-ishlab chiqarish bo‘g‘inlari bilan chambarchas bog‘langan. Talaba oliy ta’lim muassasiga maqsad bilan kiradi. Maqsad kelajakda yetuk muhandis bo‘lish. Ya’ni muhandislik bilimlarini puxta egallab, sohasiga mos ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlarida yetuk mutaxassis bo‘lish va oilasi, vatani uchun xizmat qilish. O‘qituvchilar ham, muhandislik ta’limi olish uchun shart-sharoitlar ham yetarli darajada ta’minlangan, fanni ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘lash tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Bu holatda talabani ro‘li qanday bo‘lishi kerak? degan savolga javob qidiramiz.

Buni tadqiq qilishni xorijiy tajribalarni o‘rganishdan boshlaymiz.

David Edward Goldbergning fikricha talabalar dars jarayonlarida egalik va ishtirok madaniyatini shakllantirdi. Talabalar iste’molchi emas, balki o‘z ta’limining hamkoridir [22]. Bu yondashuv talabaning faolligini oshiradi va uni o‘z ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Professor Emanuela Tilley

muhandislik ta’limi endi faqat an’anaviy bilimlar bilan cheklanmaydi. Bu ko‘proq jarayonlar va talabalar tomonidan bilimlarni qo‘llash haqida deya ta’rif beradi[23]. Bu bilan professor talabaning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Henry Petroski “Fan - bu bilish, muhandislik esa – qilish[24]” deya fikrlaydi. Bu esa muhandislikning amaliyotga asoslanganligini va talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi.

Talaba - o‘zgarishlar uchun katalizator, muhandislik ta’limidagi hissiy o‘zgarish - bu sehrli fikrlash emas. Bu talabalar hayotiga asoslangan ta’lim falsafasiga asoslanadi. To‘g‘ri muhitda bu o‘zgarish talabalar tomonidan tabiiy ravishda yuzaga keladi[22]” deya ta’rif beradi David Edward Goldberg. Bu yondashuv talabaning o‘zgarishlarga moslashuvchanligini va ta’lim jarayonidagi faol rolini ko‘rsatadi.

Rossiya pedagog olimi Y.Pokholkov “Talabalar o‘z ta’lim jarayonining faol ishtirokchilari bo‘lishi kerak. Bu ularning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, ular o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Ularning yangiliklarga ochiqligi va tashabbuskorligi ta’lim tizimini rivojlantiradi[25]” deb o‘z qarashlarini bayon qiladi. N.A.Belelubsky esa talabalarga “Sizlar kelajakda muhandis bo‘lasizlar. Sizlarning vazifangiz — mustahkam va ishonchli inshootlar qurish. Har bir qaroringiz jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglatadi[26]” deb eslatadi. J.Ziyatdinova “Har bir talaba o‘z bilimini doimiy ravishda yangilab borishi kerak. Bu ularning kasbiy rivojlanishining asosi hisoblanadi [27]” deb ta’rif beradi.

Muhandislik ta’limining muvaffaqiyati, birinchi navbatda, uning markazida turgan talabaning faolligiga, mas’uliyatiga va tashabbusiga bog‘liq. Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, talaba endilikda:

Pasiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi, yaratuvchi, ta’lim sherigi bo‘lishi kerak;

Muhandislik bilimlarini nafaqat o‘zlashtiradi, balki ularni real hayotdagi muammolarni hal etishda qo‘llashga o‘rgatiladi;

O‘zgarishlar va yangiliklar uchun ochiq, mustaqil qaror qabul qiluvchi, kreativ fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiriladi;

Ustozlar va muhit tomonidan yo‘naltirilgan holda uzluksiz o‘rganish va rivojlanish jarayonida bo‘ladi;

Muhandislik sohasining ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotdagi mas’uliyatli vakili sifatida tayyorlanadi.

Xullas, bo‘lajak muhandis (talaba) - bu nafaqat bilim oluvchi, balki muhandislik jarayonining faol subyektidir. Uning motivatsiyasi, tashabbusi va amaliy qobiliyatlari muhandislik ta’limining eng muhim natijalaridan biri hisoblanadi.

4. Ushbu tadqiqotimizning to‘rtinchi bo‘g‘ini o‘quv-me’yoriy hujjatlar, moddiy-texnik baza bo‘lib, bu bo‘g‘in o‘qituvchi-ishlab chiqarish, sanoat bo‘g‘inlari bilan chambarchas bog‘langan.

Prezident Shavakat Mirziyoyevning “Oliy ta’lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtiriladi, ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqiladi. Mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartiriladi ” degan tashabbuslari bugun o‘z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda barcha istiqbolli islohotlar kabi ta’lim tizimida islohotlar ketmoqda. Hukumatimiz tomonidan davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, malaka talablari, namunaviy (tayanch) o‘quv reja va o‘quv dasturlarini belgilangan tartibda ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini

ta’minlash bo‘yicha va kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash vazifalari ta’lim jarayonlaridagi o‘qitish usullari va texnologiyalarini ham isloh qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024-2025 o‘quv yilidan respublikamizdagi mavjud ta’lim turlari YUNESKOning “Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi” darajalari bilan muvofiqlashtirilish asnosida o‘quv-me’yoriy hujjatlarda sezilarli darajada o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bu tashabbuslar bugun kunimizda o‘z aksini topgan. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida fanlar sonining ko‘pligi, kasbiga doir bo‘lmagan darslarning o‘tilishi ixtisoslashuv, ta’lim sifat va samaradorligini ta’minlashga ancha salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda edi. Nomutaxassislik fanlari ulushi kamaytirilishida ish beruvchi, kadr buyurtmachisining talabi asosiy mezon bo‘ladi. Muayyan yo‘nalishga tayyorlayotgan kadr nimani bilishi kerak? Ish beruvchi undan nimani kutyapti? Mutaxassisda amaliyotda zarur kompetentsiya shakllanishi uchun unga qaysi fanlarni o‘qitish kerak? O‘qitiladigan va qisqartiradigan fanlar mana shu savollar javobidan kelib chiqib belgilanadi[28]. Bundan tashqari fanlarning auditoriya va mustaqil ta’lim soatlarida va o‘quv va malakaviy amaliyot soatlarida ham sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. Birgina tadqiqotmiz obekti sifatida olingan Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish yo‘nalishining 2018-2023 o‘quv yillari o‘quv rejasini tahlil qilganimizda (3-jadval), yo‘nalishga o‘tiladigan umumtexnika fanlaridan Nazariy mexanika fani misolida buni kuzatishimiz mumkin.

№	O‘quv yili	Ma’ruza	Amaliy	Laboratoriya	Mustaqil ish	Umumiy soat
1	**2019-2020**	36	36	0	48	120
2	**2020-2021**	30	30	0	90	150
3	**2021-2022**	30	30	0	60	120
4	**2022-2023**	30	30	0	90	150
5	**2023-2024**	30	30	0	120	180
6	**2024-2025**	30	30	0	120	180

3-jadval. Nazariy mexanika fanini yillar kesimida soatlar statistikasi.

Yuqoridagi tahlildan qarab, 2020-2021-o‘quv yiliga qadar auditoriya soatlari (60%) mustaqil ta’lim soatlari(40%) dan yuqori. Bunda fanning mazmuni ko‘proq o‘qituvchi tomonidan yoritilgan. Talaba mustaqil o‘rganishi uchun kamroq vaqt ajratilgan. 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab auditoriya soatlari (30-50%) mustaqil ta’lim soatlari (50-70%)dan kamligi ko‘rinib turibdi.

Yuqoridagi holatlar barcha yo‘nalishlar o‘quv rejalarida mavjud holat hisoblanadi. Bu esa professor-o‘qituvchilar faoliyatiga ham ta’sir qildi. Ya’ni fan o‘qituvchisi tomonidan ko‘proq vaqt sarflab o‘tilgan mavzuni, qisqa vaqt ichida qanday qilib talabalarga yetkazish, ular ongiga singdirish masalalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quv samaradorligini oshirish uchun barcha pedagoglardan yangi yondashuvlar asosida darslarni tashkil etishni, o‘quv adabiyotlarini, o‘qitish usullari va texnologiyalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Bu maummoga yechim sifatida

quyidagilarni taklif qilamiz:

Dual ta’lim, amaliy loyihalar va sanoat mentorligi. Dual ta’lim (masalan, Germaniyada) talaba haftaning bir qismini o‘qishda, bir qismini esa ishlab chiqarish korxonasida o‘tkazadi. CDIO (muhandislik ta’limi uchun mo‘ljallangan zamonaviy yondashuv bo‘lib, talabalarni amaliy, tizimli va muammoga yo‘naltirilgan fikrlash asosida tayyorlashga qaratilgan model) modeli asosida real sanoat muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan kurslar joriy qilinadi. Mentorlik tizimi orqali talabaga sanoat vakillari yo‘l ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq real loyihalarda ishtirok etgan talabalar nafaqat texnik, balki ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi[29].

Soft-skills (yumshoq ko‘nikmalar) yetishmovchiligi. Muhandislik talabasi texnik bilimga ega bo‘lishi mumkin, ammo real ishlab chiqarishda jamoaviy ish, muomala, muammoni hal qilish, rahbarlik, va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalar ham zarur. O‘quv dasturlarida bu jihatlar ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi.

Bu masalaga quyidagi yo‘llar orqali yechim qilish mumkin:

Soft-skillsni o‘qitishga yo‘naltirilgan kurslar va faol metodikalar. “Professional ko‘nikmalar”, “Texnik kommunikatsiya”, “Jamoada ishlash asoslari” kabi kurslar kiritilishi. Muammoga asoslangan o‘qitish (PBL), rolli o‘yinlar, case study va interaktiv seminarlar orqali soft-skillsni amalda shakllantirish. Muhandis kadrlar nafaqat texnik, balki ijtimoiy kompetensiyalar bo‘yicha ham rivojlanishi kerak, chunki ishlab chiqarish jamoaviy harakatlar maydonidir [30].

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut. Ko‘plab talabalar darsda o‘rganayotgan bilimlarni real ish sharoitida qanday qo‘llashni tushunmaydilar. Bu ularda befarqlik yoki bilimga nisbatan ishonchsizlik hissini paydo qiladi.

Real muammolar asosida o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish. O‘quv materiallarini real sanoat loyihalariga integratsiya qilish, ishlab chiqarishdagi murakkab vazifalarga mos laboratoriya tajribalari, korxona vakillarini darslarga jalb etish kabi yechimlarni qilish mumkin. Amaliyotdan uzilgan nazariya talabaning qiziqishini so‘ndiradi, u o‘z bilimining foydasiga shubha bilan qaray boshlaydi [31].

Demak, muhandislik-ta’lim tizimi talabaning ishlab chiqarish bilan bevosita integratsiyasini ta’minlash orqali real hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishi zarur. Bunga dual ta’lim, CDIO yondashuvi, mentorlik, va soft-skills kurslari orqali erishish mumkin. Amaliyot bilan uyg‘unlashgan, muammo yechishga yo‘naltirilgan ta’lim uslublari talabani kelajakda ishga tayyor, mustaqil va malakali mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Ushbu tadqiqotimizning beshinchi bo‘g‘ini ishlab chiqarish, sanoat bo‘lib, bu bo‘g‘in o‘quv-me’yoriy hujjatlar, moddiy-texnik baza - talaba bo‘g‘inlari bilan chambarchas bog‘langan.

Bugungi kunda hayotimizning qaysi jabhasiga qaramaylik, yangi-yangi texnologiyalarga ko‘zimiz tushadi. Ular albatta qaysidir zavod, fabrika yoki ishlab chiqarish tarmog‘idan chiqarilgan.

Tadqiqotimizdagi bu bo‘g‘inning vazifasi sifatida talaba o‘quv jarayonida o‘rgangan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish muammolari qaraladi. Ya’ni, fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyasini samarali tashkil etish muammolari qarab o‘tiladi va xulosa beriladi.

O‘quv jarayonini qanday usullar orqali ishlab chiqarishga bog‘lash mumkin degan savol tug‘ilishi tabiiy holat. Bizning tadqiqotimizda xuddi shu masalalarga yechim qidiriladi. Ya’ni fanni o‘qitishda

ishlab chiqarish muhitini, ya’ni undagi jamoaviy ishlash, uskuna va dastgohlarni ishlash prinsiplari va ular haqida ma’lumotlar haqida talabalarga intensiv o‘qitish usul va texnologiyalar orqali o‘rgatiladi.

Ushbu muammolarga quyidagicha ta’rif va yechimlar berish mumkin.

Ishlab chiqarish bo‘g‘inining o‘quv jarayonidan ajralganligi. Ishlab chiqarish (sanoat) sohasidagi texnologik rivojlanish tez sur’atlarda kechmoqda. Ammo ko‘plab oliy ta’lim muassasalari o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtira olmayapti. Moddiy-texnik baza esa ko‘pincha zamonaviy korxonalarning real holatidan ancha orqada. Bu esa talaba va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni susaytiradi.

O‘quv jarayonini ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirish yechimi.

O‘quv-me’yoriy hujjatlarni sanoat bilan hamkorlikda ishlab chiqish. Ishlab chiqarish muammolarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish. Moddiy-texnik bazani yangilash, zamonaviy uskunalar, raqamli texnologiyalar, VR/AR asosidagi simulyatorlar bilan boyitish. Talabalarni real sanoat loyihalariga jalb etish, ishbilarmonlik muhitida faoliyat yuritishga tayyorlash. Ishlab chiqarish sektoridagi o‘zgarishlar ta’lim tizimi bilan hamohang bo‘lmasa, bitiruvchilar sanoat ehtiyojlarini qondira olmaydi [32].

Ishlab chiqarish bo‘g‘inining ta’limdagi o‘rni. Muhandislik ta’limi tizimi uchun ishlab chiqarish bo‘g‘ini faqat ish joyi emas - bu bo‘g‘in kompetensiyalarni shakllantiruvchi real muhit sifatida qaralishi lozim. Hozirgi paytda o‘quv-me’yoriy hujjatlar (fan dasturlari, fanlar modul tarkibi) sanoatga nisbatan nazariy va statik qolmoqda. Moddiy-texnik baza ishlab chiqarishdagi real texnologiyalardan ortda qolgan. Talabalar sanoatga chiqquncha kasbiy muhitni tushunmaydi, bu esa o‘rganilgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Integrallashgan, innovatsion va moslashuvchan muhandislik ta’lim tizimini shakllantirish orqali muhandislik ta’limida aniqlangan muammolarga qarshi kurashish uchun yechimlar alohida-alohida emas, balki integrallashgan yondashuv orqali amalga oshirilishi lozim. Bu muammolarga quyidagicha strategik kompleks yechimlarni tavsiya qilamiz:

Tizimli integratsiya: Ta’lim – sanoat – talaba. Dual ta’lim modeli. Nazariy bilim va amaliyot uyg‘unlashgan ta’lim modeli asosida talabaning ishchi muhit bilan bevosita aloqasi ta’minlanadi. Sanoat bilan hamkorlikdagi dasturlar. O‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqarish korxonalari bilan birgalikda tuzish. Mentorlik va tajriba almashinuvi. Sanoatdagi mutaxassislar o‘qituvchilik jarayoniga jalb qilinadi.

Texnologik yangilanish: Raqamli muhitni ta’limga integratsiya qilish. O‘qituvchilar uchun raqamli pedagogika bo‘yicha muntazam malaka oshirish, AR/VR, simulyatorlar, kodlash muhitlari va onlayn laboratoriyalarni o‘quv jarayoniga kiritish, LMS (Learning Management System) orqali interaktiv va moslashuvchan ta’limni tashkil etish.

Pedagogik yondashuvni o‘zgartirish, ya’ni faol va talaba markazli ta’lim muhitini tashkil qilish. PBL (Problem-Based Learning), Case Study, Flipped Classroom, Peer Learning kabi metodlarni keng joriy etish. Interaktiv, vizual, tajribaga asoslangan o‘quv resurslarini ishlab chiqish, baholash tizimini aniq mezonlar va shaffoflik asosida takomillashtirish.

Kommunikatsiya va motivatsiyani kuchaytirish. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasida ochiq, ikki tomonlama muloqot madaniyatini shakllantirish, o‘qituvchiga faqat nazoratchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi mentor

sifatida qarashni rivojlantirish, motivatsion mexanizmlar: talaba yutuqlarini tan olish, faol ishtirokini baholash.

Soft-skills va muammoli vaziyatlarda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish. Har bir fan doirasida ijodiy, tanqidiy fikrlash, yetakchilik, muloqot, jamoaviy ish ko‘nikmalariga alohida e’tibor berish, soft-skillsni rivojlantirish bo‘yicha maxsus modullar va loyihaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali erishish mumkin.

Muhandislik ta’limini zamon talablari va sanoat ehtiyojlariga moslashtirish uchun ta’lim jarayoni moslashuvchan, integratsiyalashgan va innovatsion bo‘lishi kerak. Talaba – o‘qituvchi – sanoat o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf qilishning yagona yo‘li bu – ularning hamkorlikdagi ishtirokini ta’minlash va amaliy kompetensiyalarga asoslangan ta’limni yo‘lga qo‘yishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bok, D., Fairweather, J. S., & Fincher, C. (2013). Higher education in the 21st century: Global challenges and innovative ideas. Routledge.
2. Felder, R. M., & Brent, R. (2016). Teaching and learning STEM: A practical guide. Jossey-Bass.
3. Schulz, B., Geithner, S., & Schmitz, B. (2008). The role of motivation in learning environments: A study of German and international students. International Journal of Teaching and Learning in Higher Education, 20(1), 45–57.
4. Meyer, J. H. F., & Land, R. (2006). Overcoming barriers to student understanding: Threshold concepts and troublesome knowledge. Routledge.
5. Edmondson, A. (1999). Psychological safety and learning behavior in work teams. Administrative Science Quarterly, 44(2), 350–383. https://doi.org/10.2307/2666999
6. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81–112. https://doi.org/10.3102/003465430298487
7. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. Journal of Engineering Education, 93(3), 223–231. https://doi.org/10.1002/j.2168-9830.2004.tb00809.x
8. Fleming, N. D., & Baume, D. (2006). Learning styles again: VARKing up the right tree!. Educational Developments, 7(4), 4–7.
9. Laurillard, D. (2012). Teaching as a design science: Building pedagogical patterns for learning and technology. Routledge.
10. Seidel, T., & Shavelson, R. J. (2007). Teaching effectiveness research in the past decade: The role of theory and research design in disentangling meta-analysis results. Review of Educational Research, 77(4), 454–499. https://doi.org/10.3102/0034654307310317
11. Brookfield, S. D. (1995). Becoming a critically reflective teacher. Jossey-Bass.
12. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68–78. https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68
13. Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. T. (2010). Teacher technology change: How knowledge, confidence, beliefs, and culture intersect. Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 255–284. https://doi.org/10.1080/15391523.2010.10782551
14. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. Jossey-Bass.
15. Bennett, S., Maton, K., & Kervin, L. (2008). The ‘digital natives’ debate: A critical review of the evidence. British Journal of Educational Technology, 39(5), 775–786. https://doi.org/10.1111/j.1467-8535.2007.00793.x
16. Brookhart, S. M. (2013). How to create and use rubrics for formative assessment and grading. ASCD.
17. Sadler, D. R. (1989). Formative assessment and the design of instructional systems. Instructional Science, 18(2), 119–144. https://doi.org/10.1007/BF00117714
18. Andrade, H. (2010). Students as the definitive source of formative assessment: Academic self-assessment and the self-regulation of learning. In H. L. Andrade & G. J. Cizek (Eds.), Handbook of formative assessment (pp. 90–105). Routledge.
19. Dweck, C. S. (2006). Mindset: The new psychology of success. Random House.
20. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. Springer Science & Business Media.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

USMONOVA ODINAXON SOBIROVNA
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish metodikasi chuqur o‘rganilgan. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, bu jarayon orqali o‘quvchilarda tabiat va jamiyat hodisalariga ongli yondashuv, mantiqiy fikrlash va tahliliy qarashlar shakllanadi. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, fanlararo integratsiya, loyihaviy va tajribaga asoslangan o‘qitish metodlari tahlil qilinib, ularning samaradorligi amaliy misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Ilmiy dunyoqarashning erta yoshdanoq shakllanishi o‘quvchilarda tabiiy va ijtimoiy hodisalarga ongli munosabatni shakllantirish, mustaqil fikrlash, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: ilmiy dunyoqarash, boshlang‘ich ta’lim, metodika, tajriba asosidagi ta’lim, fanlararo yondashuv, loyiha metodi

Аннотация: В данной статье глубоко изучена методика развития научного мировоззрения у учащихся начальных классов. Формирование научного мировоззрения является важной составной частью учебно-воспитательного процесса, поскольку именно в этом процессе у учащихся формируется сознательное отношение к явлениям природы и общества, логическое мышление и аналитическое восприятие. В ходе исследования проанализированы современные педагогические технологии, межпредметная интеграция, проектные и опытно-экспериментальные методы обучения, а также на практических примерах показана их эффективность.Формирование научного мировоззрения с раннего возраста является важным фактором в развитии у учащихся осознанного отношения к природным и социальным явлениям, а также навыков самостоятельного мышления, наблюдения и анализа.

Ключевые слова: научное мировоззрение, начальное образование, методика, обучение на основе опыта, межпредметный подход, проектный метод

Kirish

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi – bu nafaqat bilim berish, balki o‘quvchining dunyoqarashini, shaxsiy fazilatlarini shakllantirishning ham muhim davridir. Aynan shu bosqichda o‘quvchining atrof-muhitga, tabiiy va ijtimoiy hodisalarga bo‘lgan qiziqishi shakllana boshlaydi. Ilmiy dunyoqarash esa – bu faqatgina bilimlar majmui emas, balki ularning hayotdagi o‘rnini anglash, ilmiy metod orqali dunyoni tushunish demakdir. Zamonaviy ta’lim tizimida ta’lim mazmunini yangilash, o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, innovatsion yondashuvlar orqali ularda tahlil, kuzatish, tajriba o‘tkazish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Ilmiy dunyoqarash inson tafakkuri, bilim olishi va uni ongli ravishda tushunishining asosi hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda bu tushuncha hali shakllanish jarayonida bo‘lib, o‘quvchilar real hayotdagi hodisalarni idrok qilish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, savol berish va javob izlash orqali rivojlanadi. Shu bois, boshlang‘ich ta’limda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodikalarga ehtiyoj ortib

bormoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni faoliyatga jalb qilish, kuzatish va eksperimentlar orqali bilim olishga yo‘naltirish dolzarb masala hisoblanadi.

Metodlar

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik vositalar chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat: Ushbu tadqiqotda sifatli metodlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga doir quyidagi metodik usullar tahlil qilindi:

• Tajriba asosidagi o‘qitish: O‘quvchilar mustaqil ravishda kuzatish, savollar berish va tajriba o‘tkazish orqali xulosalar chiqaradilar.

• Fanlararo integratsiya: Tabiiy fanlar, texnologiya va matematika fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida o‘quvchilarda to‘liq va uzviy bilimlar tizimi shakllantiriladi.

• Loyiha asosida o‘qitish: O‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali real hayotdagi muammolarni hal qilishga urinib, o‘z ilmiy qarashlarini ifodalashadi.

• Didaktik o‘yinlar va vizual materiallar: Diagramma, model va rasmli materiallardan foydalangan holda murakkab tushunchalar soddalashtiriladi.

Umumta’lim maktabining 2–3-sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan dars kuzatuvlari, intervyular va sinov-darslar orqali amalga oshiriladi..

Ma’lumot to‘plash usullari

• Kuzatuvlar – dars jarayonlarining real va video shakldagi tahlili

• So‘rovnomalar – o‘quvchilar va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari

• Sinov-tajriba ishlari – tajriba va loyiha asosidagi darslar tashkil qilinadi

• Intervyular – O‘qituvchi bilan yarim tuzilgan suhbatlar olib boriladi

Amalga oshirilgan metodik yondashuvlar

• Fanlararo integratsiya – tabiatshunoslik, texnologiya, matematika fanlarining o‘zaro bog‘lanishi orqali bilimlar bir butunlikda berildi.

• Tajriba asosidagi ta’lim (IBL) – “savol-javob → kuzatish → tajriba → tahlil” ketma-ketligi asosida darslar tashkil etildi.

• Loyiha asosidagi ta’lim – o‘quvchilarga ekologik, texnologik, ijtimoiy mavzularda mini-loyihalar yaratish topshirildi.

• Vizual vositalar – modellar, grafiklar, diagrammalar, interaktiv taqdimotlar faol qo‘llanildi.

Natijalar va tahlil

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

• O‘quvchilarning 80% dan ortig‘i tajriba asosidagi darslardan keyin hodisalarning sabab-oqibat munosabatlarini tushuntirishga harakat qilgan.

• Fanlararo bog‘lanish asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasi oshgan, savol berish va tahlil qilish faolligi ikki baravarga ortgan.

• Loyiha ishlarida qatnashgan o‘quvchilar ilmiy izlanish va mulohaza yuritish ko‘nikmasini shakllantirgan.

Shuningdek, vizual vositalar va tajribalar o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantirishda samarali bo‘lgani aniqlandi. Darslarni faollashtiruvchi metodlar (rolli o‘yinlar, muammoli savollar, kuzatish topshiriqlari) orqali o‘quvchilar hayotiy voqealarni ilmiy asosda tushunishga harakat qilgan. So‘rovnomada qatnashgan o‘qituvchilarning 83% tajriba asosidagi darslar o‘quvchilar faolligini oshirishini, 92% fanlararo yondashuvlar bilimlarni uzviylashtirishga xizmat qilishini ta’kidladilar. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy o‘qitish metodlariga nisbatan interaktiv, tajribaviy va integratsiyalashgan metodlar o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ancha samaralidir. Ayniqsa, loyiha asosidagi o‘qitish

o‘quvchilarni real muammolarni hal qilishga jalb etadi, bu esa ular uchun o‘z-o‘zini anglash va o‘z fikrini ifoda etish imkonini yaratadi (Bruner, 1966).

Xulosa

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ularning kelajakdagi shaxsiy va akademik rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagilar muhim omillar hisoblanadi:

• Fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish orqali bilimlar uzviyligini ta’minlash

• Tajriba asosidagi, faol o‘rgatishga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish

• Vizual va amaliy materiallar bilan boyitilgan darslarni tashkil etish

• O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish

Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish bo‘yicha metodik tizimni yanada takomillashtirish, o‘quvchilarni yoshligidan savol berishga va o‘rganishga qaratilgan faol pozitsiyaga o‘rgatish muhim hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o‘quvchilarning kelajakdagi ilmiy faoliyatlari uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ta’lim jarayoniga tajriba, kuzatish, loyiha asosidagi yondashuvlar va fanlararo integratsiyani joriy qilish o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kelgusida bu boradagi metodik ishlarni chuqurlashtirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va didaktik resurslar bilan ta’minlash zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bruner, J. (1966). Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press.
2. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
3. National Research Council. (2000). Inquiry and the National Science Education Standards. Washington, DC: National Academy Press.
4. Sultonova, M. (2023). “Boshlang‘ich sinfda ilmiy tafakkurni shakllantirish metodlari”. Ta’lim va Innovatsiyalar jurnali, 5(1), 112–120.
5. Karimova, M. (2021). Ilmiy dunyoqarash va uni shakllantirish metodlari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
6. Saidova, N. (2022). “Fanlararo integratsiya orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimlarini chuqurlashtirish”. Pedagogika va psixologiya jurnali, 4(2), 87–92.

МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИ ШАРОИТИДА БОЛАЛАРНИНГ ҲАРАКАТ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

ЯДГАРОВ БАХОДИР ЖУМАТОВИЧ
Абу Райхон Беруний номидаги Урганч давлат Унверситети Спорт ўйинлари кафедраси профессори
РУЗМЕТОВА ЗУЛХУМОР ҚОВУЛЯЗ ҚИЗИ
Спорт фаолияти,педагогика ва психалогия факултети магистранти

Аннотация. Мактабгача ёшдаги болаларнинг жисмоний ва руҳий сифатларини такомиллаштиришнинг ёшга хос хусусиятлари аниқланган, уларнинг комплекс ривожланиш технологияси ҳамда мактабгача таълим муассасаси шароитидаги қўлланилиши назарий ва тажрибавий жиҳатдан асослаб берилган. Мактабгача ёшдаги болаларнинг жисмоний ва психик сифатларини комплекс ривожлантириш технологияси ишлаб чиқилган ва уни босқичма-босқич ривожлантириш бўйича берилган тавсияларнинг самарадорлиги тасдиқланган. Жисмоний ва психик сифатларни комплекс ривожлантириш технологияси нафақат мактабгача ёшдаги болаларнинг жисмоний тарбияси жараёнида, балки бошқа ёш гуруҳлари учун ҳам қўлланилиши мумкин. Ишлаб чиқилган технология мактабгача ёшдаги болаларда жисмоний сифатлар ва психик жараёнларнинг ривожланишини жадаллаштиришга имкон берди.

Калит сўзлар: ҳаракатли ўйинлар, жисмоний тарбия жараёни, психик жараёнлар, жисмоний тарбия воситалари, жисмоний сифатлар, педагогик лойиҳалаш, болаларнинг ҳаракат фаолиятлари , мактабгача тарбия муассасалари, жисмоний тарбия дастурлари, юкламалар, нерв, ҳаяжон, ташҳис

Мактабгача ёшдаги болаларни жисмоний ривожлантириш муаммоларини ҳал этишнинг янги йўлларини излаш, биринчидан, кўрсатилган зиддиятларни ҳал этиш зарурати билан, иккинчидан, ўсиб келаётган ёш авлоднинг жисмоний тайёргарлиги ҳамда психик ривожи жараёнини такомиллаштириш қонуниятларини, методологик ва усулий шароитларини ўрганиш зарурати билан боғлиқ.

Илк гўдакликнинг жиддий хусусияти боланинг саломатлиги, жисмоний ва асабий-психик ривожланиш ҳолатининг ўзаро алоқаси ва бир-бирига боғлиқлигидир. Соғлом, жисмонан бақувват бола касалликларга камроқ чалиниш билан бирга психик жиҳатдан ҳам яхшироқ ривожланади .

Мактабгача ёшдаги болаларни жисмонан ва руҳан соғломлаштириш, боланинг ҳаракат соҳасини ривожлантириш, чаққон, кучли, жасур бўлишдек ҳаётий эҳтиёжлар асосида ҳаракатга бўлган қизиқишини кучайтиришнинг самарали воситаларини излаб топиш долзарб масала ҳисобланади. Мазкур муаммонинг ечими, бизнингча, яхлит тарбия жараёнини, боланинг ҳар бир томонлама мутаносиб, жумладан, жисмоний ва шахсий ривожини таъминловчи ижтимоий-педагогик шароитлар бирлигини яратишда. Бунда болаларнинг ҳаракат фаолиятини ташкил этишнинг ўйин шакллари энг қимматли саналади.

Мактабгача ёшдаги болаларда жисмоний сифатлар ва психик жараёнларни ривожлантиришнинг ёшга боғлиқ хусусиятлари ҳамда динамикасини аниқлаш, Мактабгача ёшдаги болалар жисмоний ва психик тайёргарлиги кўрсаткичларининг ўзаро боғлиқлигидаги ўзига хос хусусиятларни аниқлаш, мактабгача ёшдаги бола-

ларнинг жисмоний ва психик тайёрлигини мақсадли ривожлантириш техналогиясини ишлаб чиқиш, тажрибалар орқали асослашдан иборат.

Таниқли психологлар А.С.Виготский, А.В.Запорожец, А.Н.Леонтьев , Д.Б.Эльконин таърифича, мактабгача ёшда ўйин етакчи фаолият бўлиб, у туфайли бола психикасида катта ўзгаришлар юз беради. Ҳаракатли ўйин мактабгача ёшдаги бола учун энг қулай фаолият шакли бўлиб, ҳаракатлар кўникмасини онгли равишда такрорлашни кўзда тутади А.В. Запорожец,. Кўпгина тадқиқотчилар: В.Г. Барабаш (1999), О.И. Кокорева (1997), Т.И. Осокина , Н.В. Полтавцева , Е.А. Сагадачная , Э.Я. Степаненкова ҳаракатли ўйин туфайли болалар табиий ҳаракат фаоллиги шароитида ўз жисмоний ва психик имкониятларини намойиш этиб, тенгдошлари билан мураккаб муносабатларга киришишларини қайд этадилар.

Соғлом болани тарбиялашда энг муҳим воситалардан бири жисмоний машқлар, ҳаракатли ўйинлар ва спорт кўнгил очар ўйинлари саналади. Болалар билан жисмоний машқларни бажарганда уларнинг саломатлигини кузатиб бориш, ташқи кўринишига, кайфиятига, чарчаши, иштаҳаси, уйқусига эътибор бериш жуда муҳим. Ҳар бир ҳатто мутлақо соғлом бола ҳам йилда 2-3 марта тиббий кўрикдан ўтказилгани маъқул. Бунда боланинг бўйи, оғирлиги, кўкрак қафасининг айланаси кўрсаткичларини ёзиб бориш тавсия этилади, бу унинг тўғри ривожланишини кузатиб бориш имконини беради .

Шартли равишда болалик қуйидаги даврлардан иборат, деб қабул қилинган.

Янги туғилганлик (чақалоқлик) даври - ҳаётнинг дастлабки 3-4 ҳафтаси. Бола янги шароитга мослашади (у ўпкаси билан нафас олади, овқат ҳазм қилиш тизими ишлай бошлайди, танада иссиқлик бошқаруви йўлга қўйилади); унинг асаб тизими ҳали етилмаган - бош мия пўстлоғининг такомиллашмаганлиги туфайли фақат шартсиз рефлекслар намоён бўлади.

Эмиш даври - бир ёшгача бўлган давр. Марказий асаб тизими фаолияти такомиллаша бошлайди; шартли рефлекслар ишга тушади, ҳаракатлар шаклланади, бўй ва оғирлик тез орта боради.

Мактабгача ёшдан олдинги давр - 1 ёшдан 3 ёшгача. Бўй ўсиши бир оз секинлашади, ҳаракат кўникмалари такомиллашади; нутқ шаклланади; бола айрим гигиеник кўникмаларни эгаллайди.

Мактабгача бўлган давр - 3 дан 7 ёшгача. Ундан аввалги даврдаги каби у бўй ўсишининг бир оз секинлашуви билан тавсифланади. Бола ортиқча оғирликни йўқотади, унинг мушаклари мустаҳкамланиб, скелети кучли ривожланади. Мактабгача давр охирига келиб сут тишларининг алмашиниши бошланади. Бола катталар ейдиган овқатга ўтади, касал-ликларга тез чалинмайдиган бўлади .

Болалар ва ўсмирлар ҳаракат фаоллиги сифат жиҳатларини риво-жлантиришнинг физиологик омиллари мушаклар ҳамда вегетатив орган-лар фаолиятининг бошқарилишини такомиллаштиришда намоён бўлади. Қисқа муддатли, тезкорлик ва куч ҳаракатларида асаб-мушак тизими фао-лияти бошқарувини яхшилашга кўпроқ аҳамият берилади. Бирмунча узоқ муддатли фаолиятда ҳаракат функцияларини такомиллаштириш билан бирга вегетатив функцияларни мувофиқлаштириш ҳам жиддий аҳамият касб этади.

Бироқ болалар ва ўсмирлар организмининг куч, тезлик ва чидамлилик кўрсаткичлари яхшиланишини белгилайдиган функциялари-нинг физиологик бошқарилишини яхшилашда энг муҳим ўринни асаб ти-зими, айниқса, мушак зўриқишларида организмнинг функциялари яхши-ла-

нишини таъминловчи алоқаларнинг шаклланиши эгаллайди .

Боланинг асосий жисмоний сифатларини ривожлантиришнинг ёш динамикаси В.С.Фарфель, Ф.Г.Казарян, Л.В.Карманова, Н.А.Фомин, В.П.Филин ва бошқаларнинг ишларида очиб берилган.

Олимлар фикрича, бола ҳаётининг олтинчи йили кучни Г.М.Касаткина, В.Н. Новохатько , жумладан, тезлик-куч қобилиятлари ҳамда ҳаракатлар тезкорлигини Н.А.Ноткина тарбиялашнинг сенситив даври ҳисобланади.

Т.Ю.Логвинанинг фикрича, 5-6 ёшли болаларда куч, чидамлилик, эгилувчанлик, маконда мўлжал олиш каби сифатлар энг кучли намоён бўлади, асосан ўғил болаларда ушбу кўрсаткичлар қизларга нисбатан юқорироқ.

Етти ёшда мунтазам машғулотларда ҳаракат координацияси етакчи сифат бўлиб қолади А.И.Козлов Л.И.Пензуллаева, Г.М.Касаткина .

В.М.Зуев тадқиқотларида қўлга киритган маълумотлар муаллифга мактабгача бўлган давр турли жинсли болаларда асосий ўлчамлари бўйи-ча ҳаракатлар аниқлигининг нотекис ва ҳар хил муддатли ривожланиши билан тавсифланиши ҳақида хулоса чиқариш имконини беради. Тажриба қизларнинг беш ва олти ёшларда, ўғил болаларнинг эса етти ёшга келиб маконда аниқ ҳаракатланишга оид топшириқларни бажаришда устунроқ эканлигини кўрсатди. Беш ва олти ёшга ўтган ўғил болаларда ҳаракатнинг вақт ўлчамини такрорлаш аниқлиги қиз болаларникига нисбатан юқори-роқ, етти ёшли ўғил болалар эса тенгдош қизларга нисбатан топшириқни ёмонроқ уддаладилар.

Қизларнинг барча ёш гуруҳларида ҳаракатнинг динамик хусусия-тини такрорлаш аниқлиги ўғил болалардагига караганда юқорироқ.

Мактабгача бўлган даврда жисмоний сифатларнинг ривожланиш динамикасига хос жинсий тафовутларни қайд этар эканлар, олимлар маз-кур тафовутларнинг катталиклари ҳамда ишончлилиги хусусидаги савол-га узил-кесил жавоб бермайдилар.

Кўпгина муаллифлар мактабгача ёшдаги болаларда алоҳида ҳара-кат сифатларининг намоён бўлиш даражасида муайян ритм мавжудлигини аниқлаганлар. Ҳаракатларнинг энг юқори даражадаги мувофиқлиги кун-дуз куни кузатилган.

Катта мактабгача ёшдаги болаларда чидамлиликни тарбиялашда жисмоний юкламаларнинг тузилишини татбиқ этар экан, И.Г.Мальцева олти ёшда бир томондан чидамлилик билан жисмоний ишчанлик қобили-яти орасида, иккинчи томондан тезкорлик, тезлик-куч сифатлари ва чаққонлик орасида боғлиқлик ҳамда ўзаро бир-бирини тақозо этиш муно-сабатлари мавжуд эканлигини, улар кўп ҳолларда жуда аҳамиятли экан-лигини аниқлади.

Мактабгача ёшдаги болалар жисмоний тарбияси бўйича турли адабиётларда болаларнинг жисмоний ва ҳаракат тайёргарлиги жараёни мазмуни бир хил талқин этилмайди.

Мактабгача даврда бола анчагина тажриба орттиради, у мун-тазам равишда бойиб боради: билимлар, тасаввурлар, дастлабки тушун-чалар тўпланади, кўникма ва малакалар ўзлаштирилади. Боланинг кейин-ги ақлий ривожланишида образли хотира катта аҳамиятга эга бўлиб, у ай-нан мактабгача даврда айниқса шиддат билан бойиб боради. Тасаввурлар ёки илгари идрок этилган предметларнинг сақлаб қолинган образлари мактабгача ёшдаги бола хотирасининг асосий мазмунини ташкил этади .

Мактабгача тарбияни инсонпарварлаштириш уни янгилаш жараёнининг асоси ҳисобланади. Олимлар, амалиётчи

мутахассисларнинг тобора кўпроқ қисми мактабгача ёшдаги болаларни жисмоний тарбиялаш тизими шахсга мажмуали, инсоний таъсир ўтказиши, ҳар бир боланинг мунтазам ва имкон қадар тўла жисмоний ривожланиш ҳуқуқи амалга оширилишини таъминлаши керак, деган хулосага келмоқдалар.

Хулосалар. Ҳозирги замон босқичида мактабгача ёшдаги болаларни жисмоний тарбиялаш жараёнини такомиллаштиришнинг энг муҳим ил-мий-назарий асослари қуйидагилардир:

- бугунги кунда Хоразм вилоятининг ўзига хос иқлимий ва экологик хусусиятлари билан боғлиқ шароитда юзага келган мактабгача ёшдаги болалар жисмоний тайёргарлиги ҳамда психик ривожланишининг ҳақиқий (мавжуд) ҳолати билан жисмоний тарбиянинг расмий ҳужжатларда ифодалаб берилган мақсадлари орасидаги зиддиятлар.

Болалар жисмоний ривожланиши қонуниятларини, уларнинг морфо-логик функционал хусусиятларини, жисмоний сифатлар ва психик жара-ёнларни ривожлантиришнинг ёшга боғлиқ жиҳатларини очиб беради. Адабиётларда мактабгача ёшдаги болаларни жисмоний тарбиялаш бўйича етарли миқдордаги услубий тавсияномалар мавжуд.

Мактабгача ёшда саломатлик, тўлақонли жисмоний ва психик ривожлантириш пойдевори, 3-6 ёшлар оралиғида одатлар ва феъл-атворларга хос хусусиятлар шаклланади, шу даврда, муаллифлар фикрига кўра, болаларда зарур ҳаракат кўникмалари айниқса яхши ўзлаштирилиб, мустаҳкамланади.

Бизнингча, мазкур муаммоларнинг ҳал этилиши болалар жисмоний тарбияси тизимини такомиллаштиришда ҳам илмий-назарий жиҳатдан, ҳам амалий жиҳатдан катта аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Вильчковский Э.С. Педагогические основы процесса формирова-ния двигательной подготовленности детей 3-7 лет: Дис... д-ра. пед. наук. - Киев, 1989.- 427 с.
2. Вопросы психологии ребёнка дошкольного возраста: Сборник статей / Под редакцией А.Н Леонтьева, А.В Запарожеца – М.,1995. – 144 с.
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Под ред. Давыдова В.В. -М.: Педагогика, 1991.- 480 с.
4. Ноткина Н.А. Развитие двигательных качеств у детей дошкольно-го возраста. Игры и упражнения. - СПб., 1995.- 64 с.
5. Общение детей в детском саду и семье./ Под редакцией Т.А. Репи-ной, Р.Б. Стеркиной. -М.: Просвещение. - 1990. - 152 с.

O‘QUVCHILARGA “MODDA VA UNING TUZILISHI” MAVZULARINI O‘TISHDA “IJODIY FIKRLASH” KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Z.M. MURTAZAYEV, Z.T. AVULOVA, H.P. SOATOV
1-Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga “Tabiiy fanlar”ni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bosh miyalarining o‘ng yarimsharlarini faollashtirib “nostandart fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarni o‘rganilgan. Bu ayniqsa “Modda va uning tuzilishi” bobini o‘qitishda yaxshi natija berish mumkin. Suvning – suyuqlik, bug‘ va muz holatlarini tasavvur qilishni osonlashtiruvchi kichik odamchalar modelidan foydalanilgan. Maqolada suv uchun “Agregat holatlari” intellekt xaritasi keltirilgan.

Аннотация. В статье исследуются возможности развития навыков «нестандартного мышления» путем активации правых полушарий мозга учащихся при преподавании предмета «Естествознание» младшим школьникам. Особенно это может оказаться полезным при преподавании главы «Вещество и его строение». Используется модель небольших фигурок, позволяющая легче представить состояния воды – жидкости, пара и льда. В статье представлена интеллектуальная карта совокупных состояний воды.

Abstract. The article explores the possibilities of developing “non-standard thinking” skills by activating the right hemispheres of students’ brains during the teaching of “Natural Sciences” to primary school students. This can be especially effective in teaching the chapter “Matter and its structure”. A model of little people was used to make it easier to imagine the states of water – liquid, vapor and ice. The article presents an intelligence map “States of Aggregate” for water.

Kalit so‘zlar. Tasavvur, ijodiy fikrlash, standart, nostandart, ko‘nikma, boshlang‘ich sinf, Tabiiy fan, bosh miya, neyron tolalari, idrok, analogiya, metafora, modda, tuzulish, bevosita, bilvosita, intellekt xarita, suyuqlik, suv, bug‘, baholash.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot, aqlli robotlarning ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida dunyo hamjamiyati oldida vujudga kelgan ba’zi muammolarni ijobiy hal qila oladigan ta’lim tizimini yaratish ehtiyoji vujudga keldi. Bu tizimidan ijodiy fikrlash ko‘nikmalariga ega, muammolarni kreativ yechishni biladigan mutaxassislarni tayyorlash talab qilinadi. Aynan fikrlash ko‘nikmalari kishilarni donoroq va zamonaviy muammolarni yechishga layoqatli qilishi mumkin.

Ta’lim sohasini transformatsiya qilish jamiyat farovonligini ta’minlashi mumkin bo‘lgan eng sermahsul usul hisoblanadi. U ta’lim jarayonida ma’lumotlarni verbal ko‘rinishdan vizual, animatsion vizual ko‘rinishga o‘tkazishni taqozo qiladi. Chunki inson miyasi vizual ma’lumotlarni verbal ma’lumotlarga nisbatan oltmish ming marta tez qayta ishlaydi va demak o‘quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirishga yordam beradi [1].

Bugungi kunda ta’lim tizimida ommalashgan ijodiy fikrlashga o‘rgatuvchi usullar anchagina. Ular jumlasiga 1970 yilda Garvard universitetining huquq maktabida qo‘llanilgan “Case-study”, “Hamkorlikda o‘qitish”, “Cooperativ learning”, “Birgalikda o‘qitish (Learning together)”, E.Bononing “Olti shlyapa”, “Fikrlashning besh etapi”, G.Altshullerning “Ixtiro masalalarini yechish nazariyasi” (IMEN) usuli, “Muammoli ta’lim”, “Loyihali ta’lim”, “O‘xshashlik

diagrammasi", "Aqliy hujum", "SWOT tahlili" va boshqalar kiradi[2].

Ular asosan mantiqiy (standart) fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Metodlar. Standart fikrlash (standart thinking – standart – namuna, me'yor, o‘lcham) belgilangan qoidalarga, odatlarga muvofiq fikrlashdir. U sabab va oqibat voqealar zanjiriga muvofiq amalga oshirilib barcha fikrlovchilar asosan bir xil natijaga keladilar.

Ya'ni mantiqqa, analizga asoslangan bunday ijodiy fikrlashda qo‘yilgan muammoning amaliy yechimi topiladi. Ko‘pincha u oldingi bilimlarni yangi vaziyatga qo‘llanilishining natijasi bo‘ladi. Ayniqsa bu texnika, tabiiy fanlar muammolarini yechishda qo‘l keladi. Bunday fikrlashda nimadan boshlash va qanday natijaga kelish ma'lum va hech qanday xavf-xatar bo‘lmaydi. Standart fikrlash – hamma kabi "qolipda" (quti ichida) fikrlashdir. Standart fikrlash oson va qulay chunki bunday fikrlash o‘zgalar o‘tgan "fikrlash" so‘qmog‘idan yurishdir. Bunday fikrlash ko‘nikmalariga ega kishilar – injiner, tadbirkor, siyosatchi, yaxshi topshiriqlar ijrochisi bo‘lishlari mumkin. Lekin buyuk kashfiyotchi bo‘lishlari qiyin. Chunki standart fikrlash imkoniyati cheklangan va bunday fikrlash ko‘nikmalariga egalar o‘z odatlarini, dunyoqarashlarini o‘zgartirishlari juda qiyin.

Fan va texnikaning jadal taraqqiyoti esa nostandart fikrlovchi mutaxassislarga ehtiyojni oshirmoqda. Nostandart fikrlash ham ta'lim jarayonida shakllanadi. Ammo bu muammoga hozircha yetarli e'tibor berilmagan. Jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga "Tabiiy fanlar"ni o‘qitish davomida o‘quvchilarning bosh miyalarining o‘ng yarimsharini faollashtirib "nostandart fikrlash" elementlarini o‘rgatish masalasi o‘rganilmagan.

Nostandart fikrlash ((non-standart thinking) inglizcha – qutidan chiqish) – noodatiy yo‘llar bilan erkin ijodiy fikrlash jarayonidir. U muammoni yechishning g‘ayrioddiy usullarini topishdir. Hozirgi paytda nostandart fikrlashga katta qiziqish bildirilmoqda. Chunki kompyuterlarga ham standart (chiziqli) fikrlash usullarini o‘rgatish mumkin. Demak tez orada sun'iy intellektli, standart fikrlovchi robotlar paydo bo‘ladi. Inson faqat nostandart fikrlash ko‘nikmalari bilangina robotlardan ustunligini saqlab qolishi mumkin. Chunki robotlarga nostandart fikrlash elementlarini o‘rgatishning imkoni yo‘q.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yoshi (7-11 yoshlar) ijodiy faollik uchun eng qulay hisoblanib, bu davrda o‘quvchilar tabiatiga ko‘ra qiziquvchan bo‘ladilar. Aynan shuning uchun ham o‘quvchilarga nostandart fikrlash ko‘nikmalari rivojlantirish imkoniyat yuqori bo‘ladi.

Bolalarning ilm olishga ishtiyoqlari yuqoriligidan foydalanib bu imkoniyatdan unumli foydalanish lozim. Buning uchun mashg‘ulotlarni turli o‘yinlar va interfaol usullarda tashkil qilib o‘quvchilarning doimiy ravishda diqqatlarini jamlashga erishmoq zarur. Katta emotsiya uyg‘otadigan mashg‘ulotlarda bilimlar o‘quvchilarning barcha sensor kanallari orqali, qiziqish va emotsiyalari bilan qabul qilinadi. Emotsiya esa bolaning tasavvurini kengayishiga va demak "ijodiy fikrlash" ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Sperri Rodjerning miya yarim sharlari haqidagi nazariyasiga muvofiq [3]:

chap yarimshar - nutq, matematik amallar, sabab-oqibat munosabatlari, rejalashtirish, tahlil, mantiqiy fikrlash, standart fikrlash;

o‘ng yarimshar - tasavvur, analogiya, metafora, intuitsiya, fazoviy fantaziya, orientatsiya, musiqa, rang sezgilari, nostandart fikrlash uchun mas'uldirlar.

Bosh miya yarimsharlarining birlikdagi

faoliyaiga “to‘la fikrlash” (whole brain thinking) deyiladi [4].

Odamda 90 mlrd neyron bor. Bosh miya po‘stlog‘ida – 30 mlrd neyron bor. Malumotlar bosh miya po‘stlog‘ida joylashadi. U qancha katta bo‘lsa ma’lumotlarni qayta ishlash imkoni ham shuncha katta bo‘ladi.

Bosh miyaning ikkita yarimsharlardan iborat ekanligi organizmning simmetriklikligi (ikkita ko‘z, ikkita qo‘l, ikkita oyoq).

Miyaning faoliyati neyronlar orasidagi aloqalar bilan belgilanadi.

Biror yarim sharning faol ishlashi ikkinchi yarim sharning ham faollashiga ya’ni yarimsharlarning birgalikdagi faoliyatiga olib keladi va bunda bolaning intellektual imkoniyatlari keskin ortadi [4]. Masalan, tilni o‘rganish bolaning boshqa intellektual qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi. Har qanday yangi ma’lumotni miya oldin o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan solishtiradi (assotsiatsiya – tasavvur, his-tuyg‘u, firklarning bir-birlarini eslatadigan o‘zaro bog‘lanishlar). Ya’ni, biror narsani eslash uchun uni miyadagi ma’lumotlar bilan solishtiradi. Buning uchun esa tasavvur zarur [5].

Bu ayniqsa tashqi olam haqida olinayotgan ma’lumotlarni o‘rganishda yaxshi namoyon bo‘ladi. Dj.Kunios va M.Biman magnit rezonans tomografiyasi (MRT) yordamida olgan ma’lumotlariga ko‘ra miya vizual ma’lumotlarni qayta ishlashni, ya’ni ularni tahlil qilishni fikrlashdan 300 ms oldin boshlaydi [6]. Demak, fikrlash boshlanishidan oldin miyada yangi va oldin mavjud bo‘lgan ma’lumotlar tahlil qilinadi va tasavvur shakllanadi. Shu maqsadda verbal ma’lumotlarni vizuallashtirishning samarali usuli “Intellekt xarita” (Mind Map) lardan foydalanish yaxshi natija beradi [7]. Undan foydalanish 10-11 yoshli bolalar uchun ham ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki u bosh miya o‘ng yarim sharini faollashtiruvchi usul bo‘lib, bolalarning har ikkala bosh miya yarim sharlaridan ham unumli foydalanishlari, “to‘la fikrlash” jarayoniga erishishlarini ta’minlaydi [8]. Intellekt xaritani tuzish o‘quvchilarga ma’lumotlarni solishtirish, ular orasidagi yangi bog‘lanishlarni (assotsiyalar), o‘xshashliklarni (analogiya) topish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda yangi g‘oyalar tug‘ilishi, diqqatlarini jamlash, muammoning asl mag‘zini aniqlab olish imkonini beradi [9].

Solishtirib o‘rganish uchun analogiya va metafora muhimdir.

Analogiya – yunoncha moslik, o‘xshashlik. Biror narsa yoki jarayonni o‘rganishimizda ularni miyamizda oldin mavjud bo‘lgan ma’lumotlar (shablon) bilan solishtirib fikrlaymiz. Solishtirish quyidagi hollarda bo‘lishi mumkin: solishtiriladigan «narsa»ning mavjudligi; solishtiradiganning, ya’ni «shablon»ning mavjudligi; solishtiriladiganning solishtiradigan bilan «solishtirish belgilari»ning mavjudligi.

Sterenberg iborasi bilan aytganda u ilmiy yutuqlarimizning aksariyatining negizida yotadi [10]. Analogiya mexanizmini «agar shunday bo‘lsa unda...» degan ibora harakatga keltiradi. Masalan, turli narsalar, hodisalar va jarayonlar o‘zlarining ba’zi xarakteristikalari bilan mos kelsa, demak, ularning boshqa xarakteristikalari ham mos kelishi mumkin.

Metafora (yunoncha – ko‘chirish). U. Gordon analogiyalarni izlash va metaforalarni esa ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari deb bilgan.

Ong – insonning fikrlash faoliyati uning olamni va o‘z-o‘zini bilish sohasidagi yutuqlari, maqsadlarni qo‘yishi, his qilish uchun javob beradi. Lekin uning ishining asosiy qismi ong ostidan keladigan ichki turtki (impuls) va talablarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Zamonaviy odam asosan ong bilan ishlashga harakat qiladi. Bu

holat esa qiyin muammolarga javob topishi va qaror qabul qilinishini osonlashtiradigan intuitsiya va shunga o‘xshash boshqa funksiyalarni “mudrash” rejimiga o‘tkazdi.

Ong osti – inson hayotini to‘laligicha aniqlaydi. U o‘z-o‘zini asrash instingti, barcha organlarning hamohang ishlashi va boshqalar uchun javob beradi. U hayot davomida to‘plangan barcha ma’lumotlarni xronologik ketma-ketlikda, his-hayajonli tarzda saqlaydi. U insonni ba’zan intutitsiya yordamida eng qiyin sharoitlardan ham chiqishiga yordam beradi.

Biror muvaffaqiyatlarga erishish uchun ong va ong ostining hamkorligiga erishmoq darkor. Bu uning qo‘yilgan maqsad muhimligiga ongostini ishontirish kerak. Agar u muammoni qabul qilsa birdan uni yechishga kirishadi. Inson esa buni go‘yoki “omad kelishi” sifatida qabul qiladi.

Bolalikda katta taassurot qoldirgan voqea ongostida shu payt nuqtai nazaridan saqlab qolinadi va kelgusi hayotga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, xotira ham ongosti qaramog‘ida bo‘ladi. Unda sensor kanallari orqali keladigan ma’lumotlar (hayotimiz haqidagi film) «suratga olinib» saqlanadi. Bu «filmlar» ma’lum voqealar ta’sirida tiklanishi mumkin. Intellekt xarita nostandart fikrlash vositasi sifatida ong va ong osti ma’lumotlarini qo‘zg‘atib, ong va ongosti o‘rtasida muvofiqlik, uyg‘unlik bo‘lishini ta’minlaydi. Shunday ekan, ta’lim jarayonida ko‘proq nostandart fikrlash usullarini o‘rgatish kerak. Aynan ular idrok qilinadigan barcha ma’lumotlar shu ichki olam ta’sirida talqin qilinishiga asos bo‘ladilar va ulkan energiyaga ega fikrlash imkoniyatlarini yangiliklarni yaratishga yo‘naltiradilar.

Fikrlash va tasavvur orasida chambarchas bog’liqlik mavjud. Shuning uchun ham o’quvchilarning fikrlashlarini rivojlantirish uchun ularga tasavvur qilishga undovchi topshiriqlar berish lozim. Bular:

- nostandart savollarga diqqat qaratish;
- nostandart g’oyalarni qo’llab-quvvatlash;
- o’quvchilarga ularning g’oyalari qimmatga egaligini bildirish;
- mustaqil o’rganish uchun qulay imkoniyatlar yaratish va buning uchun ularni rag’batlantirish;
- baholanmaydigan amaliyot va o’qish uchun vaqt qoldirish.


Tasavvur qilish uchun miyaga ma’lumotlarni idrok beradi.

Idrok – ma’lumotlarni qabul qilib miyada tahlil qilish jarayoni. U tashqi olamdagi narsalar va hodisalarni baholab, shunga mos harakat qilish imkonini beradi. Narsalar yoki atrofda ro’y berayotgan real voqealar haqida sensor kanallari orqali olinayotgan ma’lumotlar asosida qilinadigan idrokka bevosita idrok deyiladi. Yozma, og’zaki va boshqa (vizual) shakllarda beriladigan ma’lumotlarni idrok qilishga bilvosita idrok deyiladi [11].

Rasmda “Tasavvur” intellekt xaritasi keltirilgan [12].

Shu bilan birga idrokka ichki tuyg’ular, mavjud tajribalar qanday ta’sir ko’rsatadi degan masala juda qadim zamonlardan olimlarning diqqat markazida bo’lgan. Bu masala tabiiy fanlar – o’rganish obyekti tabiat qonunlari, ya’ni inson faoliyati natijasida hosil bo’lmagan qonunlar bo’lgan fanlar uchun ayniqsa muhimdir. Chunki bu toifaga kiruvchi fizika, kimyo, biologiya fanlarini o’rganishda olinadigan bilimlarning asosiy qismi bilvosita olinadi. Bilvosita bilim inson sezgi a’zolarini kuchaytirish yoki kuzatishni osonlashtirish bilan olinadigan bilimdir. Bunga tajriba o’tkazish va modellashtirish yordamida olinadigan bilimlar misol bo’ladi. Shu bilan birga bu bilimlarni tahlil qilish uchun insonga fikrlash va tafakkur qilish qobiliyati berilgan.

Natijalar. Tabiiy fanlar (science) ning



1-rasm. Tasavvur intellekt xaritasi.

“Modda va uning tuzilishi” bobini o’tishda o’quvchilarning tasavvur qilish qobiliyatlariga tayanishga to’g’ri keladi [13]. Mashg‘ulotlarda kompyuterlardan foydalanish ham ko‘plab mavzularni vizuallashtirish imkonini beradi. Bunda ko‘rish mumkin bo‘lmagan jarayonlar haqida tushunchalar berishga to‘g‘ri keladi. Tabiatda ro‘y beradigan jarayonlar: yomg‘ir yoki qorning yog‘ishi, haroratning o‘zgarishi kabi hodisalarda ro‘y beradigan jarayonlarni kompyuter yordamida vizuallashtirish bilan namoyish qilish mumkin. Ma’lumki ma’lumotlar bo‘ladigan jarayonlarning ma’nosini tushunish, mulohaza yuritish orqali qabul qilinsa xotirada mustahkam o‘rnashib oladi. Agar jarayonlar modellashtirish ya’ni animatsiyalar yordamida namoyish etilsa bu o‘quvchilarning tasavvurlari, va demak “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarining rivojlantirishga yordam beradi.

Inson bilvosita bilim olish uchun ko’plab usullardan foydalanadi. Bu usullar quyidagilar:

1. Ideallashtirish – ba’zi cheklanishlar bilan ideal obyekt hosil qilinadi va u yordamida real obyektning xossalari o’rganiladi, jarayon tasavvur qilinadi.

2. Modellashtirish–analogiyaga asoslangan usul. Bunda o’rganish qiyin bo’lgan obyekt unga o’xshash, lekin o’rganish qulay bo’lgan boshqa obyekt bilan almashtiriladi. Modelni o’rganishdan olingan bilimlar dastlabki obyekt uchun qo’llaniladi. Bu usul bevosita o’rganish qiyin bo’lgan obyektlarni o’rganish uchun ishlatiladi. Masalan, KOM (kichik odamchalar modeli), usuli [14].

Tabiiyki, o’quvchilar uchun molekulalarni kichik odamchalar sifatida tasavvur qilish moddalarning agregat holatlari va undagi jarayonlarni tasavvur qilishni osonlashtiradi.

3. Eksperiment (ilmiy tajriba) – bevosita bilish qiyin bo’lgan obyektni o’rganish usuli. Bunda inson sezgi organlarini kuchaytiruvchi yoki kuzatishni osonlashtiruvchi asboblardan foydalaniladi.

Ma’lum sharoitlarda modda bir agregat holatdan boshqasiga o‘tadi. Bu o‘tishlar

intellekt xaritada ko‘rsatilgan.

Moddaning agregat holatlari (lotincha agrego–birlashtiraman) – bir xil moddaning (suvning) temperatura va bosimning turli intervallaridagi holatlari bo‘lib uning gazsimon (bug‘), suyuq (suv) va qattiq (muz) holatlari tushuniladi.

Moddaning qattiq (kristall) holatdan suyuq holatga o‘tishiga erish deyiladi.

Suvning suyuq holatdan gaz holatiga o‘tishiga bug‘lanish, teskarisi esa kondensatsiya deyiladi. Misol uchun, bug‘lanish – suvning bug‘lanishi, teskarisi esa – havo tarkibidagi bug‘larning shudringga aylanishidir.



2-rasm
Moddalarning agregat holatlari

KOM yordamida moddalarning turli agregat holatlariga o‘tishlarini vizual ko‘rsatish o‘quvchilarning bu jarayonlar haqidagi tasavvurlarining va to‘la fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishini ta’minlaydi.

Kichik odamchalar modeli (KOM) yordamida o‘quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirish

KOMning mohiyati nimada? Bu modelning kiritilishiga qanday ehtiyoj bor? Bu model yordamida bug‘ holati qanday tushuntiriladi? Suvning holatichi? Muz holatichi? Bu agregat holatlaridagi odamchalar nimalari bilan farq qiladilar? Ularni qanday tasavvur qilasiz? KOM modeli yordamida suyuqlikning gaz holatiga o‘tishi va teskari jarayonni tahlil qiling. Bu jarayonlar haqidagi tasavvuringizni aytib bering. Model yordamida qattiq jismning suyuq holatga o‘tishi va teskari jarayonni tahlil qiling. Bu jarayonlar haqidagi tasavvuringizni ayting. O‘tish jarayonida nima uzatiladi va nima yutiladi? Unga o‘xshatish (analogiya) keltiring. O‘zingizning KOMga o‘xshash modelingizni taklif qiling.

Suv, bug‘, muz holatlarini tasavvur qilish uchun Intellekt xaritadan foydalanamiz.

O‘quvchilarning modda va uning xossalari bobini o‘rganish davomida to‘la fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish tavsiya qilinadi:

- suvning muz holatini KOM yordamida o‘rtoqlaringiz bilan ko‘rsatib bering. Suvning muz holatiga beshta misol keltiring. Muz necha gradusda suyuq holatga o‘tadi? Muz suyuq holatga o‘tishi uchun nima qilish kerak? O‘rtoqlarinigiz bilan suyuqlik holatini KOM yordamida ko‘rsatib bering. Muzning suv holatiga o‘tishiga nima deyiladi? Suvning muz holatiga o‘tishgachi? Suvni qizdirsak nima bo‘ladi? Bug‘ holatini KOM yordamida ko‘rsatib bering. Suvning bug‘ holatiga o‘tishiga nima deyiladi? Bug‘ning suv holatiga o‘tishigachi? Intellekt xaritaga o‘z o‘zgartirishingizni kiriting. Suvning holatiga bog‘liq hikoya yoki ertak tuzing. Suvning bu holatlari qaysi yil fasllari bilan bog‘liq? Shu fasllar haqida she’r, hikoya, ertak ayting. Har bir faslning rasmini chizing.

Har bir topshiriq 10 ballik sistemada baholanadi. Bunda asosiy e’tibor bolaning fantaziyasiga, tasavvurining kengligiga, ijod



3-rasm. “Agregat holatlar” intellekt xaritasi.

mahsulida yangiliklarni, ayniqsa g‘ayrioddiy fikrlarni olg‘a surishiga analogiya, metafora va intuitsiya elementlarining mavjudligiga qaratilmog‘i lozim.

8-10 ball – o‘quvchining to‘la fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanganlik holati a’lo.

6-7 ball – o‘quvchining to‘la fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanganlik holati yaxshi.

3-5 ball – o‘quvchining to‘la fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanganlik holati qoniqarli.

0-3 balldan kam – o‘quvchining to‘la fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanganlik holati qoniqarsiz.

Munozaralar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy timsoli fikrlash imkoniyatlari yuqoriligidan foydalanib 4-sinf o‘quvchilariga “Modda va uning tuzulishi” bobini o‘qitishda bolalarning tasavvurlarini rivojlantirish mumkin. Bu maqsadda kichik odamchalar modelidan foydalanish va suvning – suyuqlik, bug‘ va qattiq holatlarini tahlil qilishga imkon beruvchi intellekt xaritadan foydalanish yaxshi natija beradi. O‘quvchilarning qo‘yilgan savollarga javoblarini baholash ularning “to‘la fikrlash” ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajalarini ko‘rsatadi.

Xulosa

Raqamli iqtisodiyot, aqlli robotlarning ishlab chiqarishga joriy qilinishi ta’lim tizimi oldiga “nostandart fikrlovchi” mutaxassislarni tayyorlash muammosini qo‘ydi. Bunday mutaxassislarni tayyorlash esa o‘quvchilarning yoshligidan “tasavvurlarini” rivojlantirishni taqozo qiladi. Buning uchun 4-sinf o‘quvchilariga Tabiiy fanlar (science) ning “Modda va uning xossalari” bobini o‘tishda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ruhiy holatlariga ko‘ra tasavvurlari va “to‘la fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori ekanligi asoslangan.

- O‘rganiladigan jarayonlar atrofdagi tabiatda ro‘y berayotganligi va moddalarni “kichik odamchalar modeli” bilan tushuntirish o‘quvchilarda ularni tasavvur qilishlariga yordam beradi.

- O‘tish holatlarini tasavvur qilish uchun “bilvosita idrok” muhim. “Bilvosita idrok” esa tasavvurni va demak, “nostandart

fikrlashni” taqozo etadi;

- O‘quvchilarning tasavvurlari va nostandart fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beruvchi, “Agregat holatlari” intellekt xaritasi keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Медина Д. Правила Мозга. – М., Манн, Иванов и Фербер. 2014 г.
2. Боно де Эдвард. Серьёзное творческое мышление. – Минск ООО Попурри, 2015 г.
3. Сперри Роджеру. Функциональная специализация мозга. 1964 г.
4. G’aniyev A.G. BOSH MIYA YARIMSHARLARINING MUTAXASSISLIKLARGA ALOQADORLIK INTELLEKT XARITASI. Proceedings of Global Technovation6th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Chicago, USA.Vol. 22 No. 1 (20): GTIMSC-6 2021
5. Ғаниев А.Г. Тасаввурни ривожлантиришда мия фаолияти. Сенсор каналлари интеллект харитаси. Интернаука Научный журнал – № 16 (192) 2021 г. Часть 4 ISSN: 2687-0142.
6. Джон Куниос и Марк Биман. Момент эврики. Алфа-реакции, творческие инсайты и мозг. marieclare.ua 2017 г.
7. Бьюзен Т. Интеллект карты. – Москва, МАНН, Иванов и Фербер Глава Что такое интеллект карта? – М., 2019 г.
8. Зденек М. Развитие правого полушария. Издательство Попурри, 2004 г.
9. Бюзен Т. Супермышление. 2-е издание.–Минск, Попурри, 2003 й.
10. Немов Р.С. Психология книга 3. – Москва, Владос, 2005 г.
11. Оконь В. Основы проблемного обучения. – М., Просвещение, 1988г.
12. Ғаниев А.Г. Физика фанини ўқитишда билвосита идрокнинг аҳамияти. Сенсор каналлари интеллект харитаси. ТДПУ Илмий Ахборотлари. – 3 сон, 2021 й.
13. “Tabiiy fanlar” 4-sinf kitobi
14. Меерович М.И., Шрагина Л.И. Технология творческого мышления. – ХАРВЕСТ, Минск, 2003 г.

PARALLEL KORPUSLARNING PAYDO BO‘LISHI VA ULARNING TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA ISHLATILISHI

AXMEDOVA ANORXON NASIVALI QIZI
O‘zDJTU v.b. dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada korpus tilshunosligi va parallel matnlar asosida tarjima tadqiqotlarini olib borishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Parallel korpuslarning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, tuzilishi va segmentlash jarayonlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, parallel korpuslardan foydalanishning mashina tarjimasi, lug‘at tuzish, terminologiya rivoji va tarjima sifatini oshirishdagi ahamiyati o‘rganilgan. Mashhur parallel korpuslar – CORTRAD, COMPARA va OPUS korpuslari misolida amaliy tajribalar tahlil qilingan. Annotatsiyalash, muqobillashtirish va konkordans aniqlash jarayonlarining ilmiy asoslari bayon etilgan. Tadqiqotda parallel korpuslarni yaratish, ularni tahlil qilish va tadqiqotda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan metodologik yondashuvlar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: parallel korpus, tarjimashunoslik, segmentlash, muqobillashtirish, mashina tarjimasi, leksikografiya, korpus tilshunosligi, COMPARA, CORTRAD, OPUS.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of conducting translation research based on corpus linguistics and parallel texts. It discusses the origins, development stages, structure, and segmentation processes of parallel corpora. The study highlights the significance of using parallel corpora in machine translation, dictionary compilation, terminology development, and improving translation quality. Practical experiences with well-known parallel corpora – CORTRAD, COMPARA, and OPUS – are examined. The processes of annotation, alignment, and concordance identification are scientifically substantiated. The research outlines methodological approaches necessary for compiling, analyzing, and applying parallel corpora in linguistic studies.

Keywords: parallel corpus, translation studies, segmentation, alignment, machine translation, lexicography, corpus linguistics, COMPARA, CORTRAD, OPUS.

Kirish qism

So‘nggi yillarda korpus tilshunosligining jadal rivojlanishi, xususan, lingvistik materiallarni qayta ishlashda statistik va hisoblash metodlariga e’tiborning ortishi, turli tillarda tuzilgan parallel yoki o‘xshash matnlardan foydalanishga asoslangan ko‘plab ilmiy izlanishlarning amalga oshirilishiga turtki bo‘lmoqda. Ushbu ilmiy jarayonda korpus lingvistikasi doirasida shakllanayotgan va asta-sekin tarjimashunoslikning ajralmas komponentiga aylana borayotgan yo‘nalishlardan biri – parallel matnlar masalasiga alohida e’tibor qaratish dolzarbdir.

Parallel matnlar korpus lingvistikasining tarkibiy qismi sifatida, alohida ilmiy sohaga aylanib borayotgan bo‘lsa-da, ularning tarixiy ildizlari ancha qadimga borib taqaladi. Jumladan, eramizdan avvalgi 196-yilda Misrda joylashgan ibodatxonalar tomonidan qirolicha Ptolemey V sharafiga yozilgan matnlar yunon va qadimgi misr tillarida toshga o‘yib yozilgan. Bu matnlar, hozirgi ilmiy atama bilan aytganda, parallel matnlarning eng qadimgi va mukammal namunasi hisoblanadi. Ya’ni, asl matn bir necha tilga tarjima qilinib, parallel ko‘rinishda ifodalangan.

Mazkur yodgorlik ilm-fanga Rozetta toshi nomi bilan kirgan. 1822-yilda mashhur fransuz olimi Jan-Fransua Shampollion

Rozetta toshini tahlil qilish orqali qadimgi misr iyeroglif yozuvi sirlarini ochishga muvaffaq bo‘ldi. Uning ochiqlashicha, toshdagi yozuvlarning bir xil mazmuni ikki tilda ifodalangan bo‘lib, bu holat tarjima orqali qadimgi tilni o‘rganish imkonini yaratgan. Shampollionning tadqiqotlari natijasida qadimiy yozuvlar haqidagi ko‘plab bahs-munozaralarga nuqta qo‘yilgan, afsonaviy taxminlarga esa ilmiy asos keltirilgan.

Asosiy qism

Rozetta toshi xronologik jihatdan boshqa tosh yozuvlardan keyin yaratilgan bo‘lsa-da, u matnning to‘liqligi, strukturaviy uyg‘unligi va ikki tilda parallel ravishda berilganligi bilan boshqa epigrafik manbalarga nisbatan yuqori ilmiy qiymatga ega bo‘lib, parallel matnlar tarixining yuksak namunasi sifatida e’tirof etiladi.

O‘n to‘qqizinchi asrning saksoninchi yillaridagina parallel matnlar tilni avtomatik qayta ishlash tizimida ishlatila boshlandi. Ularni ishlatish uchun bir nechta urinishlar 50-yillarning oxirida mashina tarjimasida sinovdan o‘tkazildi. Ammo cheklangan ma’lumotlar ombori va kompyuter sig‘imi shu yillardagi kompyuterlarning saqlash va hisoblash imkoniyatlari katta hajmdagi matnli ma’lumotlarni kiritishning qiyinligi o‘sha paytda korpusdan foydalanish imkoniyatlarini cheklagan.

Keyinchalik korpus tarkibiga tarjima namunalarini saqlash, qayta ishlash va tahrir qilish kabi turli tadqiqotlar o‘tkazish kabi g‘oyalar paydo bo‘ldi. O‘tgan asrning 70-yillari oxirida matnni parallel avtomatik muqobillashtirishning birinchi avtomatik usuli Martin Kay va Martin Roscheisen[1] tomonidan 1987 yilda ishlab chiqilgan. Ular katta hajmli va turli darajadagi matnlarni muqobillashtirish uchun bir qancha usullar taklif qilishgan, ya’ni ular bir-birini tarjima qiladigan birliklarni ishlab chiqqan. Bu birliklarga paragraflar, jumlalar, so‘zlar va iboralarni kiritishgan.

Muqobillashtirilgan parallel matnlarning qo‘llanilishi Harris[2] tomonidan taklif qilingan. U taklif etgan nazariya tarjima xotiralarini tuzish, lug‘atlar va ikki tilli atamalar ro‘yxatini tuzishni o‘z ichiga oladi. Harris parallel korpuslar tillararo ma’lumot olish, kompyuter yordamida o‘qitish yoki qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik uchun tadqiqot manbasi sifatida xizmat qiladi, degan nazariyani ilgari surgan.

Parallel korpusga tegishli bo‘lgan atamalar lug‘ati ko‘p bo‘lmasa ham, u bilan bog‘liq bir qancha o‘ziga xos terminlar mavjud. Xususan, jahonning bir qancha olimlari o‘z tadqiqotlarida parallel korpusni ta’riflaganlar: “Tarjima bilan bog‘liq matnlar to‘plami”, “matnlar o‘rtasidagi parallellikni ko‘rsatadigan ikkita (yoki undan ko‘p) subkorpora”[3] ;

“funksional jihatdan o‘xshash (asl) matnlar to‘plami (ikki yoki undan ortiq tillarni ichiga qamrab oladi)”[4] ;

“dastlab A tilda yozilgan matnlar va ularning B tildagi tarjimalari (va C ...)”[5] .

1 Kay M., Roscheisen M. Text-translation alignment. Computational Linguistics, 1993. № 19 (1), – P. 121-142.

2 Harris B. Bitexts: A new concept in translation theory. Language Monthly, 1988. № 54. – P. 8-10.

3 Ebeling Jarle. “The Translation Corpus Explorer: A browser for parallel texts”, in: Stig Johansson and Signe Oksefjell (eds.). Corpora and cross linguistic research: Theory, method, and case studies. – Amsterdam: Rodopi. 1998. – P. 101-112.

4 Hartmann R.K.. “From contrastive textology to parallel text corpora: theory and applications”, in: R. Hickey and S. Puppel (eds.), Language history and language modelling. Festschrift in honor of Jacek Fisiak’s 60th birthday. – Berlin: de Gruyter, 1997.

5 Teubert W. “Comparable or parallel

Bizning fikrimizcha, parallel korpuslar zamonaviy tarjima tadqiqotlari uchun tadqiqotchining ishini osonlashtiruvchi, o‘rganilayotgan ikki til materiallarini korpus bazasida tadqiq qilish, korpus annotatsiya, metama’lumotlardan foydalanish va ikki tilda konkordansni aniqlashda qo‘llaniladigan korpus turidir.

Har qanday parallel korpus yaratish loyihasining birinchi bosqichi mos keladigan parallel yoki qiyosiy matnli material saralab olishdir. Bu loyihaning birinchi bosqichi, ko‘pincha katta sabr-toqat va uzoq vaqt talab qiladi, chunki u mualliflik huquqini rasmiylashtirishni, matn terish yoki skanerlash va xatoliklarni tuzatishni o‘z ichiga oladi. Ba’zan parallel va qiyosiy korpuslar yaratish uchun avtomatik ma’lumotlar yig‘iladi. Bunda asosan WWW (World Wide Web) materiallari – haqiqiy alternativ sifatida qaraladi. URL va parallel HTML ni belgilab olish lozim. Keyinchalik Resnik parallel korpusga identifikator filtrini qo‘shdi.

Til sohalarida ko‘p tilli bo‘lishning ahamiyati oshdi, global bozorlar va butun dunyo bo‘ylab ma’lumot almashish, parallel matndan foydalanish parallel korpuslarni tadqiq qilish va ulardan olinadigan natijalarni mukammallashtirishni taqozo qildi. Parallel matnlar ba’zan bitexts – ikki tilli yoki tillar soni ikki tildan ortiq bo‘lsa multitext – ko‘p tilli deb ataladi. Bugungi kunda parallel matnlarning soni va qamrovi tobora ko‘payib bormoqda, ularda elektron hujjatlarni saqlash va arxivlash vositalari yaxshilanganligi tufayli turli firmalar va www ko‘p tilli hujjatlarni o‘z ichiga qamrab olgan parallel korpuslardan foydalanmoqda.

Parallel korpusda bajariladigan amallarni takomillashtirish yuzasidan ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ulardan Martin Kay va Martin Roscheisen , Gale va Church , Resnik , Brovn, Lai va Mercerlar parallel korpus yaratish bosqichlari, yo‘llari xususida o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan. Key va Roscheisenning fikricha, tarjimada gaplar bir-biriga mos kelishi uchun, avvalo, so‘zlar muqobilligiga erishish lozim, ya’ni leksik xaritalash (ingliz tilida lexical mapping) uchun matnlar muqobillik darajasini ikki tilda moslashtirish lozim. Ularning fikricha, ikki tilda matn so‘zlarining muqobilligiga erishish oson emas va bu muqobillik adekvat bo‘lmasligi mumkin, lekin parallel korpusdagi izlangan so‘zning bir qancha matndagi ma’nolarining berilishi orqali tadqiqotning o‘rganish jarayoni osonlashadi.

Parallel korpus yaratishda yana bir muammo shundaki, bitta tushuncha bir tilda bitta so‘z bilan ifodalansa, ikkinchi tilda ikki yoki undan ortiq so‘z bilan ifodalanishi mumkin. Original matnda fikr qisqa jumla bilan ifodalangan bo‘lsa, tarjima matnida uzun jumla vositasida ifodalanishi mumkin.

Parallel korpus bir yoki bir nechta tillarga tarjima qilingan bir xil matndan iborat bo‘ladi. Matnlar muqobillashtirilgan, ya’ni mos keladigan segmentlar, jumlalar bilan bog‘langan bo‘ladi. Korpus tarjimalarni qidirish yoki qiyoslash uchun bir yoki ikkala tilda qidirish imkonini beradi.

Muhokamalar va natijalar

Parallel korpus – bu matnlar to‘plami bo‘lib, ularning har biri asl nusxadan bir yoki bir nechta boshqa tillarga tarjima qilingan variantlari jamlangan holda beriladi. Parallel korpuslar tuzilishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi: sodda va ko‘p tilli parallel korpuslar.

1. Sodda parallel korpuslarda faqat ikkita til qatnashadi: korpuslardan biri boshqasining aniq tarjimasi bilan segmentlanadi.

corpora”, in: J. McH. Sinclair, J. Payne and C. P. Hérnandez (eds.), Special issue of International journal of lexicography, 9(3). 1996. – P. 238-264.

URL – ресурс манбанинг интернетдаги манзили ҳисобланади.

2. Ko‘p tilli parallel korpuslarda matnlar bir necha tillardagi tarjimalari bilan birga beriladi.

Parallel korpus yaratishda so‘zlar, jumlalar muqobillashtiriladi. Bu jarayon ingliz tilida alignment atamasi bilan beriladi. Parallel korpusni yaratish uchun korpus matnlarini segment birliklarga bo‘lish talab etiladi. Segment birliklar muqobillashtirilgan so‘z yoki jumlalar bo‘lib, parallel (ko‘p tilli) korpusning bo‘linadigan qismlari hisoblanadi. Muqobillashtirilgan so‘z yoki jumla korpusda bitta tilda qaysi segment boshqa tildagi qaysi segmentning tarjimasi ekanligi haqida ma’lumotni bildiradi. Segmentlar qanchalik qisqa bo‘lsa, tarjima qilingan so‘z yoki iborani segmentdan oson topish imkonini beradi. Segmentlar, odatda, jumlalar holida beriladi, lekin ba’zi korpuslarni paragraf yoki hujjat darajasida muqobillashtirish mumkin. Parallel korpus uchun muqobillashtirish ma’lumotlarni taqdim etishning eng oson yo‘li – ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida yuklashdir. Jadval odatda Excel dasturi yordamida tayyorlanadi.

Parallel korpusni yaratish uchun manba matni va uning tarjimasini moslashtirish kerak. Bu shuni anglatadiki, asl matndagi jumlalar, iboralar va so‘zlarning juftligini yoki to‘plamini va ularning boshqa tillardagi tarjimalarini aniqlash kerak bo‘ladi. Matnni parallel ravishda muqobillashtirish juda muhim, chunki tarjima jarayonida tarjimon maqsadli tilda tabiiy tarjima yaratish uchun jumlalarni ajratish, birlashtirish, o‘chirish, kiritish yoki tartibini o‘zgartirish mumkin. Parallel korpus matnlarini segmantlash jarayonining murakkablik darajasi korpusga yuklanayotgan matn turiga bog‘liqdir. Masalan, rasmiy, ilmiy-texnikaviy va publitsistik matnlar tarjimasida so‘zlarni segmentlash badiiy matnlarga nisbatan osonroqdir, chunki yuqoridagi uslublarga mansub matnlar tarjimasida turli tansformatsiyalar va tarjima texnikalaridan kamroq foydalangan holda matn barcha detallari bilan birga tarjima qilinadi. Badiiy uslubda bo‘lsa matnlarni segmentlash biroz murakkablik kasb etadi, chunki badiiy tarjimon har bir asarni o‘zining qalb prizmasidan o‘tkazgan holatda tarjima qiladi va bu jarayonda turli xil ekstralingvistik omillarni, stilistik vositalarni, qahramonlar va peyzaj tasvirini tarjima qilinayotgan tildagi bor imkoniyatlardan foydalangan holda tarjima qiladi. Badiiy tarjimon ritseptorga tarjimaning qanday ta’sir qilishini hisobga oladi. Badiiy matn tarjimoniga ko‘proq erkinlik berilishi natijasida original matn va tarjima matni o‘rtasida nomutanosibliklar kelib chiqadi bu esa parallel matn yaratuvchisidan tarjima sohasiga doir chuqur bilim, malaka talab etiladi.

Parallel korpuslarni kompilyatsiya qilishda korpusning matnlari uning tuzilish maqsadiga bog‘liq bo‘lgan holda aniq mezonlarga muvofiq tanlanadi. Xususan, matnlarning statik yoki dinamik to‘plamini, to‘liq matnlarni yoki matn namunalarini kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilish kerak bo‘ladi. Muallif hajm, mavzu, janr va uslub talablarini ko‘rib chiqishi lozim. Korpuslarning har qanday turi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) matnlar tabiiy ravishda uchraydigan til ma’lumotlarini o‘z ichiga olishi kerak;


2) unda har xil nutq turlaridan ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Parallel korpuslarning ba’zi namunalariga diqqat qaratamiz. 2009 yilda yaratilgan CORTRAD tarjima parallel korpus tarjimashunoslar hamda pedagoglar uchun zaruriy qo‘llanma hisoblanadi. Unda matnlar lingvistik juftlik tarzda portugal va ingliz tillarida berilgan. COMPARA ikki tomonlama portugal inglizcha parallel korpus bo‘lib, 2011 yilda yaratilgan. Opus korpusi ochiq manba parallel korpusi hisoblanadi.

Parallel korpuslar ichida CORTRAD parallel korpusi o‘zining ko‘p funksiyaga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur korpus San-Paulu universitetining COMET loyihasi asosida yaratilgan bo‘lib, unda ikkita innovatsion funksiya mavjud:

1) bitta matnning turli xil variantlarini solishtirish imkoniyati. Bunda asl matn, qayta ishlangan varianti va nashr qilingan tarjima shaklidan iborat bo‘ladi;

2) qidirilayotgan har bir matn uchun qidiruv mexanizmi mavjud. Bu funksiya matnlarni turiga qarab ajratilgan holda taqdim qiladi.



1.2.1-rasm. *CORTRAD*ning qidiruv tizimi

CORTRAD 3 xil subkorporadan tashkil topgan: jurnalistik, ilmiy va badiiy matnlar. CORTRAD DISPARA dasturidan foydalanadi va tizim interfeysdan oson foydalanishni ta’minlaydi.


COMPARA korpusi ham DISPARA dasturidan foydalanadi. Bu korpus ochiq korpus[6] hisoblanadi. COMPARA Linguateca loyihasi asosida yaratilgan. Bu korpus portugal-ingliz tilidagi badiiy matnlardan iborat. Barcha matnlar jumla darajasida ikki tilda muqobillashtirilgan tarzda berilgan. Tajribali korpus tadqiqotchilari va korpus bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lmagan foydalanuvchi ham birday oson foydalanishi mumkin.

COMPARA korpusining foydalanuvchi uchun noqulay jihati bor, ya’ni bunda qidirilayotgan har bir so‘z qo‘shtirnoq belgisining ichida berilishi kerak. Masalan: “help”, “yourself” kabi.

Keyingi parallel korpus bu Opus[7] korpusi bo‘lib, bu korpus sohalar va tillar jihatidan keng qamrovli bo‘lib, o‘z ichiga bir qancha subkorpuslarni oladi. Mazkur

6 Очиқ корпус бу – фойдаланувчи ва тадқиқотчилар ўзлари ҳам матн қўшиш ва ўз матнларининг таҳлилидан фойдаланиши мумкин бўлган корпус.

7 Қаранг: http://opus.lingfil.uu.se/



1.2.2-rasm. *COMPARA* korpusining qidiruv dasturi



Sub-corpora (downloads & infos):

- ada83 - Ada 83 manuals
- Bianet - Translated Turkish articles
- Bible (uedin) - Collection of Bible translations
- Books - A collection of translated literature
- CAPES - Thesis and dissertation abstracts
- CCAligned - Parallel documents from Common Crawl
- CCMatrix - Parallel sentences from Common Crawl
- DGT - A collection of EU TMs provided by the JRC
- DOGC - Documents from the Catalan Goverment
- ECB - European Central Bank corpus
- EhuHac - Hizkuntzen Arteko Corpusa
- EiTB-ParCC - Parallel Corpus of Comparable News
- Elhuyar corpus
- ELRC public corpora
- EMEA - European Medicines Agency documents
- The EU bookshop corpus
- EUconst - The European constitution
- EUROPARL - European Parliament Proceedings
- EUROPAT - Parallel corpus of patents
- Finlex - Legislative and other judicial information of Finland
- fiskmo - Data from the fiskmö project
- giga-fren - French-English Gigal-Word Corpus
- Global Voices - News stories in various languages
- GNOME - GNOME localization files
- GoURMET - Parallel data from web crawls
- The Croatian - English WaC corpus
- Infopankki
- JRC-Acquis- legislative EU texts
- JW300 multilingual corpus
- KDE4 - KDE4 localization files (v.2)
- KDEdoc - the KDE manual corpus
- MBS - Belgisch Staatsblad corpus
- memat - Xhosa/English parallel data
- MIZAN - A large Persian-English corpus
- MontenegrinSubs - Montenegrin movie subtitles
- MultiCCAligned - Pivot-based Bitexts from CCAligned
- MultiParaCrawl - Non-English Bitexts from ParaCrawl
- MultiUN - Translated UN documents
- MT560 - A large MT dataset for >500 languages
- News Commentary (v11, v9.1,v9)
- OfisPublik - Breton - French parallel texts
- OO - the OpenOffice.org corpus (v2)
- OpenSubtitles - translated subtitles (v1, v2011, v2012, v2013, v2016)
- OPUS-100 corpus
- ParaCrawl corpus
- ParCor - A Parallel Pronoun-Coreference Corpus
- PHP - the PHP manual corpus
- QED - The QCRI Educational Domain Corpus
- Regeringsförklaringen - a tiny example corpus
- The sardware corpus
- SciELO - Artciles from SciELO
- SETIMES - A parallel corpus of the Balkan languages
- SPC - Stockholm Parallel Corpora
- Tanzil - A collection of Quran translations
- Tatoeba - A DB of translated sentences
- TedTalks hr-en
- TED Talks 2013
- TED Talks 2020
- The tico-19 corpus
- The Tilde MODEL corpus
- TEP - The Tehran English-Persian subtitle corpus
- Ubuntu - Ubuntu localization files
- UN - Translated UN documents
- UNPC - The United Nations Parallel Corpus
- WikiMatrix - Parallel sentences extracted from Wikipedia
- Wikimedia - Documents from the Wikimedia Translation project
- Wikipedia - translated sentences from Wikipedia
- WikiSource - (small en-sv sample only
- WMT News Test Sets
- The Xhosa - English Navy corpus

1.2.3-rasm. *Opus* korpusining subkorpuslari

korpusda subkorpuslar ko‘p va ma’lumotlar bazasining hajmi katta, izlangan matnlar interfeysda avtomatik tarzda parallel matni bilan berilgan.

Ushbu veb-sahifada ko‘rsatilgan fayllardan tashqari, Opus oldindan tuzilgan so‘zlarni moslashtirish va iboralar jadvalini, ikki tilli lug‘atlarni, chastotalar sonini ham taqdim etadi va bu fayllarni Opus yuqori darajali veb-saytidagi resurslarni qidirish shakli orqali topish imkoniyatini yaratadi. Opus korpusi natijalarini har qanday kompyuter provayderiga yuklab olish mumkinldigi jihatidan foydalanishga qulay parallel korpus turi hisoblanadi.

Mashina tarjima tizimlari, avtomatik va avtomatlashtirilgan lug‘atlar, terminologik ma’lumotlar banklarini yaratish parallel

matnlarni tadqiq va tahlil qilishni talab qiladi. Parallel matnlar qatorini tanlashda quyidagi vazifalarni hal qilish zarur:

1) lingvistik avtomatni tadqiq qilish hamda parallel korpus yaratishning aniq maqsadi va vazifalarini aniqlash;

2) matnlarning umumiy sonidan ajratilgan namunalarni yaratish. Bunday holda, umumiy matnning uslub jihatidan bir xilligi/ geterogenligini va uning cheklanganligini/ cheksizligini taxminan belgilab olish;

3) yordamchi lug‘atlar – chastotali lug‘atlar va muqobillashtirilgan lug‘atlarni tuzish imkoniyati va zarurligini aniqlash;

Ushbu muammolarni hal qilgandan so‘ng, parallel matnlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil qilishga o‘tishimiz mumkin.

Parallel korpusni yaratishda so‘z boyligini to‘g‘ri tarjima qilish uchun kirish va chiqish tillarining samarali lug‘atlarini yaratish eng asosiy manba hisoblanadi.

Biz parallel korpusga kerakli ma’lumotlarni yig‘ib olganimizdan so‘ng, parallel korpus yaratish jarayoniga o‘tamiz.

Annotatsiyalash va korpusga boshqariladigan qoidalarni kiritish. Kompyuter o‘qish jarayonini ishlab chiqish va bunda izlangan ma’lumotlarni boshqa ma’lumotlardan ajratib olish jarayonini kiritish. Annotatsiyalash jarayoni bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Tokenayzer (Tokenizatsiya) , SGML yoki XML belgilash vositalarini Tjong Kim Sang , so‘z turkumlarini aniqlashni Qiao , Prutz va boshqalar, xatboshilar, jumlalar va so‘zlarni muqobillashtirishni Geyl va Cherch , Xofland va Jonson korpus tahlillari jarayoni sifatida ta’kidlaydilar.

Ma’lumotlarni interfeysga chiqarish, muqobil tarjima variantini ishlab chiqish. Bu bosqichda korpus formatini konvertatsiyalash, parallel korpuslar va muqobillashtirish jarayoni amalga oshiriladi. Parallel korpusda konkordansni aniqlash va muqobillashtirish bilan Barlov , Ebeling , Olsson va Borin kabi olimlar shug‘ullanganlar.

Har qanday parallel korpuslarni yaratishda terminologiya va leksikografiyaning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Tarjimani avtomatlashtirish uchun ko‘p tilli lug‘atlarni, terminologiyani ishlab chiqish va so‘z boyligini kengaytirish kabi ishlar amalga oshirilmog‘i lozim. Dayvik leksik semantikani parallel korpuslarning qay tarzda shakllanishi mumkinligini bildiruvchi boshlang‘ich nuqta deb izohlaydi. Tarjimaning x leksemasi tarjimasi shu tarzda olingan to‘plamdan x ni olib tashlash, yig‘ish ushbu to‘plam a’zolarining tarjimalari va natijani boshqa to‘plamga kiritish yoki bir-biriga mos kelmaydigan tarjimalar to‘plami bo‘lsa, ikkalasiga ham semantik tavsif beriladi. x leksemasining tuzilishi va amalda ishlatilayotgan atamalarning tizimli ro‘yxati x ning turli xil tarjimalari sifatida namoyon bo‘ladi. Avtomatlashtirilgan va morfologik jihatdan birlashtirilgan leksikonga qarab yangi lemmalarni tahlil qilish va tekshirish, yangi atamalar va ularning tarjimalari terminologiyaning boyishiga sabab bo‘ladi.

Teubert 1996-yilda parallel korpuslarda ikki tilda leksikografiyadan foydalanish metodologiyasini taqdim etdi. Teubert o‘z tadqiqotlarida so‘z asosini ajratish va so‘z ma’nosini aniqlashga urg‘u bergan.

Xulosa

1990-yillardan boshlab korpusga asoslangan va korpus asosida shakllangan yondashuvlar barcha tilshunoslik sohalarida inqilobiy o‘zgarishlarni boshlab berdi. Ilk korpus loyihalari, 1960-yillar boshidagi Brown korpusi, bir tilda – asosan ingliz tilida – tuzilgan edi. Keng tarqalgan korpuslar keyingi yigirma yil davomida ham bir tillilikdan chiqa olmagan. Biroq, ko‘p tilli korpuslar sohasida mutlaq ilg‘or tashabbus R. Filipovich tomonidan 1971-yilda “Yugoslav Serb-xorvat–Ingliz kontrastiv

loyihasi”ni amalga oshirgan. Bu loyiha Brown korpusidagi matnlarning yarmi va ularning serb-xorvat tilidagi tarjimalarini o‘z ichiga olgan. Garchi bu korpus tilshunoslar orasida deyarli tanilmagan bo‘lsa-da, u o‘z qiymatini saqlab qolgan, ilk parallel korpus sifatida tilga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kay M., Roscheisen M. Text-translation alignment. Computational Linguistics, 1993. № 19 (1), – P. 121-142.
2. Harris B. Bitexts: A new concept in translation theory. Language Monthly, 1988. № 54. – P. 8-10.
3. Ebeling Jarle. “The Translation Corpus Explorer: A browser for parallel texts”, in: Stig Johansson and Signe Oksefjell (eds.). Corpora and cross linguistic research: Theory, method, and case studies. – Amsterdam: Rodopi. 1998. – P. 101-112.
4. Hartmann R.K.. “From contrastive textology to parallel text corpora: theory and applications”, in: R. Hickey and S. Puppel (eds.), Language history and language modelling. Festschrift in honor of Jacek Fisiak’s 60th birthday. – Berlin: de Gruyter, 1997.
5. Teubert W. “Comparable or parallel corpora”, in: J. McH. Sinclair, J. Payne and C. P. Hérnandez (eds.), Special issue of International journal of lexicography, 9(3). 1996. – P. 238-264.
6. Philip R. “Mining the Web for bilingual text”, in: Proceedings of the 37th annual meeting of the Association for computational linguistics, 1999.
7. Kay M., Roscheisen M. Text-translation alignment. Computational Linguistics, 1993. № 19 (1). – P. 121-142.
8. Gale W.A., Church K.W. A program for aligning sentences in bilingual corpora. Computational Linguistics, 19 (3), 1993. – P. 75-102.
9. Resnik P. Parallel Strands: A Preliminary Investigation into Mining the Web for Bilingual Text, Proceedings of the Conference of the Association for Machine Translation in the Americas (AMTA-98), Langhorne, PA, October, 1998.
10. Brown P.F., Lai J.C., Mercer R.L. Aligning Sentences in Parallel Corpora, Proceedings of the 29th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics. – Berkeley, 1991. – P. 169-176.
11. http://www.fflch.usp.br/dlm/comet/consulta_cortrad.html
12. http://www.193.136.2.104/COMPARA/index.php
13. http://opus.lingfil.uu.se/
14. Tjong Kim Sang Erik. Aligning the Scania corpus. Working papers in computational linguistics & language engineering 18, Department of Linguistics, Uppsala University. 1999. – P. 1–7.
15. Qiao H.L. Comparing the tagging performance between the AGTS and Brill taggers, Working papers in computational linguistics & language engineering 18. Department of Linguistics, Uppsala University, 1999. – P. 9-16.
16. Prütz K. Part-of-speech tagging for Swedish. Working papers in computational linguistics & language engineering 19. Department of Linguistics, Uppsala University, – P. 201–206.
17. Gale William A., Kenneth W., Church. A program for aligning sentences in bilingual corpora: 29th annual meeting of the Association for Computational Linguistics. Proceedings of the conference, Berkeley. – California, 1991. – P. 177–184.
18. Hofland K., Johansson S. The Translation Corpus Aligner: A program for automatic alignment of parallel texts’, in: Stig Johansson and Signe Oksefjell (eds.), Corpora and cross-linguistic research: Theory, method, and case studies. – Amsterdam, 1998. – P. 87–100.
19. Barlow M. ParaConc: a concordancer for parallel texts. Computers & texts, – California, 1995. – P. 20-32.
20. Ebeling Jarle. The Translation Corpus Explorer: A browser for parallel texts, in: Stig Johansson and Signe Oksefjell (eds.), Corpora and crosslinguistic research: Theory, method, and case studies. – Amsterdam: Rodopi, 1998. – P. 101–112.
21. Olsson L,. Borin L. A web-based tool for exploring translation equivalents on word and sentence level in multilingual parallel corpora. – Theory of Translation at the University of Vaasa, 2000. No. 27. – P. 76–84.
22. Helge D. A translational basis for semantics, in: Stig Johansson and Signe Oksefjell (eds.). Corpora and cross-linguistic research. Theory, method and case studies. – Amsterdam: Rodopi, 1998. – P. 51–86.
23. Teubert W. Comparable or parallel corpora: International journal of lexicography, 1996. № 9. – P. 238–264.